




**ANTIFER TOG'ANING
AJOYIB VA G'AROYIB
SARGUZASHTLARI**

Jyul Vern



ANTIFER TOG'ANING

AJOYIB VA G'ARDYIB
SARGUZASHTLARI

Jyul Vern

Nizomiy nomli

T D P U

kutubxonasi

TOSHKENT
«ADABIYOT UCHQUNLARI»
2019₁

Y-8925/1

UO'K: 811.202

KBK: 86.34

V – 63

Vern, Jyul

Antifer tog'aning ajoyib va g'aroyib sarguzashtlari: roman.
Ikkinchi kitob. Jyul Vern. – Toshkent: Adabiyot uchqunlari,
2019. – 264 bet.

ISBN 978-9943-4990-8-9

**Ruschadan
ERKIN MIROBIDOV
tarjimasi**

UO'K: 811.202

KBK: 86.34

ISBN 978-9943-4990-8-9

© Jyul Vern, «Antifer tog'aning ajoyib va g'aroyib sarguzashtlari». «Adabiyot uchqunlari», 2019-yil.

IKKINCHI QISM

BIRINCHI BOB

*Jyuelning Enogatga yo'llagan, qahramoni
Antifer tog'a bo'lgan sayohatlarni
hikoya qiluvchi mazmundor xati*

Antifer tog'a jo'nab ketgandan buyon Sen-Maloning Ot-Sall ko'chasidagi uy fayzi ketib, kimsasizdek huvillab qolgandi. Ona-bola bechoralarning tunu kunlarni qanday tashvish-xavotir bilan o'tkazganlarini asti qo'yaverasiz! Jyuelning xonasi bo'shab qolganidan Enogatning nazarida butun uy odamni yutib ketayotgandek tuyulardi. Buning ustiga Antifer tog'a ham yo'q, Tregomen mehmonga kelmasdi.

29-aprel ham yetib keldi. «Stirsmen»ning xazinalar orolini zabt etishdek qaltis o'y bilan safarga chiqqan uch maluinni olib yo'lga tushganiga ikki oy, ha-ha, ikki oy bo'ldi. Ularning safari qanday o'tayotganiykin? Qayerdaykin ular hozir? Ko'zlagan manzillariga yeta olganmikinlar?

– Oyi... oyijon, ular endi qaytishmaydi! – deb ta’kidlardi qizgina.

– Noumid bo’lma, jon bolam... ishon... albatta qaytib kelishadi! – deb javob berardi onasi. – Aslida borishmagani yaxshiydiku-ya, albatta...

– Ha, ayniqsa Jyuel bilan ikkovimizning to’yimiz bo’lay deb turgan paytda-ya, – deya pichirlab qo’yardi Enogat.

Kezi kelganda shuni ham aytib o’taylik, Antifer tog’aning jo’nab ketishi butun shahar ahlida katta taassurot qoldirgan edi. Hamma uning trubkasini tishlab, qal’a ko’tarmasi bo’ylab, ko’chalar va Sillon sohilbo’yi ko’chasidan aylanib yurishiga juda o’rganib qolgan edi. Uning ketidan doim syurtugi g’ijimlangan, hamisha tizzalari do’ppayib turadigan, qirg’iy burun, muloyim, oq ko’ngil, chehrasi doim xotirjam Jildas Tregomen borardi.

Jyuelni aytmayszmi, olisga suzadigan kema kapitani bo’lmish bu yosh yigit bilan butun ona shahri faxrlanardi, uni Enogatdan kam sevmas, aniqrog’i o’z farzandiday yaxshi ko’rardi. U ham endi «Bayif va K°» savdo xonadoniga qarashli uch machtali ajoyib kemandi kapitani yordamchisi qilib tayinlay deb turganlarida safarga jo’nab ketdi.

Hozir qayerdaykin uchovlari? Bu haqda hech kim hech narsa bilmasdi. Faqat «Stirmsen» ularni Port-Saidga eltib tashlaganigina ma’lum edi. Sayyohlarning Qizil dengizdan o’tib, Hind okeanining shimoliy sohillarigacha suzib borishlari kerakligini yolg’iz Enogat bilan Nanongina bilardi. Antifer tog’a Binni Umarning taxminan bo’lsa-da, mashhur orolning qayerdaligini bir amallab sezib

olmasligi uchun hech kimga o'z sirini aytmay oqilona ish qilgan edi.

Shunga qaramasdan, garchi ularning qayerga borishini hech kim bilmasa-da, biroq maqtanchoq, og'zida gap yotmaydigan, dilkash va ulfati odam bo'lgan Antifer tog'aning rejalari hammaga ayon edi. Sen-Maloda ham, Sen-Servanda ham, Dinarda ham – xullas hamma yoqda Komulk poshsho tarixi, bir vaqtlar Tomas Antifer olgan maktub, bu maktubda aytilgan xabarchining yetib kelgani, orolning geografik uzunligi va kengligi aniqlangani, o'sha orolga ko'milgan yuz millionlik – ba'zi yaqindan xabardor kishilarning ta'kidlashicha yuz milliard – boylik haqidagi gaplar og'izdan og'izga ko'chib yurardi. Shu sababli butun shahar xazinani izlash haqidagi yangi xabarlarni, to'satdan behisob olmos hamda duru javohirlarga ega bo'lib, badavlat nabobga aylanib qolgan, yaqinga suzadigan kema kapitanining qaytishini sabrsizlik bilan kutardi.

Enogat boylikni xayoliga ham keltirmasdi. Faqat o'zlari: qaylig'i, tog'asi, do'sti salomat qaytsalar bo'lgani, quppa-quruq qaytishsa ham mayliga! Shunda baxti kulib boqadi, Tangriga shukronalar o'qiydi, butun tashvish-nadomatlari behad quvonchga aylanadi!

Bu suluv qiz Jyueldan xat olib turdi, albatta. Suesdan jo'natgan birinchi xatida u safarlari qanday o'tgani, amakisining kayfiyati, uning tobora serjahl bo'lib borayotgani, oldindan kelishib qo'yilgan joyga o'z vaqtida yetib kelgan Binni Umar bilan uning gumashtasiga amakisining qanday munosabatda bo'lgani haqida batafsil yozgandi.

Maskatdan yuborgan ikkinchi maktubida Hind okeani bo'ylab imomat poytaxti sari suzib borishdagi qiyinchiliklarni, Antifer tog'aning hayajoni aqldan ozish darajasigacha yetib qolganini, shuningdek, Soxorga qiladigan safarlari haqida yozgan edi.

Enogat Jyuelning maktublarini qanchalik ishtiyoq va chanqoqlik bilan o'qiganini tasavvur qilish qiyin emas. Jyuel o'z xatlarida sayohatlari tafsilotlari hamda amakisining kayfiyati haqida hikoya qilibgina qolmay, erta-indin to'ylari bo'lay deb turganida sevikli qaylig'idan ayrilib, hijron o'tida qovrilayotgani va qalbi tilka-pora bo'lib o'rtanayotganini to'kib-solardi, biroq oralarida shunchalik olis hijron yo'li yotganiga qaramay, tez orada diydor ko'rishishajagi hamda amakisi millionlar bilan qaytgan taqdirda ham undan rozilik olishdan umidvor ekanligi haqida yozardi. Enogat bilan Nanon uning maktublarini qayta-qayta o'qishardi-yu, lekin javob xati yoza olishmas, ko'ngillarini bo'shatish imkoniyatidan bebahra edilar. Shuning uchun ham ular bu maktublarni o'qisharkan, o'zlaricha turli taxmin, turli xayollarga borishar, sayohatchilarning olisdagi dengizlarda yana necha kun bo'lishlarini barmoq bukib sanashar, devordagi kalendarni kunba-kun o'chirishardi. Nihoyat oxrigi maktubni olgach, sayohatning ikkinchi bosqichi tez kunda boshlanadi – sayohatchilar uyga qaytishadi degan umid butun vujudlarini qamrab oldi.

Uchinchi maktub 29-aprelda, Jyuel safarga jo'nagandan keyin ikki oy o'tgach kelgan edi. Konvertdagi Tunis regentligining muhrini ko'rib Enogatning yuragi xursandlikdan gurs-gurs

ura boshladi. Demak sayohatchilar Maskatdan jo'nashibdi... ular allaqachon yevropa suvlariga kelib qolishibdi... ular Fransiyaga qaytishayotgan ekan... Marselga qanchada yetib kelisharkin? Uch kundan ortiq vaqt ketmaydi. U yerdan ekspressga chiqishsa Sen-Maloga qanchada yetib kelishadi? Yo'l yigirma olti soatdan ortmaydi.

Xat tashuvchi ketgach, ona-bola eshikni ichkaridan zanjirlab olib, pastdagi xonalardan birida o'tirishardi. Bu yerda ularning o'y surishlariga hech kim xalal bermaydi.

Enogat ko'z yoshlarini artadi, konvertni ochib, ichidan xatni oldi-da, har bir so'zni dona-dona qilib, baland ovoz bilan o'qiy boshladi:

**«TUNIS REGENTLIGI, LA-GULLET,
1862-yil, 22-aprel.**

Azizam Enogat!

Avvalo onangga, keyin senga alangali salom yo'llayman. Hanuz bir-birimizdan qanchalar olisdamiz, bu oxiri ko'rinmaydigan sayohatimiz qachon tugarkin?!

Men ikki marta xat yozdim, bu xatlarimni olgan bo'lsang kerak, albatta. Bu uchinchi xatim ancha muhimroq, chunki sen bundan meros masalasi amakimning baxtiga qarshi kutilmaganda tamoman o'zgarib ketganini bilib olasan...»

Enogat quvonganidan qarsak chalib, bunday xitob qildi:

– Oyi, ular hech nimani topisholmabdi, endi men shahzodaga tegmaydigan bo'ldim!..

– U yog'ini o'qi, qizim, – dedi Nanon.

Enogat davomini o'qishga kirishdi:

– «...shunday qilib, ming karra afsus bilan senga shuni aytib qo'yishim kerakki, endi biz boylikni olislardan... ha, juda olisdan izlashga majburmiz...»

Enogatning qo'lidagi xat titray boshladi.

– Izlashni davom ettiramiz... juda olisdan! – deb pichirladi u. – Ana endi sirayam qaytishmaydi ular, oyijon... sirayam qaytishmaydi!..

– O'zingni bos, qizim, dadil bo'l, davomini o'qi, – dedi Nanon.

Enogat ko'ziga jiq-jiq yosh olib, yana xatni o'qishga tushdi. Jyuel Ummon ko'rfazidagi orolda sodir bo'lgan ishlarni, ko'rsatilgan joydan boylik o'rniga faqat yangi bir hujjat topishganini va unda yangi bir geografik uzunlik xabar qilinganini umumiy tarzda hikoya etgandi. Davomida Jyuel mana bunday deb yozgandi:

«Azizam Enogat, amakimning qanday umidsizlikka tushganini, qanchalar darg'azab bo'lganini hamda – xazinani topolmaganimiz uchun emas, Sen-Maloga jo'nashimiz, sening yoningga qaytishim yana ortga suriladigan bo'lgani sababli – naqadar xafa bo'lib ketganimni bir tasavvur qilsang edi! Nazarimda yuragim tors yorilib ketgudek bo'ldi...»

Hozir Enogatning yuragi qinidan chiqib ketay deb turar va shu tufayli Jyuelning qanchalar iztirob chekkanini yaxshi tushunardi.

– Sho'rlik Jyuel! – deb shivirladi qiz.

– Bechora bolaginam, – dedi onasi. – Davomini o'qi, qizalog'im.

Enogat hayajondan entika-entika davomini o'qiy boshladi:

– «Komulk poshsho bu la'nati yangi uzunlikni tunislik Zambuko degan bankchiga yetkazishni buyuribdi. Kenglikni, yangi kenglikni ko'rsatuvchi raqamlar esa o'sha bankchida ekan. Bundan ko'rinib turibdiki, xazina boshqa bir orolga ko'milgan. Aftidan poshsho bu odam oldida bir vaqtlar unga katta xizmat ko'rsatgan bobomiz Antifer kabi o'zini bir umr qarzdor sezgan bo'lsa kerak, shu sababli poshsho o'z boyliklarini ikkala merosxo'rga bo'lib berishga ahd qilgan. Bundan ko'rinib turibdiki, ikkala merosxo'rning ulushi ikki hissa kamayadi, albatta. Ana shuning uchun qanchalar darg'azab bo'lganini (kimligini o'zing yaxshi bilasan) asti qo'yaverasan! Yuz million o'rniga atigi ellik million tegadigan bo'ldi-da, endi!.. O, qani endi o'sha tanti misrlik yuz minggina meros qoldirgan bo'lsa, ana unda amakim arzimas bu boylikka ega bo'lgach, bizning nikohimizga to'sqinlik qilmasmidi!»

Shunda Enogat:

– Sevishganlarga pulning nima keragi borakan!
– deb qo'ydi.

– Aslo keragi yo'q, pul aksincha xalaqit beradi! – dedi Nanon qat'iy ishonch bilan. – Davom et, jon bolam!

Enogat onasining so'ziga itoat etib, yana xatni o'qishga tutindi.

– «...Amakim bu hujjatni o'qishga tusharkan, kalovlab qolganidan sal bo'lmasa yangi geografik uzunlikni bildiruvchi raqamlar bilan orolning qayerdaligini aniqlash masalasida uchrashishi zarur bo'lgan odamning turar joyini ham ovoz chiqarib

aytib yuboray dedi. Yaxshiyamki, o'z vaqtida esi joyiga kelib qoldi.

Gap boshqa bir orolni izlash haqidaligini fahmlagan do'stimiz Tregomenning afti shunday bujmayib ketdiki, asti qo'yaverasan. Aytmoqchi, azizam Enogat, biz u bilan tez-tez seni eslab turamiz.

«Bo'tam, o'sha poshsho tushmagur bizni mazah qilganmi deyman? U bizni dunyoning narigi chekkasiga yubormoqchi bo'lgan bo'lsa-ya tag'in?» — dedi u menga.

Bordi-yu, chindan ham bu orol dunyoning biror chekkasida bo'lsa-ya? Ushbu xatni yozib turgan chog'imda ham buni aniq bilmaymiz.

Gap shundaki, amakim Binni Umarga ishonmaydi, shuning uchun ham hujjatdagi axborotni sir saqlayapti. Bu dog'uli notarius Sen-Maloda firib berib, sirini bilib olmoqchi bo'lganidan beri amakim unga ishonmay qo'ygan va notariusdan har xil hiyla-nayrang ishlatadi deb shubhalanadi. Balki, u yanglishayotgandir, ochig'ini aytganda, menga gumashtasi Nozim ustozidan ko'ra shubhaliroq ko'rinadi. Bu sovuq va vahshiyona qiyofali Nozim na menga, na Tregomenga yoqadi!

Shunga imoning komil bo'lsinkim, Bey ko'chasidagi bizning notariusimiz janob Kallosh bunaqa nus'hani ikki dunyoda mahkamasiga yo'latmagan bo'lardi. Shu narsaga aminmanki, agar Binni Umar bilan Nozim o'sha Zambukoning qayerda yashashini bilganlarida bizdan oldinroq uning huzuriga yetib olishga harakat qilishlari turgan gap edi. Biroq amakim bu haqda hatto bizlarga ham og'iz ochmadi. Binni Umar bilan

Nozim Tunisga ketayotganimizni hatto xayoliga ham keltirishmaydi. Mana endi, Maskatdan yo'lga chiqar ekanmiz, poshshoning havoyi rejalari bizni qaylarga eltarkin, deb so'raymiz o'z-o'zimizdan».

Enogat biroz jim qoldi.

– Bu nayranglar yoqmayapti menga, – deb qo'ydi Nanon.

Keyin Jyuel orqaga qaytishda sodir bo'lgan voqealarni – oroldan jo'nashlari bormi, tilmoch Selikning muhojirlar ikki qo'lini burniga tiqib qaytganlarini ko'rib qanchalik hafsalasi pir bo'lgani yaqqol ko'rinib turgani bormi (endi u ko'rfazga qilgan sayohatlari shunchaki sayr ekaniga ishongan edi), karvon bilan Maskatga qaytayotganlaridagi chekkan azoblari bormi, Bombeydan keladigan aloqa kemasini jig'ibiyron bo'lib ikki kungacha kutganlari bormi, barini yozgan edi.

«Maskatdan senga boshqa xat yozmadim, – deb qo'shimcha qilgandi Jyuel, – chunki biror yangilikni bilib, senga yozib yuborish niyatida edim. Biroq, hozircha hech qanaqangi yangilik yo'q, faqat birgina narsani bilaman, xolos: Suesga qaytyapmiz, u yerdan esa Tunisga qarab yo'l olamiz».

Enogat o'qishdan to'xtab, norozi qiyofada bosh chayqab o'tirgan onasiga qarab qo'ydi. Onasi shunday deb pichirlardi:

– Ishqilib, dunyoning narigi chekkasiga ketib qolishmasinda! G'ayri din kofirlardan har narsani kutish mumkin!

Bu ajoyib ayol sharq xalqlari haqida salb yurishlari davridagidek so'zlardi. Buning ustiga, halol, pokiza Xudojo'y breton ayoli nazarida

bekordan-bekor keladigan bu millionlar «xosiyatsiz» bir narsaday bo'lib tuyulardi. Bu haqda Antifer tog'aning oldida bir gapirib ko'rsin edi!

Maktub davomida Jyuel Maskatdan chiqib Sueiga qilgan sayohatlarini, Hind okeanidan hamda Qizil dengizdan qanday suzib o'tganlarini, Binni Umarning dengiz kasalligidan rosa iztirob chekkanini tasvirlagan edi.

– Bu kunidan battar bo'lsin! – dedi Nanon.

Nihoyat Per-Servan-Maloning g'amga tolгани va butun safar davomida undan bir og'iz ham gap ololmaganlari haqida yozgandi.

«Azizam Enogat, amakimning qay ahvolga tushishini bilolmay qoldim, agar uning kutgani, orzulari puchga chiqadigan bo'lsa, u faqat aqldan ozishi mumkin. Shunday aqlli va shunday did-farosatli odamdan buni kim ham kutgandi deysan! Oqibatda u millioner bo'ladimi?.. Ana unda kimdan umid qilamiz?.. Boylik vasvasasiga kim ham dosh bera olardi?.. Biroq, sen bilan ikkimiz, harqalay, bu vasvasaga qarshi dosh bera olamiz, chunki butun hayotimiz – oramizdagi sevgimizdir!

Suesdan Port-Saidga qarab yo'l oldik, u yerda Tunisga jo'naydigan savdo kemasini kutishimiz kerak edi. Amakim anavi la'nati hujjatni topshirishi lozim bo'lgan bankchi Zambuko o'sha yerda istiqomat qiladi.

Biroq, amakimga ma'lum uzunlikni bildiruvchi raqamlar va Zambukodagi kenglikni bildiruvchi raqamlarni qo'shgandan keyin yangi orolning geografik o'rnini aniqlab, uni qayerlardan izlarkimiz? Hamma gap ana shunda, bu g'oyatda muhim

masala, chunki bizning Fransiyaga qaytishimiz... Yoningga qaytishimiz shunga bog'liq...»

Enogatning qo'lidan xat tushib ketdi, Nanon uni yerdan oldi.

Qiz yaqin kishilarining ming lelab olislarga ketishini, begona yurtlarda izg'ib, dahshatli xavf-xatarlarni boshdan kechirajaklarini yaqqol tasavvur etib turardi, balki ular umrbod qaytishmas... Qiz qalbidan beixtiyor alam nidosi otilib chiqdi.

– Eh, tog'a... tog'a, sevgan kishilaringiz boshiga buncha qayg'u-malomatlar solmasangiz!

– Uni aybsitmaylik, yomon otliqqa chiqarmaylik, qizim, qo'y, Xudo o'z panohida asrasin, – dedi Nanon.

Ona-bola bir necha daqiqa indamay qolishdi, ikkovlari ham Tangridan faqat bir narsani iltijo qilishardi.

Keyin Enogat yana xatni o'qishga tutindi:

– «16-aprelda Port-Saiddan chiqdik. Tunisga yetgunimizcha hech yerda to'xtashimizning hojati yo'q edi. Dastlabki kunlari Misr sohillari yoqalab suzdik, Iskandariya portini ko'rganida Binni Umarning ko'zlari qanday chaqnab, iltijo bilan tikilganini bir ko'rsang edi!.. O'z ulushidan ham kechib qochib qolsa-ya, deb o'yladim... Lekin o'sha topda gumashtasi paydo bo'lib qoldi, ular o'z tillarida nimalar haqidadir qizg'in suhbatga tushib ketishdi, garchi biz bir og'iz ham so'zlarini tushunmagan bo'lsak-da, uning xo'jayinini aqlini yig'ib olishga majbur qilgani oshkora ko'rinib turardi. Umuman, Binni Umarning Nozimdan qo'rqishi sezilib turadi, shu sababli bu misrlik o'zi aytgandek sira ham gumashta bo'lmasa kerak

degan xulosaga keldik. U qaroqchilarga juda-juda o'xshab ketadi. Xullas, Nozim kim bo'lmasin, uni kuzatib borishga ahd qildim.

Iskandariyadan o'tgach, Tripoli va Gabes ko'rfazlarini janub tomonda qoldirib, Bon burni tomon suza boshladik. Nihoyat ufqda cho'qqilarida bir necha tashlandiq qal'alar qad kutarib turgan, yam-yashil daraxtlar og'ushiga cho'mgan, ikkn-uch marobuti¹ bo'lgan kimsasiz Tunis tog'lari ko'zga tashlandi. 21-aprel kuni kechqurun Tunis sohillariga yetib keldik va ertasiga biz tushgan kema La-Gulett to'lqin to'sari yonida langar tashladi.

Azizam Enogat, garchi Tunisda Ummon ko'rfazidagi oroldagiga qaraganda senga anchagina yaqin bo'lsam-da, baribir mendan qanchalar olisdasan. Yana kim biladi, bir-birimizdan bundan ham olislashib ketamizmi hali... Ochig'ini aytganda, bir-birovingdan besh le naridamisan yoki besh ming lemi, baribir qo'msash, sog'inish ich-etingni bir xilda kemirarkan! Lekin noumid bo'lma va yodingda saqla: bu safarimiz qanday oqibat bilan tugamasin, ko'pga cho'zilmaydi.

Ushbu xatni La-Gulettga tushishimiz bilanoq aloqa bo'limiga topshirish uchun hozir kayutada yozib o'tiribman. Bir necha kundan keyin u sening qo'lingga borib tegadi. Albatta, u seni eng muhim narsadan — peshonamizga yana qaysi yurtlarda kezish yozilganidan xabardor etolmaydi. Ammo-lekin hozircha buni amakimning o'zi ham bilmaydi. Buni bizning Tunisga kelishimiz hayajonga solishi mumkin bo'lgan o'sha bankchi bilan uchrashib, axborot almashganlaridan keyin bilsa kerak. Katta

¹ Marobut — kichkina masjid.

boylikning yarmi osmondan tushgandek qo'liga tushajagini ko'rgach o'z ulushidan kechmasligi va biz bilan birgalashib orolni izlagani yo'lga otlanjagi turgan gap. Ehtimol, amakimga o'xshab u ham vasvasaga tushib qolar...

Harqalay ikkinchi orolning koordinatlarini bilishim bilanoq – uni albatta bilib olaman, chunki orolning qayerga joylashganini geografik xaritadan aniqlashim kerak-ku – sira hayallamay senga xabar qilaman. Balki, to'rtinchi xatim uchinchisi ortidan tez borib qolar.

Oldingi yozgan hamma xatlarim kabi u ham oyingga va senga do'stimiz Tregomenning chin yurakdan chiqqan salomini, mening hamda amakimning otashin salomini yetkazajak. Amakimga qarab turib, uning olamdagi hamma narsani – Sen-Maloni ham, o'zining qo'hna qadrdon uyini ham, bu uyda istiqomat qiluvchi aziz kimsalarini ham unutib yuborgan, deb o'ylash mumkin.

Menga kelsak, sevimli yorim, senga qalbidagi butun muhabbatimni yo'llayman! Agar javob xati yoza olganingda sen ham xuddi shunday qilgan bo'larding-ku, axir!

Umri boricha senga vafodor va seni jondan sevuvchi

Jyuel Antifering».

IKKINCHI BOB

*Kitobxon bu bobda Antifer
tog'aning vorisdoshi bilan tanishish
sharafiga musharraf bo'ladi*

Tunis sohillariga yetib kelarkansiz, bu Tunis-daman degan gap emas: Yerliklarning qayig'iga tushib, La-Gulett qirg'og'iga suzib o'tishingiz kerak hali.

Aslini olganda bu gavanni gavan ham deb bo'lmaydi, chunki katta hajmdagi kemalar u yoqda tursin, hatto o'rtacha hajmdagi kemalar ham sohilga yaqinlasholmaydi, u yerga faqat kichik-kichik yaqinga qatnaydigan kemalar va baliqchilar barkaslarigina taqalib bora oladi. Yelkanli va savdaloqa kemalari ochiq dengizda langar tashlaydilar; bu yerda kemalarni sharqiy shamollardan tog'tizmalari to'sib tursa, g'arb yoki shimoldan keladigan dahshatli bo'ron hamda po'rtanalardan ularni hech narsa asrolmaydi. Bu yerda har qanday kema, hatto harbiy kemalar ham kira oladigan chinakam port qurishning allaqachon vaqti yetgan; buning uchun regentlikning shimolidagi Bizerta portini kengaytirish yo bo'lmasa Bair ko'lini dengizdan ajratib turgan tilni kesib, o'n kilometr uzunlikda kanal qazish lozim.

Yana shuni aytib o'tish zarurki, Antifer tog'a va uning hamrohlari La-Guletgga o'tganlaridan keyin ham hali Tunisga yetganlaricha yo'q edi. Ular italyan kompaniyasi tomonidan qurilgan kichikkina Rubattino temir yo'l shoxobchasida qatnaydigan poyezdga chiqishlari kerak edi.

Bu temir yo'l shoxobchasi Bair ko'lini aylanib o'tib, cho'qqisida fransuzlarning avliyo Lyudovik butxonachasi² cho'qqayib turgan Karfagen tepaligi etagidan o'tardi.

Sayohatchilarimiz sohilbo'yi ko'chasidan o'tgach, La-Gulettning yakka-yu yagona keng ko'chasiga chiqib qolishdi. Gubernatorning hashamdor uyi, katoliklar ibodatxonasi, qahvaxona, xususiy uylar – bularning hammasi yaxlitiga qaralganda zamonaviy yevropa shaharining bir dahasini eslatardi. Sharqqa xos koloritning dastlabki belgilarini ko'rish uchun sohil tomonga o'tib, ba'zai bey (Tunis hukmdori) dengizda cho'milish pallasini o'tkazadigan qasrni tomosha qilish kerak edi.

Biroq Per-Servan-Maloni sharq koloriti va Regul, Ssipion, Sezar, Katon, Mariya hamda Ganniballar³ haqidagi afsonalar aslo qiziqitirmasdi. U umuman bu mashhur odamlarning nomini bilarmidi? Bilganida ham ona shahrining shon-shuhrati bilangina qanoatlanib qolavergan oq ko'ngil Tregomen singari odamlardan eshitgandi, xolos. Butun fikri-yodi bugungi kunning g'am-tashvishi bilan band bo'lmaganida, faqat Jyuelgina tarixiy xotirotlarga berilishi mumkin edi. Yaqin Sharqda odatda faromush odamlar haqida «Bu yelkasiga opichlab olgan o'g'lini izlab yurgan

² Bu yerda Fransiya qiroli Lyudovik IX nazarda tutilgan, u Tunisga qarshi salb yurishi uyushtirgan va 1270-yili qamal qilingan shahar devori yonida vafot etgan. Nasroniy cherkovi Lyudovik IX ni avliyolar qatoriga kiritib, uni jafokash sifatida qayd etgan.

³ Bu yerda nomlari Tunis hududida joylashgan qadimgi Nizomiy nomli Rim va Karfagen davlatlarining tarix bilan bog'liq bo'lgan mashhur sarkardalari hamda davlat arboblari sanab o'tilgan.

odamlardan ekan», deyishadi. Bugungi kunda bu naql Jyuelga juda ham yopishib tushardi. U esa qaylig'ini «izlardi» va Enogatdan yana ham olislab ketaman deb g'am-anduhga botgandi.

Yengilgina chamadonlarini likillatib ko'tarib olgan Antifer tog'a, Jildas Tregomen va Jyuellar butun shaharni bosib o'tib (ular Tunisdan yangi buyumlar sotib olish niyatida edilar), vokzalga yetib kelishdi-da, birinchi yo'lga chiqadigan poyezdni kuta boshlashdi. Binni Umar bilan Nozim, oralarida ma'lum masofa qoldirib, orqalaridan ergashib kelishardi. Antifer tog'a Komulk poshshoning injiqligi hozir hammalarining taqdirini olib kelib taqab qo'ygan kishi – bankchi Zambukoning qayerda istiqomat qilishini ularga aytmagandi, albatta. Bu hol, tabiiyki, Soukni yangi mushkulliklarga solib qo'ygandi. Notariusning ahvoli esa biroz yengilroq edi, chunki merosni bo'lishda u o'z ulushini albatta olardi. Souk endi bitta emas, ikki merosxo'r bilan kurashishi lozim edi. Bu yangi voris qanaqa odamiykin?..

Yarim soat kutganlaridan keyin, sayohatchilarimiz poyezdga chiqib, o'z joylarini egallashdi. Yo'lda ketib borarkanlar, bir necha daqiqa davomida Karfagen tepaligi hamda o'zining arxeologik muzeyi bilan mashhur bo'lgan «Oq ota» monastiri ko'zga tashlanib turdi. Qirq daqiqa yo'l bosib, poyezd Tunisga yetib keldi, maluinlar Dengiz floti xiyobonini bosib o'tib, yevropaliklar dahasining qoq markazidagi «Fransiya» mehmonxonasida to'xtashdi. Deyarli jihozlanmagan, shifti baland uchta xona ularning ixtiyoriga berildi, chivindan saqlanish uchun karavotlarga doka pashshaxona

tutib qo'yilgandi. Pastki qavatdagi hashamdor kattakon restoranda istagan vaqtingizda ovqat topilardi. Xullasi kalom, Tunisdagi «Fransiya» mehmonxonasi Parijdagi yoki boshqa katta shaharlardagi oldi mehmonxonalardan qolishmasdi. Darvoqe, bizning sayohatchilarimiz uchun buning ahamiyati yo'q edi, zeroki ular bu yerda ushlanib qolmoqchi emasdilar.

Antifer tog'a endigina pillapoyadan o'z xonasiga chiqishni hatto istamadi ham.

– Keyinroq shu yerda uchrashamiz, – dedi u o'z hamrohlariga.

– Bor, boraver, qariya, – deb javob berdi Jildas Tregomen. – To'ppa-to'g'ri bostirib boraver.

Rostiga ko'chganda, Antifer tog'ani ana shu «to'ppa-to'g'ri bostirib borish» bezovta qilardi. Binni Umar tog'ani aldamoqchi bo'lganidek, vorisdoshiga hiyla ishlatish niyati yo'q edi, albatta. G'alati fe'liga qaramay, rostgo'y, halol, g'oyatda to'g'ri odam bo'lgan maluin hech qanaqangi hiylanayrangsiz ish ko'rishga ahd qilgandi. To'g'ri bankchining huzuriga boradi-da, bunday deydi:

«Manavini sizga olib keldim... Qani ko'raylikchi, buning evaziga siz nimani taklif etarkinsiz?» Undan keyin shartta yo'lga tushiladi.

Aytganday, oroldan topilgan hujjatning mazmuniga qaraganda yuqorida nomi zikr etilgan Zambuko o'z huzuriga bir kun emas, bir kun Antifer degan kimsaning tashrif buyurishi va uning xazina saqlanayotgan orolning qayerdaligini aniqlash uchun zarur bo'lgan uzunlik raqamlarini olib kelajagi haqida ogohlantiruvchi xat olgan bo'lishi kerak.

Binobarin, uning tashrifi bankchini aslo taaj-jublantirmas.

Antifer tog'a faqat birgina narsadan cho'chirdi, xolos: bordi-yu vorisdoshi fransuzchani bilmasa, unda nima bo'ladi? Zambuko aqalli inglizchani bilsa ham mayli, yosh kapitanning yordamida bu mushkul ahvoldan qutulsa bo'ladi. Lekin bankchi u tilni ham, bunisini ham bilmasa-chi? Unda, noiloj tilmoch orqali muomala qilishga to'g'ri keladi. Bu holda yuz million haqidagi sirdan uchinchi kishi ham voqif bo'ladi...

Antifer tog'a qayoqqa ketayotganini ham-rohlariga ham aytmay, mehmonxonadan chiqarkan, yo'lboshlovchini olivoldi. Ikkovlari ham dengiz floti xiyoboniga borib tutashadigan ko'cha muyulishida ko'zdan g'oyib bo'lishdi.

– Agar unga keragimiz bo'lmasa... – deb gap boshladi Jildas Tregomen tog'a ketgach.

– ...unda sayr qilgani jo'naymiz va dastavval yozgan xatimni aloqa bo'limiga topshiramiz, – deb uning gapini tugatdi Jyuel.

Avval shundoqqina mehmonxona yonidagi aloqa bo'limiga kirib chiqqach, Jyuel bilan Tregomen Bobul Baxra – Dengiz Darvozasi tomon yurishdi va Oq Tunisni o'rab turgan kungurador devor toshini aylanib chiqishdi. Bu devor bemalol fransuzlarning ikki lesicha masofaga cho'zilgandi.

Antifer tog'a mehmonxonadan yuz odimlar chamasi olislashgach, yo'lboshlovchi tilmochdan so'radi:

- Bankchi Zambukoniy taniysizmi?
- Uni bu yerda hamma taniydi.
- Qayerda turadi u?

– Shaharning quyi tarafida, maltaliklar dahasida.

– Meni o'sha yoqqa boshlab boring.

– Bosh ustiga, janob oliylari.

Fransiyada «mse» so'zi qanchalik ko'p ishlatilsa, sharq mamlakatlarida «janob oliylari» degan ibora shunchalik ko'p ishlatiladi.

Shunday qilib, Antifer tog'a quyi shahar tomon yo'l oldi. Ishoning, u har qadamda uchrab turgan diqqatga sazovor joylarga – xoh u koshinkor, baland, hashamatli minoralari osmon ko'ksiga tiralgan ajoyib masjid bo'lsin, xoh qadimgi rimliklar yoki saratsinlardan qolgan xarobalar bo'lsin, xoh xurmo hamda anjir daraxtlari soyasiga cho'mgan so'lim xiyobon, xoh uylari bir-birovi bilan ko'z urishtirayotgandek, ikki betiga tizilib ketgan tor ko'chalar bo'lsin qiyo ham boqmas, nazar-e'tibor ham bermasdi. Bu baland-past ko'chalarning ikki tomonida yarim qorong'i do'konlar tizilib ketgan, ularga anvoyi tur buyumlar uyib tashlangan: oziq-ovqatlar, gazmollar, xilma-xil bezag-u taqinchoqlar qalashib yotibdi. Har dahada – fransuzlarnikimi, italyanlarnikimi yoki yahudiylarnikimi, yoxud maltaliklarnikimi, shunga qarab savdogarlar ham o'shalardan edi... Bularning bari Per-Servan-Maloning ko'ziga ko'rinmas, uning butun fikriyodi Zambukoda, o'zini qanday kutib olishida edi... Yaxshi kutib oladi! Hech qanday shubha bo'lishi mumkin emas!.. Basharti birovga ellik millionni qo'shqo'llab ko'tarib keladigan bo'lsang, imoning komil bo'lsinkim, u seni quloch ochib kutib olishi turgan gap...

Yarim soatlarda maltaliklar dahasiga yetib borishdi. Tunisning bu qismi yuz ellik ming aholisi bor shaharning ozoda qismiga o'xshamasdi, albatta. Umuman, aslida Tunis ozoda shaharlardan emasdi ham, buning ustiga o'sha paytlarda Fransiyaga qaramasdi ham.

Tilmoch ko'chaning yoki, aniqrog'i, bu savdo dahasining oxiridagi eng ko'rimsiz uylardan birining oldida to'xtadi. Tunis kulbalari usulida qurilgan bu uy ham chor burchak bostirmali bo'lib, barcha arab mamlakatlaridagidek ichki hovlili, hamma xonalarining daricha hamda derazalari ana shu hovliga qaragandi.

Bu uyni ko'rgan Antifer tog'a, sohibi xonadon oltinlarining hisobiga yetolmayotgan badavlat odamga o'xshamaydi aslo, degan xulosaga keldi va bu hol ishning muvaffaqiyatli tugashiga yordam bersa kerak, deb o'yladi ichida.

– Bankchi Zambuko rostdanam shu yerda turadimi o'zi?.. – deb so'radi u yo'l boshlovchidan.

– Xuddi shu yerda, janob oliylari.

– Shu bankmi?

– Ha.

– Balki bu bankchining boshqa uylari bordir?

– Yo'q, janob oliylari.

– Xo'sh, u juda badavlat odammi?

– Millioner-ku, u!

– Jin ursin! – deb yubordi Antifer tog'a.

– Lekin shunchalik badavlatligiga qaramay, o'lgudek ziqna, xasis odam! – deb qo'shib qo'ydi yo'l boshlovchi.

– Ming la'nat! – xitob qildi Antifer tog'a.

Shu yerda u o'zini hadeb «janob oliylari» deb ulug'layotgan yo'l boshlovchini jo'natib yubordi.

O'z-o'zidan ma'lumki, Souk sezdirmasdan Antifer tog'a orqasidan qorama-qora bordi. Shunday qilib u Zambukoning qayerda turishini bilib oldi. Biroq u bankchi bilan uchrashib, ishni o'z foydasiga burib yubora olarmikin? Zambuko bilan til biriktirib, Antifer tog'ani oradan siqib chiqara olarmikin? Mabodo Komulk poshshoning vorislari orasida kelishmovchilik chiqib qolsa, bundan biron ish chiqarsa bo'larmikin? Darhaqiqat, Antifer tog'a birdan xatosini payqab qolib, Zambukoning ismidan keyin geografik uzunlikni bildiruvchi raqamlarni o'qimaganida omadi yurishmay qolgan edi-da! Agar o'shanda bu raqamlarni bilib olganida, Souk Tunisga oldinroq kelib, bankchiga katta mukofot va'da qilib, uni o'z tomoniga og'dirib olardi... Ehtimol hamyonini kavlamay ham, aldab-suldab siridan voqif bo'larmidi... Shunda hujjatda Antiferning, faqat uning nomi qayd etilgani, esiga tushib qoldi... Qayd etilsa etilavermaydimi!.. Souk baribir o'z rejalarini o'zgartirmaydi, qanday bo'lmasin nihoyasiga yetkazadi. Maltalik va maluin merosni qo'lga kiritishlari bilanoq har ikkovini ham dog'da qoldirib, boylikni o'marib ketadi.

Per-Servan-Malo bankchinikiga kirib ketdi, Souk esa ko'chada poylab qoldi.

Hovliga kirib chapga burilish bilanoq idora xizmatini o'tovchi bino joylashgan edi. Ichkari hovlida jon zoti ko'rinmasdi. Bu yerda xuddi shu bugun ertalab to'lovlar tugab, bank yopilgandek osoyishtalik hukm surardi.

Biroq shuni bilib qo'yingki – bankchi Zambuko hech qachon sinmagan.

Bu tunislik bankchini bir ko'z oldingizga keltirib ko'ring-a: yoshi oltmishlar chamasida, o'rta bo'y, qotma, asabiy, qaddi bukchayganroq, nursiz sovuq ko'zlari olmakesak terib o'ynab turadi, ko'sa, tusi surrang, namatday patila-patila oppoq sochlari bosh suyagiga yelimlab yopishtirib qo'yilgan taqiyaga o'xshaydi, uzun-uzun, qing'ir-qiyshiq barmoqli qo'llarini ajin bosgan. Yupqa lablarini ochganda shartta uzishga o'rganib qolgan o'tkir tishlarining hali bus-butunligiga qanoat hosil qilasiz.

Antifer tog'a unchalik ziyrak odam bo'lmasada, Zambukoning sovuq, yoqimsiz kimsa ekanini, bunaqangi nus'halaridan yaxshilik chiqmasligini, bunaqalar bilan suhbat qurib kishi huzur qila olmasligini darrov payqadi.

Aslida bu bankchi oddiy sudxo'r bo'lib, Tunisda yashovchi, garov evaziga qarz beradigan besh yoki olti ming maltaliklardan biri edi.

Aytishlaricha, Zambuko oltin suvday oqib keladigan allaqanday shubhali oldi-berdi yo'llar bilan juda katta boylik orttirgan emish. U chindan ham badavlat bo'lib, bu bilan g'ururlanardi. Biroq, uning fikricha, kishi boy bo'lgan sari yana boyisam deydi, Antifer tog'ani chalg'itgan ko'rimsiz uyi va nursiz uy jihozlariga qaramay, uni multimillioner deb hisoblaganlari to'g'ri edi. Uning faqirona hayot kechirishi – ro'zg'or ehtiyojlari borasida nihoyatda xasis va ziqnaligidan dalolat berardi. Nahotki uning hech qanday tirikchilik ehtiyojlari

bo'lmasa? Bor edi, lekin butun ehtiyoj-xarajatlarini nihoyatda cheklab qo'ygan, boylik orttirish hirsiga qurbon qilgandi. U butun umrini pullarni qop-qop qilib taxlab qo'yish, pulga tuzoq qo'yish, chor-atrofdagi oltinlarni xazinasiga jamlash, zarracha qiymatga ega bo'lgan narsani qo'lga kiritish, bu borada har qanday hiyla-nayrangu yovuzliklardan tap tortmaslikka bag'ishlagan edi. Oqibatda u bir necha million boylik to'plab, sandiqlarga yashirdi, lekin bu boyliklarni ishga solishni xayoliga ham keltirmasdi.

Bunaqangi odam uylanib, bola-chaqa orttir-masligi, bir umr bo'ydoq o'tishi turgan gap. Bunaqangi odamlarning bo'ydoq o'tishi taqdiri azal-danmasmikin? Uylanish Zambukoning hatto yetti uxlab tushiga ham kirgan emas – «bu ham bo'lsa xotinining baxti», deb askiya qilishardi maltalik-lar dahasidagi hazilkash odamlar bundaylar haqida gap ketganda.

Uning yakka-yu yolg'iz singlisidan bo'lak hech qanday urug'-aymog'i yo'q edi. Butun Zambukolar avlod-ajdodining timsoli yolg'iz o'zi edi. Uyida, aniqrog'i, idorasida, yana ham to'g'rirog'i, pul omborida bir o'zi yashardi, xizmatlarini keksa bir tunislik ayol bajarar, uning yegan-ichgani va maoshi xo'jayinga arzimagan narsaga tushardi. Bu qurdumga nima tushsa ham qaytib chiqmasdi. Ana endi Antifer tog'aning qanday raqib bilan to'qnashishi ayon bo'ldi chog'i. Bu sovuq odam bir vaqtlar ko'rsatgan qanday xizmatlari uchun Komulk poshshoning minnatdorchiligiga sazovor bo'ldiykin, endilikda shuni so'ramoqlik joizdir.

U chindan ham bir vaqtlar xizmat ko'rsatgan edi. Bor gapni kptobxonga bir necha og'iz so'z bilan tushuntirib berishimiz mumkin.

Yigirma yetti yashar, yetim Zambuko o'sha paytlarda Iskandariyada yashardi. Unga otananing keragi ham yo'q edi. Chunki, ularga baribir qaramasdi. U g'oyatda sabr-toqat va quntshijoat bilan turli dallollik yo'llarini o'rganardi. Dallollik qilarkan, sotgandan ham, olgandan ham bay haqi olishga, savdo pulidan mo'maygina qilib qayirib qolishga ustasi farang bo'lib ketdi; avval dallollik, keyin olib sotarlik, nihoyat sarrof va sudxo'rlik qildi, xullas inson aqli-zakovati yetadigan hunarlar ichida eng ko'p foyda keltiradigan kasb bilan shug'ullana boshladi.

1829-yili (hali buni unutganimizcha yo'q) qarindoshi Murod va Murodning gij-gijlashi bilan hokimiyatparast Muhammad Alining o'z boyligiga ko'z olaytirayotganlaridan tashvishga tushib qolgan Komulk poshsho mol-dunyosini Suriyaga olib borib tashlashga qaror bergandi. Poshsho o'shanda Misrdagi har qanday shaharga qaraganda u yerda boyligim bexavotirroq saqlanadi deb o'ylagan edi.

Bunday katta ishni bajarish uchun unga juda usta va uddaburro xizmatchilar kerak edi. Lekin u o'z ishonchini qozongan muhojirlarnigina yollashni istardi. Hukmdorning manfaatlariga zid o'laroq misrlik badavlat poshshoga yordam berarkanlar, bu odamlar ko'p narsadan, kam deganda ozodliklaridan mahrum bo'lishlari mumkin edi. O'sha maxfiy yollanma xizmatchilar orasida yosh Zambuko ham bor edi. Basharti u jonbozlik ko'rsatib ishlagan ekan, bu xizmatlari evaziga o'z vaqtida

mo'maygina haq ham olgan edi; u Aleppoga ko'p marga qatnagan; nihoyat o'z mushtariysining mol-mulkini pullash va boyliklarini ishonchli joyga olib borishda faol qatnashgan edi.

Bunday ishlar qiyinchilik hamda xavf-xatarlardan xoli emasdi; Komulk poshsho jo'nab ketgandan keyin, uning topshiriqlarini bajargan xizmatchilardan Muhammad Ali mirshablarida shubha tug'dirgan ba'zilari hibsga olingandi. Shular orasida Zambuko ham bor edi. Rost, dalillar yetarli bo'lmagani sababli ularni bo'shatib yuborishga qaror berishgandi. Lekin, harqalay, ular o'z sadoqatlari uchun jazo tortgandilar.

Ana shunday qilib, 1799-yili Yaffa qoyalarida chalajon bo'lib yotgan Komulk poshshoni olib borib parvarish qilib bebaho xizmat ko'rsatgan Antifer tog'aning otasi singari Zambuko ham oradan o'ttiz yil o'tgach badavlat misrlikning minnatdorchiligiga erishish huquqiga musharraf bo'lgandi.

Komulk poshsho uni yodidan chiqarmagan edi.

1842-yilda sen-malolik Tomas Antifer bilan Tunisda istiqomat qilayotgan bankchi Zambukolarga, bir kun kelib ular yuz millionlik merosdan o'z ulushlarini olishlari, bu boyliklar qimmatbaho buyumlarga aylantirilib noma'lum orolga ko'milgani, ana shu orolning qaysi kenglikda joylashganini bildiruvchi raqamlar ikkovlariga yuborilayotgani, uzunlikni ko'rsatuvchi raqamlarni vaqti kelib unisi ham, bunisi ham olajagi haqidagi maktub kelib tekkandi.

Bu maktubning Tomas Antiferga, keyinchalik esa uning o'g'liga qanchalik ta'sir etganini yuqori-

da aytib o'tgandik; bunday xabarning bankchi Zambukodek odamga qanday ta'sir etajagini fahmlash qiyin ish emas. Turgan gapki, bu maktub haqida biror kimsaga og'iz ochmagandi. Bankchi orol joylashgan kenglikni bildiruvchi raqamlar bitilgan maktubni po'lat sandig'ining qulf-kalitli xufiya bir xonasiga solib, qulflab qo'ydi. Shundan boshlab Komulk poshsho o'z vaqtida nomini eslatib o'tgan Antifer degan kimsaning tashrif buyurishini har daqiqada kuta boshladi. U jon-jahdi bilan misrlikning keyingi taqdiri nima bo'lganini bilishga intilardi. Komulk poshshoning 1834-yili o'z shxunasida qo'lga tushirilganini ham, keyin uning Qohiraga olib kelinganini ham, qal'ada o'n sakkiz yil qamalib yotganini ham va, nihoyat, 1852-yilda olamdan o'tganini ham hech zog' bilmasdi.

Shunday qilib, 1862-yil yetib keldi. Maktub kelib tekkandan beri yigirma yil o'tsa hamki, maluidan hamon darak yo'q, ko'pdan orziqib kutilgan uzunlikni bildiruvchi raqamlar kenglik raqamlarini intizor qilib bekor yotardi... Lekin Zambuko sira tushkunlikka tushmadi. Komulk poshshoning va'dasi ertami-kechmi amalga oshishiga zarracha shubhalanmasdi. Ko'hna va Yangi Dunyo munajjimlari bashorat qilib aytib ketgan sayyoralarning samoda paydo bo'lishiga qanchalik ishonsa, maltaliklar ko'chasiga Antifer ismli kimsaning tashrif buyurishiga ham. shunchalik imoni komil edi. U afsuslanadigan birgina narsa (bunaqangi odam uchun bu hol tabiiydir) boylikni boshqa bir merosxo'r bilan bo'lashish edi. Shuning uchun ham u maluinga xayolan takror-takror la'natlar o'qirdi. Biroq olijanob misrlikning amrini

o'zgartirishning hech iloji yo'q edi. Shunga qaramay, yuz millionlik boylikni bo'lashib olish uning nazarida dahshatli jinoyatdek bo'lib tuyulardi... Shu boisdan u talay yillardan beri o'ylab o'yiga yetolmas, ming bir xil rejalar tuzib ko'rarkan, bundan maqsadi bitta edi: qanday qilsa butun boylik yaxlitligicha qo'liga kirarkin... Buning uddasidan chiqa olarmikin?.. Harqalay, uzunlikni bildiruvchi raqamlarni keltirishi zarur bo'lgan Antifer degan kimsa qanday odam bo'lmasin, bankchi uni kutib olishga puxta tayyorgarlik ko'rib qo'ygan edi.

Dengizchilik ilmidan bexabar bankchi Zambukoning allamahallargacha bu uzunlik va kenglikni bildiruvchi raqamlarga qarab, ya'ni tahmin qilingan ikki chiziq kesishadigan joyga qarab, yer kurrasining biron nuqtasining geografik o'rnini qanday aniqlanishiga aqli yetmay yurganini ta'riflab o'tirish ortiqcha bo'lsa kerak. Biroq, garchi bu narsani tushunib yetolmagan bo'lsa-da, lekin vorisdoshlarning uchrashishi muqarrar ekanini, Antifersiz hech narsa qila olmasligini, shuningdek, Antiferning uningsiz biron nima qila olmasligini juda yaxshi tushunardi.

UCHINCHI BOB

*Antifer tog'aning antiqa taklifga
javob berish o'rniga juftakni
rostlab qochib qolgani*

- Bankchi Zambukoni ko'rsak bo'ladimi?
- Ish bilan kelgan bo'lsangiz, marhamat.
- Ha, ish bilan.
- Ismi-sharifingiz?
- Muhojir deyavering, shuning o'zi kifoya.

Bu suhbat Antifer tog'a bilan fransuz tilini buzib gapirayotgan to'ng, keksa yerlik o'rtasida borardi. Chol sim to'r bilan ikkiga ajratilgan, o'rtasida darchasi bor ensizgina xonaning ichkarisiga qo'yilgan stol ortida o'tirardi.

Maluin otini aytib o'tirishni lozim ko'rmadi, u betma-bet turib:

«Men sen-malolik Tomas Antiferning o'g'li bo'laman!..» - desa bankchiga qanday ta'sir qilishini ko'rmoqchidi.

Oradan bir daqiqa o'tar-o'tmas uni ohak bilan oqlangan, shifti qurum bosib qorayib ketgan, bor jihozi bir burchagida vazmin po'lat sandig'-u ikkinchi burchagida baland ish stoli, ikki kursi va yana bir stoldan iborat xonaga boshlab kirishdi.

Zambuko hamon stol ortida o'tirardi. Komulk poshshoning ikkala vorisi betma-bet uchrashishdi.

Zambuko bosh va o'rta barmog'i bilan to'tiqushning tumshug'iga o'xshagan burni ustidagi kattakon dumaloq ko'zoynagini to'g'irlab, sal boshini ko'tardi-da, o'tirgan joyida so'radi:

– Kim bilan so‘zlashish sharafiga muyassarman?

U fransuzchani Langedok yoki qishloqilarga xos lahjada so‘zlardi.

– Yaqinga suzadigan kema kapitani Antifer bilan, – deb javob berdi maluin, bu olti iborani eshitgan Zambukoning o‘rnidan sapchib turib, quvonch bilan: «Sizmisiz!.. Nihoyat kelibsiz-da!..» – deb qichqirib yuborishiga mutlaqo ishongan holda.

Yo‘q, bankchi kursisidan irg‘ib turmadi ham, lablari mahkam qimtilgan og‘zidan u kutgan so‘zlar chiqmadi ham, xursandligidan qichqirib yubormadi ham. Biroq diqqat bilan kuzatgan odam ko‘zoynak ostidagi ko‘zlar chaqnab ketganini, o‘sha ondayoq buni yumilgan mijjalari yashirganini payqab olardi.

– Men sizga kapitan Antiferman deyapman...

– Eshitdim.

– Antifer Per-Servan-Malo, sen-malolik Tomas Antiferning o‘g‘li... Il va Vilen... Bretan... Fransiya...

– Mening bankimga tegishli akkreditiv qog‘ozingiz bormidi? – deb so‘radi bankchi, uning ovozida hech qanday hayajon alomati sezilmasdi.

– Ha... Akkreditiv qog‘ozim boriydi! – dedi Antifer tog‘a bunday sovuq qabuldan gangib. – Ha, yuz millionlik akkreditiv qog‘ozi!..

– Qani, bering-chi... – Oddiygina dedi Zambuko, go‘yo gap bir necha piastr haqida borayotgandek.

Maluin bir zarba bilan egardan qoqib tushirilgandi. Bu qanaqasi bo‘ldi! Nahotki bu boqi beg‘am, loqayd bankchi bundan yigirma yil muqaddam katta boylik olishi, kunlardan bir kun Antifer degan kimsa uning ulushini laganga solib ko‘tarib

kelishi lozimligi haqida ogohlantirib qo'yilmagan bo'lsa... U Komulk poshshoning aytgan odamini ko'rib hatto pinagini buzmas, zarracha taajjublanmas, tirnoqcha quvonmas ham-ku?.. Birinchi oroldan topilgan hujjat chalg'itib yubormadimikin hamma ishni? Ehtimol bu maltalikka emas, boshqa odamga murojaat qilish kerakmidi?.. Balki bankchi Zambuko geografik kenglikni bildiradigan raqamlardan mutlaqo bexabardir?.. Bu raqamlarsiz esa ikkinchi orolni topish mumkin emas-ku?..

Umidlari puchga chiqqanini ko'rgan vorisdoshning a'zoyi badani jimirlab ketdi. Oyoqlari bo'shashib, yuragi o'ynay boshladi; u shilq etib kursiga o'tirib qoldi.

Bankchi unga yordam berish uchun hatto jimirlab ham qo'ymadi. U musofirni ko'zoynaklari ostidan kuzatardi – lablarining burchi sal ochilib, tishlari bilinar-bilinmas g'ijirlab turardi. Shu topda u o'zini bosib turishga majbur bo'lmasa, hayajonidan: «Bu matros sal zaifroq ekan!» – deya xitob qilib yuboray deyayotgandek tuyulardi. Bu esa: «Buni bir yoqlik qilish mushkul emas ekan», degan ma'noni anglatguvchi edi.

Bu orada Antifer tog'a asta-sekin o'zini qo'lga ola boshladi. Aftini dastro'mol bilan artdi-da, trubkasini og'zida u yoqdan bu yoqqa o'ynatgancha o'rnidan turdi.

– Siz chindan ham bankchi Zambukomisiz o'zi?.. – deb so'radi u stolga musht tushirib.

– Ha... Tunisda faqat mening familiyamgina shunday.

– Siz meni kutmaganmidingiz?..

– Yo'q.

– Mening kelishim haqida sizni ogohlantirishmaganmidi?

– Sizning kelishingiz haqida? Qanday yo'l bilan?

– Bir poshshoning maktubi orqali...

– Poshsho deysizmi?.. – deya qaytarib so'radi bankchi. – Poshshoning maktubi orqali deysizmi?.. Men axir unaqa xatlarni yuzlab olaman...

– Komulk poshshodan... Qohiradan?..

– Yodimda yo'q.

Zambuko o'zi geografik kenglik yozilgan xatni ko'rsatmasidan burun Antifer majbur bo'lib qo'lidagi orol joylashgan uzunlikni bildiradigan raqamli hujjatni ko'rsatsin deb shunday ustomonlik qilayotgan edi.

Biroq Komulk poshshoning ismi tilga olingach, o'zini bu nomni ilgari ham eshitganga soldi. Shu topda u xotira daftarini varaqlayotganga o'xshardi...

– Shoshmang... – dedi u ko'zoynagini to'g'irlarkan. – Qohiralik Komulk poshsho dedingizmi?..

– Ha, ha, xuddi o'sha... – deb gapni ilib ketdi Antifer tog'a. – Misrlik Rotshild desa ham bo'ladi... uning oltin, olmos, dur, javohirlardan iborat juda katta boyligi bo'lgan...

– Sal yodimga tushganday bo'ldi... darhaqiqat...

– Vaqti-soati kelib bu boylikning yarmi ixtiyoringizga o'tishi haqida sizni ogohlantirib qo'ygan bo'lishi lozim.

– Siz haqsiz, janobi Antifer, o'sha xat qayerdadir yotgan bo'lishi kerak.

– Qayerdadir yotgan bo‘lishi kerak deganingiz qanaqasi! Uning qayerdaligini bilmaysizmi?

– O! Menikida hech narsa yo‘qolmaydi. Topilib qolar.

Bu javobni eshitib, Antifer tog‘aning vajohati dahshatli tus oldi va barmoqlari musht bo‘lib tugildi... Agar xat topilmasa, bankchining bo‘ynini qayirib tashlashga tayyorligi yaqqol ko‘rinib turardi. Shu topda Antifer tog‘aning o‘zini bosib turishi amri mahol edi, albatta..

– Bilasizmi, janob Zambuko, – deb yana gap boshladi u biroz jim turgach, – sizning bunchalik xotirjamligingizga hayron qolyapman! Bu ish haqida shunday beparvolik bilan gapiryapsizki...

– Fu-u! – deb qo‘ydi bankchi.

– Iya... «fu-u»si nimasi!.. Axir gap yuz million frank haqida boryapti-ya!..

Zambuko miyig‘ida nafratomuz jilmayib qo‘ygandek bo‘ldi. Go‘yo bu odam uchun yuz millionning limon yoki apelsin po‘chog‘ichalik qadri yo‘qdek edi.

«Ha, ablah!.. Uning hamyonida shundoq ham yuz millioni borga o‘xshaydi!» – deb o‘yladi Antifer tog‘a.

Biroq bankchi gapni boshqa izga burib yubordi. U ba‘zi narsalarni, avvalo maluinning huzuriga qanday maqsadda kelganini aniqlab olmoqchi edi.

– Menga qarang, nahotki, bu xazina haqidagi afsonaga chindanam ishonsangiz? – deb so‘radi u ro‘molchasining uchi bilan ko‘zoynagini artarkan. Uning so‘zlarida shubhalanish ohanglari sezilib turardi.

– Ishonasizmi deysizmi? Xudolarga ishongandan ishonaman!

Antifer tog'a bu so'zlarni haqiqiy bretonlarday ishonch va qat'iy e'tiqod bilan aytdi.

Keyin, u otasining 1799-yili poshshoni o'limdan qanday asrab qolganini, 1842-yili Sen-Maloga noma'lum orolga ko'milgan xazina haqidagi sirli maktub kelganini, bu sirni jon berayotgan otasi og'zidan qanday eshitganini; orolning qayerda joylashganini aniqlash uchun zarur bo'lgan raqamlarni olib kelishi lozim bo'lgan odam – xabarchini yigirma yil zoriqib kutganini, iskandariyalik notarius Binni Umarning, ya'ni Komulk poshsho vasiysining ko'pdan kutilgan geografik uzunlikni bildiruvchi raqamlar ko'rsatilgan vasiyatnomani keltirganini; bu raqamlarning Maskat kengligida, Ummon ko'rfazida joylashgan orolning koordinatlarini xaritadan aniqlashda qanday ish berganini; o'z jiyani Jyuel, do'sti Tregomen hamda Binni Umar va uning gumashtasi Nozimlar bilan birgalikda Sen-Malodan Maskatga yo'l olganlarini, ko'rfazning Soxor yaqinidagi yeridan o'sha orolchani qanday topganlarini; nihoyat ostma-ust qilib ikki «K» harfi bilan belgi qo'yilgan joydan xazina o'rniga ikkinchi orolning qaysi uzunlikda ekanligi ko'rsatilgan xat solingan temir quticha topilganini va bu xatda bitilgan raqamlarni u, ya'ni kapitan Antifer, Tunisda istiqomat qiluvchi bankchi Zambukoga yetkazishi lozim ekanligini; bankchidagi kenglikni anglatuvchi raqamlarga xatdagi raqamlar qo'shilsa yangi orolning geografik o'rni aniqlanajagini, xullas, bor gapni bir boshdan hikoya qilib berdi...

O'zini mutlaqo beparvo qilib ko'rsatishga tirishgan bankchi Antifer tog'aning hikoyasini butun vujudi bilan tingladi. Uzun-uzun qiyshiq barmoqlarining bilinar-bilinmas titrab turishi uning g'oyatda hayajonlanayotganidan dalolat berib turardi. G'arq terga botgan maluin hikoyasini tugatgach, Zambuko:

– Ha, darhaqiqat... xazinaning borligi shubhasizga o'xshaydi aftidan... Lekin Komulk poshsho nima sababdan bunday yo'l tutdiykin? – dedi g'ijinib.

Darhaqiqat, bu narsa muammo edi.

– Nima sababdan deysizmi?.. – takrorladi Aitifer tog'a. – Menimcha, shuning uchunki... Janob Zambuko, avvalo shuni ayting-chi, bir vaqtlar biron vajdan Komulk poshsho hayotiga aloqador ish qilganmisiz?.. Xo'sh, aytaylik, biror yordamingiz tekkanmi unga?..

– Shubhasiz... juda katta yordamim tekkan.

– Qachon va qay vajdan?

– U Qohirada turgan paytlarda, mol-mulkini pullashga ahd qilgandi. O'sha paytlarda men Qohirada yashardim...

– Shunday deng... Tushunarli... U xazinani kavlab olishda o'zi mukofotlamoqchi bo'lgan ikki kimsaning uchrashishini istagan ekan-da... Ya'ni siz bilan mening uchrashishimni, negaki mening otam allaqachon olamdan o'tgan...

– Nega siz yana boshqalar ham bordir deb o'ylamaysiz? – deya ichiqoralik bilan savol berdi bankchi.

– Bunaqa gaplarni yig'ishtirib qo'ying! – deb qichqirdi Antifer tog'a va shunday zarb bilan

musht tushirdiki, stol lapanglab ketdi. – Bas!.. Ikki kishi bo'lganimiz ham yetar!..

– Siz haqsiz, – deb tasdiqladi Zambuko. – Lekin bir narsani tushuntirib bersangiz, anavi iskandariyalik notarius nega sizga ergashib yuribdi?

– Vasiyatnomaning bandlaridan birida ta'kidlanishicha boylikni yerdan qazib olib, bo'lashiladigan paytda ustida turishi shart. Unga ham mukofot tegishi zarur.

– Xo'sh, qancha mukofot tegishi kerak ekan unga?

– Yuzdan bir ulushi.

– Yuzdan biri-ya!.. Voy, firibgar-e!

– Ha, firibgar! Naq firibgarining o'zginasi! – xitob qildi Antifer tog'a. – Imoningiz komil bo'lsin – men buni allaqachon shartta betiga aytganman!

Binni Umarga baho berishda ikkala vorisdoshning qarashlari mutlaqo bir joydan chiqdi, Zambuko o'zini qanchalar beparvo qilib ko'rsatmasin, baribir qalb faryodini bosib turolmadi.

– Ana endi, – dedi maluin, – hamma ishdan xabardorsiz, o'ylaymanki, hech qanaqangi ayyorlik va hiyla-nayrang ishlatib o'tirmasak oqilona ish tutgan bo'lamiz.

Bankchining qiyofasidan hech nimani o'qib bo'lmasdi, bir tuki ham qilt etmadi.

– Birinchi oroldan topilgan, yangi uzunlikni bildiradigan raqamlar menda, – deb so'zida davom etdi Antifer tog'a, – ikkinchi orol joylashgan kenglikni bildiradigan raqamlar esa sizda.

– Shunday, – istar-istamas tan oldi Zambuko.

– Unda huzuringizga kelib, ismimni aytganimda, nega o'zingizni bu voqea haqida hech nimani bilmaydiganga soldingiz?

– Buni tushunish juda jo'n: birinchi uchragan odamga yuragimdagi gaplarni to'kib sololmayman-ku, axir... Meni afv etasiz-u, janob Antifer, ittifoqo siz qallob bo'lib chiqqaningizda nima bo'lardi?! Avval ishonch hosil qilmoqchi edim... biroq qo'lingizda men bilan kelishish, muzokara olib borish uchun hujjat bor ekan...

– Ha, bor.

– Qani, ko'rsating.

– Oshiqmang, janob Zambuko! Mushuk ham tekinga oftobga chiqmaydi-ya!.. Qo'lingizda Komulk poshshoning maktubi bormi o'zi?

– Bor.

– Juda soz. Maktub bilan hujjatni almashamiz... Almashish vijdonan, halol, sizdan ugina, bizdan bugina qabilida bo'lishi kerak.

– Roziman! – javob berdi bankchi.

Shunday deb, u po'lat sandiq oldiga bordida, maxfiy qulflarni ocha boshladi, biroq shunday imillardiki, buni ko'rgan Antifer tog'a g'azabdan o'zini arang bosib turardi.

Bankchining bu xatti-harakatini qanday tushunsa bo'ladi? Bu ham xuddi Binni Umarga o'xshab maluinning sirini hiyla bilan bilib olish niyatida emasmikin?

Ovora bo'ladi! O'z molini naqdiga pullamoqqa qat'iy qaror bergan odam bilan muomala qilar ekansan, buning aslo iloji yo'q. Bankchining har tomonlama puxta o'ylangan va ko'pdan ko'ksida ardoqlab yurgan o'z rejasi bor edi. Omadi kelib rejasi amalga oshgudek bo'lsa, Komulk poshshoning millionlari Zambuko oilasi ixtiyorida, boshqacharoq aytganda bankchining o'z qo'lida

bo'ladi. Bu rejaning amalga oshishi uchun faqat bir shart bor edi: vorisdoshi beva yoki bo'ydoq bo'lishi kerak.

Mana, oxirgi qulfni ochishgina qolganda bankchi o'girilib sal titroq ovoz bilan so'radi:

– Uylanganmisiz?

– Yo'q, janob Zambuko, uylanmaganman, buning uchun esa har kuni tongda va har kuni kechqurun o'z-o'zimni qutlayman, Xudoga hamdu sanolar o'qiyman.

Uning keyingi so'zlaridan bankchining afti bujmayib ketdi, shunday bo'lsa-da, yana uzilib qolgan ishiga tutindi.

Nahotki Zambukoning oilasi bo'lsa? Ha, lekin Tunisda hech kimning xabari ham yo'q edi bundan. Rost, uning oilasi yuqorida zikr etilganidek yolg'izgina singlisidan iborat edi. Mademuazel Talisma Zambuko Maltada yashar, akasi yuborib turadigan arzimagan nafaqa bilan tirikchilik o'tkazardi. Yana shuni ham aytib qo'yaylikki, u o'sha yerda qirq yetti yil – salkam yarim asrdan beri istiqomat qilardi. Umrida hech qachon uning qo'lini so'rab sovchi kelganamas, buning sababi, birinchidan husn, aql, xulq-atvor va boylik bobida uni tabiat ko'p narsadan bebahra etgandi, ikkinchidan, akasi hech qachon kuyov topish g'amini yemagandi, kuyovlar esa o'z oyoqlari bilan kelishni hatto xayollariga ham keltirmasdilar chog'i..

Shunga qaramay, Zambuko singlisining qachon bo'lmasin erga tegishiga umid bog'lagan edi. Yo Xudo, kimga tegarkan?.. Masalan, loaqal kelishini yigirma yil kutgan Antiferga bo'lsa ham mayli,

mabodo u beva yoki bo'ydoq bo'lsa, qari qizning erga tegish istagi ro'yobga chiqadi. Bordi-yu bu nikoh amalga ohsa millionlar oila ixtiyorida qoladi, mademuazel Talisma Zambuko shuncha yil kutgani evaziga hech narsani yutqazmaydi. Shu narsa o'z-o'zidan ayonkim, u tamoman akasiga qaram ekan, akasi tanlagan har qanday odamga ko'zini chippa yumib tegaveradi.

Biroq maluin ko'zini chippa yumib, o'sha maltalik qari qizga uylanishga rozi bo'larmikin? Bankchi bunga aslo shubha qilmasdi, zeroki u hozirgi vaziyatda o'zini xo'jayin deb hisoblardi: u vorisdoshiga o'zini, ya'ni Zambukoni qanoatlantiradigan shart-sharoitni taklif etadi. Buning ustiga dengizchilarning tanlab o'tirishga, did-farosatli bo'lishga hadlari yo'q – bankchi o'zicha shunday deb o'ylardi.

Eh, baxti qaro Per-Servan-Malo, kimning aravasiga tushib qolding-a!.. Bu gaplarni ilgariroq bilganingda do'sting Tregomenning allaqachon o'tinga aylangan gabarasi «Go'zal Ameliya»ga o'tirib, Rans bo'ylab sayohat qilishni afzal ko'rmasmidig!

Bankchining bunday masxarabozlik qilayotganining sababi endi tushunarli bo'lgandir? Bundan jo'nroq va ayni vaqtda bundan aqlliroq biron rejani o'ylab topish amri mahol edi. U orol joylashgan kenglikni bildiruvchi raqamlarni faqat Antifer tog'aning hayotigagina almashtiradi – biz uning mademuazel Talisma Zambuko bilan nikohning uzilmas zanjirlari-la Antifer uning qo'l-oyog'ini kishanlab qo'ymoq niyatida ekanini aytmoqchiman.

Kalitni oxirgi marta burash va Komulk poshshoning xatini po'lat sandiqdan olishgina qolganda bankchi to'satdan fikridan qaytib, yana stol yoniga qaytib o'tirdi.

Havo elektr quvvatiga o'ta to'yingan paytlarda chaqin chaqnagandek, Antifer tog'aning ko'zlari chaqnay boshladi.

– Yana nimani kutyapsiz? – deb so'radi u.

– Bir narsani o'ylab qoldim, – deb javob berdi bankchi.

– Nima ekanini bilsak bo'ladimi?

– Sizningcha qanday, bu ishda ikkalamiz ham tepa-teng huquqqa egamizmi?

– Albatta, tepa-teng!

– Men... menimcha bunday bo'lmasa kerak.

– Sabab?

– Chunki poshshoga siz emas, otangiz yordam bergan, men esa... men shaxsan yordam berganman...

Antifer tog'a uning gapini bo'ldi va boya ko'zlaridan otilgan qo'sha-qo'sha yashin nihoyat gumburladi.

– Hali shunaqa deng! Nima, janob Zambuko, yaqinga suzadigan kema kapitanini mazax qilmoqchimisiz deyman? Modomiki otamning birdan-bir merosxo'ri ekanman, uning haq-huquqi meniki ham emasmi, axir?.. Qani ayting-chi: vasiyat qoldiruvchining irodasiga itoat etishni istaysizmi o'zi? Shupdaymi yo yo'qmi?

– O'z bilishimcha ish ko'raman! – deb javob berdi bankchi ochiq-oydin va quruqqina qilib.

Antifer tog'a kursini tepib yubordi va bankchiga tashlanib qolmaslik uchun stolni jonjahdi bilan changallab oldi.

– Mensiz hech nima qila olmasligingizni juda yaxshi bilasiz! – dedi maltalik.

– Mensiz siz ham hech narsa qilolmaysiz! – shu ondayoq og‘ziga urdi maluin ham.

Vaziyat keskinlashib borardi. Raqiblardan biri g‘azabdan sholg‘omdek qizarib ketdi, ikkinchisi esa garchi tusi odatdagnosisidan ham beshbattar oqarib ketgan bo‘lsa-da, hamon o‘zini xotirjam tutardi.

– Qo‘lingizdagi kenglikni bildiradigan raqamlarni berasizmi, yo‘qmi? – deb qichqirdi Antifer tog‘a g‘azabi qaynab.

– Oldin siz uzunlikni bildiradigan raqamlarni bering, – javob berdi bankchi.

– Xomtama bo‘lmang!

– Juda soz, mayli, shunday bo‘la qolsin.

– Mana mendagi hujjat, – deb bo‘kirdi Antifer tog‘a cho‘ntagidan kartmonini chiqararkan.

– Yoningizga solib qo‘ying... menga uning keragi yo‘q!

– Sizga keragamasmi bu hali? Gap yuz million frank haqida borayotganini unutib qo‘yibsiz...

– Darhaqiqat, yuz million haqida...

– ...ularning qaysi orolga ko‘milganini bilolmasak qo‘lga kiritolmaymiz-ku!..

– Fu-u – deb qo‘ydi bankchi.

Shunday deb u pisand qilmagandek og‘zini qiyshaytirib qo‘ydi, buni ko‘rgan suhbatdoshi o‘zini yo‘qotib, tegmasa hech kimga tegmay qo‘ya qolsin degan maqsadda yuz milliondan kechishga jur‘at etgan bu ablahga tashlanib, g‘ippa tomog‘idan olishga shaylanib engashdi.

Ko‘p yillik sudxo‘rlik hayotida allaqancha kambag‘al bechoralarni ezgan Zambuko ehtimol

hech qachon o'z tomog'ini bunchalik o'lim sirtmog'i yaqinida ko'rmagan bo'lsa kerak. Shubhasiz buni tushungan edi u, shuning uchun ham lahzada muloyim tortib, bunday dedi: – Kelishib olishning biron chorasini toparmiz deb o'ylayman.

Antifer tog'a shundan keyin mushtini ishga solib qolmaslik uchun qo'llarini cho'ntagiga tiqdi.

– Janob Antifer, – deb gap boshladi bankchi yana, – men badavlat odamman, dabdabali hayotga unchalik ishqivozligim yo'q, mening hayot yo'sinimni na ellik, na hatto yuz million o'zgartira oladi. Men bir narsaga – qop-qop oltin jamg'arishga hirs qo'yganman. Komulk poshshoning boyliklari mening sandiqlarimni juda bejaydi-da o'ziyam... Shu boisdan bu boyliklarning chindan ham mavjud ekanini bilganimdan beri menga bir fikr – boylikni yaxlitligicha o'zimniki qilib olish fikri sira tinchlik bermaydi.

– Manavini hech ko'rganmisiz umringizda, janob Zambuko?..

– Shoshmang!

– Mening ulushim-chi?

– Sizning ulushingizmi?.. Bir tomondan siz uni olsangiz-u, ayni vaqtda mening oilam ixtiyorida qolsa, shunday qilishning iloji yo'qmikin?

– Unaqada meniki bo'lmay qoladi-ku...

– Xohlasangiz rozi bo'ling, xohlamasangiz – keragi yo'q.

– Maynavozchilikni bas qiling, janob Zambuko, shuncha nayrangbozlik yetar, ochiqchasiga gapiravering!

– Mening Talisma degan singlim bor...

– Tabriklayman bu bilan!

– U Malta orolida turadi.
– Agar ob-havosi yoqqan bo'lsa, uning foydasi bu.
– Yoshi qirq yettida, lekin yoshiga nisbatan ko'hlikkina.

– Agar u sizga o'xshasa, buning sira ajablanadigan yeri yo'q!

– Xo'sh, shunday qilib, siz bo'ydoq odamsiz... inchunun, singlimga uylanishni istamaysizmi?

– Sizning singlingizni olamanmi? – deb qichqirib yubordi Per-Servan-Malo va uning yuzi xo'rozning tojisiday xol-xol qizarib ketdi.

– Ha, uylanasiz, – dedi bankchi e'tirozga o'rin qoldirmaydigan ohangda. – Ana shu nikoh tufayli bir tomondan sizning ellik millioningiz, ikkinchi tomondan mening ellik millionim oilamiz ixtiyorida qoladi.

– Janob Zambuko, – dedi Antifer tog'a, to'lqin sohildagi shag'al toshlarni u yoqdan bu yoqqa yumalatganday, trubkasini lablarining u burchidan bunisiga o'tkazib, – janob Zambuko...

– Janob Antifer...

– Bu taklifingiz... jiddiymi?..

– Bundan jiddiyroq gap bo'lishi mumkin emas, basharti mening singlimga uylanishdan bosh tortsangiz, ont ichamanki, oramizdagi hamma gap tamom-vassalom, bermalol Fransiyaga ketaverishingiz mumkin.

Bo'g'iq ingrash eshitildi. Antifer tog'a nafasi og'ziga tiqilib entikar, o'pkasi g'ijirlardi. U galstugini yulqib yechib, shartta shlyapasini qo'liga oldi-da, xona eshigini lang ochgancha hovlidan yugurib o'tib ko'chaga otildi. U tez, jon-jahdi bilan yugurarkan, telbalarga o'xshardi.

Ko'chada poylab turgan Souk uning ortidan ergashdi. Antifer tog'aning bunchalik hayajonlanganini ko'rib, hatto u ham xavotirga tushib qoldi.

Maluin mehmonxonaga chopib kelib, yugurganicha ichkariga kirib ketdi. U do'sti bilan jiyaniga ko'zi tushishi bilan qichqirdi:

– Voy, ablah-e!.. Uning nimani xohlab qolganini bilasizlarmi?

– Seni o'ldirishnimi? – deb so'radi Jildas Tregomen.

– Yo'q, undan ham battarroq'ini! Singillariga uylanishimni xohlab qoptilar!

TO'RTINCHI BOB

*G'arb va Sharq o'rtasidagi shiddatli
yakkama-yakka olishuvning Sharqning
g'alabasi bilan tugagani*

Shuni ishonch bilan aytish mumkinki, so'nggi paytlarda turmushda tez-tez uchraydigan, aql bovar etmaydigan mushkulotlarga ko'nikib qolgan Jildas Tregomenning ham, Jyuelning ham bunday ahvolga uchrashi xayoliga kelmagandi!

Bo'ydoqlik suyak-suyagigacha singib ketgan Antifer tog'a shunday baland devorga taqab qo'yilgan ediki, u ko'z ko'rib, quloq eshitmagan katta merosdan o'z ulushiga ega bo'lish uchun ana shu nikoh devoridan oshib o'tishga majbur edi.

Jyuel amakisidan nima bo'lganini bir boshdan hikoya qilib berishni so'radi. Antifer tog'a bor gapni hikoya qilarkan, so'z orasida bankchiga

nisbatan shunday la'nat toshlarini yog'dirardiki, bu toshlar baxtga qarshi maltaliklar dahasidagi o'z uyi devorlari panohidagi Zambukoga zarar yetkazolmasdi.

Bu kekxa bo'ydoqni qirq olti yoshigacha uylanmay, endilikda qirq yetti yashar qari qiz bilan turmush qurib, sharq kishisi – Antifer poshshoga aylangan qiyofada ko'z oldingizga keltirib ko'ring-a?

Hayratdan dovdirab qolgan Jildas Tregomen bilan Jyuel miq etmay bir-birovlariga qarab-qarab qo'yishardi, shu topda ikkovlarining ham xayollariga bir fikr kelgandi.

«Millionlar qo'ldan ketibdi!» – deb o'yladi Jildas Tregomen.

«Mana endi sevikli Enogatimga bemalol uylanadigan bo'ldim!» – xayolidan o'tkazdi Jyuel.

Darhaqiqat, Antifer tog'aning Zambukoning talabiga ko'nishi va unga kuyov bo'lishga rozilik berishi mumkinmidi?! Aslo! Gap hatto milliard haqida borganida ham u hech qachon bankchining bu istagiga bo'yin egmaydi.

Maluin bu orada xonada u yoqdan bu yoqqa borib-kelardi. Keyin to'xtadi, o'tirdi va birdan sakrab turib, Jyuel bilan Tregomenning yoniga keldi, ularning betiga qaradi, biroq dosh berolmay o'sha zahotiyoy ko'zlarini olib qochdi.

Unga qaragan kishining rahmi kelardi. Basharti Jildas Tregomen ilgarilari ham do'stining aqldan ozib qolayozganini ta'kidlab yurgan ekan, hozir uning bu fikri haqiqatdan olis emasdek tuyulardi. Shuning uchun ham Jyuel bilan Tregomen Antifer tog'aga hech qanday e'tiroz bildirmaslikka unsizgina

ahd qilgandilar. Biroz fursat o'tgach, chuvalashib ketgan fikrlarini to'plab, o'zini o'nglab oladi va yuzaga kelgan vaziyatni oqilona baholay oladi, deb o'ylashardi ular.

Mana, tog'a nihoyat tilga kirdi, u to'xtab-to'xtab, har bir iborani kesib-kesib, g'azab bilan so'zlay boshladi:

– Yuz million... anavi ablahning qaysarli-gi tufayli qo'ldan ketadigan bo'ldi-ya... Boshini cho'rt uzish keragamasmi bu yaramasning? Osish kerak!.. Otish kerak!.. Xanjar bilan qornini yorib tashlash kerak!.. Zahar berish kerak!.. Qoziqqa o'tqazish lozim! Agar uylanmasam, qo'lidagi kenglikni bildiruvchi raqamlarni bermasmish... Senegal maymunlarining birontasi ham olmaydigan o'sha taviya maltalik xonimposhshaga uylanarmishman-a!.. Sizlar nima deysizlar, o'sha mademuazel Talismaga uylansam bo'ladimi?!

Albatta, yo'q-da! Do'stlari buni hatto tasavvur etisholmasdi... Bunday kelin va xolani Antifer tog'aning hurmatga loyiq oilasiga olib kirishni faraz qilishning o'zi qanchalar dahshatli va qabihlikdek bo'lib tuyulardi!

– Xo'sh, gapirmaysanmi, qayiqchi!

– Nimani gapiray, qariya?

– Niyatiga yetishiga bir odim qolganda yuz millionni ko'milgan joyida tashlab ketishga biror kimsaning haddi bormi, axir?

– Bu savolga darrov javob berolmayman, – dedi oq ko'ngil Tregomen to'g'ri javobdan qochib.

– Ha-a! Javob berolmaysan-a! – deb o'dag'ayladi Antifer tog'a shlyapasini xonaning burchagiga uloqtirarkan. – Juda soz. Bo'lmasa, balki boshqa bir savolimga javob berarsan?

– Qanaqa savol ekan?

– Bordi-yu biror ahmoq bir kemaga yuk ortsa... aytaylik gabaraga... anavi «Go‘zal Ameliya»ngga deya qolaylik...

Shunda Jildas Tregomen «Go‘zal Ameliya» malomatlarga qolajagini fahmladi.

– ...Bordi-yu u o‘sha shalag‘i chiqqan tog‘orangga yuz millionlik oltin ortsa-da, butun xaloyiq oldida kema tagxonasini teshib, bu millionlarni dengizga cho‘ktirib yuboraman desa... sen nima deb o‘ylaysan, hukumat uning bunday qilishiga yo‘l qo‘yib berarmidi?.. Xo‘sh! Qani gapir!..

– Yo‘l qo‘ymasa kerak, qariya.

– Bu maxluq, anavi Zambuko bo‘lsa xuddi shunday qilaman deb o‘tiribdi-ya! U bir og‘iz so‘z aytsa – o‘zining millionlari ham, mening millionlaring ham topiladi-ya! U bo‘lsa qaysarlik qilib, damini ichiga yutib o‘tiribdi!

– Umrin bino bo‘lib bunaqangi qallobni ko‘rmaganman! – xitob qildi Jildas Tregomen, o‘zini g‘azablanayotganga solib.

– Sen nima deysan, Jyuel?

– Nima haqda, amaki?..

– Agar bu gapni ma‘murlarga xabar qilsak, nima deysan?

– Bu eng so‘nggi chora, albatta...

– Ha... chunki ma‘murlar shaxsiy kimsaga nisbatan man etilgan chorani qo‘llay oladilar... Ma‘murlar uni qiynoqqa solishlari mumkin.... ko‘kragini o‘tda qizdirilgan ombur bilan pora-pora qilishlari... oyoqlarini past olovda kuydirishlari mumkin... shunda bo‘yin egishdan o‘zga iloji qolmaydi uning...

– Yomon fikr emas bu, amaki.

– Ajoyib fikr, Jyuel, bu murdor, nokas savdogardan ustun kelish uchun o‘z ulushimni qurbon qilishga va jamoatchilik foydasiga berishga ham tayyorman...

– Eh! Qani endi shunday qilsang, bu juda ajoyib, olijanob ish bo‘lardi-da! – xitob qildi Jildas Tregomen. – Ana unda asl fransuzga, haqiqiy maluinga... Qolaversa chinakam Antiferga munosib ish bo‘lardi.

Shubhasiz, tog‘a bu taxminni bayon etarkan, o‘ylagani va istaganidan ko‘ra xiyla ortiqcharoq gapirib yuborgandi, chunki u Jildas Tregomenga shunday yov qarash qildiki, zavq-shavq bilan dilidagini to‘kib-solayotgan bechora oq ko‘ngil do‘stining o‘sha zahotiyoq nafasi ichiga tushib ketdi.

– Yuz million-a!.. Yuz million! – takrorlardi Antifer tog‘a. – Men uni, o‘sha la‘nati Zambukoni jahannamga jo‘nataman...

– Amaki!

– Do‘stim!

Haqiqatan ham maluinning hayajondan asablari junbushga kelib, shunday qilib qo‘yishi hech gap emasdi, biroq bu jinoyat ruhiy iztirob tug‘yon urgan paytida sodir bo‘lgani uchun u javobgarlikka tortilmasligi mumkin edi.

Jildas Tregomen bilan Jyuel uni tinchlantirishga urinishardi, lekin tog‘a ularni itarib tashladi va mening dushmanlarim bilan tillaring bir senlarning, bankchining tomonidasanlar, shuning uchun Zambukoni kema oshxonasga kirib qolgan suvarakdek mijig‘lab ezib tashlashimga yordam berishdan bosh tortyapsanlar, deb ta‘na qildi.

– O‘z holimga qo‘ylaring!.. Qo‘ylaring o‘z holimga! – deb baqirdi u depsinib.

Keyin polda yotgan shlyapasini oldi-da, eshikni taraqlatib yopganicha xonadan otilib chiqib ketdi.

Jyuel bilan Tregomen Antifer tog‘a Zambukoni o‘ldirgani chopib ketdi deb o‘ylab, baxtsizlikning oldini olgani orqasidan yugurib chiqishdi-yu, biroq o‘sha zahotiyog tog‘aning o‘z xonasiga chiqib, kalitni ikki marta burab eshikni berkitib olganini ko‘rib yengil tortishdi.

– Uning uchun eng yaxshisi shu hozir, – deb qo‘ydi Jildas Tregomen bosh chayqab.

– To‘g‘ri... Eh, bechora amakim-a! – deb xo‘rsindi.

Turgan gapki, bu mojarodan ishtahalari g‘ippa bo‘g‘ilgandi, nomiga tamaddi qilgan bo‘lishdi.

Ovqatlanib bo‘lgach, do‘stlar toza havoda aylangani Bair ko‘li tomon yo‘l olishdi. Mehmonxonadan chiqiboq Binni Umar va Nozim bilan to‘qnashib qolishdi. Sodir bo‘lgan gaplarni notariusga aytish lozimmikin? Albatta shunday qilish kerak. Bankchining Antifer tog‘a oldiga qo‘ygan shartlaridan xabardor bo‘lishi bilanoq notarius o‘z fikrini aytishga shoshildi:

– U mademuazel Zambukoga uylanishga majbur! Buni rad etishga haqqi yo‘q! Ha, haqqi yo‘q! Aslo!

Souk ham xuddi shu fikrda edi, zeroki u shuncha sep oladigan bo‘lsa, sira o‘ylab-netib o‘tirmay, kimligidan qat‘iy nazar uylangan bo‘lurdi.

Jildas Tregomen bilan Jyuel shartta o‘girilib, chuqur o‘yga tolganicha, Dengiz floti ko‘chasi bo‘ylab nari ketaverishdi.

Ajoyib oqshom. Dengiz tomondan esayotgan muzdekkina, mayin shabada odamlarni sayr etishga chorlardi.

Yosh kapitan bilan Jildas Tregomen shahar devorlari tomon yurishdi va darvozadan o'tib, port tomonga, ko'l bo'yiga chiqib qolishdi. Yo'lda uchragan birinchi qahvaxonaga kirib, bir shisha vino buyurishdi-da, keyingi voqealar haqida suhbatlasha boshlashdi. Ularning nazarida hammasi juda jo'ngina ko'rinardi. Antifer tog'a bankchi Zambukoning talabiga ikki dunyoda rozi bo'lmaydi. Binobarin, u ikkinchi orolni izlashdan bosh tortadi. Demak ular tez orada aloqa kemasida Tunisdan jo'nashadi va qanday baxtki – hash-pash deguncha Fransiyaga yetib olishadi.

Hozirgi mushkul ahvoldan qutulishning birdan-bir chorasi shu, albatta. Sen-Maloga Komulk poshsho vasiyat qilgan olam-jahon pulsiz qaytganlari esa ming karra yaxshi. Bu poshshosi tushmagur nima qilib shunchalik hiyla-nayrang ishlatib yuribdi-ya!.. Unga nima keragi bor ekan buning?..

Jildas Tregomen bilan Jyuel soat to'qqizlarda mehmonxonaga qaytishdi. Ular o'z xonalariga ko'tarilisharkan, Antifer tog'a xonasining eshigi oldida bir nafas turib qolishdi. Tog'a uxlash bir yoqda tursin, hatto o'rniga biron daqiqa cho'zilmadi ham. Xonada shitob bilan u yoqdan bu yoqqa borib-kelarkan, o'z-o'zi bilan gaplashar, bo'g'ila-bo'g'ila:

– Millionlar... millionlar... essizgina millionlar-a!.. – deb takrorlardi hadeb.

Jildas Tregomen Antifer tog'aning tamoman aqldan ozganini tushuntirayotgandek, peshonasiga

to'qillatib urib qo'ydi. So'ngra ular bir-birovlariga xayrli tun tilab, chuqur tashvishga botganlaricha ajralishdi.

Ertasiga Jildas Tregomen bilan Jyuel kallai saharlab turishdi. Ular Antifer tog'a bilan ko'rishishlari, Zambukoning rad javobidan keyin vujudga kelgan vaziyatni oxirgi marta muhokama qilishlari va tog'ani zudlik bilan qat'iy qarorga kelishga majbur etishlari zarur edi. Narsalarni jomadonlarga joylab, — qanchalik tez bo'lsa shunchalik yaxshi, — Tunisdan jo'nab qolishdan boshqa yana qanaqangi qarorga kelish mumkin? Yosh kapitan aniqlagan xabarlariga qaraganda La-Galettda turgan aloqa kemasi o'sha kuni kechqurun Marselga jo'nashi kerak ekan. Bordi-yu, shu topda amakisi kemada, o'z kayutasida bo'lsa-yu, Afrika qirg'oqlaridan yuz milyacha narida suzib ketayotgan bo'lishsa, Jyuel buning uchun butun borlig'ini ham berishga tayyor edi...

Jildas Tregomen bilan Jyuel koridordan o'tib, Antifer tog'aning eshigini taqillatishdi.

Ichkaridan hech qanday javob bo'lmadi.

Jyuel qattiqroq taqillatdi.

Yana javob bo'lmadi.

Nahotki amakisi yigirma to'rt dyumli to'pdan o'q uzilganida ham uyg'onmaydigan dengizchidek dong qotib yotgan bo'lsa? Yoki... balkim... xafa bo'lib ketib, jon achchig'ida o'zini o'zi bir yoqlik qilib qo'yganimikin?..

Jyuel pillapoyaning to'rt poyasini bir qilib sakrab-sakrab, zing'illagancha pastga tusharkan, ko'z ochib yumguncha eshikbon oldiga yetib keldi, bu orada oyoqlari chalishib ketayotgan Jildas Tregomen zina panjarasini ushlab qolgandi.

– Janob Antifer qayoqda?
– Tong yorishar-yorishmas chiqib ketgandi, – deb javob berdi yosh kapitanning savoliga eshikbon.
– Qayoqqa ketayotganini aytmadimi?
– Yo‘q, aytmadi.
– Nahotki yana o‘sha ablah Zambukoning oldiga ketgan bo‘lsa? – xitob qildi Jyuel, Jildas Tregomenni ergashtirib Dengiz maydoni tomon borarkan.

– Agar u o‘sha yoqda bo‘lsa... demak, rozi bo‘libdi-da... – to‘ng‘illadi Jildas Tregomen.

– Bu mumkin emas! – deb qichqirib yubordi Jyuel.

– Yo‘q, bo‘lishi mumkin! O‘zing bir o‘ylab ko‘rgin-a, Jyuel: u Sen-Maloga, Ot-Sall ko‘chasidagi uyiga mademuazel Talisma Zambukoni yetaklab kirib borsa qanday bo‘ladi-ya? Jajji Enogatimizning oldiga maltalik kelinoyini boshlab borsa-ya? O‘z og‘zi bilan uni maymun demabmidi, axir!

Ular «Fransiya» mehmonxonasi yaqinidagi qahvaxonada ana shunday tashvish va xavotirli o‘ylarga botib o‘tirishardi. Antifer tog‘aning qaytishini shu yerda kutish qulay edi.

Tunda yotib o‘yla, erta turib so‘yla, ancha aqling kirib qoladi deyishardi, biroq aftidan, bu naql hamma vaqt ham to‘g‘ri bo‘lib chiqavermas ekan. Bizga faqat birgina narsa ayon edi: maluinimiz tong saharda maltaliklar dahasi tomonga yo‘l olgan va, xuddi orqasidan zanjirdan yechib yuborilgan bir to‘da it quvib kelayotgandek, bir necha daqiqada bankchining uyiga yetib olgandi.

Zambuko quyosh bilan barobar turib, u bilan barobar yotishni odat qilib olgandi. Bankchi bilan

nurafshon chirog' kunduzgi yo'llarini birgalikda bosib o'tishar edi. Shu boisdan ham Antifer tog'a kirib borganida bankchi go'yo orqasidagi po'lat sandig'ini qo'riqlayotgandek, allaqachon ish stoli yonida o'tirardi.

– Salom, – dedi Zambuko, kirib keluvchining yuzini yaxshiroq ko'rish uchun ko'zoynagini to'g'irlarkan.

– Kechagi so'zingiz qat'iymidi? – deb to'g'ridan-to'g'ri ishga o'tdi Antifer tog'a.

– Ha, qat'iy.

– Basharti singlingizga uylanmasam, menga Komulk poshshoning xatini bermaysizmi?

– Bermayman.

– Unda uylanganim bo'lsin!

– Men buni bilardim! Axir qaylig'ingiz ellik million sep olib keladi-ya!.. Talismaga uylanishdan Rotshildning o'g'li ham o'zini baxtiyor sezardi-ya...

– Juda soz... Demak, men ham baxtiyor bo'larkanman, – deb javob berdi Antifer tog'a aftini bujmaytirib, hatto buni yashirishga ham urinmadi.

– Unday bo'lsa, bu yoqqa yuring, kuyov, – dedi Zambuko.

Shunday deb u zinapoyadan ikkinchi qavatga chiqmoqchidek stol yonidan turdi.

– Singlingiz shu yerdami?! – deb dahshatdan qichqirib yubordi Antifer tog'a.

Uning basharasi o'linga hukm etilgan odamni turma qorovuli: «Qani bo'la qoling... sal dadilroq bo'ling!.. Ha, hukm bugun ijro etiladi», – deb uyg'otayotgan daqiqadagidek qiyofaga kirgandi.

– Sal o'pkangizni bosib oling! Oshiqmang, oshiq yigit! – dedi bankchi. – Nahotki Talismaning Maltadaligini unutib qo'ygan bo'lsangiz?..

– Bo'lmasa qayoqqa boramiz? – dedi Antifer tog'a yengil tin olib.

– Telegrafga.

– Unga bu xushxabarni yetkazganimi?..

– Ha. Keyin uni chaqirtirgani...

– Bu yangilikni singlingizga xabar qilishingiz mumkin, janob Zambuko, illo sizni ogohlantirib qo'yayki... bo'lajak qaylig'imni Tunisda kutish niyatida emasman.

– Sabab?

– Sabab shuki, na sizning, na mening vaqtni bekor o'tkazishga haqimiz bor!.. Orolning geografik o'rni aniqlanishi bilanoq uni izlagani jo'naymiz. Bu ishni aslo paysalga solib bo'lmaydi.

– Ey, kuyov-ey, bir hafta oldin nima-yu, bir hafta keyin nima, baribir emasmi, axir!

– Yo'q, mutlaqo baribir emas! Siz, shuningdek men ham, Komulk poshshoning merosini tezroq qo'lga kiritishimiz zarur!

Ha, ha, Antifer tog'a qanchalik shoshilayotgan bo'lsa, u qurimsoq va nafsi nahang bankchi ham shunchalik oshiqishi lozim. Garchi Zambuko o'z toqatsizligini xotirjamlik va beparvolik pardasiga o'rab-chirmab ko'rsatishga tirishayotgan bo'lsa-da, aslida butun vujudi millionlardan tegadigan ulushini tezroq po'lat sandig'iga solib qulflab qo'yish ishtiyoqi bilan yonardi. Shuning uchun ham suhbatdoshiga e'tiroz bildirib o'tirmadi.

– Yaxshi, men roziman, – dedi u. – Singlimni qaytib kelganimizdan keyin chaqirtira qolar-

man... Ammo singlimni uni kutayotgan baxtdan ogohlantirib qo'yishim kerak.

– Ha... uni kutayotgan! – deb javob berdi Per-Servan-Malo, shuncha yillar mobaynida erga tegishni orzu qilib yotgan qari qizni qanday baxt kutayotganini aniqlab o'tirmay.

– Lekin, avvalo siz menga rasm-qoidalarini o'rniga qo'yib tilxat-bitim berishingiz kerak, – dedi Zambuko.

– Uni yozing, qo'l qo'yib beraman.

– Lafzni buzilsa jarima to'lash sharti bilanmi?

– Mayli. Qancha bo'ladi... haligi... jarimasi?..

– Aytaylik, sizga tegadigan ellik million...

– Xo'p, bo'пти... shu bilan bu gapni tugatdik!

– deb javob berdi Antifer tog'a, chunki mademuazel Talismaga uylanish baxtidan qutulish chorasini topolmaganidan keyin taqdirga tan berishga majbur bo'lgan edi.

Bankchi bir varaq toza qog'oz oldi-da, o'zining yirik-yirik dastxati bilan har bir bandini atroflicha o'ylab, tarozuga solib ko'rib, tilxat-bitim yoza boshladi. Unda, basharti xazina topilganidan o'n besh kun o'tgach kuyov, ya'ni kapitan Antifer mademuazel Talisma Zambukoga uylanishdan bosh tortsa, u chog'da boylikning Komulk poshshoning merosxo'ri sifatida kapitan Antiferga tekkan bo'lagi yaxlitligicha qayliq Talisma Zambuko ixtiyoriga o'tadi, degan shart qayd etildi.

Per-Servan-Malo g'azab bilan peroni qitirlatib tilxat-bitimga imzo chekdi va bankchi bu qog'ozni po'lat sandig'ining maxfiy g'aladoniga yashirib qo'ydi.

Ayni vaqtda u yerdan sarg'ayib ketgan qog'ozni oldi... Bu Komulk poshshoning yigirma yil muqaddam bankchiga kelib tekkan xati edi.

Antifer tog'a ham o'z navbatida cho'ntagidan kartmonini olib, vaqt o'tishi bilan yuqoridagi xatdan kam sarg'aymagan qog'ozni chiqardi... Bu birinchi oroldan topilgan hujjat edi.

Ana, bu ikkala merosxo'rga bir qaranglar-a: ular qilich yalang'ochlab yakkama-yakka olishayotgan raqiblarday bir-birovlarining har bir harakatini ko'z uzmay, diqqat bilan kuzatishyapti; mana ularning qo'llari asta-sekin oldinga uzatilyapti, ushlab turgan hujjatdan ajralishga achinayotgandek barmoqlar dag'-dag' qaltirayapti... Kuzatib turgan odam uchun qanday huzurbaxsh tomosha-ya bu! Yuz million-a! Yana sal siljisa – buning baribir oila ixtiyorida bo'ladi-ya!

– Qani xatingiz? – dedi Antifer tog'a.

– Qani hujjatingiz? – deya takrorladi bankchi.

Mana, almashtirib ham bo'lishdi. Juda vaqtda almashtirib olishibdi-da o'ziyam! Ikkovining ham yuragi shunday tepardiki, yorilib ketishiga bir bahya qolgandi.

Tunisda istiqomat qiluvchi Zambuko ismli kimsaga sen-malolik Antifer degan kimsa olib kelib berishi lozimligi qayd etilgan hujjatda geografik uzunlikni bildiruvchi quyidagi raqamlar ko'rsatilgan edi. Parij meridianidan sharq tomondagi U237.

Yuqorida nomi zikr etilgan tunislik Zambuko huzuriga vaqti-soati bilan sen-malolik Antifer degan kimsaning kelishi bayon etilgan maktubda esa janubiy kenglikni ko'rsatuvchi 3° 17' raqamlari yozilgan edi.

Endilikda ikkinchi orolning qayerda joylashganini aniqlash uchun bu ikkala chiziqning xaritaning qayerida kesishini belgilash qolgandi, xolos.

– Atlasingiz bormi? – deb so‘radi bankchi.

– Atlas va jiyanim ham bor, – javob berdi Antifer.

– Jiyanim deysizmi?

– Ha. Olisga suzadigan kema kapitani, bu ishni o‘sha bajaradi.

– Jiyaningiz qayerda o‘zi?

– «Fransiya» mehmonxonasida.

– Qani ketdik o‘sha yoqqa, kuyov, – dedi bankchi soyaboni keng eski shlyapasini kiya turib.

– Qani ketdik! – dedi Antifer tog‘a ham.

Ikkovlon Dengiz floti xiyoboni tomon yo‘l olishdi.

Ular aloqa bo‘limi ro‘parasiga yetishganda, Zambuko ichkariga kirib, Maltağa telegramma yuborishni taklif etdi.

Antifer tog‘a e‘tiroz bildirmadi. Shunday qilib, bir «fransuz flotining ofitseri» qo‘lini so‘rayotgani, kuyovning badavlatligi va nasl-nasabi ma‘qul bo‘lgani tufayli akasi bunga rozilik bergani haqida mademuazel Talisma Zambuko ogohlantirib qo‘yildi.

Telegramma uchun haq to‘lanib, u ro‘yxatdan o‘tkazilgach, vorisdoshlar yana xiyobonga chiqishdi. Jildas Tregomen bilan Jyuel ularning istiqboliga yugurishdi.

Ularga ko‘zi tushishi bilanoq Antifer tog‘a teskari qarab oldi, biroq bu kechirib bo‘lmas

ojizlikni yengib, takabburona ohangda ularga sherigini tanishtirdi:

– Bankchi Zambuko.

Bankchi bo'lajak kuyovning hamrohlariga adovat bilan xo'mrayib qarab qo'ydi.

So'ngra Antifer tog'a Zambukoga murojaat etib, qo'shib qo'ydi:

– Jiyanim Jyuel... Jildas Tregomen, mening do'stim.

Tog'aning imosi bilan hammalari mehmonxona tomon yurishdi; yo'lda Binni Umar bilan Nozim uchrab qoldi, biroq mazluinlar o'zlarini ularni tanimaganga solishdi.

To'rtovlari zinapoyadan yuqoriga chiqib, Antifer tog'aning xonasiga kirishdi, u eshikni ichkari-dan qulflab qo'ydi.

Tog'a chamadondan Sen-Maloda olivolgan atlasni chiqardi-da, yer yarim sharlari xaritasini ochib, Jyuelga murojaat qildi:

– Sharqiy uzunlikning yetti daraja-yu yigirma uch daqiqasi hamda janubiy kenglikning uch daraja-yu o'n yetti daqiqasi.

Jyuel ranjiganini yashirolmadi. Janubiy kenglik deydimi?.. Demak, Komulk poshsho ularni endi ekvatorning narigi yog'iga jo'natar ekan-da?.. Eh, bechora, jajji Enogat!.. Jildas Tregomenning uning yuziga qaragani yuragi dov bermadi...

– Xo'sh! Nimani kutyapsan? – deb so'radi Antifer tog'a, u bu gapni shunday ohangda aytdiki, yosh kapitanning itoat etishdan o'zga iloji qolmagandi.

U sirkulni qo'liga olib, ignasini yettinchi meridianga qo'yib, buning yoniga yana yigirma

uch daqiqani qo'shdi-da, ekvator chizig'igacha tushdi.

Janubny kenglikning 3°17'nuqtasini topgach, to meridian bilan kesishguncha parallel bo'ylab yurgizdi.

– Xo'sh, nima gap? – deb so'radi yana Antifer tog'a.

– Qasrga borib qoldik?

– Gvineya qo'ltig'iga.

– Aniqrog'i-chi?

– Loango davlati joylashgan kenglikka.

– Bundanam aniqrog'i-chi?

– Mayumba qo'ltig'iga...

– Ertaga ertalaboq Bonga⁴ qatnaydigan dilijonga o'tiramiz, u yerdan esa temir yo'l bilan Oranga jo'naymiz... – dedi Antifer tog'a.

Bu so'zlar, kapitan dushman ko'ringanda: «Hamma yuqoriga!» – deb komanda bergandek, qat'iy ohangda yangradi.

So'ngra Antifer tog'a bankchiga yuzlanib, bunday deb so'radi:

– Siz bizlarga hamroh bo'lsangiz kerak, albatta?

– Shubhasiz.

– Gvineya qo'ltig'igacha-ya?

– Lozim bo'lsa, dunyoning narigi chekkasigacha boraman!

– Juda soz. Safarga hozir bo'lib turing.

– Hozir bo'lib turaman, kuyov.

Jildas Tregomen beixtiyor: «Voh!» – deb yubordi. Bu quloqqa notanish bo'lgan so'z uni shunchalik esankiratib qo'ygandiki, u hatto chiqib

⁴ Bon – Jazoir shahri (Tunisdan g'arbroqda joylashgan).

ketayotgan bankchining istehzoli ta'zimiga javob qaytarishni ham unutib qo'ydi.

Nihoyat, uchala maluin xonada yolg'iz qolishgach, Jildas Tregomen:

– Demak... rozi bo'libsan-da? – deb so'radi.

– Ha, qayiqchi! Xo'sh, yana nima gaping bor?

Yana nima gaping bor, deydimi? O'sha ta'na qilishning nima hojati boriydi?.. Shuning uchun Jildas Tregomen bilan Jyuel indamay qo'ya qolishni ma'zur ko'rishdi.

Oradan ikki soatlar chamasi vaqt o'tgach, bankchi Maltadan telegramma oldi.

Unda mademuazel Talisma Zambuko o'zini barcha qizlar ichida eng baxtiyor deb hisoblashini, endilikda esa ayollar orasida eng baxtiyori bo'lajagini bayon etgandi.

BESHINCHI BOB

*Binni Umarning ikki yo'lni – quruqlik hamda
dengizda yurishni bir-biroviga chog'ishtirishi
uchun imkon tug'ilgani*

U paytlarda hozirgi kunda Jazoirga borib tutashgan tunis temir yo'l shoxobchasi yo'q edi. Sayohatchilarimiz Bonga borib, Konstantin, Jazoir va Oran provinsiyalarini tutashtirgan temir yo'ldan foydalanmoqchi edilar.

Antifer tog'a va uning hamrohlari regentlik poytaxtini tong payti tark etishdi. Bankchi Zambukoning ular bilan birgaligini, shuningdek Binni Umar va Nozimlarning dilijondan kech

qolmay yetib kelganlarini gapirib o'tirmasa ham bo'lar.

Olti kishidan iborat chinakam karvonning o'zginasi bo'ldi-qo'ydi! Biroq bu safar hammalari millionlar ishtiyoqi o'zlarini qayerga chorlayotganini aniq bilishardi. Ikkinchi orolni izlash uchun Loango⁵ muzofoti sohillarini yuvib turgan bepoyon Gvineya qo'ltig'iga ketayotganlarini Binni Umar bilan Soukdan yashirib o'tirishning hojati yo'q edi.

– Lekin juda olis yo'l bosish kerak, – dedi Jyuel Binni Umarga, – yo'l mashaqqatlaridan cho'chiydigan bo'lsangiz, bormay qo'ya qolganingiz ma'qul emasmikin?!

Darhaqiqat, Jazoiridan Loangoga borilguncha necha yuz mil masofani suzib o'tish kerak axir!

Biroq Binni Umar yo'ldan qolishni xayoliga ham keltirmadi, baribir Souk uning bu haqda bosh qotirib o'tirishiga ham qo'ymasdi. Eng muhimi – sehrli million jodudek notariusning ko'z o'ngidan o'tib turardi...

Shunday qilib, 24-aprel ertalab Antifer tog'a Jildas Tregomen bilan Jyuelni, Souk Binni Umarni ergashtirib, Zambuko esa bir o'zi – xullas hammalari Tunis bilan Bon o'rtasida qatnaydigan dilijondan joy olishdi. Ehtimol ular yo'lda o'zaro bir og'iz ham so'zlashishmas, lekin baribir birga safar qilishga majbur edilar.

Kecha kechqurun Jyuelning Enogatga yana bir xat jo'natganidan xabardormiz. Bir necha kundan keyin qizcha va uning onasi Antifer tog'aning endilikda yarmiga kamaygan o'sha mashhur merosi hajrida yer kurrasining qaysi nuqtasi tomon oshiqib

⁵ Loango muzofoti Ekvatorial Afrikada, o'rta Kongoda.

borayotganidan xabardor bo'ladilar. Safarning bu ikkinchi qismi kam deganda bir oy vaqtni oladi, shunday ekan, sevishganlar, mayning o'rtalaridan oldinroq ko'rishmaydilar. Bu maktubni olib Enogat qanchalar diqqat bo'larkin!

Jyuel qaytib kelganidan keyin ham barcha to'siqlar yo'qolib, to'y qilishlari uchun yangi g'ovlar ko'ndalang bo'lmasligiga ishonolganida ham go'rga edi-ya! E-voh... Bunaqangi tog'aga ishonib biron reja tuzish qanchalar mushkul-a!

Jildas Tregomen xususiga kelsak, faqat birgina gapni aytib o'tsa kifoya: sobiq gabara egasi, daryoda suzadigan kemachi peshonasiga taqdir ekvatorni kechib o'tish va Janubiy yarimshar suvlarida suzishni bitib qo'ygan ekan. Qismati shunday ekan, nima ham qila olardi deysiz! Hayot ba'zan g'oyatda antiqa sovg'alarni ehson etadi kishiga. Shuning uchun ham oq ko'ngil Tregomen endilikda hech narsadan taajjublanmaslikka ahd qilgandi. Basharti ikkinchi oroldan Komulk poshshoning o'sha mash'um uchta bochkasi haqiqatan topilganda ham ajablanmasdi.

Shunday bo'lsa-da, bu mulohazalar uning dilijon g'izillab borayotgan yerlarning Breton yalangliklariga mutlaqo o'xshamaydigan manzarasini suqlanib tomosha qilishiga xalal bera olmasdi. Biroq, aftidan, olti yo'lovchi orasida Tunis manzaralarini xotirida saqlab qolishni istagan birdanbir odam uning o'zigina edi.

Dilijon safar uchun juda noqulay bo'lib, buning ustiga imillab borardi. Unga qo'shilgan uch ot lo'killab bir bekatdan ikkinchisiga arang yetib borardi. Jarlarni yoqalab, to'satdan burilib ketadi-

gan past-u baland, ilon izn yo'l bag'rini tog'dan to'shadigan sho'x, o'ynoqi soy-u anhorlar tilib o'tgan Mejer vodiysiga yetganda bag'oyat so'lim manzara kasb etardi. Dilijon toshdan-toshga urilib to'shayotgan shalolalardan kechib o'tayotganda suv g'ildiraklarni deyarli ko'mib yuborardi.

Havo juda yaxshi edi. Moviy, qatra g'uborsiz ko'k gumbazidan quyosh alangali o't purkayotgandek.

Dilijonning chap tomonida ko'zga tashlangan bir to'raning oppoq qasri yaraqlab ko'zni qamashtirib yubordi, unga ham, fikus va majnun-tol singari yerni o'pib turuvchi murch daraxtlari quchog'iga cho'mgan boshqa qasru saroylarga ham faqat ko'kimtir oyna bilan qarash mumkin edi. Goh u, goh bu yerda zebralarga o'xshagan olachipor, sariq chodirlar ko'zga tashlanib qolar, bu chodirlardan jiddiy, kelishgan chehrali arab ayollari va oilarinikidan qolishmaydigan jiddiy qiyofali bolalar mo'ralab turishardi. Olis-olis dalalar, yon bag'irlar, tog' daralarida qo'y suruvlari o'tlab yurar, tog' qoyalarida quzg'unday qop-qora echkilar toshdan-toshga sakrab, irg'ishlardi.

Dilijon yaqinlashganida qamchining sharaqlashidan cho'chib ketgan qushlar gala-gala bo'lib, gurillab ko'kka kutarilishardi. Mayda to'ti qushlar o'zlarining yaltiroq, rang-barang pat-qanotlari bilan ayniqsa ajralib turardilar. Ular juda ko'p, ming-minglab; ona tabiat ularni sayrashga o'rgatgandi-yu, lekin baxtimizga til bermagandi. Shu sababli sayohatchilarimiz behuda vallaqlashni emas, qushlar navosini tinglab borishardi.

Yo'lda bot-bot to'xtab turishardi. Jildas Tregomen bilan Jyuel bu qulay fursatdan foydalanib, oyoqlarining chigilini yozgani dilijondan o'sha zahotiyoq tushishardi. Ba'zan bankchi Zambuko ham ulardan ibrat olib pastga to'shardi, lekin hamrohlari bilan bir og'iz ham gaplashmasdi.

– Bu yoqimtoy chol, – deb qo'ydi Tregomen, – chog'imda, Komulk poshshoning millionlarini qo'lga kiritish o'tida do'stimiz Antiferdan kamroq o'rtanmayotgan ko'rinadi-ku!

– Siz haqsiz, janob Tregomen, vorisdoshlarning birini olib, ikkinchisiga uradigan ekan.

Har to'xtaganlarida Souk dilijondan tushib, garchi o'zini fransuzchani tushunmayotganga solsa-da, ularning suhbatidan aqalli bir necha og'iz so'zni ilib olishga urinardi. Notarius esa dilijonning burchagiga tiqilib olganicha, endilikda dengizda qanday suzishni o'ylab, ichidan zil ketib, qimir etmay o'tirardi. O'rtayer dengizidagi yengil-yelpi to'lqinlardan keyin quturgan Atlantika to'lqinlarida suzishni o'ylaboq ko'ngli behuzur bo'la boshlardi.

Per-Servan-Malo ham o'tirgan joyidan qimirlamasdi; butun fikri-yodi ikkinchi orol – oftob, jazi-rama issiq ufurib turgan, Afrika suvlari qo'ynida qad ko'tarib turgan qoyalar bilan band edi.

Shu kuni, quyosh botar chog'ida, qo'qqisdan oppoq gumbazli va tig'dor uchli minoralari ko'kka bo'y cho'zgan katta-yu kichik talaygina masjidlar to'dasi ko'zga tashlandi. Bu tunis uslubiga xos koloritni daxlsiz ravishda saqlab qolgan, atrofni yam-yashil dov-daraxtlar bilan qurshalgan chog'roqqina Tabarka shaharchasi edi.

Dilijon Tabarkada bir necha soatga to'xtadi. Yo'lovchilar bir mehmonxonaga, to'g'rirog'i karvonsaroyga kirishdi, bu yerda ularni yaxshilab ovqatlantirishdi. Shaharchani tomosha qilish hech kimning xayoliga ham kelmadi. Olti kishidan faqat Tregomengina bu haqda o'ylagan bo'lishi va, balki o'z do'stining iltimosini rad etmasa, Jyuel ham unga qo'shilishi mumkin edi. Ammo Antifer tog'a bir nafasga bo'lsa-da, ushlanib qolmaslik uchun ularning dilijondan uzoqlashishini qat'iyan man etdi. Do'stlar unga qarshilik bildirib o'tirishmadi.

Kechki soat to'qqizda yana yo'lga chiqishdi. Garchi yulduzlar charaqlab turgan bo'lsa-da, huvilagan yerlardan tunda yurish dilijon uchun xatarli edi. Yo'lning nihoyatda yomonligi, qaroqchilar, ayniqsa krumirlar⁶ yoki vahshiy hayvonlar hamla qilib qolishi xavfi sayohatchilarni hamma vaqt hushyor bo'lib o'tirishga majbur etardi. Sokin va zimziyo tun qo'ynida dilijon qalin o'rmonni yoqalab borarkan, ba'zan sher va qoplonlarning o'kirgani aniq eshitilib qolardi. Shunda otlar talvasaga tushib xirillab qolar, ularni tinchlantirish uchun aravakash nihoyatda epchillik ko'rsatishi kerak edi. Ko'rqqoq va vahshiy mushuk bo'lmish sirtlonlarning miyovlashi esa hech qaysilarini cho'chitolmasdi.

Nihoyat soat to'rtlarga borib tong yorisha boshladi. Tun zulmati tongga g'ira-shira yorug'lik bilan almashinib, atrofdagi manzarani ko'z ilg'aydigan bo'lib qoldi.

⁶ Krumirlar – Jazoir va Tunis chegarasida yashaydigan arab qabilasi.

Hali torgina ufqda to'liqsimon tizma tepalar yer yelkasiga yopilgan arab yelkapo'shlariday bo'zarib turardi. Tepalar etagida tolgul chakalakzorlari va qiyg'os gullagan evkaliptzorlarni oralab buralib-buralib, goh sokin, goh qaynab-quturib oquvchi, bo'tana suvli daryodan obi hayot emadigan Mejerda vodiysi yastanib yotardi.

Regentlikning krumirlar o'lkasiga borib taqaladigan bu qismi ayniqsa o'zining ajoyib manzarasi bilan ajralib turadi. Mabodo Tregomen qachon bo'lmasin Tirol bo'ylab sayohat qilganida edi, hozir u o'zini Alp tog'larining eng xilvat bir burchagida yurgandek sezarmidi. Biroq u Tirolida bo'lmagandi va buning ustiga kun sayn yevropadan tobora olislashib borardi. Shu haqda o'yladi deguncha, og'zi qimtilar, chehrasi g'amgin tus olar, quyuq qoshlari chimirilardi – bularning bari ko'ngli g'ash bo'lib, tashvishlanayotganidan dalolat berardi.

Ba'zan yosh kapitan bilan Tregomen ma'nodor ko'z urishtirib olishardi: ular bir-birovlarini so'zsiz ham tushunishardi.

Shu kuni ertalab Antifer tog'a jiyanidan so'radi:

- Qosh qorayguncha qasrga yetib boramiz?
- Gardimauga, amaki.
- Bonga qachon yetamiz?
- Ertaga kechqurun.

G'amnok maluin yana odatdagidek indamas bo'lib qoldi, bunday paytlarda xayoli o'zini Ummon ko'rfazidan Gvineya qo'ltig'iga uloqtirayotgan o'sha orzusida bo'lardi. So'ngra uning fikriyodi yer sharining o'zini qiziqtirayotgan birgina nuqtasiga qadalardi. Shunda u o'z-o'ziga, bank-

chi Zambukoning ham butun diqqat-e'tibori o'sha nuqtada, deb qo'yardi. Darhaqiqat, turish-turmushi, xulqi-atvori, butun tabiati boshqa-boshqa olam bo'lgan, bu dunyoda taqdir taqozosi bilan tasodifan uchrashib qolgan ana shu ikki kimsa shu topda bir-biroviga surgundagilardek kishanlab qo'yilganga o'xshardilar, lekin ular bog'langan zanjir oltindan yasalgan edi.

Fikus o'rmoni tobora qalinlashib borardi. Kanakujutning gul va barglari singari och-yashil tusli barglar orasidan bir-birovidan olis-olisda joylashgan arab qishloqlari ko'zga chalinib qolardi. Bunday yerlarda oldin chaylalar ko'rinardi, yaqinroqdagi soy yoki anhor bo'yida esa podalar o'tlab yurardi. Keyin navbatdagi bekat, ko'pincha odamlar va hayvonlar aralashib-quralashib yotgan ayanchli og'ilxona namoyon bo'lardi.

Kechqurun Gardimauda, aniqrog'i, bir yog'och kulbada to'xtashdi. Uyning atrofini bir necha kulba qurshab turardi. (Oradan yigirma yil o'tgach bu yer Bon bilan Tunis oralig'ida yotqizilgan temir yo'l bekatlaridan biriga aylandi). Ikki soat dam olganlaridan so'ng dilijon (bu so'zsiz karvonsaroyda yengilgina ovqatlanib olish uchun juda ko'p vaqt edi) yana yo'lga tushdi. Yo'l Mejerda vodiysini yoqalab ilan-bilang buralib borarkan, necha bor soy-u anhorlarni kechib o'tildi (shunda ko'pincha suv dilijonning ichiga kirib ketar, o'tirganlarning oyoqlarini jiqqa ivitardi); dilijon shunday tikkalikka ko'tarlardiki, otlarning abzallari dosh berolmay uzilib ketadigandek bo'lib tuyulardi, keyin esa g'izillaganicha yon bag'irdan pastga tushib

ketar, otlar suvliqlarini g'ajirlatib chaynaganicha uchib borar, jilovidan tortib to'xtatib bo'lmasdi.

Garchi bu zimziyo, tumanli tunda biron nimani ko'z ilg'ay olmasa-da, bu yerlar, ayniqsa Muxtor atrofi ajoyib, so'lim joylar edi. Buning ustiga sayohatchilarimizni qirq uch soatlik yo'l azobidan keyin mast uyqu elitib borardi.

Antifer tog'a va uning hamrohlari hosildor vodiylarni Suk-Axras⁷ savdo shahri bilan tutash-tirgan, tepa-yu adirlar yon bag'ridan o'tgan son-sanoqsiz qayrilishu burilishlarga ega bo'lgan olis yo'lni bosib o'tib, shaharga yetib kelganlarida tong yorisha boshlagan edi.

Boplab jihozlangan, Tagast nomli maydondagi shu nomli mehmonxonada o'lgudek tinka-madorlari qurigan yo'lovchilarni juda yaxshi kutib olishdi. Bu galgi uch soatlik hordiq chiqarish unchalik uzoq bo'lib tuyulmadi. Mabodo xushmanzara Suk-Axrasni tomosha qilishni istaganlarida bu uch soat vaqt ularga kamlik qilardi. Antifer tog'a bilan bankchi Zambukolarning shu majburiy to'xtash uchun ham vaqt behuda ketayotganiga toqatlari toq bo'layotganini-ku asti qo'yaverasiz. Shunga qaramay dilijon soat oltidagina yo'lga tushdi.

– Tinchlan, – derdi Jildas Tregomen o'zining qiziqqon vatandoshiga, – Bonga xuddi ertalabki poyezd jo'naydigan paytda yetib boramiz.

– Nega endi kechqurungi poyezdga yetib borishga shoshilmas ekanmiz? – deb e'tiroz bildirdi Antifer tog'a.

⁷ Suk-Axras – Konstantindan sharqroqda joylashgan Jazoir shaharlaridan biri. Ilgarigi nomi – Tagast.

– Bugun poyezd bo'lmaydi, amaki, – deb qo'ydi Jyuel.

– Yo'q bo'lsa nima qipti? Shuning uchun mana shu xilvatgohda qimirlamay yotaverishimiz kerak ekanmi?..

– Manavini qara, qaraya, senga qanaqangi trubkani tanlab olganimni ko'r... Senikining faqat oti qolipti, hammasini g'ajib tashlabsan-a!

Shunday deb, Jildas Tregomen do'stiga Mejerddan olgan, kattaligi ko'k no'xat qo'zog'iday keladigan trubkani tutdi. Antifer uni oldi-yu, og'ziga solib g'ajiy boshladi.

Tregomen Jyuel uchovlari katta xiyobongacha sayr qilib kelishlarini taklif qilgandi, ammo tog'a qat'iyon rad etdi; chamadonidan atlasni olib, Afrika xaritasini ochdi-da, qolgan aqlini ham g'arq qilish taxlikasi ostida Gvineya qo'ltig'i suvlariga shung'ib ketdi.

Jildas Tregomen bilan Jyuel Tagast xiyobonini sayr qilgani jo'nashdi. Bu atrofi sharq me'morchiligi uslubida bino qilingan hashamdor uylar qurshagan va dov-daraxtlar o'tqazilgan kenggina to'rt burchak maydon edi. Hali juda barvaqtliligiga qaramay, hamma qahvaxonalar ochilgan, ular mahalliy aholiga liq to'la edi.

Quyoshning ilk nurlari tushgani hamonoq, tuman pardasi chok-chokidan so'kilib, bir zumda tarqadi-qo'ydi. Hamma narsa ajoyib kun qanot yozayotganidan dalolat berib turardi.

Tregomenning butun vujudi ko'z va quloqqa aylangan edi. U garchi tushunmasa-da yerliklarning suhbatlariga quloq solardi; garchi hech nima olish niyati bo'lmasa-da, qahvaxonalarda, do'konlarda

nima bo'layotganini, nimalar borligini ko'rgisi, hammasini bilgisi kelardi. Injiq qismat uni bu aql bovar qilmaydigan sayohat quchog'iga uloqtirgan ekan, hech bo'lmaganda, iloji boricha ko'proq narsani ko'rib qolsin-da. Shu haqda o'ylarkan, bunday dedi u:

– Yo'q, Jyuel, bizga o'xshab sayohat qilish noisoflik! Hech qayerda to'xtalmasa!.. Suk Axrasda uch soat... Bonda bir kecha bo'lishsa... Keyin esa temir yo'lda, bekatlarda qisqa-qisqa muddatga to'xtab, ikki kun yurilsa, shu ham gapmi!.. Tunisda nimani ko'ra oldim o'zi? Jozzoirda⁸ nimani ko'raman?

– Gapingizga qo'shilaman, janob Tregomen, albatta, bu mutlaqo aqlga to'g'ri kelmaydi, lekin amakimga aytib ko'ring-chi buni, uning: «Bu ko'ngil yozadigan sayohat emas, ish yuzasidan qilinayotgan sayohat!» – deb o'dag'aylab berishini o'zingiz yaxshi bilasiz! Bu sayohatning oqibati nima bilan tugashini hali kim biladi deysiz?

– Ishqilib, oxiri firibgarlik bo'lib chiqmasinda! – deb javob berdi Tregomen.

– To'g'ri, – deb uning gapiga qo'shildi Jyuel, – ikkinchi oroldan ham bizni uchinchi orolga yo'llaydigan bir hujjat topishimiz ehtimoldan xoli emas.

– To'rtinchisiga, beshinchisiga, xullas besh qit'adagi barcha orollarga jo'natishi mumkin, – dedi Tregomen dilsiyohlik bilan, kattakon boshini silkib.

– Siz esa, janob Tregomen, amakim qayerga bormasin, u bilan birga bo'lasiz.

– Men-a?

⁸ Tregomen Jazoir so'zini noto'g'ri talaffuz etyapti.

– Ha. Siz... siz uning bir gapini hech qachon ikki qilolmaysiz-da!

– Bu to'g'ri. Bechoraga juda rahmim keladi, ishqilib butunlay aqldan ozmasa go'rga edi, deb xavotirdaman.

– Gap bunday... Men, janob Tregomen, ikkinchi oroldan keyin hech qayoqqa bormayman degan qat'iy qarorga keldim. Nima, Enogat shahzodaga tegishga, men esa malikaga uylanishga orzuman-damizmi?

– Albatta yo'q! Darvoqe, endilikda boylikni anavi timsohga o'xshagan Zambuko ikkovi bab-baravar bo'lib olishadigan bo'lsa, gap faqat Enogatning gersogga tegishi, sening esa gersoginyaga uylanishing haqidagina borishi mumkin...

– Bunaqa hazilning hojati yo'q, janob Tregomen!

– Afv et meni, bo'tam, buning hech qanaqangi quvonadigan joyi yo'q, mabodo izlash davom etadigan bo'lsa...

– Davom etadigan bo'lsa, deysizmi? – deb qichqirib yubordi Jyuel, – Yo'q, yo'q! Loango qo'ltig'iga borishga, mayli, roziman! Ammo, boshqa hech qayoqqa bormaymiz! Sen-Maloga qaytishga majbur qilaman!

– Bordi-yu, bu qaysar bosh tortsa-chi?

– Agar u bosh tortsa-chi, deysizmi? Unda men-siz o'zi sayohat qilaversin. Men Enogat huzuriga qaytaman. Bir necha oydan keyin u balog'at yoshiga yetib, ixtiyori o'zida bo'ladi, ana shunda har qanaqangi to'siq-g'ovlarga qaramay unga uylanaman!

– Menga qara, bo'talog'im, qo'y, achchig'lanma, jahl chiqsa aql ketadi deydilar, sabr-bardoshli

bo'li! Hammasi joyida bo'ladi, ishonaver menga. Jajji Enogatga albatta uylanasan, to'ylaringda o'zim o'ynab beraman hali!.. Endi mehmonxonaga qaytaylik, tag'in dilijondan kech qolmaylik. Men Bonga qosh qoraymasdan borishni istardim, aqalli shaharning bir qismini tomosha qilib qolay-da, axir! Boshqa shaharlarni, Konstantinni ham. Filippvilni ham poyezd derazasidan ko'ramiz, xolos. Bunaqada nimani ham ko'rib bo'lardi? Agar Bonni ozgina tomosha qilishga ulgursak, keyin Jozzoirda hissasini chiqarib olardim... Menimcha u yerda aqalli bir necha kun tursak kerak-ku.

– Albatta, – javob berdi Jyuel, – Afrikaning g'arbiy sohillariga o'sha zahotiyoq jo'naydigan biron kema topilmasa keragov, shuning uchun chor-nochor kutishga majbur bo'lamiz.

– Kutamiz, bajonidil kutamiz! – deb takrorlardi Tregomen, go'zal Jazoir poytaxtining xushmanzara joylarini sayr qilajagidan quvonib, – Jozzoirni bilasanmi sen, Jyuel.

– Ha, janob Tregomen.

– Menga dengizchilar hikoya qilib berishgandi, dengiz tomon yarim doira shaklida pog'ona-pog'ona bo'lib tushib boradigan bu shahar nihoyatda chiroyli ekan. Biz uning sohil bo'yi ko'chalarini, xiyobonlarini, masjidni qasrlarini tomosha qilamiz... ayniqsa Mustafo qasrini.

– Jazoir – ajoyib shahar, janob Tregomen, – javob berdi Jyuel, – lekin men undan ham chiroyliroq joyi bilaman... Bu Sen-Malo...

– ...va Ot-Sall ko'chasidagi uyin... birinchi qavatdagi shinamgina xonani ham... unda yashaydigan suluv qizni ham bilasan-a! Bu gappingga

qo'shilaman, albatta, bo'tam! Biroq hozir biz bu yerda ekanmiz, aqalli Jozzoirni tomosha qilish umididan bebahra etma meni!..

Ana shu orzu-xayol bilan Tregomen yosh do'stini ergashtirib, Tagast mehmonxonasn tomon jo'nadi. Yo'lga chiqiladigan vaqt ham yetgan ekan: kelganlarida otlarni qo'shishmoqda edi. Antifer tog'a katta-kata qadam tashlab u yoqdan-bu yoqqa borib-kelarkan, garchi ular kech qolishmagan bo'lsa-da, hayallab qolishdi deb to'ng'illab so'kardi.

Tregomen uning yeb yuborgudek o'qrayganini ko'rib, boshini quyi soldi. Bir necha daqiqadan keyin hamma joy-joyini egalladi va dilijon o'ydim-chuqur Suk-Axras qiyamaligidan g'izillab ketdi.

Afsuski, Tregomenga Tunisning bu so'lim joylarini tomosha qilishga ruxsat etishmadi. Bu yerlardan ko'ra xushmanzara joy bo'lmasa kerak: kelajakda temir yo'l o'tqizuvchilarni behisob burilishlarni aylanib o'tishga majbur etgan, tog' tizmalariga o'xshagan tepa-yu adirlar, ko'kka bo'y cho'zgan yam-yashil o'rmon bilan qoplangan jarliklar kesib o'tgandi; o'ralib-chirmashib ketgan dov-daraxtlar uzra yer bag'rini yirtib chiqqan qoyalar posbondek qad ko'tarib turardi; chor atrofda katta-kichik qishloqlar, ularda yerlik aholi chumolidek g'imirlaydi; tunda yirtqich hayvonlardan o'zlarini himoya qilish uchun har bir kulba yonida gulxanlar lovillaydi.

Jildas Tregomen qulay fursat keldi deguncha aravakashni gapga solar va undan bilib olgan narsalarini hamrohlari bilan bajonidil o'rtoqlashardi.

Bir yil mobaynida bu changalzorlarda kam deganda qirqta sher, bir necha yuz qoplon o'ldirilarkan,

nobud qilingan gala-gala chiyabo‘rilarni gapirmasa ham bo‘larkan. Souk esa bu hayratda qoldiradigan hikoyalarni eshitib, beparvogina o‘tirardi, chunki u o‘zini fransuzchani bilmaydigan odam qilib ko‘rsatgan edi-da; Antifer tog‘ani tunis qoplonlari va sherlari zarracha qiziqtirmasdi. Basharti ikkinchi orolda bu yirtqich hayvonlar millionlab yashaganida ham u o‘z yo‘lidan bir qadam orqaga chekinmagan bo‘lardi.

Biroq bankchi va notarius ikkovlari Jildas Tregomenning hikoyasiga diqqat bilan quloq solishardi. Zambuko ba‘zi-ba‘zida qoshlarini chimirib, dilijon eshigidan tashqariga ko‘zlari olayib qarab-qarab qo‘yardi. Binni Umar esa aksincha eshikka qaramaslikka tirishar, g‘ujanak bo‘lib burchakka tiqilar, yo‘l chekkalaridagi qalin changallar orasidan xirillagan o‘kirik eshutilganida dag‘-dag‘ qaltirab, rangi quv o‘chib ketardi.

– Chin so‘zim, – deb hikoya qilardi o‘sha kuni Tregomen, – o‘tgan gal dilijonga vahshiy hayvonlar hamla qilibdi, buni aravakash: aytdi. Yo‘lovchilar yirtqichlarni qo‘rqitmoqchi bo‘lib o‘q ota boshlashibdi... Kecha kechasi bo‘lsa qoplonlar galasini nari haydash uchun dilijonni yoqib yuborishga to‘g‘ri kelibdi.

– Yo‘lovchilarga nima bo‘pti? – deb so‘radi Binni Umar.

– Yo‘lovchilar ot almashtiriladigan bekatchaga piyoda ketishga majbur bo‘lishibdi, – janob berdi Jildas Tregomen.

– Piyoda! – xitob qildi titroq tovush bilan notarius. – Men... men hech qachon bunday qilolmasdim!..

– Unda orqada qolib ketardingiz, janob Umar! Ishoning, biz sizni kutib o'tirmasdik.

Bunday shafqatsiz hamda tasalli bera olmaydigan qo'pol javobning Antifer tog'adan chiqqanini fahmlash unchalik mushkul bo'lmasa kerak. Yo'qsa u suhbatga aralashmagan ham bo'lardi. Shundan keyin Binni Umar o'zining na quruqlikda, na dengizda sayohat qilishga mutlaqo noqobil ekanligiga uzil-kesil ishonch hosil qildi.

Biroq, kun o'tib borar, yirtqich hayvonlarning o'kirishi faqat uzoqdan eshitilardi.

Jildas Tregomen dilijonning Bonga kechasigina yetib borishiga ishonch hosil qilgach, juda xafa bo'lib ketdi.

Darhaqiqat, Bondan uch yoki to'rt kilometr beridagi, Avliyo Avgustinning⁹ maqbarasi tufayli olamga mashhur bo'lgan, qadimiy numidiyaliklar shahri Xippodan o'tishayotganda soat kechki yetti bo'lgandi; bu shaharcha keksa arab ayollarining sehr va jodular bilan shug'ullangani va chuqur-chuqur hovuzlari bilan ham diqqatga sazovor edi. Yigirma yilcha keyin bu yerga kelsalar, yo'lovchilarimiz bu yerda kardinal Lavijerini¹⁰ qudrati tufayli yer ostidan chiqqandek to'satdan paydo bo'lib qolgan bazilika¹¹ devorlari va gospitalni ko'rgan bo'lardilar.

⁹ Avreliy Avgustin, laqabi Avliyo (354–430) – katolik cherkovi asoschilaridan biri; Xippoda yepiskop bo'lgan; undan bir necha aqoid asarlari qolgan.

¹⁰ Sharl Lavijeri (1825–1892) – kardinal. Tunis arxiyepiskopi. Fransiya cherkovining mustamlakachilikka xayrixoh mashhur arboblardan biri.

¹¹ Bazilika – qadimiy rimliklarning jamoat binolari qurilishi uslubidagi qator ustunli, to'rt burchak shaklida cho'ziq qilib qurilgan cherkov.

Bu orada Bon shahrini, qal'a devorlari bo'ylab ketgan dengiz bo'yi xiyobonini, g'arb tomoni qumloq tig' bilan tugaydigan uzundan-uzoq to'lqin to'sarni, sohil bo'yiga soya tashlab turadigan azim daraxtlarni, shaharning Parning bronza haykali qad ko'tarib turgan katta maydonli yangi bunyod etilgan qismini va, nihoyat, Tregomenning aqlini lol qoldirishi mumkin bo'lgan Qasbani¹² zimiston tun o'z zulmat chodiriga o'ray boshlagandi.

Shuni tan olish kerakki, bu ajoyib odamning sira ishi o'ngidan kelmas, omadi yurishmasdi. Ikkinchi Fransiyaning¹³ poytaxtida hammasining hissasini chiqaraman, deb o'ziga-o'zi taskin berardi.

Yo'lovchilar shahar maydonidagi mehmonxonani tanlashdi, ovqatlanib bo'lgach, ertalabki poyezddan kech qolmay, barvaqt turish niyatida soat o'nda uxlagani yotishdi. O'sha kecha, dilijonda bosilgan oltmish soatlik yo'l azobidan g'oyatda toliqqan sayohatchilarimizning hammasi, hatto qaysar Antifer tog'a ham tosh qotib uxlashdi.

OLTINCHI BOB

*Bondan Jazoirga va Jazoir
Dakarga suzish paytida sodir bo'lgan
eng muhim voqealar*

Bon bilan Jazoir shahri o'rtasida temir yo'l o'tkazilganiga Antifer tog'aning imoni komil edi, biroq u yigirma yilga shoshilgan edi. Shuning

¹² Qasba – mavritan uslubida qurilgan saroy-qasr.

¹³ Fransuz matbuotida Shimoliy Afrikadagi Fransiya mustamlakasi Jazoirni shunday deb yozishardi.

uchun ham ertasi kuni mehmonxona egasining shu haqdagi savolga bergan javobi Antifer tog'ani boshi berk ko'chaga kiritib qo'ygandi.

– Bu qanaqasi! Bondan Jazoirga boradigan temir yo'l yo'qmi? – deb qichqirib yubordi Antifer tog'a.

– Yo'q, agar kutib turishga mayllari bo'lsa, bir necha yildan keyin albatta o'tkaziladi-da!.. – deb javob berdi xushchaqchaq xo'jayin.

Shubhasizki, Binni Umarga bundan ma'quli yo'q edi, chunki bu yerda ortiq tutilib qolmaslik uchun yana dengizda suzishga to'g'ri kelardi-da, axir.

Biroq Per-Servan-Malo amirona ohangda so'rab qoldi:

– Yo'lga chiqishga tayyor turgan birorta aloqa kemasi yo'qmikin?

– Bor, u bugun erta bilan yo'lga to'shadi.

– O'shanda jo'naymiz bo'lmasa.

Shu sababli Antifer tog'a besh nafar hamrohi bilan ertalab soat oltida Bondan aloqa kemasida jo'nab ketdi. U besh hamrohidan ikki kishini – Jildas Tregomen bilan Jyuelni – o'zi bilan birga olivolgandi, qolgan uch kishi – Zambuko, Binni Umar va Nozim zaruratdan unga hamroh bo'lishgan edi.

Bu bir necha yuz kilometrlik safar haqida hikoya qilib o'tirmasa ham bo'ladi.

Jildas Tregomen dengizda suzishdan ko'ra po-yezdda safar qilishlarini ma'qul ko'rardi, zeroki ko'z oldidan g'izillab o'tib tursa-da, u bir necha yildan keyin temir yo'l o'tkaziladigan yerlarni vagon oynasidan tomosha qilib borgan bo'lardi. Biroq u Jazoirda hammasining hissasini chiqaraman, degan umidda edi. Agar Antifer tog'a o'zicha, Jazoirda Afrikaning g'arbiy sohillariga boradigan

kema tayyor turibdi, unga o'tiramanu jo'nayman, deb o'ylayotgan bo'lsa, qattiq yanglishadi. Buni istaydimi, yo'qmi, toqat qilishga majbur bo'ladi! Ana o'shanda Tregomen rosa sayr qiladi, shahar atroflariga chiqadi, balki, hatto Maymunlar jilg'asiga sayohat qilishar!

Komulk poshshoning xazinasini topilgan taqdirda ham Jildas Tregomenga hech qanaqangi naf yo'q, keling, bundan naf tegmasa tegmay qo'yaqolsin! Lekin u Jazoir poytaxtini sayr qilib, qanchadan-qancha xotirotlarni eslab qoladi.

Shitob bilan suzib borayotgan kema kechki soat sakkizda Jazoir portiga yetib kelib, langar tashladi.

Mart oyi oxirlarida bu kenglikda joylashgan yerlarning tuni, hatto osmon gumbazida charog'on yulduzlar porlab turgan kechalar ham zimiston bo'ladi. Shaharning shimol qismidagi ulkan bo'lagi g'ira-shira qorayib turardi. Oldinda Qasba, Jildas Tregomen ko'rishni ko'ndan orziqib kutgan o'sha Qasba qorong'ilik qo'ynida ko'krak kerib turardi. Hammalari pristandan tushib, enli pillapoyadan yuqoriga ko'tarilishda, keyin vazmin arklarni oralab, sohilbo'yi ko'chasiga o'tishdi. Chap tomonda chiroqlar nuriga cho'mgan saylgoh bor ekan, Tregomenga qolsa bu yerni jon-jon deb birpas tomosha qilgan bo'lardi; lekin hayallagani vaqt qayoqda edi deysiz. Mana, qarshisida baland-baland binolar ansambli namoyon bo'ldi; «Yevropa» mehmonxonasi shulardan birida joylashgan edi.

Antifer tog'a va uning hamrohlarini bu mehmonxonada quchoq ochib kutib olishdi. Sayohatchilar xonalarni band etib, chamadonlarini qoldirish-

di-da, oshxonaga tushishdi. Bemalol o'tirib soat to'qqizgacha ovqatlanishdi, aloqa kemasini ancha vaqt kutishlari kerak edi, shaharni tomosha qilgani ertalab tiniqib, bardam bo'lib turish uchun, yaxshisi, miriqib uxlab olganlari ma'qul.

Jyuel bunday olis va mashaqqatli yo'ldan keyin dam olib, hordiq chiqarishdan oldin, jazirama va chang-tuzonli Jazoir kuni boshlanishini kutib o'tirmasdan, qaylig'iga xat yozishga qaror berdi. Xatni ertaga jo'natadi, uch kundan so'ng esa Enogat hamma yangiliklardan xabardor bo'ladi. Ammo lekin, bu xatda uni qiziqtiradigan biron nima yo'q edi. Enogat Jyuelning o'zini qo'yarga jon topolmayotganini va uni butun qalbi bilan sevishi haqidagi dil rozini o'qiydi, xolos. Lekin bu qiz uchun ayniqsa yangilik emasdi-da.

Xonasi kelganda shuni aytib o'taylikki, bir tomondan Binni Umar va Souk, ikkinchi tomondan Jildas Tregomen hamda Jyuellar xona-xonalariga tarqalishgan bo'lsa, Antifer tog'a bilan Zambuko, ya'ni qaynag'a-kuyov – butun qonun-qoidasiga amal qilgan holda tuzilgan shartnomaga binoan bir oila iplari bilan bog'langanlari uchun ularni shunday deb atab yanglishmagan bo'lsak kerak? – nima ish yuzasidan ketayotganlari haqida og'iz ham ochmay, ovqatdan so'ng mehmonxonadan g'oyib bo'lib qolishgan edi. Bu hol Tregomen bilan yosh kapitanni hayratga solgandi, albatta. Souk bilan Binni Umar esa shubhasiz tashvishga tushib qolishgandi. Biroq, turgan gapki, bu haqda so'raganlarida ham maluin savollariga javob bermasdi, albatta.

Xo'sh, bu ikki merosxo'r qayerga ketgandi? Ehtimol, Jazoirning xushmanzara joylarini tomosha qilishga oshiqishgandir? Yoki Bob-Azim va boshqa ko'chalarni yo hamon sayr qilib yurganlar bilan gavjum bo'lgan sohil bo'yida kezishni xayol qilishdimikan? Yo'q, bunaqangi taxminlar aqlga to'g'ri kelmaydi, buni hatto xayolga ham keltirish mumkin emas.

– Bo'lmasa nima gap? – dedi Tregomen.

Yosh kapitan va dilijonda o'tirgan boshqa yo'lovchilar gapga aralashmay, indamay kelayotgan Antifer tog'aning bu odatini buzib bir necha bor bankchi bilan shivirlashib gaplashganini yo'ldayoq payqashgan edi. O'shanda Zambuko suhbatdoshining taklifiga rozi bo'lgandek ko'ringandi.

Nimalar haqda maslahatlashishgan ekan-ular? To'satdan g'oyib bo'lib qolishlarini oldindan kelishib qo'yishmaganmikin? Yo biror maxsus rejalari bormikin? Bu ikki badfe'l qaynag'a-kuyovdan sira xayolga kelmagan nayrangni kutish mumkin-da, axir...

Tregomen Jyuelga xayrli tun tilab, o'z xonasiga ketdi. Yechinishdan avval, ajoyib Jazoir havosidan to'yib-to'yib nafas olish uchun derazani lang'illatib ochib qo'ydi. Ko'z o'ngida miltillab turgan yulduzlar xiragina shu'la sochayotgan bepoyon manzara. Langar tashlagan yoki oqshom shabadasi kuzatuvida sohilga yaqinlashib kelayotgan kemalarning ogohlantiruvchi chiroqlari charaqlab turgan butun reydt to Matifu burunigacha namoyon bo'ladi. Baliqchilar ham mash'allarini yoqishgan edi; portning yana berirog'ida esa tund aloqa

kemalari bug' yig'yapti; yo'g'on mo'rilardan qop-qora tutun burqsib, uchqunlar sochilib chiqyapti.

Matifu burunining u yog'ida bir uchi ufqqa borib taqalgan ochiq dengiz yastanib yotibdi, dengiz uzra esa to'p-to'p yaltiroq mo'shaklarday go'zal yulduz turkumlari charaqlab turibdi.

Bu so'lim tun rohatbaxsh ajoyib kunning darakchisiga o'xshaydi. Yana bir necha soatdan so'ng nurafshon quyosh tonggi yulduzlar shulasini puflab o'chiradi.

«Bu ajoyib Jazoir shahrini bir maza qilib sayr etay, – deb o'ylardi Jildas Tregomen, – la'nati Maskatga qilingan sayohatdan keyin, ikkinchi orolni izlash sargardonchiligi boshlangunicha o'tadigan bir necha kundan foydalanib boplab dam olivolay... Peskaddagi Moisey restoranini maqtashgandi menga. Ana o'sha Moiseyda nega endi yaxshilab ovqatlanib olmas ekanmiz?..»

Soat o'nga zang urdi, xuddi shu lahzada eshik taqillab qoldi.

– Senmisan, Jyuel – deb so'radi Jildas Tregomen.

– Yo'q, bu menman, Antiferman.

– Hozir ochaman, qariya.

– Keragi yo'q. Tezroq kiyinib, chamadoningni hozirla!

– Chamadonni deysanmi?

– Qirq daqiqadan keyin jo'naymiz!

– Qirq daqiqadan keyin?

– Tezroq qimirla. Aloqa kemalari kutib o'tirmaydi! Men borib Jyuelni ogohlantiray...

Buni eshitib dovdirab qolgan Tregomen, tushimmi, o'ngimmi, deb so'rardi o'z-o'zidan. Yo'q,

o'ngi ekan! U qo'shni eshikning taqillaganini va tog'aning Jyuelga tur deb buyurayotgan ovozini eshitdi. So'ngra zinapoyaning vazmin odimlardan g'ijirlagani eshitildi.

Shu paytgacha Enogatga xat yozib o'tirgan Jyuel maktub oxiriga hammalari shu kuni kechqurunoq Jazoiridan jo'nab ketayotganlarini shosha-pisha yozib qo'ydi. Zambuko bilan Antifer tog'a shuning uchun g'oyib bo'lib qolishgan ekan-da!.. Ular Afrikaning g'arbiy sohillariga jo'nay deb turgan kema bor yoki yo'qligini bilgani ketishgan ekan-da?.. Ha, shunday bo'lgandi, omadlari yurishib, endi langar ko'taray deb turgan kemani topishgandi. Ular bu kemadan shosha-pisha joy band qilib, Antifer tog'a, o'z hamrohlari bilan maslahatlashishni xayoliga ham keltirmay, o'sha zahotiyoh Tregomen bilan Jyuelni ogohlantirgani mehmonxonaga qaytgandi. Bankchi esa shu topdayoq jo'nab ketishlarini Binni Umar bilan Nozinga xabar qildi.

Tregomen narsalarini chamadoniga joylarkan, alam bilan umidlari sarobdek puchga chiqqanini o'ylardi. Biroq tog'a bilan bahslashib o'tirish befoyda edi. Boshliq buyurgandan keyin itoat etmoq kerak.

U xuddi shunday deb o'ylab turgan onda xonaga Jyuel kirib keldi.

– Siz bundan bo'lishini kutmaganmidingiz? – so'radi u.

– Aslo, bo'tam, – janob berdi Jildas Tregomen, – garchi amakingdan har narsani kutishim kerak bo'lsa-da, buni kutmagandim!.. Men Jozoirida aqalli ikki kun sayr qilaman deb umid qilib

o'tribiman-a!.. Portni aytmay-sanmi!.. Botanika bog'ini-chi?.. Qabsa-chi?

– Na chora, nima ham qila olardik, janob Tregomen. Haqiqatan omadimiz yurishmadi-da. Jo'nab ketishga tayyor turgan kemanding bemavrud topila qolganini aytmay-sizmi?

– Shuni qara-ya! Nihoyat toqatim-tok bo'ladiganga o'xshaydi! – deb o'dag'ayladi Jildas Tregomen, darg'azab bo'lib.

– Afsuski, janob Tregomen, toqatingiz-toq bo'lib, qarshilik ko'rsatolmay-siz-da... Agar bunga jur'at etgan chog'ingizda ham, amakim trubkasini g'ajib, bir o'qrayib ko'ysa bas...

– Gaping to'g'ri, Jyuel – deb javob berdi Tregomen boshini ham qilib, – unga itoat etaman-qo'yaman. Sen meni yaxshi bilasan-kul!.. Har qalay, juda alam qiladi-da... Anavi Peskaddagi Moisey restoranining lazzatli taomlaridan huzur qilib yemoqchi bo'lganimni aytmay-sanmi, el burundan og'zimning suvi kelib yuribdi-ya!..

Bu afsus-nadomatdan hech qanday naf yo'q edi. Bechora chuqur xursinib qo'yib, narsalarini yig'ishtirib bo'ldi. Un daqiqadan keyin ikkovlari ham pastga tushishdi. Antifer tog'a, bankchi Zambuko, Binni Umar va Nozimlar o'sha yerda ekanlar.

Agar kelganlarida izzat-ikrom bilan kutib olishgan bo'lsa, bir kecha-kunduzga to'liq haq to'laganlariga qaramay, mehmonxonadagilar ular bilan juda sovuq xayrlashishdi. Jyuel maktubini aloqa yashigiga tashladi. So'ngra hammalari sohil bo'yi tomon yo'l olishdi, portga olib boradigan zinapoyadan pastga tushisharkan, Jildas Tregomen

chiroqlar porlab turgan Gubernator xiyoboniga so'nggi bor g'amgin nigoh tashladi.

Qirg'oqdan to'qson-to'qson besh metrcha narida bir aloqa kemasi langar tashlab turar, kuchli bug' bosimi ostida qozonning guldurashi eshitilardi. Mo'risidan burqsib chiqayotgan qopqora tutun yulduzli osmonga o'rlab, havoni ifloslantirardi. Qattiq-qattiq chalinayotgan hushtak ovozi kemaning tezda langar ko'tarajagidan xabar berardi.

Pristanda yo'lovchilarni kutayotgan qayiq chayqalib turardi. Antifer tog'a va uning hamrohlari qayiqdan joy olishdi. Eshkaklar bir necha bor ishga solindi va qayiq dam o'tmay kema yoniga yetib bordi.

Jildas Tregomen hushini yig'ishtirib olmasdanoq o'zini Jyuel bilan bir kayutada ko'rdi. Antifer tog'a bilan Zambuko boshqasini, notarius bilan Souk esa uchinchi kayutani egallashdi.

«Katalan» yuk va yo'lovchilar tashuvchi Marsel kemachilik kompaniyasiga qarashli kema edi. U Afrikaning g'arbiy sohillari bo'ylab Sen-Lui va Dakargacha muntazam qatnar, zarur bo'lib qolgan taqdirda, yo'lovchilarni olish yoki qirg'oqqa tushirish, yuk ortish yoki yuk tushirishi uchun yo'ldagi portlarda to'xtab o'tardi. G'oyatda yaxshi jihozlangan bu kema o'ndan o'n birgacha uzel¹⁴ tezlikda suza olardi – bu bunday qatnov uchun mutlaqo kifoya edi.

Antifer tog'a va uning hamrohlari yetib kelgandan chorak soat o'tgach, quloqni batang

¹⁴ Uzel – 1,87 km keladigan uzunlik o'lchovi, kemalarning bir soatlik yurish tezligi uzel hisobi bilan belgilanadi.

qiladigan oxirgi hushtak chalinib, langar ko'tarildi va «Katalan»ning butun asosi bir silkinib, olg'a intildi; atrofga oppoq ko'pik taratib, parraklari shitob bilan aylana boshladi; «Katalan» langar tashlab turgan kemalarni chetlab o'tib, O'rtayer dengizida qatnaydigan, uyquga cho'mgandek qimir etmay turgan bahaybat yuk tashuvchi kemalar bilan tenglashdi, keyin to'lqinto'sar va harbiy anjomlar ombori oralig'idan suzib borib ochiq dengizga chiqib, g'arb tomonga yo'l oldi.

Tregomenning ko'z o'ngida, tuman orasida ko'ringandek, ustma-ust qalashib ketgan allaqanday hashamdor binolar namoyon bo'ldi. Bu Tregomen-ga yaqinidan tomosha qilish nasib etmagan o'sha Qasba edi. Keyin sohilda Peskad buruni ko'zga tashlandi. G'oyatda lazzatli buyyabes¹⁵ tayyorlanadigan mashhur Moisey restorani o'sha yerda joylashgan edi. Jildas Tregomenning «Jozzoir»da ko'rgan-kechirgani shugina bo'ldi, xolos...

O'z-o'zidan ayonki, kayutadagi yumshoq, uzun kursiga o'zini guppa tashlagan Binni Umar portdan chiqqa boshlaganlaridayoq dengiz kasalining barcha lazzatlarini tatib ko'rish baxtiga muyassar bo'lgandi. Yana shu yo'ldan qaytishni o'ylashning o'zi ko'nglini behuzur qilardi... Baxtiga, bu uning dengizda eng oxirgi suzishi bo'ladi... Ikkinchi orolda zoriqib kutgan o'z ulushini albatta qo'lga kiritadi!.. Yonida yana bitta shu kasaldan azob chekayotgan biron odam bo'lganda, ikkovlashib dard tortishsa ancha yengil bo'lardi, albatta. Ming bora afsuski,

¹⁵ Buyyabes – sarimsoq va zirravorlar solib pishiriladigan baliq sho'rva, Fransiyaning janubida yashovchilarning milliy ovqati.

hamrohlaridan aqalli birontasining ko'ngli behuzur bo'lmasa-ya! Hech kim unga hamdard bo'lishni istamasdi. Birovning uziga o'xshab bu darddan iztirob chekayotganini ko'rib o'z ko'ngliga tasalli berish nasib etmagandi unga...

«Katalan»dagilarning aksariyati sohildagi portlarga qaytayotgan dengizchilar, bir necha senegallik va dengiz piyoda askarlari bo'lib, ular dengiz tasodiflariga o'rganib ketgandilar. Hammalari kema yukini tushirish lozim bo'lgan Dakarga ketishmoqda edi. Shuning uchun ham yo'lda hech qayerda to'xtamasliklari kerak edi. Antifer tog'a «Katalan»ga tez va osongina chiqib olgani uchun xayolan o'z-o'zini maqtardi.

– Dakarga yetib borish maqsadga erishdik degan gap emas, – dedi Zambuko.

– To'g'ri, – uning gapiga qo'shildi Antifer tog'a, – men Jazoiridan to'ppa-to'g'ri Loangoga boradigan kemani topishni umid ham qilmagandim. Dakarga yetib borganimizdan keyin biron chorasini toparmiz.

Darhaqiqat, o'zgacha yo'l tutish mumkin emasdi. Shubhasizki, sayohatning so'nggi qismida talaygina mushkulliklar tug'iladi, bu narsa bo'lajak qaynag'a-kuyovni nihoyatda tashvishga solib qo'ygandi.

«Katalan» tun bo'yi ikki-uch mil masofada sohil yoqalab suzib bordi. Tenes chiroqlari ko'rindi, keyin Al-Mars elas-elas ko'zga tashlandi. Ertasiga ertalab Oran tepaliklari yonidan suzib o'tishdi. Oradan bir soat o'tgach Marsul-Kabir reydi yastangan baland burun kema ortida qoldi.

So'ngra chap tomonda, olisda bitmas tuganmas ilvasinlar bilan ta'minlovchi Rif viloyatining baland tog' tizmalari ko'kka bo'y cho'zgan Marokash sohillari namoyon bo'ldi. Oradan yana biroz vaqt o'tgach, ufqda quyosh nurlarida yaraqlab ko'zni qamashtiruvchi Tetuan ko'rindi; undan narida, bir necha mil g'arbda, ikki qo'ltiq o'rtasida qad ko'targan qoya ustiga joylashgan ispan qalasi Seuta ko'zga tashlandi. Seuta O'rtayer dengiziga kiraverishdagi ikki tabaqali darvozaning bir tabaqasi bo'lib, qarama-qarshi sohildagi ingliz qal'asi singari bo'g'ozni nazorat qilib turadi¹⁶. Undan so'ng esa bu kengbar bo'g'oz bepoyon Atlantik okeani bilan qo'shilib ketadi.

Marokash sohillaridagi yam-yashil o'rmonlar bilan qoplangan tog' tizmalari yaqqolroq ko'zga tashlana boshladi. Qo'ltiq burilishi ortiga yashiringan Tanjerning narigi yog'idagi yashil dov-daraxtlar orasidagi masjid va ko'rkam, hashamdor binolar ko'zni qamashtirardi. Dengiz g'oyatda gavjum: talaygina yelkanli kemalar Gibraltar bo'g'oziga kirish uchun muvofiq shamolni kutib, to'planib turardi.

Biroq, «Katalan»ning noiloj to'xtashdan hech qanday cho'chiydigan joyi yo'q edi. O'rtayer dengiziga kiraverishda qutqu soladigan na shamol, na kuchli oqim bu aloqa kemasining qudratli parragiga qarshi tura olardi, shuning uchun ham kechki soat to'qqizlarda u o'zining uchta parragi bilan Atlantik okeanining suvlarida jo'yak tortib borardi.

Tregomen bilan Jyuel dam olishdan avval palubaga chiqib, suhbatga tushib ketishdi. «Kata-

¹⁶ Bu yerda gap Gibraltar bo'g'ozini haqida ketyapti.

lan» janubi g'arbdagi burunni aylanib o'tib, Afrika qit'asining eng chekkadagi nuqtasiga yetganda ikkovlarining ham ko'ngillariga bir xil g'amgin fikr kelgani mutlaqo tabiiydir.

– Ha, bo'tam, – dedi Jildas Tregomen, – bo'g'ozdan chiqqan changa emas, o'ngga burilganimizda qanday soz bo'lardi-ya. Aqalli Fransiyaga ters burilib, undan olislashib ketmasmidik...

– Unda... qayoqqa borardik? – dedi Jyuel.

– Jahannamga ravona bo'larmidik deb cho'chiyman unda! – javob berdi Tregomen, – Qo'limizdan nima ham kelardi deysan, Jyuel. sabr qilishga to'g'ri keladi! Odamlar tupkonni tagidan ham qaytishadi, ularga jahannam ham hech gap emas!.. Bir necha kundan keyin Dakarda bo'lamiz, Dakardan esa Gvineya qo'ltig'ining eng ichkarisiga suzib boramiz.

– Borishimiz bilanoq Dakardan yana yo'lga chiqa olamizmi, yo'qmi, bu hali noma'lum. U yerlarda muntazam qatnaydigan kemalar yo'q. U yerda bir necha haftalab qolib ketishimiz hech gap emas, bordi-yu, amakim o'zicha ikkinchi orolga yetib olish osongina ish deb xayol qilayotgan bo'lsa...

– Shubha qilmay quyaqol – albatta xayol qiladi!..

...qattiq yanglishadi!.. Hozir nimani o'ylayotganimni, bilasizmi, janob Tregomen?

– Yo'q, bo'tam, lekin sen...

– Gap bunday, menimcha bobom Tomas Antifer o'sha lanati Komulk poshshoni Yaffa qoyalarida tashlab ketganida ma'qul ish qilgan bo'lardi-da...

– O Jyuel! Bu baxti qaro odam...

– Agar bobom uni o'sha yerga tashlab ketganida, bu misrlik millionlarini xaloskoriga vasiyat qilib qoldirmasdi, agar u boyligini vasiyag qilib qoldirmaganda amakim xazinani izlab, adashib-uloqib yurmasdi va men allaqachon Enogatga uylangan bo'lardim!

– Hammasi to'g'riku-ya, – deb javob berdi Tregomen, – lekin o'rnida sen bo'lganingda ham, Jyuel, xuddi bobonga o'xshab bu baxtsiz poshshoning hayotini saqlab qolarding, albatta. Anavini qara, – deb qo'shib qo'ydi, u chap tomonda yaraqlab turgan nuqtani ko'rsatib, – qanaqa o't bo'ldi bu?

– Bu Spartel¹⁷ burunidagi chiroqlar, – javob berdi yosh kapitan.

Haqiqatan ham bu bir necha yevropa davlatlarining mablag'lari bilan ta'minlanib turadigan, Afrika qit'asining eng g'arbiy nuqtasida joylashgan mashhur mayoq, Afrika sohillarini yuvib turgan okeanni o'z shu'lasini bilan yoritib turuvchi mayoqlar zanjirining birinchi halqasi edi.

«Katalan»ning bosib o'tgan yo'lini bundan batafsil hikoya qiladigan bo'lsak juda ko'p joyni band etardi. Havo suzish uchun juda qulay edi. Shamol qit'a tomondan esar, shuning uchun bema'lol sohilga yaqinlashib suzaversa bo'lardi. Shunday ajoyib havoda ohistagina mavjlanib turgan osoyishta dengizda suzib borayotgan kemada dengiz kasalidan azob chekadigan odam barcha Umarlar ichida chinakamiga eng sezgir, tabiatan nozik kimsa bo'lishi kerak-ku!..

¹⁷ Marokash sohilida, Tanjer yaqinidagi burun.

Sohil doim ko'z o'nglarida edi. Meknes, Mogador tepalari, dengiz sathidan ming metr balandlikka ega bo'lgan Tezat tog'lari, Tarudant va Marokash chegarasining so'nggi nuqtasi Jubi buruni birin-ketin yaqqol ko'z oldilaridan o'tib borardi.

Jildas Tregomenga Kanar orollarini ko'rish nasib etmadi, chunki «Katalan» shu orollar guruhiga kirgan eng yaqin Fuerteventura orolidan ellik milcha naridan o'tib ketgandi, lekin u Raka tropikasini kesib o'tishdan oldin Bahodir burunini qutlash baxtiga musharraf bo'ldi.

Ikkinchi may kuni choshgohdan keyin Blan buruni ko'rindi. Ertasiga ertalab quyosh zar kollarini endi yoya boshlagan pallada Portendik yonidan suzib o'tishdi va nihoyat sayohatchilar ko'z o'ngida Senegal sohillari namoyon bo'ldi.

Bizga ayonki, hamma yo'lovchilar Dakarga ketishayotgandi, shuning uchun ham «Katalan» bu fransuz mustamlakasining poytaxti Sen-Luida to'xtamadi.

Shunisi ham borki, Dakar dengizchilik borasida Sen-Lunga qaraganda muhimroh port edi, aftidan. Braziliyaning Rio-de-Janeyro va Argentina respublikasining Buenos-Ayres shaharlariga Atlantika okeani orqali qatnaydigan kemalar safarga chiqishdan oldin shu yerda to'xtab o'tadilar. Antifer tog'a uchun esa Loangoga yetib olish uchun Dakardan biron kemani topish osonroq bo'ladi, albatta.

Nihoyat 5-may kuni tonggi soat to'rtlarda «Katalan» mashhur Yashil Burunini ortda qoldirdi. Keyin qiyalatib ushlangan bayroqni eslatuvchi uch burchak shaklidagi yarim orolni aylanib o'tib,

kema Afrika qit'asining Atlantika okeanidagi eng chekka nuqtasiga yetib keldi. Shu yerga yetganda yarim orolning o'ng burchagiga joylashgan Dakar ko'zga tashlandi. Shunday qilib, kema Jildas Tregomen tomosha qilolmay dog'da qolgan «Jozoir» dan bu yergacha sakkiz yuz le masofani bosib o'tgandi.

Senegal Fransiyaga qaram bo'lgani tufayli Dakarni Fransuz tuprog'i deb hisoblash mumkin edi, biroq bu yerdan Fransiya qanchalar olisda edi shu topda!

YETTINCHI BOB

*Dakarga qadam qo'yilgan daqiqadan
boshlab to Loangoga yetib borgunlaricha sodir
bo'lgan turli voqealar*

Ilgarilari birov, bir kuni kelib Jyuel bilan birgalashib Dakarning sohil bo'yi ko'chalarida sayr qilasan desa, Jildas Tregomen hech qachon ishonmagan bo'lardi. Mana hozir, Binni Umar bilan Souk doim birga yurganidek, bir-birovidan ajralmaydigan Antifer tog'a bilan bankchi Zambuko fransuz kemachilik agentligiga yo'l olishgan bir paytda u qo'shqavat granit to'lqinto'sar bilan o'ralgan portni tomosha qilib yurardi.

Aytarli diqqatga sazovor joyi bo'lmagan bu shahar bilan tanishib chiqishga bir kun ham kifoya edi. Bu yerda chiroyligina jamoatchilik istirohat bog'i, shahar garnizoni istiqomat qiladigan qal'a, baland tepalikka joylashgan Bal-Yer kasalxonasi mavjud bo'lib, ma'murlar sariq bezgak kasali

bilan og'rigan bemorlarni ana shu kasalxonaga yotqizardi. Mabodo sayohatchilarimiz Dakarda ko'proq turib qolishadigan bo'lsa, har bir kun ularga yil bo'lib tuyularmidi.

«Biroq taqdirdan nolimaslik kerak», – deb tasalli berishardi Jildas Tregomen bilan Jyuel bir-birovlariga. Ular sohil bo'yida sayr qilishdi, nazoratchilar kuzatuvida ishlayotgan mahbuslar xizmati tufayligina doim chip-chinniday bo'lib turadigan quyosh nuriga g'arq ko'chalarni kezishdi.

Sayohatchilarimizni hammadan ko'ra ko'proq Bordo bilan Rio-de-Janeyro orasida qatnaydigan kemalar qiziqtirardi, albatta; 1862-yilda bu kemalar yo'lovchilar va yuk tashish Imperiya bo'limi ixtiyorida edi. Garchi Senegalning savdo muomalasidagi mablag' o'sha paytdayoq yigirma besh million frankni tashkil etsa-da (buning ko'p qismi fransuz mustamlakachilariniki edi), Dakar bu yillarda hali asosiy yuk ortish va tushirish punkti emasdi. Shahar aholisi to'qqiz ming kishidan oshmasdi, biroq portni oyoqqa turg'azish va kengaytirish borasida ko'rilgan tadbirlar natijasida vaqt o'tishi bilan aholi tobora ko'paya bordi.

Senegallik negrlarni umrida ko'rmagan Tregomen endilikda ular bilan Dakar ko'chalarida tanishdi. Gavdalarining baquvvatligi, boshlarini qalpoqdek qoplab olgan qalin jingala sochlari jazirama quyosh nurida ham o'zlarini yaxshi his qilishlaridan dalolat berib turardi.

Jildas Tregomen jazirama issiqdan azob chekardi. U kattakon katak-katak ro'molini boshiga yopib olgandi, ro'molcha oz bo'lsa-da soyabonlik xizmatini o'tardi.

– Yo tangrim, qanaqangi issig‘-a bu! – deb xitob qildi u. Yo‘q, men tropikada yashash uchun yaratilmagan ekanman!

– Bu hali holva, janob Tregomen, – javob berdi Jyuel, – ekvatoridan bir pecha daraja janubroqqa, Gvineya qo‘ltig‘iga boraylik, ana unda ko‘rasiz...

– U yoqda simobdek erib ketsam kerak, – dedi u, – uyga esa faqat terim bilan suyaklarim qaytadi-da!.. Lekin bundan ham adoyi tamom bo‘lib qaytish mumkin emasdirov, shunday emasmi? – deb qo‘shib qo‘ydi u oh ko‘ngillik bilan iljayib, yuz-ko‘zidan quyilayotgan marjon-marjon terini artarkan.

– Ha! Hozir ham ancha-muncha ozgansiz, janob Tregomen, – deb qo‘ydi yosh kapitan.

– Rostdanmi?.. Eh-ha! Meni skeletga aylantirish unchalik oson ish emas! Menimcha, odamlar inson go‘shini yeydigan bunaqa o‘lkalarga kelganda hatto ozg‘inroq bo‘lgan ma‘qulroq... Sen nima deb o‘ylaysan, Gvineya qo‘ltig‘i sohillarida odamxo‘rlar hali ham bormikan-a?

– Hozir ular aytarli ko‘p emas... Menimcha shunday bo‘lsa kerak, – javob berdi Jyuel.

– Juda soz, bo‘tam, garchcha moyliligimiz bilan yerliklarning ishtahasini qo‘zg‘ab, og‘zidan so‘lakayini keltirmaganimiz bo‘lsin! Kim biladi deysan, ikkinchi oroldan keyin uchinchisini... hatto qarindosh-urug‘lar bir-birovini yeydigan o‘lkalardan izlashga to‘g‘ri keladimi hali...

– Avstraliya yoki Tinch okean orollaridagiga o‘xshab deysiz-da, janob Tregomen!

– Xuddi shunday! Aytishlaricha, u yoqdagi yerliklarning hammasi odamxo‘rlar emish!

Tregomen qisman haq edi, zeroki bu o'lkalarda haqiqatan ham odam yeyishday dahshatli odat tarqalgan edi¹⁸.

Biroq, Antifer tog'aning bunchalik aqldan ozib, o'z millionlarini qidirib odamxo'rlar yashaydigan mamlakatlarga boradi, deb o'ylash hali-hozircha podadan oldin chang chiqarish degan gap edi. Jyuel bilan Tregomen tog'aning bunday safarga chiqishiga, garchi uni hatto jinnixonaga jonlab qo'yishsa hamki, baribir to'sqinlik qilishardi.

Jildas Tregomen va Jyuel mehmonxonaga qaytishdi, Antifer tog'a bilan Zambuko shu yerda ekan.

Fransiya vakili vatandoshini izzat-ikrom bilan kutib oldi. Lekin shunisi ham borki, tog'a Dakardan Loangoga jo'nay deb turgan bironta kema yo'qmi, degan savoliga noxush javob oldi. U yoqqa aloqa kemalari muntazam qatnab turmas ekan, har holda, bir oyda bir martadan ortiq bo'lmas ekan. To'g'ri, Serra-Leone – Gran-Bassam oralig'ida kema qatnab turarkan, u bir hafta yo'l bosarkan, biroq Loango u yerdan-bu yerga qaraganda ham olisda ekan. Xullas, u yoqdan Dakarga birinchi kema yetti sakkiz kundan ilgari yetib kelmas ekan. Eh, attang! Bu xilvatgohda bir haftagacha suvliqni g'ajib, bekor yotilarkan-da. Buning ustiga bu suvliq har kuni bittadan trubkani g'ajib-kemirib kelayotgan Per-Servan-Maloning o'tkir tishlariga dosh beradigan qora po'latdan yasalgan bo'lishi kerak.

Rostiga ko'chganda, Dakarning bir haftasi yilga teng edi. Portni tomosha qilish, shaharning

¹⁸ Asosan diniy marosimlardan kelib chiqqan bu odat allaqachonlar barham topib ketgan.

sharqiy chekkasidan o'tadigan daryogacha, aniqrog'i uning tarmog'igacha sayr etish sayohatchilar uchun bir kunlik ermak bo'la olardi, xolos. Shu sababli sayohatchilarimiz chor-nochor sabr-toqatli bo'lishga majbur edilar, faylasufona bardoshga ega bo'lmagan kishilar uchun bu unchalik oson emasdi. Biroq, bu borada layoqati tahsinga sazovor bo'lgan Jildas Tregomendan boshqa birontalari na sabr-toqatdan, na faylasufona mushohadadan bahramand edi. Agar Antifer tog'a bilan Zambuko o'zlarini merosxo'r sifatida tanlagani uchun Komulk poshshoni kechayu kunduz duo qilayotgan bo'lsalar, ayni vaqtda xuddi shularning o'zginasi boyligini bunday olis yerga keltirib ko'mgani uchun unga la'natlar o'qib, go'riga g'isht qalardilar. Ummon ko'rfazi yetmagan ekan, endi ularni Gvineya qo'ltig'iga yo'llab, sarson-sargardon qilib qo'ydi-ya! Nahotki bu misrlik boyligini yashirgani bundan ko'ra tuzukroq hamda ovloqroq orolchani yevropa dengizlaridan, aytaylik, O'rtayer, Boltiq, Shimol yoki Qora dengizdan, hech bo'lmaganda Atlantika okeanining sohilga yaqin joylaridan topolmagan bo'lsa? Balki poshsho haddan ziyod ehtiyotkorlik choralarini ko'rib shunday qilgandir. O'tgan ishga salavot, endi hech nimani o'zgartirib bo'lmaydi, faqat o'z ulushlaridan voz kechishlarigina mumkin... voz kechish? Qani, bu gapni Antifer tog'aga yoki bankchi Zambukoga, yoki hatto Souk arqonday eshib, burindan chizimcha o'tkazib olgan notariusga aytib ko'ring-chi!

Bu odamlar orasidagi aloqa iplari tobora zaiflashib borardi. Ular o'rtasida uch guruh: Antifer – Zambuko, Umar – Souk, Jyuel – Tregomen

guruhlari vujudga kelgandi. Ular^ʼ alohida-alohida turishar, faqat ovqat paytida koʻrishishar, sayrga chiqqanlarida duch kelmaslikka harakat qilishar, uchrashib qolganlarida ham asosiy gapdan ogʻiz ochmaslikka tirishishardi. Har kim oʻz sherigi bilangina suhbatlashardi...

Birinchi guruhdagi Jyuel bilan Tregomenning suhbati odatdagidyok doim bir mavzuda: sayohatning nihoyatda choʻzilib ketayotgani; kuyovkelinning judoligi va toʻylarining ortga surilgani; shuncha izlash na zahmat chekishning oqibati firibgarlik boʻlib chiqishidan xavfsirash; biri uchun amaki, ikkinchisi uchun doʻst boʻlgan kimsaning ruhiy kayfiyati, uning kundan kunga asabiylashib borayotgani, agar avhol shunday davom etaversa aqldan ozib qolishi turgan gap ekani haqida borardi. Bularning bari iloji boricha Antifer togʻaning jigʻiga tegib, jahlini chiqarmaslik hamda uni safar davomida yolgʻiz qoldirmaslikka qatʼiy ahd qilgan Tregomen bilan yosh kapitanni qattiq qaygʻuga solardi.

Ikkinchi guruhni Antifer togʻa bilan Zambuko tashkil etardi. Inson xulqi-tabiatini oʻrganuvchi olim, bu boʻlajak qaynagʻa-kuyovni kuzatsa qanchalar ajoyib maʼlumotlar olgan boʻlardi. Biri — shu kungacha sokin viloyat shahrida osoyishta yashab kegan isteʼfodagi dengizchiga xos oddiygina didli, turmushga oqilona koʻz bilan qaraydigan, endilikda esa oltin va boylik vasvasasiga muhtalo boʻlib, bu oltinlar sarobi shuʼlasidan koʻzlari qamashib, aqldan ayrilayozgan oddiy bir odam edi. Ikkinchisi allaqachon behisob boylik toʻplagan, ammo qalbida oʻz boyligini tinimsiz orttirishdan

bo'lak istak-ishtiyoqi yo'q, faqat pul-davlati yanada ko'payadigan bo'lsa har qanday qiyinchilik, xavf-xatarga, hattoki jondan kechishga ham tayyor bir qurumsoq odam edi.

– Shunday bedavo joyda bir hafta po'panak bosib yotamizmi-ya!-deb ta'kidladi Antifer tog'a. – Yana kim biladi deysiz, bu la'nati kema kechikib qoladimi hali?..

– Bundan tashqari, – javob berdi bankchi, – bizni Loangoga tashlab o'tishga ko'nadimi, yo'qmi, bu noma'lum. Undan u yog'iga, Mayumba bo'g'ozigacha yana ellik le yo'l bosish kerag-a!

– E! U yog'iga o'ylab, bosh qotirib o'tirarmidim! – deb qichqirdi maluin tutoqib.

– Ertami, kechmi, baribir bu haqda bosh qotirishga to'g'ri keladi, – deb qo'ydi Zambuko.

– Yaxshi... keyinroq bo'lsa bo'la qolsin, padariga la'nat! To'xtaladigan joyga yetmasdan, chuqur yerda langar tashlab bo'lmaydi-ku, axir. Avval Loangoga yetib olaylik, keyin u yog'i bir gap bo'lar.

– Kema kapitanini portga kirib o'tishga unata olarmiz balki... Axir, u yerda to'xtab o'tsa, unchalik yo'lidan chetga chiqib ketmaydi-ku?

– Bilmadimov, bunga haqqim yo'q, deb ko'nmasa kerak.

– Buning uchun unga kattagina mukofot va'da qilamiz, – deb so'zida turib oldi bankchi.

– Ko'ramiz, Zambuko... Siz nuqul meni mutlaqo xavotirga solmaydigan narsalar haqida tashvishlanasiz-a! Eng muhimi – Loangoga yetib olish, u yerdan Mayumbaga har qanaqasiga bora olamiz. Jin ursin! Axir oyoqlarimiz soppa-sog',

agar zarur bo'lsa, basharti Dakardan jo'nashning boshqa chorasini bo'lmasa, men sira ikkilanib o'tirmay, sohilni yoqalab ketaveraman.

– Piyodami?

– Ha, piyoda.

– Per-Servan-Malo, bu aytishga oson! Bunday yo'l bosishning xavf-xatari, turli to'sqinliklar va qiyinchiliklarni nima qilasiz? Liberin, Fil Suyagi Sohili, Ashanta, Dagomeya, Gran-Bassam mamlakatlari bo'ylab sakkiz yuz le yo'l yurish kerag-a!

Yo'q, bu yo'lni kemada bosib o'tgani uning uchun bir baxt-ku, shunday bo'lsa piyoda yurishning xavf-xatarlaridan qutuladi-da! Basharti safarda qatnashishni istaydiganlar topilgan chog'da ham birontalari sog'-omon qaytmasligi mumkin edi. Unda mademuazel Talisma Zambuko Maltadagi o'z uyida g'oyatda dovyurak kuyovni behuda kutgan bo'lardi.

Shunday qilib, bir haftada yetib kelishi kutilayotgan aloqa kemasida jo'nashga rozi bo'lishdan o'zga iloj qolmagan edi. Ammo Dakarda vaqtning qanchalar imillab o'tishini aytmaysizmi!

Uchinchi guruh, Souk bilan Umar, tamoman boshqa xususda suhbat qurardi. Murodning o'g'il oroliga yetib olishga va Komulk poshshoning boyligini qo'lga kiritishga oshiqmayotgani sabab emasdi bunga! Binni Umarning o'takasini yorib, u faqat birgina narsa: ikkala merosxo'rni qanday yo'l bilan talash qulayligi haqida bosh qotirardi. Agar u ilgari bir to'da kallakesarni yollab, Soxordan Maskatga qaytishda hamla qilishni o'ylab qo'ygan bo'lsa, endilikda ham xuddi shu

niyatini Mayumbadan Loangoga qaytayotganlarida amalga oshirishga qaror berdi. Yerliklar va yaqin atrofdagi mustamlakachilar savdo-sotiq olib boradigan joylardagi kontrabandachilar orasidan har qanday ishga tayyor, hatto odam o'ldirishdan ham toymaydigan, mo'maygina haq to'lansa har qanaqangi jinoiy ishlarda bajonidil qatnashadigan odamlarni yollay olardi.

Soukning ana shu rejalari, garchi olijanoblik vajidan bo'lmasa hamki, bunaqangi iflos ishga aralashib qolishdan cho'chiganidan quyon yurak Binni Umarning o'takasini yorardi. Qo'rqinch va dahshat hissi uni biron daqiqa ham tark etmasdi.

U hatto cho'chinqirab bo'lsa-da, Soukka e'tiroz bildirmoqqa jur'at etdi. U, Antifer tog'a va uning hamrohlari osonlikcha jon berib qo'ya qoladigan odamlardan emas, deb ta'kidladi. Yana u, Soukka yollanadigan odamlarga har qancha katta haq to'laganda ham, baribir bu razillarga aslo ishonib bo'lmaydi, deb uqtirishga harakat qildi. Ertami, kechmi, baribir bir kun kelib ular og'izlaridan gullab qo'yishadi, ana unda bu jinoyat haqidagi mish-mish butun mamlakatlarga tarqaladi. Qing'ir ishning qirq yilda qayig'i chiqadi, deganlaridek, nihoyat haqiqat yuzaga qalqib chiqadi. Sirning sirliciga qolishiga hech qachon, hatto mana shu vahshiy o'lkalarda ham ishonib bo'lmaydi, chunki bu ish Afrikaning eng qoloq viloyatlarida yo'q qilingan tadqiqotchilarga aloqador bo'ladi...

Bundan shu narsa, ya'ni notarius keltirgan dalillarning bu xatti-harakatning jinoyatli ekani emas, balki qachon bo'lmasin jinoyat oshkora bo'lishidan qo'rqayotgani o'z-o'zidan ko'rinib

turibdi. Har qalay, Soukka o'xshagan odamga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan birdan-bir dalil shu edi.

Biroq haqiqatda esa bu narsa unga zarracha ta'sir etmadi. U hayotida bunaqa ishlarning ko'pini ko'rgan edi-da! Shuning uchun ham Souk odatdagiday notariusga teshib yuborgudek o'qrayib qo'ydi-da, bunday deb janob qildi:

– Meni sotish faqat birgina ahmoqning qo'lidan kelishi mumkin!

– Kim ekan u, janobi oliylari?

– Bu sen, Binni Umar.

– Men?

– Ha. Lekin ehtiyot bo'! Odamlarni mum tishlatib qo'yadigan shunaqangi yo'llarim borki!

Binni Umar butun a'zoyi badani qaltirab, boshini quyi soldi. Mayumba va Loango yo'lida bitta ortiqcha odamni asfalasofilinga jo'natish Souk uchun hech gap emasligini u juda yaxshi tushunardi.

Orziqib kutilgan kema 12-may kuni ertalab Dakarda langar tashladi.

Bu Luziganiyaning¹⁹ tropik Afrikadagi kattagina mustamlakasining asosiy porti Sen-Pol-de-Luandoga yo'lovchi va yuk tashiydigan «Sintra» nomli Portugaliya kemasi edi. Bu kema hamisha Loangoda to'xtab o'tardi. Kema ertasiga tong chog'ida yo'lga chiqishi kerakligi sababli sayohatchilarimiz undan joy olishga shoshildilar. Kema o'rtacha hisobda soatiga to'qqiz-o'n mil tezlikda yo'l bossa bir hafta suzishlari kerak edi. Binni Umar dengiz

¹⁹ Luzitaniya – Portugaliyaning qadimiy nomi. Bu yerda gap Portugaliya mustamlakasi Angola haqida boryapti.

kasalining barcha azoblariga oldindan tayyorgarlik ko'ra boshlagandi.

Ertasiga ertalab, Dakarga bir necha yo'lovchini tushirgan «Sintra» portni tark etganda havo juda ajoyib edi, qirg'oqdan mayin shamol esib turardi.

Antifer tog'a bilan bankchi, go'yo bir haftadan beri sira nafas olmagandek, ko'kraklarini to'ldirib yengil tin olishdi. Bu oxirgi dovon. Ikkinchi orol tuprog'iga qadam qo'yiladigan va orol o'z bag'rida sadoqat bilan saqlayotgan boyliklarini bag'irlariga bosadigan onga oz qoldi.

Bu orolning tortish kuchi tabiat qonunlariga mutanosib ravishda oraliqdagi masofa kvadratiga yaqinlashganlari sayin tobora ortib, «Sintra»ning parragi har bir aylanganida buning aksicha oraliqdagi masofa tobora qisqarib borardi...

Ming bora afsuski, Jyuel uchun esa aksincha bu masofa borgan sayin olislashardi. U o'zini Enogat intizorlik bilan kutayotgan Fransiyadan, Britandan tobora uzoqlashib borardi. U qaylig'iga Dakarga yetib kelishlari bilanoq, keyin esa ertaga yo'lga to'shamiz deganlarida xat yozib yubordi, bechora qiz tez kunda yorining yana olislashib ketganidan xabardor bo'ladi. Yigit qachon qaytishini taxminan bo'lsa-da, xabar qila olmadi.

Souk birinchi navbatda «Sintra»da Loangoga ketayotgan yo'lovchilar bor-yo'qligini bilishga harakat qildi. Bu o'lkani biladigan, uzoq o'lkalarga omad izlab ketayotgan odamlar orasida o'ziga sherik bo'lishga rozi, vijdoni na shubha-gumon, na ta'na-malomat hissiyotlariga beriladigan muttahamlar yo'qmikin? Biroq bu borada janobi oliylarining omadlari yurishmadi. Ahvol shunday ekan,

u muttahamlarni Loangodan izlab topadi, albatta! Baxtlari chopmaganini qarangki, na u, na Binni Umar portugalchani bilardi. Bu qaltis ish xususida muzokara olib borish va ochiqchasiga, aniq-tiniq gaplashib olish uchun nihoyatda mushkullik tug'dirardi. Binobarin, Antifer tog'a, Zambuko, Jildas Tregomen va Jyuellar ham xuddi shuningdek o'zaro gaplashish bilangina kifoyalanishga majbur edilar, chunki kemadagilardan biron kimsa fransuz tilini bilmasdi.

Biroq «Sintra»da faqat birgina kimsa ham quvonar, ham taajjublanardi, bu notarius Binni Umar edi. Bu galgi safar davomida u o'zini juda yaxshi his etdi desak, sal lof qilgan bo'lamiz. Lekin u ilgarigidek qattiq azob chekmadi. Qit'a tomondan mayingina shabada esar, dengiz osoyishta edi, «Sintra» sohildan ikki yoki uch mil masofada deyarli chayqalmay, sokingina suzib borardi.

Butun safar, hatto kema Gvineya qo'ltig'iga kirib Palmas burunini aylanib o'tganida ham, ana shunday osoyishta davom etdi.

Darhaqiqat, sohildan betinim shabada esar, odatda tez-tez shunday bo'lib turardi. Qo'ltiq ham xuddi okean singari osoyishta, kema suzishi uchun juda qulay edi. Bu orada «Sintra» Loango tomon yo'l oldi va qit'adagi tepalar ko'zdan yo'qoldi. Ashanta, Dagomeya yerlari va hatto dengiz sathidan uch ming to'qqiz yuz oltmish metr baland bo'lgan Kamerun tog'lari cho'qqisi ham ko'rinmay qoldi²⁰.

19-may kuni, choshgohdan keyin Jildas Tregomenni sal hayajon bosdi. Jyuel ekvatorni kesib

²⁰ Bu yerda Kamerun haqida gap ketyapti. Aniq hisoblarga qaraganda uning balandligi 4070 metr.

o'tayotganlarini unga aytgandi. Shunday qilib, «Go'zal Ameliya»ning sobiq egasi hayotida birinchi marta – shubhasizki, so'nggi marta – Janubiy yarimsharga qadam qo'yayotgandi-da, axir! Rans daryosidagina suzib yurgan dengizchi uchun bu qanchalar romantik voqea edi! Shuning uchun ham u, boshqa yo'lovchilar singari, ekvator chizig'ini kesib o'tishlari sharafiga «Sintra» matroslariga bir piastрни sidqidildan ehson etdi.

Ertasiga kun chiqar paytida «Sintra» Mayumba joylashgan kenglikda, undan taxminan yuz milcha berida suzib borardi. Kapitan agar Loango davlatiga qarashli bu gavanda to'xtashga ko'nganida Antifer tog'a bilan uning hamrohlarini ozmuncha qiyinchilik, ozmuncha xavf-xatarlardan xalos etgan bo'larmidi-ya! Agar kapitan shunday qilganida ular sohil bo'ylab qilinajak og'ir sayohatdan qutulgan bo'lardilar.

Tog'aning qistovi bilan Jyuel «Sintra»ning kapitanidan bu haqdagi fikrini bilishga urinib ko'rdi. Portugaliyalik inglizchani sal-pal bilarkan, ingliz dengizchilari lahjasini ozgina bo'lsa-da, bilmaydigan bironta dengizchi bormikan o'zi? Jyuelga kelsag-u, bizga ayonki, bu tilda qiynalmay gapirardi, maskatlik soxta tilmoch-bilan gaplashishda, boshqa paytlarda ham shu tildan bimalol foydalangan edi. U kapitanga Mayumbada to'xtab o'tishni taklif etdi. Bu sal burilib o'tish kema safarini atigi qirq sakkiz soatgina uzaytirishi mumkin... Albatta, bu kutilmagan ushlanib qolish, ortiqcha sarf qilingan ko'mir va ekipaj iste'mol qiladigan oziq-ovqat evaziga kattagina haq to'lashlarini ayt-

di. Kema egasining ko'radigan zararini qoplashlarini gapirib o'tirmasa ham bo'ladi, dedi.

Kapitan Jyuelning taklifini tushunganmikin o'zi? Ha, bunga shubhalanmasa ham bo'ladi, buning ustiga Jyuel geografik xaritani yozib qo'yib tushuntirgan edi. Dengizchilar bir-birlarining gapi tugamasdanoq tushunib olishadi. Darhaqiqat, mo'maygina mukofot va'da qilayotgan olti nafargina yo'lovchini Mayumbaga tashlab o'tish uchun, ketayotgan yo'lidan salgina sharq tomonga buri-lishdan ko'ra osonroq ish borakanmi? Biroq kapitan bu taklifni rad etdi. Kemachilik ustavini buzolmas ekan! Modomiki kema Loangoga yuk tashish uchun yollarga ekanmi, bas u to'ppa-to'g'ri Loangoga boradi. Loangodan esa Sen-Pol-de-Luandoga borish kerakmi — hech yoqqa og'ishmay, to'g'ri Sen-Pol-de-Luandoga boradi. Hatto kemasini oltin barobariga sotib olganlarida ham boshqa joyga bormaydi! Kapitanning aytgan gapi shu bo'ldi, Jyuel buni juda yaxshi tushundi va amakisiga tarjima qilib berdi.

Antifer tog'aning g'azabi qo'zib ketdi va kapitanni buralab so'kib, haqoratlarga ko'mib tashladi. Biroq unga hech nima ta'sir qilmadi, agar Jyuel bilan Tregomen o'rtaga tushmaganida tutoqib o'zini yo'qotib qo'ygan tog'ani manzilga yetgunlaricha tryumga qamab qo'yishlari ham ehtimoldan holi emasdi.

Shu voqeadan keyin ikki kun o'tgach, 21-may kuni kechqurun «Sintra» Loango sohillarini to'sib turgan uzundan-uzun qumloq til yonida to'xtab, betoqat yo'lovchilarni tushirdi va bir necha soatdan keyin Portugaliya mustamlakasining poytaxti Sen-Pol-de-Luando tomon jo'nab ketdi.

SAKKIZINCHI BOB

Antiqua yuk ortilgan kema va uning halokati

Ertasiga ikki kishi jazirama quyosh nuridan qochib, baobab daraxti soyasida qizg'in suhbat qilishardi. Ular Loangoning asosiy ko'chasidan ketayotib tasodifan uchrashib qolishdi, bir-biroviga ko'zi tushib g'oyatda taajjublandilar.

– Bu senmisan! Bu yerda nima qilib yuribsan?
– xitob qildi birinchisi.

– Ha... menman! – deb javob berdi ikkinchisi.

Birinchisi Souk edi; u ikkinchisiga, Barrozo degan portugaliyalikka imo qildi va ikkovlari shahardan chiqib ketishdi.

Souk Barrozoning tilini bilmasdi, lekin Barrozo misrda ko'p yillar yashagan va janobi oliylarining tilida bemalol gaplashardi. Ularning eski qadrdon ekanini bir ko'rishdayoq fahmlab olish mumkin edi. Barrozo bir vaqtlar qalloblik va qaroqchilik bilan shug'ullanadigan Soukning hisobiga yashagan muttaham-gazzoblar to'dasidan edi. Hukmdorning mirshabxonasi Soukning hamma ishlaridan xabardor bo'lsa-da, ma'lum va mashhur Murodning o'g'li ekanini bilganidan uni bezovta qilmasdi. Ammo bir necha shov-shuvga sabab bo'lgan ishdan keyin jazosiz qolishlari mumkin emasligini bilib butun to'da to'zib ketdi. Barrozo ham g'oyib bo'lib qoldi. U Portugaliyaga qaytgandi, biroq vatanida bu tabiiy iste'dodi ish bermadi. Shu tufayli Lissabonni tashlab, Loangodagi savdo tashkilotlaridan birida ishlagani jo'nadi. O'sha paytlarda mustamlaka

savdosi bir qator tovarlarni olib chiqib ketish man qilingani sababli yo'q darajaga kelib qolgandi, chetga fil suyagi, xurmo moyi, yer yong'oq va qizil daraxt yog'ochi chiqarish bilangina chegaralanib qolgandi, xolos.

Ellik yoshlarga borib qolgan bu portugaliyalik hozir «Portalegri»²¹ nomli kattagina kemani bosh-qarardi. Bu kema sohil bo'ylab qatnar va yerlik savdogarlarga qaram edi.

O'tmishi ayon, vijdon degan narsadan asar qolmagan, ayni vaqtda ilgarigi qaroqchilik hunari oqibatida g'oyatda dovyurak bo'lib ketgan Barrozo o'ylagan jinoiy rejalarini muvaffaqiyatli amalga oshirishida Souk muhtoj bo'lgan odamning xuddi o'zginasi edi.

Ular Maskatdagi banyanga tenglashtirib bo'lmaydigan, biroq tanasiga hatgo yigirma kishining quchog'i yetmaydigan baobab ostida to'xtab, gaplasha boshladilar. Antifer tog'a va uning hamrohlari hayotiga tahdid soluvchi o'z rejalari haqidagi gaplarni bu yerda birov eshitib qoladi deb cho'chimasalar bo'lardi.

Ular bir-birovlariga portugaliyalik Misrdan ketib qolgan paytdan beri boshdan kechirganlarini hikoya qilib berishdi, keyin janobi oliylari to'g'ridan-to'g'ri ishga o'tdi. Souk ehtiyotkorlik qilib suhbatdoshidan qo'lga kiritmoqchi bo'lgan boylikning haqiqiy qiymatini yashirdi-yu, lekin ochko'z Barrozoning ishtahasini qo'zg'ab qo'yishga tirishib, mo'maygina pul ishlab olishi mumkinligini aytdi.

— Shunday qilib, — dedi u, — menga dovyurak, mard bir yordamchi kerak...

²¹ «Portalegri» — Portuliyadagi bir shaharning nomi.

– Meni yaxshi bilasiz, janobi oliylari, – deb javob berdi portugaliyalik, – o‘zingizga ayonki, men hech qanaqangi ishdan tap tortmayman...

– Agar o‘zgarib ketgan bo‘lmasang, Barrozo!

– Qanday bo‘lsam, o‘shandayligimcha qolganman.

– Shuni bilib qo‘y: to‘rt kishi asfalasofilinga jo‘nashi kerak... ehtimol, Binni Umar degan kim-sadan ham xalos bo‘lishni lozim topsam, beshinchisi ham... Men hozir uning gumashtasi hisoblanaman, otim esa Nozim.

– Bitta ortig‘u bitta kam – baribir, – javob berdi Barrozo.

– Ishning misi chiqib qolmasligi uchun unisini ham daf qilgan ma‘qul, bu hech gap emas.

– Sizning ahdingiz...

– Mening rejam mana bunday, – dedi Souk, gaplarini hech kim eshitmayotganiga qanoat hosil qilib. – Men aytayotgan odamlarning uchtasi fransuz: malun Antifer, uning oshnasi va jiyan, innaykeyin Zambuko degan tunislik bankchi, hozir ular Loangoda, bu yerdan Gvineya qo‘ltig‘idagi orollardan biriga ko‘milgan xazinani qo‘lga kiritgani jo‘nashadi...

– Qo‘ltiqning qayeridaykin? – deb so‘radi Barrozo shoshilib.

– Mayumba bo‘g‘ozidagi orollardan birida, – javob berdi misrlik. – Ular u yoqqa quruqlikdan borishmoqchi, men boyliklarni olib Loangoga qaytayotganlarida hamla qilsak ma‘qul bo‘larmidi, deb o‘ylab qo‘ydim. Ular Loangoda, o‘zlarini Dakarga eltib qo‘yadigan Sen-Pol-de-Luandodan keladigan kemani kutish niyatidadir.

– Bundan oson ish yo‘q, janobi oliylari! – deb uning gapini tasdiqladi Barrozo. – Bunaqangi qulay ishga doim tayyor o‘n-o‘n ikki sodiq yigitni topishga kafolot beraman. Agar munosib haq to‘lansa, ular sizga albatta, jon-jon deb yordam berishadi...

– Bundan hech qachon shubhalangan emasman, Barrozo. Omadimiz kelishiga ishonaman: bu kimsasiz, xilvat joylarda hamlamiz imi-jimida bo‘lib, yopig‘liq qozon yopig‘ligicha qolib ketadi.

– Shubhasiz, janobi oliylari. Biroq men sizga bundan ko‘ra qulayroq yo‘lni tavsiya etishim mumkin.

– Xo‘sh, gapir!

– Men hajmi yuz ellik tonnalik sohil bo‘ylab qatnaydigan «Portalegri» kemasini boshqaraman. Unda sohil bo‘ylab qatnab bir portdan ikkinchisiga yuk tashiladi. Ana shu kema ikki kundan keyin Mayumbadan sal shimolroqda joylashgan Baraka dyu Gabonga jo‘nashi kerak.

– E-ha! deb qichqirib yubordi Souk. – Bu qulay fursatdan foydalanib qolish kerak! Antifer piyoda yurish xavf-xatarlari va mashaqqatlaridan qutulish uchun sening kemangga chiqishga albatta ko‘nadi. Sen bizlarni Mayumbada qoldirib, yuklaringni Gabonga eltib tashlaysan-da, qaytishda bizni kemangga olivolasan. Loangoga qaytayotganimizda esa...

– Tushundim, janobi oliylari.

– Kemangda qancha odam bor?

– O‘n ikki kishi.

– Sen ularga ishonasanmi?

– O‘zimga ishonganday ishonaman.

– Gabonga qanday yuk olib borasan?

– Yer yong‘oq va bundan tashqari oltita filni olib boraman; ularni Barakadagi bir savdo tashkiloti sotib olgan, Gollandiyaga, sirkka jo‘natadi.

– Sen fransuzchani bilmaysanmi?

– Yo‘q, janobi oliylari.

– Shu narsa yodingda bo‘lsin, boshqalar uchun men fransuzchani bilmayman ham, tushunmayman ham... Sen bilan gaplashishni Binni Umarga yuklayman, Maluin bu taklifga ko‘nadi, albatta.

Ha, ikkala merosxo‘rning Gvineya qo‘ltig‘idan qaytishda talanib, xonavayron bo‘lib, o‘z hamrohlari bilan birgalikda halok bo‘lishlariga hech qanday shubha qolmagandi.

Bu jinoyatning sodir bo‘lishiga kim xalal bera olardi? Jinoyatchilarni kim izlab topa olardi?

Loangoning Angola va Bengeladan²² farqi Portugaliya hukmdorlariga mute edi. Bu shimol tomondan Gabon, janubdan Zair daryolari bilan chegaralangan maydonda joylashgan, ko‘p o‘tmay Fransiya asoratiga to‘shadigan Kongo qiroliklaridan biri edi. Biroq o‘sha paytlarda Lopes buruni va Zair oralig‘idagi mayda-chuyda qirollar Loangoga tobe bo‘lib, unga asosan qullar bilan boj to‘lab turardi: Kassanj, Tomba-Libalo va bir necha boshqa kichik-kichik, tarqoq o‘lkalar ana shunday mute qiroliklardan edi. Negrlarning jamoat tuzumi quyidagicha edi: eng tepada podshocha va uning xonadoni, keyin oliy nasab kimsalar, yani malikalarning farzandlari, malikalarning erlari, ulardan keyin esa kohinlar, ma‘budlar, yoki yanga; ularning rahnamosi Shitoma – muqaddas

²² Bengela – Portugaliyaning Angola mustamlakasidagi bir viloyat.

shaxs va nihoyat dallollar, savdogarlar, mushtariylar, xullasi oddiy xalq turardi.

Qullarga kelsak, ular g'oyatda behisob edi. To'g'ri, negrlarni endilikda chetga chiqarib sotilmasdi, qulfurushlikning man' etilishi yevropa davlatlari aralashuvining samarasi edi. Qulfurushlikning man' etilishiga balki inson erkinligi na qadraqimmati yo'lida g'amxo'rlik ko'rsatish to'yg'usida'vat etgandir? Aslo! Jildas Tregomen bunday deb hisoblamasdi va u Jyuelga:

– Basharti qand lavlagidan shakar olishni kashf etmay, hamon qahvaga shakarqamish qandini solib ichishda davom etaverganlarida, negrlarni qul qilib sotish shu kungacha davom etgan bo'lardi va abadil-abad shunday bo'lib qolaverardi! – derkan, shubhasiz inson tabiati va hayotini juda yaxshi bilishini ko'rsatgandi.

Biroq, garchi qirol Loangoning mutlaq hukmdori bo'lsa-da, Loango davlatidagi barcha yo'llar hushyorlik bilan qo'riqlanadi, yo'lovchilar esa har qanday xavf-xatardan himoya qilinadi, degan gap emasdi bu. Shuning uchun ham quruqlikdami, dengizdami, biror jinoiy ishni bajarish borasida bu yerlardan ko'ra qulayroq joyni topish amri-mahol edi.

Xuddi ana shu fikr Jyuel ko'ngliga qutqu solar, ayniqsa quruqlik bo'ylab borishdan xavotirda edi. Basharti ruhiy osoyishtaligi buzilgan amakisi bu xaqda tashvish tortmayotgan ekan, yosh kapitan Mayumba bo'g'ozigacha sohil bo'ylab ikki yuz kilometrlik masofani piyoda bosib o'tish haqida xotirjamgina, vahimasiz o'ylay olmasdi. U bu haqda Jildas Tregomen bilan suhbatlashishni o'zining burchi deb bildi.

– Xo'sh, sen nimani istaysan o'zi, bo'tam? – dedi Tregomen unga. – Qadahga may limmo-lim qilib quyib qo'yilgan, endi uni ichishgina qolgan-ku!

– Bir o'ylab ko'ring-a, – davom etdi Jyuel, – Maskatdan Soxorgacha bosib o'tilgan yo'l bu yerdagisi bilan solishtirilganda shunchaki bir ko'ngil yozar sayohat edi-ku axir, bundan tashqari sheriklarimiz ham ajoyib odamlar edi unda!

– Aytgancha, Jyuel, Loangoda yerliklardan karvon yollash mumkin emasmikin?..

– Men bu yerlik negrlarga ularning qoplon, sirtlon, sheru yo'lbarslariga ishonganimchalik ishonmiyman!

– Eh-a! Bu yerda hali shunaqa hayvonlar ham bor de?

– To'lib-toshib yotibdi, zaharli qora ilonlar, zahrini to'ppa-to'g'ri betga sohadigan ko'zoynakli ilonlar, o'n metrlik boa bo'g'ma ilonlarga o'xshagan o'rmalovchi marazlarni gapirib o'tirmasa ham bo'ladi.

– Juda ajoyib joy ekan, bo'tam! Rost, poshsho janobi oliylari boshqa birorta bundan ko'ra ajoyibroq joyni tanlasalar ham bo'lardi-ku! Seningcha yerliklar...

– ...nihoyatda aqliy jihatdan kam taraqqiy etgan, umuman Kongo aholisi shunaqa, biroq bu dahshatli o'lkaga kelishga jur'at etgan tentaklarni gumdon qilish va talash borasida farosatlari yetarli...

Bu suhbatning nihoyasi Jyuelning qanchalik xavotirlanayotganini va Jildas Tregomenning bunga batamom qo'shilganini aniq-tiniq ko'rsatib turardi. Shu sababli Souk tilmochlikni o'z

zimmasiga olgan Binni Umar ko'magida, Antifer tog'a hamda tunislik bankchini portugaliyalik Barrozo bilan tanishtirganida xuddi yelkalaridan tog' qulagandek ikkovlari ham o'zlarini yengil his etishdi. Demak, bu xatarli joylardan piyoda yurishmas ekan, bunday chidab bo'lmas issiqda mashaqqatli olis yo'lni bosib o'tishdan qutuladigan bo'lishibdi-da! Souk ilgaritdan Barrozo bilan tanish ekanini aytmadi. Jyuel bu ikki yaramasni oldinroq uchrashganini xayoliga keltirmagandi, shu tufayli u hech narsadan shubhalanmadi ham, eng muhimi, Mayumbaga dengiz orqali yetib olishadi. Havo juda ajoyib... U yerga qirq sakkiz soatda yetib borishadi. Kema ularni portda qoldirib, Barakaga qarab jo'naydi, orqaga qaytishda ularni boyliklari bilan qo'shib olib qaytadi... Keyin ular Loangoga borishadi, u yerdan esa yaqin orada jo'naydigan aloqa kemasi Marselga eltib quyadi... Yo'q-yo'q! Hech qachon omad Per-Servan-Maloga bunchalik kulib boqmagandi! Albatta, olib borib qo'ygani evaziga haq to'lash, ha-ha, kattagina haq to'lashi kerak! Biroq, buning nima ahamiyati bor!..

To mamlakatning ichkarisidan keltiriladigan oltita fil «Portalegri»ga yuklangunicha Loangoda ikki kun kutib turish kerak edi. Shuning uchun ham odatdagidek yangi taassurotlarga chanqoq bo'lgan Jildas Tregomen va yosh kapitan kongoliklar o'z tillarida «banza» deb ataydigan bu mo'jazzgina shaharchani zo'r qiziqish bilan tomosha qilishdi.

Tegrasi to'rt ming besh yuz metrlik bu ko'hna Loango, yoki Buala, shahri palma o'rmoni oralig'iga qurilgandi. Shahar rafiya²³ yog'ochlaridan qurilib,

²³ Rafiya – patsimon barglaridan tola olinadigan afrika palmasi.

usti papirus barglari bilan yopilgan kulbalar qurshovidagi talaygina savdo faktoriylaridan iborat edi. Portugaliyaliklar, ispanlar, fransuzlar, inglizlar, gollandlar, nemislarning savdo idoralari bor edi bu yerda. Ko'rib turibsizki, hammalari aralash-quralash bo'lib ketgan. Bularning bari Tregomen uchun qanchalik yangilik edi-ya! Rans sohillarida yashovchi bretonlar yarim yalang'och, o'q yoy, yog'och qilich, yumaloq boltalar bilan qurollangan yerliklarga mutlaqo o'xshamaydi. Kulgini qistatadigan eski mundir kiyib olgan Loango qiroli olisdan qaragandagina Il va Vilen prefektiga²⁴ o'xshaydi. Sen-Malo va Dinan oralig'idagi port shaharlarida bahaybat kokos palmalari soyasiga ko'milgan bunaqangi kulbalar yo'q. Nihoyat, maluinlar manavi kongolik yalqovlarga o'xshab ko'p xotinli emas. Bu tanballar hamma og'ir ishni xotinlar zimmasiga yuklab, xotinlari betob paytlarda ham bamaylixotir dong qotib uxlab yotaveradilar. Lekin Bretanning tuprog'i Loango tuprog'i oldida sariq chaqaga arzimas ekan! Bu yerda tuproqni sal chuqulab qo'yilsa bas, mo'l-ko'l hosil olinaveradi. Bu yerlarda ba'zan boshog'i bir kilogrammga yetadigan tariq, hech qanday qarovsiz o'sadigan g'alla, yiliga uch marta hosil beradigan jo'xori, maniok²⁵, guruch, kartoshka, ziravor, yosmiq, tamaki ekiladi, botqoqlik yerlarda shakarqamish o'sadi. Zair yaqinida Kanar orollari va Madeyradan keltirilgan tok meva beradi, anjir, banan, apelsin, limon, anor, negrlar juda

²⁴ Prefekt – Fransiyada departamentning oliy mansabdori.

²⁵ Maniok yoki manioka – buta bo'lib o'sadigan, ildizi ovqat o'rnida iste'mol qilinadigan tropik o'simlik.

yoqtiradigan turli yong'oqlar, yalangliklarda o'z-o'zidan o'sib yotadigan ananaslar, xullas jondan boshqa hamma narsa bitadi bu joylarda.

– Bahaybat daraxtlarni aytmay sizmi – mangra²⁶, sandal, kedr, tamarind²⁷ palma va o'simlik sovuni olinadigan hamda mevasining sharbatini negrlar juda qadrlaydigan behisob baobab daraxti qoplab yotibdi chor atrofni.

Hayvonot olamini asti qo'yaverasiz: cho'chqalar, qobonlar, zebralar, qo'toslar, chiyabo'rilar, jayronlar, kiyiklar, fillar, uchar olmaxonlar, yovvoyi mushuklar g'ujg'on o'ynaydi. Son-sanoqsiz maymunlarni: shimpanze va dumi uzun, tumshug'i ko'kimtir martishkalarni gapirib o'tirmasa ham bo'ladi; tovus, tuyaqush, qizg'ish va kul rang kakliklar, sayroqi o'rmon qushlari, maynalar behisob, asalari, iskabtoparlar g'uj-g'uj, chivinlar gala-gala bo'lib yopiriladi.

Ajoyib o'lka! Tabiiyot tarixini o'rganish uchun vaqti bo'lganida Jildas Tregomen qandayin bitmas-tuganmas tabiat bulog'idan qonib-qonib bilim shimirgan bo'lardi-ya!

Imoningiz komil bo'lsinkim, Loangoning aholisi oq tanlilarmi yoki qora tanlilarmi deb so'ralsa, na Antifer tog'a, na bankchi Zambuko aytib bera olardi buni. Yo'q! Ularning ko'zi boshqa joyga termilgandi – ular sal shimolroqda joylashgan, deyarli nazarga ilinmas, yuz million frank qimmatga ega bo'lgan, ko'z nurini oladigan

²⁶ Mangra – tropik mamlakatlarida botqoqlik joylarda o'tib bo'lmas changalzorlar hosil qilib o'sadigan o'simlik.

²⁷ Tamarind – boabablar oilasiga kiruvchi, yil bo'yi yamyashil bo'lib turadigan tropik daraxt.

duru javohirlar ko'milgan, olamdagi yakka-yu yagona nuqtani izlashardi. Bu g'aroyib sayohatning so'nggi nuqtasi bo'lgan ikkinchi orolga tezroq qadam ranjida qilishga ular qanchalar oshiqishardi.

22-may kuni kun chiqar paytida kema yo'lga chiqishga shay bo'ldi. Kuni kecha keltirilgan fillar barcha ehtiyot choralariga amal qilingan holda kemaga yuklanib bo'lingan edi. Afrika hayvonot dunyosining bu ajoyib vakillari Sem-Lokartdagi sirk tomoshalariga fayz kiritib, chiroy qo'shishlari turgan gap edi.

Hajmi atigi yuz ellik tonnali kemaga bunaqa bahaybat hayvonlarni yuklab o'ylamay ish qilib qo'yishgan edi, aftidan. Axir bu kema muvozanatini buzishi mumkin-ku! Jyuel o'sha zahotiyoq bu fikrni Tregomenga aytdi. To'g'ri, kemanding bimsllari²⁸ yetarli darajada keng, serbar bo'lib, ozginagina suvni siqib chiqarar, bu hol sayozroq joylarda suzishni yengillashtirardi. Yelkanlari to'rt burchakli ikkala machta bir-biridan anchagina olisga o'rnatilgandi, shu tufayli bu xildagi kemalar faqat quyruq tomondan esgan shamoldagina yaxshi suza olardi; garchi bunday kema tez suza olmasada, har qalay, sohil panasida xavf-xatarsiz suzishga moslab qurilardi.

Buning ustiga safarga chiqish uchun havo ham juda qulay edi. Gvineya qo'ltig'ini qurshab turgan hamma o'lkalarda, shu qatorda – Loango-da ham, yog'ingarchilik mavsumi sentabrda boshlanib, shimol-g'arb tomondan esadigan shamollar ta'sirida may oyiga borib tugaydi. Biroq yomg'ir

²⁸ Bimsllar – kemanding ko'ndalangiga mustahkam bo'lishi uchun ishlatiladigan metal yoki yog'och mahkamlagichlar.

pallasi tugagach may oyidan sengyabrgacha shunday jazirama bo'ladiki, faqat tungi shudringda sal jon saqlash mumkin bo'ladi. Bu yerga kelib tushgan kunlaridan boshlab sayohatchilarimiz ozib-to'zib, simobdek erib borardilar. Simob ustuni soyada o'ttiz to'rt darajani ko'rsatib tursa-ya! Unchalik ishonchli bo'lmagan ba'zi tadqiqotchilarning axborot berishicha (bularni Bush-dyu-ronlik yoki gaskonliklar deb tasavvur etish lozim²⁹), bu o'lkalardagi itlar bir joyda tek turolmay, oyoqlari toshday qizib ketgan tuproqda kuymasligi uchun hamisha irg'ishlab o'ynoqlarmish, qobonlar esa uyalarida yotgan joyida o'z-o'zidan pishib qolar-mish-a!.. Jildas Tregomen yolg'on-yashiq gaplarga ishonadigan sodda odamlardan edi.

«Portalegri» ertalab soat sakkizlarda yelkanlarini ko'tardi. Hamma yo'lovchilar – odamlar va fillar kemada jamul-jam edilar. Sayohatchilarimiz yana ilgarigidek guruh-guruh bo'lib olishdi: xayollarini ikkinchi orol tamoman band etgandi. Antifer tog'a bila Zambukoni (machtadagi kuzatuvchi ufqda bu orolning ko'zga tashlanganini aytganda yelkalaridan bosib turgan tog' qulagandek o'zlarini yengil sezishlarini bir ko'z oldingizga keltirib ko'ring-a!); Jildas Tregomen mayin dengiz shabadasidan to'yib-to'yib nafas olar, Jyuel esa butun Afrika dengizchilarini unutib, Breton La-Manshi va Sen-Malo porti haqidagi xotiralarga berilgandi; Souk bilan Barrozo hech ajralishmas,

²⁹ Bush-dyu-Ron-Fransiyaning janubdagi bir departamenti, Gaskon-shu muzofotning avvalgi nomi. Gaskonlar fransuz adabiyotida ko'pincha lofchi va maqtanchoq kishilar sifatida tilga olinib turadi.

bu hech kimni ajablantirmas, zero ki ular bir tilda so'zlashishardi. Buning ustiga ular uchrashib qolganlari tufayligina, kema Antifer tog'a ixtiyoriga topshirilgan edi-da, axir.

«Portalegri»ning ekipaji o'n ikki turqi sovuq yigitdan iborat bo'lib, ularning aksariyati portugaliyaliklar edi. Basharti xayollari bilan band amakisi hech nimani payqamayotgan bo'lsa, kema ekipajini diqqat bilan kuzatayotgan jiyani o'z taassurotlarini Tregomen bilan o'rtoqlashdi. Tregomen esa bunaqangi jazirama issiqda tashqi qiyofasiga qarab odamlarga baho berib bo'lmaydi, dedi. Xullasi kalom, bu Afrika kemasi ekipaji oldiga alohida talablarni qo'yib bo'lmaydi-ku, axir.

Muvofiq shamol sohil yoqalab suzish juda marokli bo'lishidan dalolat berib turardi. «Portentosa Africa»³⁰ – deb xitob qilgan bo'lardi Jildas Tregomen shu topda, rimliklar bu qitani maqtagan shu dabdabali iboradan xabardor bo'lganida. Darhaqiqat, Antifer tog'a va uning hamrohlari o'z xayollari bilan band bo'lmaganlarida Shill faktoriysi yonidai o'tib borisharkan, hayratda qolishlari turgan gap edi. Zotan bu sohilning go'zalligidan hayratda qolmaslik mumkin emasdi. O'z sayohatida iloji boricha ko'proq narsani xotirlab qolishga urinayotgan Jildas Tregomengina hech nimani ko'zdan qochirmasdi, xolos. Pillapoyadek yuqoriga ko'tarilib boradigan sohilni, cho'qqisi bug' va tumanga chulg'angan abadiy yashil, cheksiz o'rmonzorlardan ko'ra so'limroq manzarani ko'z oldiga keltirib bo'larmidi! Qumloq sohil bag'rini bir necha yerda qalin o'rmonlar orasi-

³⁰ Go'zal Afrika (*lotincha*)

dan o'ynoqlab oqayotgan, hatto tropika issig'idan ham suvi qurimaydigai sho'x tog' shalolalari tilib o'tardi. To'g'ri, ularning hammasi ham dengizga quyilavermaydi; bu suvlarning bir qismi qushlar olami uchun ham xizmat qiladi.

Bu so'lim manzaraga tovuqlar, tuyaqushlar, soqoqushlar, botqoldoqlar jon baxsh etadi. Bu yerlarda xushqad ohu podalari ko'zga tashlanadi. U yerlardagi ko'llarda Tregomen stakanda ichgandek bir huplashda bu zilol suvning limmo-lim bir bochkasini ichib yuboradigan bahaybat sutemizuvchi hayvonlar huzur qilib cho'milishadi. Bular – olisdan och qizg'ish tusli cho'chqalarga o'xshab ketadigan begemotlar; chamasi yerliklar ularning go'shtidan hazar qilishmasa kerak.

Biroq, Jildas Tregomen kema tumshug'ida turgan Antifer tog'aga: «Menga qara, qariya, agar begemotning dudlangan oyog'i bo'lsa yermiding?» – degan edi. Per-Servan-Malo tund, ma'nosiz nigoh tashlab, yelkasini uchirib qo'ya qoldi.

– U hech nimani fahmlamayapti! – deb to'ng'illadi Tregomen ro'molchasi bilan yelpinarkan.

«Portalegri» qumloq sohilga yaqinlasharkan, o'rmon chekkasida bir gala maymun chirqillashib, chinqirishib, qiyshanglashib, daraxtdan-daraxtga sakrashar, quvlashib o'ynashardi.

Shu narsani aytib qo'yaylikki, basharti sayohatchilarimni Loangodan Mayumbaga chindan ham piyoda yo'lga chiqqanlarida na parrandalar, na maymunlar, na begemotlar qo'rqita olardi ularni. Lekin haqiqatan xavfli hayvon chaqqon va tez yuguradigan qoplon hamda arslonlar edi, ular bilan duch kelib qolish ayniqsa dahshatlidir. Qosh

qorayishi bilanoq xirildoq o'kirish na mungli, hazin xurush xavotirli sukunatga rahna sola boshladi. Bu dahshatli konsert sadolari kemadagilar qulog'iga go'yo bo'ronning ulishiday kelib urilardi. Kema tagxonasidagi bezovtalanib, hayajonga kelgan fillar pishqirib, xirillab, shunday depsina boshladilarki, «Portalegri»ning butun asosi qasira qusur qilib ketdi. Ochig'ini aytganda, bu jonli yuklar yo'lovchilarni xavotirga solib qo'ydi.

Oradan to'rt kun o'tdi. Kemada kechayotgan bir zayldagi hayot oqimini hech nima buzmadi. Ajoyib havo hamon birday edi. Dengiz shunday osoyishta ediki, hatto Binni Umardek odam dengiz kasalligining biron alomatini his etmadi. Tagxonasiga og'ir yuk ortilgan «Portalegri»ga qumloq sohillarga bosh urib, ohista uzala to'shayotgan to'lqinlar zarracha ta'sir ko'rsata olmas, kema osoyishta ilgarilab borardi.

Jildas Tregomen dengizda suzishning bunchalik osoyishta bo'lishini hatto xayoliga ham keltirmagandi.

– Xuddi «Go'zal Ameliya»da Rans bo'ylab suzib ketayotganga o'xshayman-a, – dedi u o'zining yosh do'stiga.

– Shunday, – qo'shildi uning gapiga Jyuel, – lekin bitta farqi bor, «Go'zal Ameliya»ning Barrozoga o'xshagan kapitani va anavi Nozim-ga o'xshagan yo'lovchisi bo'lmagan! Ularning bunchalik qalinligi borgan sayin shubhamni oshir-yapti.

– Ko'zlagan manzilimizga yetay deb qol-ganimizda bizga qarshi nimani ham o'ylay olardi bular, bo'tam?

Darhaqiqat, 27-may kuni kun chiqar paytida kema Banda burunini aylanib o'tganida, Mayumbaga yetishlariga yigirma mil masofa qolgandi. Jyuel buni Binni Umardan bilib oldi, u o'z navbatida Soukdan, Souk esa Barrozodan bilgan edi.

Demak, kechqurun Loango muzofotiga qarashli bu mo'jazzina portda bo'lisharkan.

Ko'p o'tmay, Matuti buruni ortidagi qo'ltiq ko'zga tashlandi, shaharcha uning ichkarisida joylashgandi. Agar ikkinchi orol haqiqatan ham mavjud bo'lsa, agar u aniq so'nggi hujjatda ko'rsatilgan yerda joylashgan bo'lsa, u chog'da orolni xuddi mana shu qo'ltiqdan izlash kerak edi.

Shu boisdan Antifer tog'a va Zambuko durbinining shishasini dam badam artib o'sha tomonga tikilishardi.

Baxtga qarshi shamol pasayib, deyarli to'xtadi. Kema o'rtacha olganda ikki uzel tezlikda, juda imillab borardi.

Tushki soat birlarda Matuti burunini aylanib o'tishdi. Qo'qqisdan kuvonchli qichqiriq eshitildi. Bo'lajak qaynag'a-kuyov qo'ltiqning ichkarisiga joylashgan bir to'da orolchalarni baravariga ko'rib qolishgan edi. Shubhasizki, ular izlayotgan orol shu orollardan biri bo'lishi kerak. Lekin qaysi biri? Buni ertasiga quyoshga qarab aniqlash mumkin, xolos.

Besh yoki olti mil sharq tomonda, dengiz bilan botqoq daryo oralig'ida, go'yo qumloq tig' uzra qad ko'targandek, savdo faktoriyalari hamda yamyashil daraxtlar orasidagi oppoq uylari yarqirab turgan Mayumba ko'zga tashlandi. Shundoqqina sohil yoqasida ulkan, oppoq qushlarga o'xshagan

baliqchilar qayiqlari u yoqdan-bu yoqqa qatnab turibdi.

Bu qo'ltiqning suvi shu topda qanchalar osoyishta, qanchalar sokin edi. Shxunalar hatto ko'l betida... Yo'q-yo'q, ko'l betida emas, hatto hovuzda, boringki hovuzdagina emas, yog' bilan limmo-lim ulkan kosada ham bunchalik osoyishta suza olmasdi. Bu suvlarga tig' kabi qadalayotgan quchoq-quchoq quyosh nurlari havoni tandirdek qizdirib yuborgandi. Jildas Tregomen suvga tushgan mushukdek g'arqqa terga botgandi.

Har qalay, «Portalegri» dam-balam g'arb tomondan xuruj qilib turgan yengilgina shamol epkinida ilgarilab borardi. Mana, qo'ltiqdagi orolchalarning taxliti aniqroq ko'rina boshladi. Bu orolchalar olti-yettitacha bo'lib, ko'katlar solingan savatga o'xshardi.

Oqshomgi soat oltilarda kema bu orollar to'dasi bilan tenglashdi. Antifer tog'a bilan Zambuko hammadan oldinda, kema tumshug'ida turishardi. Sal bo'lsa-da o'zini yo'qotayozgan Souk toqatsizlanayotganini yashira olmadi, bu hol Jyuelning shubhasini yanada oshirdi. Ikkala merosxo'r na Souk orollardan birinchisiga, xuddi uni ko'zlari bilan yeb yuborgudek bo'lib tikilib qolishgan edi. Shu topda ular, oltin konidagidek orol yon bag'ridan millionlar otilib chiqadi degan umidda emas-mikanlar?

Bordi-yu ular, Komulk poshsho o'z boyliklarini ko'mgan orol na biror giyoh, na biror daraxt o'smaydigan yalang'och toshlardan iborat ekanini bilganlarida, tarvuzlari qo'ltiqlaridan tushib:

«Yo‘q, bu u emas! Aslo u emas!» – deb qichqirib yuborgan bo‘larmidilar.

To‘g‘ri, 1831-yildan buyon, ya‘ni o‘ttiz bir yil mobaynida tabiat orolchani yam-yashil giyoh-u daraxtlar bilan o‘rab-chirmab tashlashi mumkin.

Ayni vaqtda «Porgalegri» orolchani shimol tomonidan aylanib o‘tmoq niyatida unga ohistagina yaqinlashib borardi; astagina esayotgan kechki shamol yelkanlarni qappaytirib turardi. Mabodo shamol butunlay tinib qolgudek bo‘lsa, kema langar tashlab, tong otishini kutishga to‘g‘ri kelardi.

Biroq, o‘ng bortga tirsaklarini tirab turgan Tregomenning shundoq yonginasida allakim qo‘qqisdan ayanchli ingrab yubordi.

Jildas Tregomen o‘girilib qaradi.

Uning yonida Binni Umar turardi.

Notariusning rangi o‘chib, qo‘rg‘oshin tusiga kirgandi... Yana dengiz kasali tutib qolibdi-da...

Bu qanaqasi! Shunday ajoyib havoda-ya, axir qo‘ltiq mudroq bosgandek osoyishta, oynadek yaraqlayotgan suv sathi qilt etmay turgan bir paytda-ya?

Ha, xuddi ana shunday osoyishta bir paytda! Uning o‘zini juda yomon his etayotganining ajablanadigan joyi yo‘q edi.

Chindan ham kema qandaydir mavhum sababdan yon tomonlamasiga beo‘xshov chayqala boshlagan edi. U bir me‘yorda dam chap, dam o‘ng tomonga og‘a boshladi.

Kema ekipaji old tomonga tashlandi, keyin yana orqaga qarab yugurdi. Kapitan Barrozo yugurib keldi.

- Nima gap o'zi? - deb so'radi Jyuel undan.
- Nima bo'lyapti? - deb so'radi Tregomen.
- Balki suv ostidagi vulqon ishga tushib, «Portalegri» xavf ostida qolgandir?

Shunga qaramay, na Antifer tog'a va na Zambuko, na Souk hech narsani sezishmasdi.

- E-e! Fillar! - deb qichqirib yubordi Jyuel.

Ha, to'g'ri! Kechani fillar chayqata boshlagan edi.

Qandaydir noma'lum sababga ko'ra injiqliklari tutib, ular baravariga dam orqa, dam oldingi oyoqlarini ko'tarib bosa boshlashgandi. Kema tobora vahimali tarzda qattiqroq chayqala boshladi, bu esa fillarga xuddi arg'imchoq uchgandek juda yoqardi. Tuya hammomni havas qilgandan, bu bahaybat hayvonlarning arg'imchoq uchishini xohlaganlarini qarang-a!

Chayqalish kuchaygandan-kuchayib borardi, kema qirg'og'idagi to'rlar endi suvga tega boshladi, yo chap biqindan, yo o'ng biqindan kemani suv bosish xavfi tug'ildi...

Barrozo bilan bir necha matros kema tag-xonasiga otildi. Ular bu bahaybat mahluqlarni tinchlatishtga urinishdi. Lekin ularga hech narsa: na chaqiriq-baqiriq, na tepki-musht ta'sir qilardi. Fillar xartumlarini soloqlatib, quloqlarini tikkaytirib, dumlarini silkib, tobora jazavaga tushishardi. «Portalegri» aylanib-chayqalaverdi va kema bortidan shovillab suv to'shaverdi.

Bu hol ko'p davom etmadi. Oradan o'n daqiqa o'tmayoq kema tagxonasi suvga to'ldi. Shundan keyin kema suv tubiga tomon cho'ka boshladi, suv qa'ridan esa ehtiyotsiz jonivorlarning o'kirigi eshitilardi.

TO'QQIZINCHI BOB

*Antifer tog'a bilan Zambukoning o'zlariga
panoh bo'lgan orolni ko'zdan kechirib
chiqmagunlaricha hech qayoqqa
jilmasliklarini aytganlari*

«Nihoyat men ham kema halokatiga uchradim-a!» – deb bemalol aytsa bo'lardi «Go'zal Ameliya»ning sobiq egasi.

Darhaqiqat, kecha kechqurun kema o'ttiz-qirq metrcha suvga botib ketgandi. Mayumba qo'ltig'idagi orolchalardan birida kema halokatiga uchraganlar jon saqlab qolishgan edi. Bu g'aroyib halokatda hech kim halok bo'lgani yo'q. Ko'zdan kechirilgan paytda hamma yo'lovchilar ham, kema ekipaji ham but edi. Antifer tog'a bankchi Zambukoga, Souk Binni Umarga ko'maklashgancha bir necha quloch otishda orol qoyalaridan biriga yetib olishdi. Tabiat suv falokatiga layoqatli qilib yaratmagan fillar esa dengiz qa'riga g'arq bo'lgandi. Cho'kib ketishlariga ularning o'zlari aybdor edi. Axir kemani arg'imchoq qilib bo'larmidi!

Antifer tog'a orolchaga qadam qo'yar-qo'ymas qichqirib yubordi:

– Asboblarimiz nima bo'ladi?! Xaritalarimiz-chi!..

Baxtga qarshi bu tuzatib bo'lmas yo'qotish edi, ular na sekstantni, na xronometrni, na atlasni, na «Vaqt hisobi jadvalini» qutqarib qola olishdi. Falokat ko'z ochib-yumguncha sodir bo'lgandi-da, axir. Faqat bir tomondan omadlari kelib qolgan ekan: bankchi va notarius, shuningdek Tregomen

ham, pullarini bellariga tugib yurishardi, shuning uchun ham kema halokatiga uchraganlar aqalli shu borada mushkul ahvolda qolmaydigan bo'ldilar.

Kezi kelganda shuni ham aytib o'taylik, Jildas Tregomen suv betida osongina suzib borardi: u siqib chiqargan suv vazni gavdasi og'irligidan deyarli ortiq emasdi, shu boisdan u to'lqinlar epkini ko'magida sayoz yerga kelib qolgan kitday sarg'imtir qumloq qirg'oqqa astagina suzib chiqdi.

Avvalo ust-boshlarini quritishlari lozim edi. Jazirama oftobda kiyimlari yarim soatga qolmay quridi.

Oldinda daraxtlar panasida, har qaysilari o'z ko'ngilsiz xayollariga berilib, yoqimsiz tunni o'tkazishdek bir mashaqqat turardi. Ularning xuddi ikkinchi orol joylashgan yerlarga borib qolganlariga hech qanday shubha-gumon qolmagan edi – bu eng keyingi hujjatda aniq ko'rsatilgandi.

Biroq janubiy parallelning $3^{\circ}17'$ bilan sharqiy meridianning $7^{\circ}23'$ kesishgan nuqtaning qayerdaligini Jyuel sekstant va xronometrsiz aniqlayolmaydi-ku?

Shu sababdan har qaysilari o'z tabiati va moyilligidan kelib chiqib, o'zicha xayol qilishardi.

Zambuko:

«Gavanga kirish bilanoq halokatga uchrab o'tirsag-a!» – deb o'tkazdi xayolidan.

Antifer tog'a bo'lsa:

«Mayumba qo'ltig'idagi orolchalarning barini ag'dar-to'ntar qilib kovlab ko'rmaguncha bu yerdan ketmayman, buning uchun hatto o'n yillik umrim ketsa ham mayli!» – deb qo'ydi ichida.

«Hamla qilishga boplab reja tuzib qo'yilgandi, mana shu ahmoqona halokat hamma ishni chippakka chiqarib o'tirsa-ya!» – deb g'ijinardi Souk.

Barrozo esa:

«Esiz fillarim, hatto sug'urta ham qildirilmagandi-ya ular», – deb jig'ibiyron bo'lardi.

Ollo taoloning marhamati bepoyon, egamning muruvvati beadam, illo mukofot menga bag'oyat qimmatga tushishi mumkin edi... mabodo u biron kun qo'lga kiradigan bo'lsa umuman!» – deb ming'irlardi o'zicha Binni Umar.

Jyuelning xayolidan esa:

«Ana endi Yevropaga, azizim Enogatning oldiga qaytishimga hech narsa to'sqinlik qilolmaydi!» – degan fikr yilt etib o'tdi.

Jildas Tregomen:

«Yo'q-yo'q, shu fillar yuklangan kemaga hech qachon tushish keragamas ekan!» – deb qo'ydi o'zicha.

Shu kecha hech kim uxlayolmadi. Basharti hozir kema halokatiga uchraganlar ochlikdan iztirob chekmayotgan bo'lsalar-da, ertaga ertalab qorinlari g'ulg'ula qilib qolganda ahvollari nima kechadi? Balki orolda kokos palmalari topilib qolar. Tuzukroq yeguliklari bo'lmagani tufayli, to Mayumbaga borish uchun qulay fursat kelguniga qadar kokos mevasi bilan qanoatlanishlariga to'g'ri kelarmidi. Bu yerdan besh yoki olti milcha narida, qo'ltiqning ichkarisida joylashgan qishloqqa qanday borib bo'larkin. Signal berish kerakmikin? «Portalegri» ekipaji orasida bunday olis masofaga suza oladigan biron kimsa topilarmikin? Keling, ertalab biron chorasi topilib qolar.

Bu orolda odam yashamasligi ko'rinib turardi. Bu yerda tinib-tinchimas, shovqin solib orolni boshiga ko'taradigan, badbin, hatto o'zlarining son-sanoqsizligi bilan xavf tug'diradigan jonivorlar g'ujg'on o'ynab yotardi. Yetti iqlimdagi jamiki maymunlar bir-biroviga xuddi shu yerda uchrashishga va'da berganmi, deb o'ylardi Jildas Tregomen beixtiyor. Darhaqiqat ular maymunlar saltanatiga, Maymuniston poytaxtiga kelib qolganmidi deng!..

Shu sababli, garchi havo ajoyib, to'lqinlar eshitilar-eshtilmas shovillayotgan bo'lsa-da, kema halokati qurbonlari bu orolchada hatto bir soat ham tinchgina orom ololmadilar. Sukunat dam-badam buzilib turar – uxlashni xayolga ham keltirishmasa bo'lardi.

Haqiqatan ham changalzorda muttasil allaqanday vahimali taraddud, shovqin-suron hukm surardi; xuddi butun boshli kongoliklar lashkari nog'oralarining gumburlashi eshitilayotgandek bo'lardi. Daraxtzorlarda shox-shabballarni shitirlatib, kimlardir nari borib-beri kelar, u yoqdan-bu yoqqa izg'ib, bo'g'iq ovozda allanimalar deb qichqirardi. Zimziyo tun pardasi ortida esa hech nimani ko'rib, anglab bo'lmasdi.

Bu sir ertalabga boribgina oshkor bo'ldi. Bu orolcha bir vaqtlar Gvineyaning ichkari o'lkalaridan maymun ovlagan fransuz Shayyu dovyurakligi va ayyorligini ta'riflagan to'rt qo'lli, bahaybat shimpanzelar qabilasining panogohi ekan.

Garchi uyqusiga shu shimpanzelar halal bergan bo'lsa-da, odamsimon maymunlarning bu

ajoyib vakillarini kurgan Jildas Tregomen hayratda qoldi. Bular Byuffon³¹ o'z asarlarida tasvirlagan. Inson aqli va kuchiga chamalangan ishlarni bajara oladigan, gavgasi bahaybat, baquvvat, chayir, jag'i salgina oldga turtib chiqqan, peshona tuzilishi odamnikidan deyarli farq qilmaydigan xuddi o'sha shimpanzelarning o'zginasi edi. Ko'krak qafasini to'latib nafas olib, jon-jahdlari bilan ana shu ko'kraklarini dumbiraga o'xshatib chalib, g'alati shovqin solayotgan o'shalar ekan.

Biroq bu maymunlar galasining – ular ellikdan kam emasdi – nima uchun aynan shu orolchani panogoh tutganini, qit'adan bu yerga qanday qilib kelib qolganini, qanday qilib yetarli darajada yegulik ozuqa topa olishlarini o'zgalar muhokamasiga havola qila qolaylik. Har qalay, Jyuelning tezgina chamalab aniqlashicha uzunligi ikki mil va kengligi bir mil keladigan bu orolcha anvoyi tur tropik dov-daraxtlari bilan qoplangan edi. Bu yerda to'rt qo'llilarga ozuqa bo'ladigan mevali daraxtlarning o'sishiga shak-shubha yo'q. Maymunlar tanavvul qiladigan meva, yegulik ildiz va ko'katlar odamlar uchun ham bermalol ovqag o'rniga o'tishi mumkin. Jyuel, Tregomen va «Portalegri» matroslari avvalo bunga qanoat hosil qilishni istardilar. Kema halokati, bedor o'tgan tundan keyin qorinlari ochishi va iloji boricha biron nima tamaddi qilishga intilishlari turgan gap edi-da, axir.

Taxminlari to'g'ri chiqdi. Orolchada mevasi va ildizlarini yesa bo'ladigan yovvoyi daraxt hamda

³¹ Byuffon Jorj-Lui-Leklerk (1707–1788) mashhur fransuz botanigi va zoologi, hayvonot dunyosi haqidagi o'ttiz olti jildli asarlarning muallifi.

giyohlar ko'plab o'sib yotardi. Agar oshqozoningiz maymunlarnikidaqa bo'lmasa, bu mevalarni xomligicha yeyish unchalik ko'ngilli emasdi. Ularni pishirib yesa bo'ladi-ku, axir! Lekin o'tni qanday yoqishadi?

Qo'llarida gugurt bo'lgan bundan oson ish borakanmi. Baxtlariga Nozimda gugurt bor ekan (Loangoda olivolgan ekan), buni qarangki, salgina namiqmabdi ham, chunki u mis qutichaning ichida ekan. Bunday foydalanib, quyosh zar kokillarini endigina yoya boshlagan chog'da daraxtlar ostida kattakon gulxan gurillay boshladi.

Kema halokatiga uchragan jabrdiydalar gulxan atrofiga to'planishgandi. Antifer tog'a bilan Zambuko hamon jahl tulporidan tushmagandi. Aftidan, g'azab qorinni to'ldiradigan narsaga o'xshaydi, zerkori ular bu kamtarona nonushtani boshqalar bilan baham ko'rishni rad etgandilar; dasturxonni meva hamda yegulik ildizlardan tashqari Gvineya aholisi huzur qilib yeydigan bir necha hovuch yovvoyi yong'oq ham bezab turardi. Bu yong'oqlarni shimpanzelar ham mazza qilib yeydi, shunning uchun bo'lsa kerak, ular faqat orolchalarini egalab olibgina qolmay, rizqlarini qiyayotgan nomatlub mehmonlarga adovat bilan tiqilib turishardi. Ko'p o'tmay maymunlar Antifer tog'a bilan uning hamrohlarini chor atofdan qurshab olishdi, ularning ba'zilari qimir etmay o'tirar, bir xillari irg'ishlar, lekin hammasi biron daqiqa ham aftini bujmaytib, qiyshanglashdan tiyilmasdi.

– Ehtiyot bo'ling, amaki, – dedi Jyuel, – shimpanzelar juda baquvvat bo'ladi; ular bizga

qaraganda o'n marta ko'p, buning ustiga hech qanaqa qurolimiz ham yo'q...

Biroq maluin maymunlarga parvo ham qilmasdi.

– Sen haqsan, bo'tam, – dedi Tregomen. – Nazdimda bu janoblar mehmondo'stlik qoidalaridan mutlaqo bexabar ko'rinadi... Ularning vahimali vajohatlari ham...

– Nima, biron xavf tahdid qilyaptimi? – deb so'radi Binni Umar uning gapini bo'lib.

– Faqat abjag'imiz chiqib, mayib bo'lish xavfi tahdid qilyapti, xolos, – deb javob berdi Jyuel jiddiy.

Bu gapni eshitib o'takasi yorilgan notariusning o'sha zahotiyoq bu yerdan juftakni rostlab qolgisi kelib ketdi. Afsuski buning iloji yo'q edi!

Bu orada Barrozo o'z odamlarini shunday joylashtirdiki, ular istagan paytda to'satdan qilingan hamlani daf etishga shay bo'lib turardilar; so'ngra Souk bilan bir chekkaga o'tib, maslahatlasha boshlashdi. Jyuel ularni diqqat bilan kuzatardi.

Ularning nima haqda suhbatlashayotganlarini fahmlash oson edi. Kutilmagan kema halokati o'ylab qo'ygan rejasini chippakka chiqarganidan bo'g'ilayotganini yashira olmayotgandi Souk. Demak, endi boshqacha reja tuzishlari kerak edi. Shu topda ular ikkinchi orolga yaqingina joyda turishibdi. Komulk poshshoning boyliklari Mayumba qo'ltig'idagi orolchalardan biriga: hozir ular turgan orolchaga yoki boshqasiga ko'milgan, bunga hech qanday shubha yo'q. Souk hamon Barrozo bilan uning odamlari ko'magida anavi fransuz va hamrohlarini gumdon qilish fikrida

edi. Lekin bu ishni hozir emas, keyinroq qiladi... Garchi endilikda yosh kapitanning qo'lida asboblari bo'lmasa-da, har qalay izlashga tutinsa, keyingi hujjatdagi ko'rsatmalar yordamida boylik ko'milgan orolni Soukdan ko'ra tezroq topa oladi u.

Bir-birovining gapini og'zidan chiqmasidan tushunib oladigan bu ikki muttaham ana shu gaplarni ipidan-ignasigacha muhokama qilib, fikrlashib olishdi. O'z-o'zidan ayonki, Barrozo kattagina mukofot oladi, bundan tashqari, ko'rgan zarari – g'arq bo'lgan kemandi, hamma yuklari, fillarining qimmatini to'lanadi unga.

Eng muhimi – Mayumbaga tezroq yetib olish. Bir necha baliqchilar qayiqlarining qirg'oqdan olislashayotgani orolchadan ko'rinib turardi. Ulardan eng yaqini oroldan taxminan uch milcha narida suzib yurardi. Yengil shabadada uch-to'rt soatsiz yetib kelolmaydi: u yaqinlashib kelganda signal berishadi-yu, kema halokatiga uchraganlar shu bugunoh Mayumbada bo'lishadi va birorta faktoriyga joylashishadi, shubhasiz ularni quchoq ochib kutib olishadi.

– Jyuel!.. Jyuel!..

Bu kutilmagan qichqiriq, Souk bilan portugaliyalikning suhbatini bo'lib yubordi.

Anifer tog'a yana qichqirdi:

– Jillas! Hoy Jildas!

Qirg'oqdan baliqchilarning qayiqlarini kuzatib turgan yosh kapitan bilan Tregomen Antifer tog'aning ovozi kelgan tomonga shoshilishdi.

Zambuko ham uning yonida edi; tog'aning imosi bilan Binni Umar ham yonlariga bordi.

Souk Barrozoni qoldirib, suhbatga quloq solish niyatida shosha-pisha ularga yaqinroq bordi. Soukni fransuzchani bilmaydi deb hisoblaganlari sababli, uning bu yerga kelganiga hech kim parvo ham qilmadi.

– Jyuel, – dedi Antifer tog‘a, – so‘zimga diqqat bilan quloq sol, hozir bir qarorga kelish payti yetdi.

U g‘oyatda hayajonga kelgan odamdek, entika-entika so‘zlardi.

– Eng keyingi hujjatda ikkinchi orol Mayumba qultig‘iga joylashgan deyilgandi, mana... biz hozir Mayumba qo‘ltig‘ida turibmiz... Bunga hech qanday shubha bo‘lmasa kerak, a?

– Hech qanday shubha yo‘q, amaki.

– Illo, hozir qo‘limizda na seksantimiz, na xronometrimiz bor... Ularni manavi lavashang Tregomenga ishonib ahmoqlik qilgan ekanman, bu kishim bo‘lsa asboblarni yo‘qotib o‘tiribdilar...

– Ammo-lekin, oshnam... – deb gap boshladi Tregomen.

– O‘zim suvga cho‘ksam cho‘kardim-u, lekin asboblarni yo‘qotmasdim! – deb shartta uning gapini bo‘ldi Per-Servan-Malo.

– Men ham xuddi shunday qilgan bo‘lardim! – qo‘shib qo‘ydi bankchi Zambuko.

– Bunga imoningiz komilmi, janobi Zambuko? – deb so‘radi Tregomen g‘azab bilan.

– Xullasi kalom... asboblardan ayrildik, – deb davom etdi gapida Antifer tog‘a, – endi ularsiz ikkinchi orolning qayerga joylashganini aniq belgilay olmaysan, Jyuel...

– Ha, belgilayolmayman, amaki. Menimcha, anavi qayiqlardan biriga o'tirib Mayumbaga o'tib olish, keyin quruqlik bo'ylab Loangoga qaytish va u yerda to'xtab o'tadigan birinchi kemaga tushib uyga jo'nashdan ko'ra oqilona qaror bo'lmasa kerak...

– Hech qachon! – xitob qildi Antifer tog'a.

Shunda bankchi Zambuko ham xuddi aksi sadoday takrorladi:

– Hech qachon!

Binni Umar boshini sarak-sarak qilib, suhbatlashayotganlarning goh unisiga, goh bunisiga tentaknamo javdirab tikilardi, Souk esa o'zini hech nimaga tushunmayotganga solardi-yu, biroq har bir so'zni jon qulog'i bilan ilib olardi.

– To'g'ri, Jyuel, Mayumbaga o'tib olamiz... illo Loangoda qiladigan ishimiz yo'q... Qo'ltiqdagi hamma orolchalarni bir boshdan ko'zdan kechirib chiqish uchun qancha vaqt zarur bo'lsa shuncha vaqt bo'lamiz Mayumbada...eshityapsanmi buni!.. Ha shunday, hammasini!..

Ular ko'p emas... besh yoki oltita, bordi-yu yuzta, mingta bo'lganida ham, baribir, hammasini bir boshdan ko'zdan kechirib chiqqan bo'lardim!

– Amaki! Bu aqlga to'g'ri kelmaydi-ku, axir...

– Aqlga juda to'g'ri keladi-da, Jyuel! Boyliklar ulardan bittasida... Hujjatda Komulk poshshoning xazinani hatto qayerga ko'mgani ko'rsatilgan...

– Jin ursin o'shani! – to'ng'illab qo'ydi Jildas Tregomen.

– Agar astoydil istasak va bardoshli bo'lsak, – deb gapida davom etdi Antifer tog'a, – ikki «K»ni ostma-ust qilib belgilab qo'yilgan joyni topamiz albatta...

– Bordi-yu, o'sha joyni topolmasak-chi? – deb so'radi Jyuel.

– Bas qil bunaqa gapni, Jyuel! – deb o'dag'ayladi Antifer tog'a, – Xudo haqqi, bunday deya ko'rma-ya!

G'azabidan bo'g'ilayozgan tog'a jon-jahdi bilan trubkasini g'ajiganicha, og'zining u burchidan-bu burchiga yumalatardi. Hech qachon bunchalik junbushga kelmagandi tog'a, shu topda uning ko'zlari va miyasiga qon quyulay deb turardi.

Jyuel bunaqangi sarkashlikka e'tiroz bildirib o'tirishdan hech qanday ma'ni chiqmasligini angladi. Ikkinchi orolni izlash uchun o'n besh kundan ortiq vaqt ketmaydi, lekin u, bu izlashdan baribir hech qanday naf chiqmaydi, deb o'ylardi. Ana unda Antifer tog'a boshqa umid qiladigan joyi qolmaganiga qanoat hosil etgach, noiloj yevropaga qaytishga majbur bo'ladi. Shuning uchun ham Jyuel quyidagicha javob berdi:

– Unday bo'lsa, qirg'oqqa yaqinlashganida anavi baliqchilarning qayiqlaridan birortasiga o'tirib, yo'lga tushish kerak...

– Orolchani ko'zdan kechirib chiqqanimizdan keyingina, – javob berdi Antifer tog'a, – zeroki... xullasi kalom... izlayotgan orolimiz shuning o'zidir balki?

Bu gap mutlaqo mantiqqa muvofiq kelardi. Kim bilsin, xazina izlovchilar shu topda taqdirning taqozosi bilan ittifoqo chindan ham ko'zlagan manzillarida, sekstant hamda xronometr yordamida yetib borishlari zarur bo'lgan yerda turgan bo'lsalar-chi? Baxtning bunday osongina qo'lga kirishi mumkin emas, deb bizga e'tiroz bildirarsiz

balki? Bosh ustiga! Ammo-lekin, shuncha g'ov-to'siq, azob-uqubat va musibatlardan keyin omad o'zining tirishqoq hamda sodiq muxlislariga yuz tutishi mumkin emasmi, axir?

Jyuel amakisiga e'tiroz bildirishga botinolmadi, shunday ekan, vaqtni behuda o'tkazmagan ma'qul. Birorta baliqchi qayig'i yaqinlashib kelgunicha butun orolchani ko'zdan kechirib chiqish kerak. Qayiq qoyalarga yaqinlashdi deguncha matroslar o'sha zahotiyuq unga o'tirib, qorinlarini boplab to'ydirish va miriqib dam olish mumkin bo'lgan birorta savdo faktoriysi tomon suzib ketishlari turgan gap edi, albatta. Sababini tushuntirmay turib ularni bu yerda ushlab qolib bo'larmidi, axir? Ikkinchi tomondan qaraganda, ularni Komulk poshshoning siridan voqif etish va boyliklar haqida gapirib bo'larmidi?

Masalaning yana ikkinchi jihatini bor. Antifer tog'a va Zambukolar Jyuel hamda Jildas Tregomen, notarius va Nozimlar bilan birgalikda qo'qqisdan qarorgohdan g'oyib bo'lib qolishsa, Barrozo bilan uning odamlari nima deb o'ylashadi?..

Bu g'oyatda jiddiy to'siq edi. Kim biladi deysiz, bordi-yu, boylik topilib, hammalarining shundoqqina ko'zi oldida yerdan oltin, olmos na duru javohirlar bilan liq to'la uchta bochkani kovlab olinganda kema ekipaji o'zini qanday tutadi. Buni ko'rganlaridan keyin zo'ravonlik va qaroqchilik ko'chasiga tushib qolmasmikilar? O'zlarini osadigan bir quloch arg'amchiga ham arzimaydigan bu muttahamlarni mahliyo qilib qo'yadi-ku, bu boyliklar! Ular son jihatidan ikki karra ortiqlar, maluini va uning hamrohlarini hash-pash deguncha

bir yoqlik qilib qo'yadilar-ku, rosa do'pposlab, bug'izlab tashlandilar-ku! Kapitanlari bo'lsa ularni bu yo'ldan qaytarishni hatto xayoliga ham keltirmas. Aksincha, ularni g'ij-g'ijlab, o'ljani bo'lishda esa ko'p qismini o'zi tortib olar...

Biroq Antifer tog'ani g'oyatda ehtiyotlik bilan, har tomonlama o'ylab ish tutishga unatish oson gap emasdi; qaytaga ishning muvaffaqiyati yo'lida bir necha kun bekor ketgani ma'qul ekaniga uni ishontirish, «Portalegri»ning ekipaji bilan Mayumbaga yetib olish va bu odamlardan qutulib, ertasiga birorta qayiqni yollab, keyin orolga qaytishga ko'ndirish amri mahol edi... Antifer tog'a hech qanday isbot-dalillar bilan hisoblashmasdi. Unga hech qanaqangi sabab ta'sir etmasdi. Toki orolni ko'zdan kechirib bo'lmaguncha hech qanday iltijo-unatishlar yordam berolmaydi...

O'z-o'zidan ma'lumki, Tregomen qaysar do'stiga ana shu mulohazalarini aytishga urinib ko'rarkan, yaxshigina so'kish eshitib oldi. Keyin oshnasi faqat birgina og'iz so'z aytdi:

– Ketdik!

Iltimos qilaman sendan...

– Qolging kelayotgan bo'lsa qolaver. Sensiz ham bir amallarman!

– Axir aqlingni yig'ib olsang-chi..

– Ketdik, Jyuel!

Itoat etishdan o'zga chora qolmadi.

Antifer tog'a bilan Zambuko yo'lga tushishdi. Jildas Tregomen bilan Jyuel ham ularga ergashishdi. Biroq, aftidan matroslar ularga ergashishni xavollariga ham keltirmadilar. Hatto Barrozo ham

o'z yo'lovchilarining nima sababdan qarorgohni tark etayotganlariga aqalli qiziqsinmadi ham.

Bunday bosiqqligining boisi nimada edi?

Chunki suhbatni ipidan-ignasigacha eshitib olgan Souk ularga xalal berishni va izlashni ortga surishni istamagan va bu haqda portugaliyalik kapitanga shipshitib qo'ygandi.

Barrozo o'z odamlari yoniga qaytdi-da, ularga baliqchi qayiqlarini yaqinlashib kelishini kutishlarini va qarorgohdan hech yoqqa siljimasliklarini buyurdi.

Binni Umar Soukning ishorasiga binoan shoshapisha Antifer tog'a orqasidan ketdi, uning paydo bo'lgani tog'ani tirnoqcha bo'lsa-da taajjubga solmadi.

O'NINCHI BOB

*Antifer tog'a bilan bankchi
Zambukoning dog'da qolgani*

Ertalabki soat sakkizlar chamasi edi. «Chamasi» deytoganimizning sababi, sayohatchilarimiz vaqtini faqat quyoshning balandligiga qarab bila olishlari mumkin edi, chunki kema halokatidan keyin hammalarining soatlari to'xtab qolgandi.

Garchi kapitan Barrozoning matroslari yo'lovchilari ortidan ergashishmagan bo'lsa-da, maymunlar o'zlarini tamoman boshqacha tutdi.

O'ntacha shimpanze orolda xo'jayinlik qilish va o'zgalar mulkini tomosha qilishga jur'at etgan kelgindilarni soqchilardek kuzatib borish niyatida galadan ajralib chiqdi.

Galaning katta qismi qarorgoh yonida qoldi.

Jildas Tregomen darg'azab soqchilarga o'qrayib qarab-qarab qo'yar, ular esa o'z navbatida aftlarini bujmaytirib, dag'dag'ali imo-ishoralar va bo'g'iq chirqillash bilan javob qaytarishardi.

«Shubhasizki, bu maxluqlar biror yo'l bilan o'zaro tillashadilar... – deb o'ylardi u shu topda. – Esiz, buni men tushunolmayman-da... Ular bilan o'z tillarida suhbat qilsam juda antiqa ish bo'lardi-da».

Darhaqiqat, filologik kuzatish olib borish va Gvineya o'rmonlarida bir necha oy yashab, go'yo maymunlar turli tushunchalarini ma'lum bo'g'iz tovushlari yordamida bayon etadilar deb ta'kidlashga uringan amerikalik tabiatshunos Garnerning³² hikoyalarining to'g'ri-noto'g'riligini tekshirib ko'rish uchun g'oyatda qulay fursat kelgandi...

Ummon ko'rfazidagi orolchadan koordinatlari ko'rsatilgan va xazinaning qayerga ko'milganini anglatuvchi ostma-ust qilib ikki «K» bilan belgilab qo'yilgan joyni qayerdan izlash kerakligi yozilgan hujjat topilgani kitobxonning yodida bo'lsa kerak, albatta.

Birinchi gal Komulk poshshoning Antifer tog'aning otasiga yuborgan maktubidagi ko'rsatmaga muvofiq boylikni orolning janubiy qismidan izlangan edi.

³² Garner – amerikalik tabiatshunos: u maymunlarning tilini joyida o'rganish niyatida Gvineya o'rmonlariga borib, bir necha oy mobaynida maymunlar bilan yashagan. (*Muallif izohi*).

Keyingi hujjatda esa ikki «K» bilan belgilangan qoya ikkinchi orolning shimoliy qismida ekani aytilgan edi.

Kema halokatiga uchraganlar orolning janubiy qismiga chiqib jon saqlaganlari tufayli shimolga qarab taxminan ikki milcha yo'l bosishlariga to'g'ri kelardi.

Shuning uchun ham hammalari: Antifer tog'a bilan Zambuko – oldinda, Binni Umar bilan Nozim – o'rtada, Jildas bilan Jyuel orqada shimol tomonga borishardi.

Ikkala merosxo'rning oldinda borayotganidan hech kim ajablanmadi. Ular ko'zlagan manzillari tomon shitob bilan churq etmay borishardi va hech kimning oldinga o'tib olishiga yo'l qo'yishmasdi ham.

Notarius dam-badam Soukka bezovtalanib qarab qo'yardi. Soukning portugaliyalik kapitan bilan birgalikda biron yovuz niyatini o'ylab qo'rganlariga imoni komil edi uning. Uni quyidagi fikr tashvishga solib qo'ygandi: bordi-yu xazina maluinning qo'lidan ketgudek bo'lsa, u o'ziga tegadigan mukofotdan, o'z ulishidan ayrilib qolmasmikin? U qosh-qovog'i yanada uyilib ketgan, qiyofasi odatdagidan ham battar vahshiyona tus olgan Soukdan bir nimani bilib olishga tirishar, biroq soxta gumashta o'zini Jyuel kuzatayotganini his etib, churq etib javob bermasdi.

Chindan ham Jyuel Nozimning Binni Umarga qanday muomila qilayotganini kuzatarkan, ko'nglidagi shubhasi tobora ortib borardi. Gumashtaning o'z xo'jayini bo'lmish notariusga buyruq berishi, xo'jayinning bunga itoat etishi,

hatto Iskandariyadagi notarius idoralaridagilarning ham aslo aqliga to'g'ri kelmasdi; bu ikki shaxsning o'zaro munosabati xuddi ana shu tarzda edi.

Shu topda Tregomenning fikri-xayoli faqat maymunlarda edi. Ba'zan uning soddadil, saxiy chehrasida to'rt qo'llilarning qiliqlari aks etib qolardi — ko'zlarini qisar, burnini qiyshaytirar, lablarini cho'chchaytirardi. Bordi-yu shu topda maymunlarga tahlidan bunday qiliq qilayotganini Nanon bilan Enogat ko'rib qolishsa, ko'zlariga ishonishmasdi.

Enogat!.. Sho'rlik qizaloq! Hozir u albatta o'z qaylig'ini o'ylayotgandir, chunki uning xayoli hamisha yigit bilan band. Lekin u Jyuelning kema halokatiga uchraganini, baxtiga bir o'limdan qolib, yana o'sha zahotiyoq shimpanzalar qurshoviga tushganini hech qachon ko'z oldiga keltirolmas!

«Anavi masxarabozlarga issiq ta'sir qilmayapti chog'i. Ularga qarab turib, beixtiyor maymunga aylanib qolging keladi-ya», deb fikr yuritardi o'zicha Tregomen, kichikkina to'dani har ikki qanotda kuzatib, irg'ishlashib borayotgan to'rt qo'llilarga tikilarkan.

Ehtimol sayohatchilarimiz jazirama oftobdan qochib, soya-salqin daraxtlar ostidan borganlari ma'qulmidi? Aslo, u yerdan to qir uchigacha shox-shabbalar bilan qoplangan bu bahaybat, azim daraxtlar yo'lni devordek to'sib turardi. Basharti odam Tregomen xayol qilganidek maymunga aylanib qolgan chog'da ham bu chakalakzorlardan yo'l ochib yurishi mushkul edi. Shu sababli Antifer tog'a va uning hamrohlari kichik-kichik qo'ltiqchalarni, hamma yoqda tosh

ustundek sho'ppayib turgan baland qoyalarni ehtiyotlik bilan aylanib o'tgancha, qig'oq yoqalab borishardi. Ko'loblab suv bosgan qumloq sohildan o'tib bo'lmay qolganda, uyulib-qalashib yotgan bahaybat toshlar uyumidan qoqilib-turtinib oshib o'tishardi. Boylik tomon olib boradigan yo'l mashaqqatli va notekis bo'lishi chindan ham haq gap emasmi, axir!.. Bor kuchlarini ishga solib, terlab pishib borisharkan, basharti maqsadlari tomon yaqinroq olib borayotgan har bir odimlari uchun ming frankdan haq to'laganida ham bu baho aslo qimmat ko'rinmasdi, albatta!

Bir soatda faqat bir mil – yo'lning yarminigina bosib o'tishdi. Bu yerdan orolning shimoliy chegaralari ko'rinib turardi. U yerdagi uch yoki to'rtta burunning taxliti ko'zga yaqqol tashlashardi. Ulardan qaysi biri ko'pdan orziqib kutilgan manzillari ekan? Tezgina izni topishga va tropika quyoshining jazirama nurlari ostida o'tayotgan bu mashaqqatli izlashga biron tasodifiy hodisa ko'mak bersa qani edi-ya!

Jildas Tregomen tamoman holdan toydi.

– Bir daqiqagina nafasni rostlab olaylik, axir!
– iltijo qildi u.

– Bir sekundga ham to'xtash yo'q! – deb javob berdi Antifer tog'a.

– Amaki, – dedi Jyuel, – bunaqada janob Tregomen suv bo'lib erib ketadi-ku...

– Nima bo'пти, erisa erib ketavermaydimi!

– Kattakon rahmat, do'stim,

Jildas Tregomen shunday deb, orqada kolib ketishni istamay, olg'a qarab yuraverdi. Biroq o' ko'zlangan manzilga eng yuksak cho'qqidan otilib

to'shayotgan shaloladay bir daryo suv bo'lib yetib borsa keragov.

To'rtta qoya qoya ko'zga tashlanib turgan yerga oradan yana yarim soat o'tgachgina yetib borishdi, yo'l borgan sayin og'irlashardi, oldilaridan o'tib bo'lmas to'siq chiqib qolishi ham hech gap emasdi. Hamma yoqda tig'day o'tkir qirrali bahaybat toshlar, katta-katta xarsanglar tog'day qalashib yotardi. Qoqilib-netib yiqilgan odamning abjag'i chiqishi turgan gap edi. Ha, Komulk poshsho o'z boyligini oshirish uchun Basra, Bag'dod va Samarqand hukmdorlari havas qilsa arzigudek juda bopta joyni topishdek baxtga muyassar bo'lgan.

Mana, orolning o'rmon bilan qoplangan qismi ham tugadi. Shu yerga yetganda janob shimpanzelarning nariga borish niyati yo'qligi ayon bo'ldi. Bu mahluqlarning panogohlari bo'lmish o'rmonni tark etishga unchalik ra'ylari yo'q. Bo'ronning uvillashi-yu to'lqinlarning shovqini ularni qiziqitmaydi. Amerikalik tabiatshunos Garner uchun bu mahluqlarning kaltai ko'toh tilida «poeziya» degan iborani bildiradigan yuvushni topish unchalik oson bo'lmagan bo'lsa kerak.

To'rt qo'llilardan iborat soqchilar o'rmon chekkasida to'xtashar ekan, kuzatish ishlarini davom ettirib orolning chekkasidagi qoyalargacha bormoqchi bo'layotgan bu yot o'lkaliklarga nisbatan maymunlarning do'stona munosabatda emas, hatto adovatli niyatda ekanliklari ayon bo'lib qoldi. Maymunlarning qanchalik vahshiyona qichqirib qolganlarini asti qo'yaverasiz! G'azabdan quturib, jon-jahdlari bilan o'z ko'kraklarini qashlab-

yumdalab tashlaganlarini-yu gapirib o'tirmasa ham bo'ladi! Ulardan bittasi qo'liga tosh oldi-da, sayohatchilarimizga qarab zarb bilan otdi. Bunaqa qiliq juda yuqumli bo'ladi, ayniqsa maymunlar orasida. Agar ish shundan tus oladigan bo'lsa Antifer tog'a va uning hamrohlariga toshbo'ronda qolish xavfi tahdid sola boshlagandi. Bordi-yu, ehtiyotsizlik qilib ular ham tosh otish bilan javob qaytarganlarida bormi, chindan ham abjag'lari chiqardi, zero ki na kuch jihatdan, na son jihatdan ular hamla qiluvchi tomosha teng edi.

– Otmang... aslo ota ko'rmang! – deb qichqirdi Jyuel, Jildas Tregomen bilan Soukning tosh olayotganlarini ko'rib.

– Ammo-lekin... – dedi tosh tegib boshidagi shlyapasi allaqachon uchib ketgan Tregomen.

– Keragi yo'q, janob Tregomen, tezroq nariroqqa borib olsak, xavfdan qutulamiz! Maymunlar endi nariga borishmaydi.

Bu eng oqilona fikr edi. Ellik qadamcha yurishgach, otilayotgan toshlar ularga yetmay qoldi.

Soat o'n yarimlar chamasi edi. Sohil bo'ylab bosib o'tilgan bu ikki milyalik yo'l qancha vaqtni olganini qarang-a! Orolchanning shimoliy chekkasidagi qoyalar yuz ellik-ikki yuz metrcha dengiz ichkarisiga yorib kirgandi. Antifer tog'a bilan Zambuko shimoli-g'arb tomonga qarab cho'zilib ketgan eng uzun qoyani tanlab, birinchi navbatda o'shani ko'zdan kechirib chiqishga ahd qilishdi.

Bir-birovi ustiga mingashib, qalashib yotgan bu qat-qat xarsanglar naqadar fayzsiz hamda mungli manzara kasb etardi! Ulardan bir xillari qumloq

sohilni pastdan yorib chiqqan, bir xillari bo'ron va shiddatli to'lqinlar hamlasiga dosh berolmay grupp qulab, chor-atrofda bo'lak-bo'lak bo'lib sochilib yotardi. Bu yerda biron bir giyoh zotidan asar qam yo'q, hatto zax qoyalarni ipak gilamday qonlab oladigan zamburug'lar ham ko'rinmaydi. Odatda mo'tadil mintaqalarda sohillarni tutib ketadigan yo'sindan ham nom-nishon yo'q. Shu sababli Komulk poshsho qo'ygan belgining o'chib-yo'qolib ketishidan aslo xavotirlanmasa qam bo'lardi. Orolchanning shimoliy chekkasidagi qoyalardan biriga bundan o'ttiz bir yil muqaddam o'yib tushirilgan belgi qanday bo'lsa o'shandayligicha saqlanib qolgan bo'lishi kerak.

Mana, sayohatchilarimiz Ummon ko'rfazidagi oroldagidek yana xazinani izlashga tushishdi. Ikkala merosxo'r sabrsizlik yog'ida qovrilarkan, bunchalik mashaqqatli yo'ldan keyin ham mutlaqo charchamaganga, jazirama issiqdan ham qatracha iztirob chekmayotganga o'xshardi va bu hol kishini tong qoldirardi. Souk ham, aftidan xo'jayinning manfaati yo'lida – boshqacha niyatda ekanini kim ham xayoliga keltirardi deysiz? – jonini jabborga berib ishlardi.

Qoyalar orasiga o'tirib olgan notarius qimir etmas, na bir og'iz gapirardi. Agar boylik topilsa ishga o'z vaqtida aralashishga va xazinani kovlab olish paytida hozir bo'lgani uchun unga vasiy sifatida tegishi lozim bo'lgan o'z ulushini talab qilishga hamma vaqt ulguradi. Tangri-taoloning o'zi shohidkim, agar uch oy mobaynida boshdan kechirgan azob-uqubatlarni hamda ming mashaqqat

bilan xalos bo'lgan xavf-xatarlarni e'tiborga olinsa, bu aytarli katta mukofot emasdi.

O'z-o'zidan ayonki, Jyuel yonida turgan Per-Servan-Maloning bo'yrug'iga binoan qoyalarni diqqat bilan sinchiklab ko'zdan kechira boshladi.

«Millionlarning boshqa yerga emas, xuddi ana shu orolchaga yashirilgani dargumonov, – deb xayolidan o'tkazdi u. – Chunki, birinchidan, boylikning qo'ltiqning boshqa bironta oroliga emas, balki xuddi ana shu orolchaga ko'milishi shart ekaniga; ikkinchidan, uning orolchaning aynan shu chekkasida bo'lishiga ishonish qiyin; uchinchi-dan, hali toshlar qalashib-uyqashib yotgan qoyalardan orasidan ostma-ust qilib ikki «K» bilan belgi qo'yilgan joyni izlab topish kerak... Biroq, boringki omadlari kelib hatto hamma shartlari to'g'ri keldi va bu jirkanch poshshoning hazili emas, chini ekan deylik, uning belgi qo'ygan joyini bordi-yu boshqa birov emas, men ko'rib qolsam, unda bu haqda indamay qo'ya qolsam oqilona ish qilgan bo'lmaymanmi?.. Ana unda amakim noiloj menigergsoginyaga uylantirish, aziz Enogatimni esa gersogga uzatishdek bema'ni fikrdan qaytishga majbur bo'ladi... Yo'q, yo'q, amakim bunday musibatga dosh berolmaydi! U aqldan ozadi... Unda jinoyat qilgan bo'laman, vijdon azobida qolaman... Ishni oxiriga yetkazish kerak!»

Jyuel ana shunday xayollarga berilgan paytda Tregomen qoyadan qulab tushgan kattakon toshda qo'llarini solishtirib, oyoqlarini uzatgancha xuddi suv ostida uzoq suzib chiqib, og'ir-og'ir nafas olayotgan tyulenga o'xshab hansirab o'tirardi... A'zoyi badanidan sharros ter quyardi.

Bu orada qidiruv qizg'in davom etar, ammo hali bundan biron natija chiqqanicha yo'q edi. Antifer tog'a, Zambuko, Jyuel va Souklar nazarlarida belgi qo'yish uchun qulay ko'ringan har bir toshni sipchiklab ko'zdan kechirishar va paypaslab ko'rishardi. Ikki soatcha vaqt ana shunday mashaqqatlar bilan behuda o'tdi. Hamma qoyalarni eng chekkadagi do'nglikkacha tit-pit qilib chiqishdi, biroq barcha urinishlari zoe ketdi. Hech vaqo yo'q! Ha, hech qanday nom-nishon yo'q edi! Darhaqiqat. Komulk poshsho to'rt tomondan to'lqinlar quturib hamla qilib turgan yalang'och bir joyni tanlashi mumkinmidi? Aslo!.. Ana shu oxirgi burunni ko'zdan kechirib chiqilgach, nahotki izlash yangitdan boshlansa? Albatta! Er-tasigayoq... Bordi-yu Antifer tog'aning bu yerda omadi chopmasa, u boshqa orolni ko'zdan kechirishga to'shadi va shu narsaga imoningiz komil bo'lsinkim, bor kuch-quvvatini ayamaydi, ha-ha, aslo ayamaydi deyavering! U bu borada butun ismi-sharifi va barcha aziz-avliyolar haqqiga qasamyod qilishi mumkin!

Shunday qilib, istalgan belgini topa olmagan xazina izlovchilar, qumloq sohilda sochilib yotgan qoya bo'laklarining, har birini diqqat bilan ko'zdan kechira-kechira kamon o'qsimon burundan orqaga qayta boshladilar.

Hech vaqo yo'q!..

Endilikda orqaga qaytib, balki hozir qarorgohga yaqinlashib qolgan qayiqqa o'tirib, Mayumbaga jo'nash va keyin boshqa orolchani ko'zdan kechirishdan o'zga iloj qolmagandi.

Antifer tog'a, bankchi Zambuko, Jyuel va Souklar burunning asosiga ko'tarilganlarida Tregomen, bilan notarius hamon boyagi joylarida qimir etmay o'tirishardi.

Antifer tog'a bilan Zambuko indamay, shimpanzalar o'zlarining dushmanona qoraxatlarini yangitdan boshlash uchun qulay fursatni kutib turgan o'rmon tomonga yuraverishdi.

Jyuel Tregomenning oldiga bordi.

– Nima gap? – deb so'radi Tregomen.

– Na oddiy, na ostma-ust qilib qo'yilgan «K» dan nom-nishon bor.

– Demak, boshqa yerda yana boshidan boshlarkanmiz-da?

– Shunday, janob Tregomen. Turing, qarorgohga ketyapmiz.

– Turing deysanmi? Yaxshi, urinib ko'raman!.. Baraka top, menga yordamlashib yubor, bo'tam.

Jyuel zabardast qo'lini uzatib, tinka-madori qurigan semiz do'stining o'rnidan turishiga yordamlashib yubordi.

Binni Umar bu chog' Soukning yonida turardi.

Antifer tog'a bilan Zambuko ulardan yigirma odimcha ilgarilab ketishgandi. Maymunlar vahshiyona qichqiriq va dag'dag'ali imo-ishoradan hamlaga o'tishdi. Odamlarga qarata yana do'lday tosh parchalari yog'ila boshladi. Nihoyatda ehtiyot bo'lish zarur edi.

Nahotki bu la'nati maymunlar Antifer tog'a va uning hamrohlarining qarorgohda qolgan Barrozo hamda matroslar yoniga qaytishlariga to'sqinlik qilish niyatida bo'lsalar?

Qo'qqisdan allakim qichqirib yubordi. Bu Binni Umar edi. Uning biron nozik joyiga tosh

tekkanmikin?.. Yo'q, bunday emas. Bu og'riqdan emas... taajjubdan, hatto quvonchdan darak beruvchi qichikroq edi.

Hammalari taqqa to'xtashdi. Notarius og'zi ochilib, mo'zlari bir nuqtaga tikilgan ko'yi qo'li bilan Jildas Tregomenni ko'rsatardi.

– Ana... ana! – deb takrorlardi u.

– Bu nima qiliq? – deb so'radi Jyuel, – Aqlidan ozibsizmi deyman, janob Binni Umar.

– Yo'q... ana... «K», ostma-ust qo'yilgan «K»! – deb javob berdi notarius, hayajonidan nafasi bo'g'ziga tiqilib.

Bu so'zlarni eshitishlari bilanoq Antifer tog'a bilan Zambuko shartta o'girilishdi.

«K»... ostma-ust qilib yozilgan «K» deysizmi?.. – deb qichqirib yuborishdi ular baravariga.

– Ha! ha!

– Qani?

Shunday deb, ikkovlari ko'zlari bilan Binni Umar ko'rib qolgan, Komulk poshsho belgi qo'ygan qoyani izlay boshladilar. Ammo hech nimani ko'rmadilar.

– Qani axir u, ey eshaksifat odam? – deb so'radi maluin g'azab bilan, tashvishli ohangda.

– Ana!- – so'nggi bor takrorladi notarius.

Shunday deya yelkalarini qisib, unga nisbatan yonlamasiga qiyalab turgan Tregomenni ko'rsatdi.

– Qaranglar... Manavining yelkasida! – deb qichkirdi Binni Umar.

Haqiqatan ham, Jildas Tregomenning kurtkasiga ostma-ust qilib yozilgan «K»ning izi tushib qolgan edi. U suyangan qoyaga o'yib belgi qo'yilgan va muhtaram qayiqchi suyanganida yelkasiga bu belgining izi tushib qolgani shubhasiz edi.

Antifer tog'a uning yoniga yugurib keldi-yu, qo'lidan mahkam changallab, qayerda o'tirganingni ko'rsat, deb sudrab ketdi.

Hammalari ularning orqasidan ergashdilar, oradan bir daqiqa o'tmayoq ko'pdan orziqib kutilgan belgi yaqqol ko'zga tashlanib turgan qoya yoniga yetib borishdi.

Jildas Tregomen ikki «K» bilan belgi qo'yilgan qoyaga suyanibgina qolmay, buning ustiga xuddi boylik ko'milgan joyda o'tirgan ekan.

Hech kim churq etib og'iz ochmadi. Hammalari ishga tushib ketishdi. Na belkurak, na cho'kich bo'lmagani tufayli oldilarida turgan ish nihoyatda mashaqqatli edi. Bu toshloq zaminni oddiy pichoqlar bilan kovlab bo'larmikin? Ha, tirnoqlar ko'chib, qo'llar qonab ketganda ham jonni ayamay ishlansa, oddiy pichoqlar ham ish beradi!..

Baxtlariga, vaqt o'tishi bilan shamol ta'sirida nuray boshlagan toshlar osongina ko'cha boshladi. Bir soatgina ter to'kilsa – bochkachalar ochilib qoladi... Ana unda bochkachalarni qarorgohga tashib borish, keyin esa Mayumbaga olib o'tishgina qoladi, xolos... Albatta ularni tashish mashaqqatsiz bo'lmaydi. Eng muhimi shubha uyg'otilmasa bo'lgani...

Biroq hozir buni o'ylab o'tiradigan vaqt emasdi. Avvalo boylikni kovlab olishni o'ylash kerak! Qani, uchdan bir asr mobaynida orom olib yotgan boylikni lahaddan chiqarib olsinlar-chi, keyin u yog'i bir gap bo'lar...

Antifer tog'a jon-jahdi bilan ishlarkan, qo'llari shilinib, qonab ketgandi. Duru javohirlar solingan bochkachalarning chamberagiga birinchi

bo'lib qo'li tegishdek quvonchni hech kimga ravo ko'rmasdi ham!

– Nihoyat-ye! – xitob qildi u pichog'i allaqanday ma'danga tiq etib urilarkan.

Yo tangrim! Bu xitob ortidan shunday o'kirib yubordiki, asti qo'yaverasiz! Bu quvonch nidosi emasdi aslo; uning birdan pag'a bo'lib oqarib ketgan chehrasiga qo'rqinch, esankirash, hayratdan tong qolish alomatlari qalqqandi ..

Kovlangan chuqurda Komulk poshshoning vasiyatnomasida ko'rsatib o'tilgan bochkachalar o'ringa birinchi oroldan topilgan xuddi o'shanday temir quti turardi.

– Yana-ya! – deb yubordi Jyuel o'zini tutib turolmay.

– Bu shunchaki bir qalloblikdan boshqa narsa emas! – deb g'o'ldirab qo'ydi Jildas Tregomen.

Antifer tog'a qutichani chuqurdan chiqarib oldi-da, uni g'azab bilan ochdi...

Ichida vaqt o'tishi bilan sarg'ayib ketgan xat bor ekan; Antifer tog'a ovozi baralla qo'yib quyidagi satrlarni o'qishga tushdi:

– «Uchinchi orol – sharqiy uzunlikning o'n besh daraja-yu o'n birinchi daqiqasida joylashgan. Merosxo'rlar – Antifer va Zambukolar notarius Binni Umar hozirligida bu uzunlikni bildiruvchi raqamlarni Shotlandiyaning Edinburg shahrida istiqomat qiluvchi eskvayr³³ Tirkomelga yetkazishlari lozim, zero ki uchinchi orolning qaysi kenglikka joylashganini bildiruvchi raqamlar unga ayondir».

³³ Eskvayr – Angliyada quyi tabaqadagi dvoryanlar unvoni.

Demak, Mayumba qo'ltig'idagi bu orolchalardan birortasiga ko'milmagan ekan-da duru javohirlar!.. Demak, uzunlikni bildiruvchi bu yangi raqamlarni yuqorida nomi zikr etilgan edinburglik Tirkomel qo'lida saqlanayotgan kenglikni bildiruvchi raqamlar bilan qo'shib, xazinani yer kurrasining bo'lak bir nuqtasidan izlash kerak ekan-da yana!.. Demak, Komulk poshshoning merosini endilikda ikkovlashib emas, uch kishilashib bo'lib olisharkan-da!

– Kim biladi deysiz, – xitob qildi Jyuel, – bu oroldan yana... Yuzlab boshqa orollarga jo'natib sarson-sargardon qilmasmikinlar?.. Eh, amaki, nahotki yetti iqlimni kezib chiqishga tayyor shunchalik qaysar... shunchalik... go'l bo'lmasangiz-a!..

– Bunisi ham go'rga-ya, – qo'shib qo'ydi Jildas Tregomen, – bordi-yu Komulk poshsho o'z merosxo'rlarini yuz kishi deb hisoblagan bo'lsa, ana unda uning merosi shunchalik azob-uqubat va shunchalik sargardonliklarga arzirmikin o'zi?

Antifer do'sti va jiyaniga olayib qarab qo'yar ekan, tishlarini shunday g'ijirlatdiki, og'zidagi trubkasi qisirlab sinib ketdi.

– Nafaslaringni o'chirlaring!.. Bu hamma ish barbod bo'ldi degan gap emas! – deb qo'ydi u g'ijinib.

Shundan keyin u hujjatning davomidagi satrlarni o'qidi:

– «Hozir esa har qaysi merosxo'r chekkan aziyati va ko'rgan zarari evaziga shu qutidagi olmosni bittadan bo'lib oladilar; bu ikki qimmatbaho toshning qismati ular keyinchalik ega bo'ladigan duru javohirlar oldida sariq chaqaga ham arzimaydi».

Zambuko o'zini qutichaga otdi va Antifer tog'aning qo'lidan qutichani yulqib oldi.

– Olmos! – deb qichqirib yubordi u.

Darhaqiqat, qutichada ikki dona ishlov berilmagan ajoyib olmos bo'lib, har qaysisining bahosi yuz ming, frankdan kam emasdi – bankchi bunaqa narsalarning qiymatini juda yaxshi bilardi.

– Xamir uchidan patir bo'ldi-da! – deb qo'yadi bankchi olmoslardan birini vorisdoshiga qoldirib, birini o'zi olarkan.

– Dengizdan bir yumchi! – javob berdi Antifer tog'a olmosni nimchasi cho'ntagiga, hujjatni esa kurtkasi kissasiga solarkan.

– Iye!.. – dedi Tregomen boshini sarak-sarak qilib. – Bu men o'ylagandan ko'ra jiddiyoq gap chaqib qoldi-ku!.. Qani, ko'ramiz, ko'ramiz bu yog'ini!..

Jyuel yelkalarini qisib qo'ya qoldi, xolos. Xo'sh Souk-chi? Endi hech qachon bunaqangi qulay fursat kelmasa keragov, deb o'ylarkan, damini ichiga yutib, mushtini tishlardi.

Bechora Binni Umarga kelsak, garchi bu eng so'nggi xatda uning zimmasiga yana vositachilik yuklanganiga qaramay, tariqdekkina brilliant ham tegmadi unga. Shu topda u deyarli bo'shatilgan, yon tomonga qulay-qulay deb turgan qopday, qo'llari shalvirab, tizzalari bukilmay, oldinga enkaygan ko'yi dong qotib qolgandi.

Rost, Souk bilan notarius uchun endilikda sharoit ilgarigidan ancha yaxshilanib qolgan edi: birinchidan, Sen-Malodan yo'lga chiqayotganlarida Maskatga borishlari lozim ekanini bilmagandilar; ikkinchidan, Maskatni tark etisharkan, Loangoga

tomon yo'l olishlaridan bexabar edilar. Antifer tog'a o'zini tuta olmay, ehtiyotsizlik qilib zinhor-bazinhor maxfiy tutilishi lozim bo'lgan sirni oshkor qilib qo'ygandi. Yangi raqamlarni hammalari ochiq-oydin eshitishdi: sharqiy uzunlikning o'n besh daraja-yu o'n bir daqiqasi... Shotlandiyadagi Edinburgda istiqomat qiluvchi eskvayr Tirkomelning nomini ham hammalari aniq-tiniq eshitishgandi.

Soukning Binni Umarga ishonmay, yuqoridagi raqamlar hamda nomi zikr etilgan kimsaning turar joyini fursat keldi deguncha yon daftarchasiga yozib olish uchun yaxshilab eslab qolganiga aslo shubhalanmasak ham bo'ladi. Shu boisdan Antifer tog'a bilan bankchi Zambukoning notariusni ham, shopmo'ylov gumashtani ham ko'zdan qochirishlari mumkin emasdi; yo'qsa ular merosxo'rlardan ilgariroq Buyuk Britaniyaning ikkinchi poytaxtiga yetib olishlari turgan gap.

To'g'ri. Soukni fransuzchani bilmasligi tufayli hech nimaga tushunmidi deb o'ylashlari mumkin edi, biroq, hatto shunday bo'lgan choqda ham baribir Binni Umar uni albatta sirdan voqif etadi.

Jyuel uzunlikni bildiruvchi raqamlar va Tirkomelning ismini Antifer tog'a ehtiyotsizlik qilib o'qib yuborganida Nozimning bundan mamnun bo'lganini hatto yashirishga ham urinmaganini payqab olgandi, har qalay.

Biroq buning nima ahamiyati bor, baribir emas-mi endi, axir! Komulk poshshoning meros qilib qoldirgan uydirmalariga uchinchi bor laqillab uchish uchun hojat bormikin o'zi?.. Jyuelning fikricha, bunday qilish bema'nilik bo'lurdi. Endilikda Loangoga qaytish va ajoyib shahar Sen-Maloga

tezroq yetib olish uchun dastlabki uchragan kema o'tirishlarigina lozim edi, xolos.

Jyuel ana shunday oqilona va mantiqiy taklifini aytdi amakisiga.

– Hech qachon! – deb javob berdi Antifer tog'a. – Poshsho bizni Shotlandiyaga yo'llayotgan ekan – bas, Shotlandiyaga jo'naymiz! Basharti qolgan umrimni xazinani izlashga bag'ishlashim lozim bo'lganida ham...

– Singlim Talisma sizni shunday sevadiki, o'n yil bo'lsa hamki... qutishga rozi bo'ladi! – deb qo'shib qo'ydi bankchi.

«Jin ursin! – xayolidan o'tkazdi Jildas Tregomen. – Unda xonim oltmish yoshga borib qoladilarku!»

Biroq Antifer tog'aning bunaqangi betayin gaplarga toqati yo'q edi. U allaqachon bir qarorga kelgandi. Xazinani izlashni hech qachon bas qilmaydi. Badavlat misrlikning merosi janob Tirkomelning maydonga chiqishi tufayli endilikda uch qismga taqsimlanishi kerak edi... Har qaysi merosxo'ring ulushiga boylikning uchdan bir bo'lagi tegishi lozim... Xo'sh, nima bo'пти, Enogat grafga tegib, Jyuel esa grafiniyaga uylana qolar, shunga ham ota go'ri qozixonami!

O'N BIRINCHI BOB

*Antifer tog'a va hamrohlarining
Tirkomel hazratlarining va'zini
hech qanday ishtiyoqsiz tinglaganlari*

– Ha, birodarlarim, egachi-singillarim, badavlatlik inson bolasini yovuzlik va jinoyatga undashi muqarrardir! Boylik – bu foniylar dunyodagi barcha yovuzliklarni yakka-yu yagonagina emas, balki asosiy sababchisidir! Oltinga bo'lgan hirs to'g'ri yo'ldan ozdiradi, inson qalbidagi insofga rahna soladi! Na boylar, na qashshoqlar bo'lmagan jamiyatni bir tasavvur qilib ko'ring-a!.. Bunday jamiyatda insoniyat baxtsizlik, iztirob, janjal-ixtilof, ofat, tashvish-nadomat, dard-alam, betoblik, qayg'u-alam, azob-uqubat, xonavayronlik, vayronagarchilik, halokat, musibat, vahima, xullasi kalom har qanday falokatlardan xalos bo'lurdi-ya!

Bu so'zamol ruhoniylar sinonimlarni tasbehga tergandek biri ustiga ikkinchisini qalashtirib tashlarkan, notiqlik cho'qqisiga ko'tarildi, lekin baribir bular ham uning yer yuzidagi barcha g'am tashvishlarni sanab o'tishi uchun kamlik qilardi. Minbar yuksakligidan tinglovchilar boshi uzra shaloladay quyilib tushayotgan so'z hamda iboralar ustiga yana allaqancha sinonimlarni qalashtirib tashlashi mumkin edi uning. Lekin unga tan berish kerak – zeroki u o'z iste'dodini ravon hamda uzoq so'zlash qolipiga sola olardi.

Bu hodisa 25-iyun kechqurun, keyinchalik Gay-stritga chiqiladigan chorrahani kengaytirish maqsadida bir qismi buznilgan Arshi A'lo

ibodatxonasida sodir bo'layotgan edi: «Erkin shotland cherkovi»ning namoyandasi bo'lgan Tirkomel hazratlari o'z muxlislariga va'z aytayotgan edi, tinglovchilar bu va'z ta'siri ostida tushkunlik girdobiga g'arq bo'lib o'tirardilar. Bunday va'zdan keyin barcha xudojo'ylar hoziroq o'rinlaridan sapchib turib, o'z po'lat sandiqlari yoniga otiladilar-u, uni ichidagi qimmatbaho buyumlari bilan birga haqli ravishda Shimoldagi Afina³⁴ deb atalguvchi Edinburg shahri poytaxtlik qilish sharafiga muyassar bo'lgan mashhur Midlotian grafligining shimoliy chegaralarini quchib turgan Fyort-of-Fort ko'rfaziga uloqtiradilar, deb o'ylash mumkin edi.

Mana necha soatdirkim, mu'tabar ruhoniylar o'z qavmlariga charchamay pand-nasihat qilib va'z aytyapti. Go'yo u gapirishdan, qavmlar esa tinglashdan charchamaydiganga o'xshardilar. Bu va'z-nasihat hali-veri tugamaydigandek ko'rinardi.

– Birodarlar, opa-singillar, – davom etardi Tirkomel, – muqaddas tavrotta bunday deyilgan: «Ruhan qashshoqlar jannatidirlar». Bu teran haqiqatdir, bu haqiqatning asl ma'nosini ba'zi nayrangbozlar, osiy va johil bandalar turli yo'llar bilan buzib ko'rsatishga urinadilar. Yo'q, yo'q! Bu yerda gap «aqlan qashshoq», ya'ni ahmoqlar haqida emas, balki o'zini o'zi qalban qashshoq tutadigan hamda hozirgi jamiyatdagi ofatu yovuzliklarning manbai bo'lmish manfur boylikdan jirkanadigan bandalar haqida borayotir. Shu boisdankim tavrot

³⁴ Afina – Qadimiy Yunonistonning ilm-fan, san'at va hunarmandchilik taraqqiy etgan shahri. Edinburg esa Shotlandiyaning madaniy markazi.

sizlarni boylikka hirs qo'ymaslik hamda undan hazar qilishga da'vat etadi. Modomiki, baxtga qarshi, bu foniy dunyoning ayshi-ishratiga girifgor bo'lgan ekansiz, modomiki sandiqlaringizni pulga to'latgan bo'lsangiz, modomiki hamyoningizga hovuch-hovuch oltinlar oqib kelayotgan bo'lsa, ey egachi-singillarim...

Uning shu tarzdagi ta'sirli da'vati va hattiharakatidan quloq qoqmay o'ltirgan qavmlarning yarmini tashkil etgan ayollar titrab ketdilar.

– ...Modomiki brilliant, duru javohirlar pokiza bo'yinlaringizni, bilak va barmoqlaringizni zararli toshma yaraday qoplab olgan ekan, modomiki siz odamlar baxtli deb ataydiganlardan ekansiz, men sizga aytib qo'yay – siz baxti qarosiz, inchunun shuni ham qo'shib qo'yaykim: o'tkir dori-darmonlar bilan, hattoki o'tu temir yordami-da siz chalingan dardning ildizlarini quritmoq darkor!

Tinglovchilar dag'-dag' qaltiray boshladi; bazilarning nazarida va'zxon o'zining jarrohlik tig'i bilan ularning yaralarini tilayotgandek bo'lib tuyuldi.

Bu baxti qaro odamlarga Tirkomel hazratlari tavsiya etayotgan birdan-bir chinakam davolanish usuli – bu darddan jisman qutulish, ya'ni hamma boyliklarini yo'qotishgina edi. U: «Boyliklaringizni kachbag'allarga ehson eting! Boyligingizni hech vaqosi yo'qlarga bo'lashib bering!» deyayotgani yo'q. Aksincha! Oltin, olmos, pul, sanoatchi hamda savdo tashkilotlarining qimmatbaho qog'ozlarini butunlay yo'qotib yuborishlarini istardi. U, yoqibmi yoki dengizga uloqtiribmi, ishqilib boylikni tamoman yo'qotishni talab qilayotgan edi.

Bu ta'limotning bunchalik murosasizlik ruhida ekanini anglash uchun g'azabnok eskvayr Tirkomelning qaysi diniy mazhabga mansubligini bilish darkor edi.

Minglab qavmlarga bo'linib ketgan Shotlandiya ma'muriy va diniy jihatdan cherkov sessiyalari, sinod³⁵ va oliy sudlar atrofiga jipslashardi. Butun Birlashgan Qirollikdagi kabi Shotlandiyada ham turli mazhablar mavjud edi. U mazhablardan tashqari, katoliklar, baptistlar, metodistlar va hokazo ismdagi dindorlarga qarashli bir yarim ming ibodatxona bor edi. Ana shu bir yarim ming ibodatxonaning yarmidan ko'prog'i «Erkin shotland cherkoviga» qarashli bo'lib, yigirma yil muqaddam Buyuk Britaniyaning presvitarian cherkovidan aloqani uzgandi. Buning sababi nima edi? Birdan bir sabab, Buyuk Britaniya cherkovini puritanlar³⁶ ruhiga to'la sodiq emas deb topilgani edi.

Shunday qilib, Tirkomel hazratlari moddiy va ma'naviy boylıklarga aslo toqat qila olmaydigan ashaddiy mazhabning targ'ibotchisi edi. U, xudo yer yuzasiga chaqin na momaqalldiroq gurzisini qo'limga ishonib topshirib, meni butun boylarni yoki, hech bo'lmaganda, ularning boyligini yakson qilish uchun yuborgan, deb hisoblardi. Darhaqiqat hazrat bu borada katta muvaffaqiyat qozonishga jon-jahdi bilan tirishardi.

Bu o'ziga nisbatan ham, o'zgalarga nisbatan ham bag'oyat talabchan, butun vujudi bilan o'z

³⁵ Sinod – cherkov ishlarini boshqaruvchi tashkilot.

³⁶ Puritanlar – ingliz protestant cherkovi mazhablaridan birining davomchilari. Puritanlar hayotdagi hashamdorlikka qarshi kurashganlar, teatr tomoshalariga qarshi chiqqanlar, diniy udumlarga to'la rioya qilishning tarafdori bo'lganlar.

e'tiqodiga berilgan odam edi. Eskvayr Tirkomel yoshi elliklarda, baland bo'yli, qotma, bir tuki yo'q yuzlarni chakak-chakak, ko'zlari chaqnab turadigan, payg'ambarona qiyofali, xushovoz bir din targ'ibotchisi edi. Atrofdagilar uni beixtiyor yuqoridagilar irodasini, amri ma'rufini amalga oshiruvchi bir jonkuyar vositachi deb hisoblardilar. Biroq, basharti xudojo'ylar uning va'zini tinglashga oshiqsalar-da, uning so'zlarini hayajon bilan tinglasalar-da, har qalay, u amalda bu foniy olam maishatlaridan, mol-davlatdan tamoman voz kechgan ozginagina bo'lsa-da murid orttira olmagandi.

Ana shuning uchun ham Tirkomel hazratlari g'ayrati jo'shib, ixlos bilan pand-nasihatni davom ettirardi...

Shubhasizki Arshi A'lo ibodatxonasini to'ldirib o'tirgan qavmdoshlar bu jangari mutaassibning va'zini churq etmay eshitib o'tirishardi, basharti ular o'z qilmishlarini hazratning ta'limotiga muvofiqlashtirishga oshiqmayotgan ekanlar, bu holga ularning ongsizligi yoki farosatsizliklari sababchi emasdi, albatta. Tinglovchilar orasida o'tirgan besh kishini hisobga qo'shmasa ham bo'ladi, chunki ular ingliz tiliga tushunishmasdi Mabodo ulardan oltinchisi keyinroq minbar yuksakligidan tinglovchilar boshi uzra injil osmonidan jala bo'lib qunilgan dahshatli haqiqatlarni fransuz tiliga tarjima qilib bermaganida, va'zning qaysi mavzuda borganidan, ham bexabar qolgan bo'lardilar.

Bularning Antifer tog'a va bankchi Zambuko, notarius Binni Umar va Souk, Jildas Tregomen bilan yosh kapitan Jyuellar ekanini aytib o'tirishning hojati bo'lmasa kerak.

Biz ularni 28-may kuni Mayumba qo'ltig'idagi orolchada qoldirib kelgandik, mayz endi ular bilan qaytadan 25-iyun kuni Edinburgda uchrashdik.

Bu muddat orasida qanday hodisalar bo'lib o'tgandi?

Umuman olganda quyidagicha bo'lgandi.

Ikkinchi hujjatni topganlaridan so'ng, maymunlar orolchasini tashlab, matroslarning signali bilan qirg'oqqa suzib kelgan qayiqqa tushib jo'nashdan bo'lak ish qolmagandi. Bu orada Antifer tog'a va hamrohlari shimpanzalar soqchiligida qarorgoh tomon yurishdi. Maymunlar bu yot o'lkaliklarni iloji boricha va har qanday choralar bilan: qichqirib, o'kirib, dag'dag'a qilib, toshbo'ron qilib, xullas du-shmanlik bilan kuzatib bordilar.

Har qalay sayohatchilarimiz qarorgohga eson-omon yetib oldilar. Souk Barrozoga ikki og'iz so'z bilan ishning chippakka chiqqanini tushuntirib berdi. Hech vaqosi yo'q odamlarning nimasini talash mumkin axir.

Mu'jazzgina qo'ltiqchaga kirib kelgan qayiqqa kema halokatiga uchraganlarning hammasi joylashdi, to'g'ri, ular bochkaga solingan baliqday tiqilishib o'tirishardi. Biroq atigi olti milgina masofani suzib o'tishlari lozim bo'lgani uchun, bunga e'tibor berib o'tirmasa ham bo'ladi. Ikki soatlardan keyin qayiq sohil bo'ylab cho'zilib ketgan til yoniga yetib borgandi, bu til bo'ylab esa chog'roqqina Mayumba qishlog'i yastanib yotardi. Sayohatchilarimizni, qaysi millatga mansubliklaridan qat'i nazar, fransuz faktoriysida mehmondo'stlik bilan kutib olishdi. U yerdagilar o'sha zahotiyoq ularga yordam qo'lini cho'zib, Loangoga yetib olishlari uchun transport

axtarishga tushib ketishdi. Izlash natijasida bir to'da yevropaliklarning o'sha yoqqa qaytayotganlari ma'lum bo'ldi. Ana shular sayohatchilarimizni o'z davralariga qo'shishga bajonidil rozi bo'ldilar. Endilikda yirtqich hayvonlar bilan vahshiylarning hamlasidan xavotirlanmasalar ham bo'lardi. Biroq bu yerning ob-havosi naqadar og'ir, jazirama issiqqa esa asti chidab bo'lmasligini aytmay sizmi! Loangoga yetib borganlarida Tregomen Jyuel noto'g'ri deb xarchand urinmasin, baribir, skeletga aylanib qoldim deb hamrohini ishontirmoqchi bo'lardi. Shuni tan olaylikki, bu oq qo'ngil odam sal lof qilayotgan edi.

Tasodifan omadlari yurishib – taqdir Antifer tog'aga hamisha ham kulib boqavermasdi-da, axir – na u, na uning hamrohlari Loangoda uzoq kutib qolishmadi. Yetib borganlaridan ikki kun o'tgach Sen-Polde-Luandodan Marselga ketayotgan ispan kemasi kelib to'xtadi. Kema mashinasini tuzatish zarurati tug'ilib qolgani sababli majburan to'xtashgan edi. Mashinani tuzatish bir kecha kunduzda tugadi. Kema halokati vaqtida pullari omon qolgani tufayli darrov ana shu kemaga bilet olishdi. Gapning qisqasi, 15-iyunda Antifer tog'a va hamrohlari ikkita qimmatbaho olmos bilan yangi hujjatni qo'lga kiritgan hamda yana umidlari puchga chiqqan holda G'arbiy Afrnkadan nihoyag jo'nab ketishdi. Kapitan Barrozo xususiga kelganimizda, Souk keyinroq, Komulk poshshoning millionlariga ega bo'lgach uni mukofotlashga va'da berdi va portugaliyalik ana shu va'da bilan qanoatlanib qolaverdi.

Jyuel garchi bu hangomalarning oqibati biron qalloblik bilan tugashiga ko'zi yetib turgan va shunday deb o'ylashga asoslari bo'lsa-da, amaki-sini uning miyasiga uya qurib olgan shilqim fikridan qaytarishga hatgo urinib ham ko'rmadi. Biroq Tregomenga kelsak – u hozir mutlaqo boshqacha fikrda edi. Ikkinchi orolchadan topilgan qutichadagi har biri yuz ming frank qiymatga ega bo'lgan ikki dona olmos uni hazilakamiga o'ylatib qo'ymagandi.

«Basharti poshsho, – o'zicha o'ylardi Tregomen, – bizga shunaha ikkita bebaho toshni hadya etgan ekan, nega endi qolganlari uchinchi oroldan topilmas ekan?»

U shu haqda gap ochgandi, Jyuel yelkasini uchirib qo'ya qoldi.

– Ko'rarmiz... Ko'rarmiz! – deb takrorladi yosh kapitan.

Per-Servan-Malo esa mana bunday mulohaza yuritardi. Demak uchinchi orolning qaysi kenglikda joylashganini bildiruvchi raqamlar uchinchi merosxo'rda ekan va u Edinburgda istiqomat qilarkan, Edinburgga jo'nash lozim. Zambuko yoki Binni Umarning u yerga oldinroq borishiga aslo yo'l qo'ymaslik darkor. Axir janob Tirkomelga xabar qilinishi zarur bo'lgan sharqiy uzunlikni bildiruvchi raqamlar ma'lum-ku ularga! Shunday ekan, ulardan ajralish aslo mumkkn emas. Hammalari birgalikda Shotlandiyaning poytaxtiga yetib borishadi, hammalari Tirkomel huzuriga birgalikda tashrif buyurishadi, bu qancha tez bo'lsa shuncha yaxshi. Turgan gapki, bu Soukni qanoatlantirmasdi. Endilikda sir uning uchun sir bo'lmay qolgan

bir paytda u yakka o'zi mustaqil ish ko'rishni, ya'ni hamrohlaridan ilgariroq yetib borish, so'nggi hujjatda nomi zikr etilgan odam bilan betmabet uchrashishni, yangi orolning joylashgan yerini aniqlash, o'sha yoqqa jo'nab, Komulk poshshoning xazinasini kovlab olishni ma'qul ko'rardi. Ammo hech kimda shubha uyg'otmay, yolg'iz o'zi jo'nab ketishning iloji edi, u o'zini Jyuel diqqat bilan kuzatib yurganini sezgandi. Buning ustiga, Marselgacha ular bilan birga bormaslikka iloji ham yo'q edi. Yo'lning so'nggi bosqichida Antifer tog'a Fransiya va Angliyaning temir yo'llaridan foydalanishga ahd qilgan edi, bu anchagina vaqt-ni tejardi. shu tufayli Soukning undan ko'ra ilgariroq yetib olishga umidi qolmadi. Sharoitga itoat etishdan o'zga iloj qolmagandi. Endilikda Tirkomel bilan uchrashib, ishni oydinlashtirishga umid bog'lashi mumkin edi, xolos: Maskat va Loangoda barbod bo'lgan rejasini balki Edinburgda amalga oshira olar.

Marselga tsz yetib keldilar, chunki portugal kemasi yo'ldagi birorta portda to'xtamadi. O'zo'zidan ayonki, o'z odatiga sodiq qolgan Binni Umar bir kecha-kunduz yigirma to'rt soat bo'lsa, ana shu yigirma to'rt soat mobaynida dard chekib chiqdi, Joliet sohiliga uni hushsiz holda, xuddi paxta goyidek ko'tarib tushirishdi.

Jyuel Enogatga uzundan-uzoq xat yozdi. U qizga Loangoda boshidan kechirgan sarguzashtlarini ipidan-ignasigacha batafsil hikoya qilarkan, yorini amakisining betimsol qaysarligi oqibatida yangi sayohatga yo'l olganlaridan, hozircha yana qanaqangi yangi xavf-xatar tahdid qilayotgani,

ya'ni poshshoning uydirmasi o'zlarini qayoqlarga yo'llashi noma'lum ekanligidan xabardor etdi... u yana Antifer tog'aning, xuddi Abadiy Jidga³⁷ o'xshab, aftidan butun olamni kezib chiqmoq niyatida ekani va bu darbadarlik u aqldan ozmasidan ilgari tugamaydigan ko'rinayotgani, keyingi paytdagi muvaffaqiyatsizliklardan tobora asabi buzilib, telbalik xavfi tahdid solayotgani haqida ham yozdi.

Bularning bari g'oyatda qayg'uli edi: tunlari-ning noma'lum muddatga kechiktirilgani... ularning baxtsaodati... muhabbatlari poymol bo'layotgani... va hokazolar.

Jyuel o'zining bu tasalli bera olmaydigan maktubini aloqa bo'limiga topshirishga ulgurish uchun tezroq tugatishga shoshildi. Hammalari aslo hayallamay Marseldan Parijga boradigan ekspress poyezdga otilishdi, keyin Parijdan Kalega boradigan ekspressga, so'ngra Kaledan Duvrsa qatnaydigan kemaga, Duvrdan London poyezdiga, Londondan hech to'xtamay Edinburgga yo'l olisharkan, go'yo oltovlari ham bir zanjirga bog'lab qo'yilgandek baravariga harakat qilishar, bir-birovlaridan bir odim ham nari siljishmasdi. Mana nihoyat 25-iyun kuni kechqurun «Qirol mehmonxonasi»dan xona band qilishlari bilanoq janob Tirkomelni izlashga tushdilar. Ana shunda mutlaqo kutilmagan gapni eshitdilar, Tirkomel ruhoniylar bo'lib chiqdi. Shu tufayli Nors-Birdj-strit ko'chasidagi 17-uyning kvar-

³⁷ Abadiy Jid yoki Agasfer – o'rta asr afsonalari qahramoni, gunohlari uchun xudoning qahriga uchrab, abadul-abad sanchiq-uloqib yurishga mahkum etilgan. Dunyo adabiyotida Agasfer haqidagi afsona ko'plab asarlarga asos bo'lgan.

tirasiga qadam ranjida qilar ekanlar, sayohatchilarimiz ruhoniylar janoblarning shu topda qayerda ekanliklarini osongina bilib olishdi, chunki bu foniylar dunyo huzur-halovatini inkor etuvchi bu kishi Edinburgda ma'lum va mashhur bir shaxs edi. Sayohatchilarimiz u yuksak minbardan va'z aytayotganda Arshi A'lo ibodatxonasiga kirib kelishgan edi.

Sayohatchilarimiz va'z tugagandan keyin Tirkomelga yo'liqib, uyigacha kuzatib borish va uni hamma gapdan xabardor etib, eng so'nggi hujjatning mazmuni bilan tanishtirishga qaror qilishdi... Jin ursin!.. Basharti biror kimsaga millionlab boylik haqida xabar olib kelinsa, u meni bevaqt bezovta qildinglar, deb ranjimasa kerak-ku, albatta!

Biroq, bu hangomalarning bir g'alati tomoni bor edi. Komulk poshsho bilan bu shotland ruhoniysi orasida qanaqangi aloqa bo'lishi mumkin? Qiziq, Antifer tog'aning og'asi misrlikning hayotini saqlab qolgan ekan... bu tushunarli. Bankchi Zambuko esa unga boyliklarini saqlab qolishga yordam bergan ekan... bu ham tushunarli. Bu xizmatlari evaziga Komulk poshsho ikkovlarini o'z merosxo'rlari qilib qoldirgan ekan. Bu ham tushunarli. Biroq, nahotki Tirkomel hazratlari ham xuddi o'shalardek Komulk poshshoning minnatdorchiligiga va ular bilan bab-baravar haq-huquqqa ega bo'lsa? Ha, bu shubhasiz edi. Shunga qaramay, Komulk poshshoning Tirkomelga minnatdorchilik bildirishi lozimligi haqidagi fikri aslo aqlga to'g'ri kelmaydigandek tuyulardi. Lekin bu haqiqatdan ko'z yumib bo'lmasdi, rostki uchin-

chi orolning qaysi kenglikda joylashganini aniqlash uchun zarur bo'lgan raqamlar shu ruhoniyning ko'lida ekan boshqacha gap bilishi mumkin emasdi.

– U eng so'nggisi bo'lishi kerak! – deb takrorlardi Antifer tog'a hadeb, endilikda uning bu umidi yoki, ehtimol, xayolotiga Tregomen ham sherik bo'lib qolgandi. Biroq xazina izlovchilarimiz minbarda va'z aytayotgan kishining yoshi elliklardan oshmaganini ko'rgach, o'z fikrlarini o'zgartishlariga to'g'ri keldi. Haqiqatan Komulk poshsho Muhammad Alining farmoni bilan Qohiradagi turmaga bandi qilingan chog'da Tirkomelning yoshi yigirma beshdan oshmagan bo'lishi kerak. Shuning uchun ham Tirkomelning o'sha paytlarda poshshoga biror xizmat vajidan yordam berganini taxmin qilish mushkul edi. Ehtimol, misrlik poshsho Tirkomelning otasi, bobosi yoki amakisi oldida burchlidir?..

Aytgancha, buning ahamiyati yo'q. Eng muhimi. Mayumba qo'ltigidagi orolchadan topilgan hujjatda ko'rsatilishicha, yangi orol joylashgan kenglikni bildiruvchi qimmatli raqamlar Tirkomelning qo'lida, shunday ekan, bundan keyingi harakat rejalari shu bugunoq ayon bo'ladi.

Shunday qilib, ular ibodatxonada shundoq minbarning yonginasida o'tirishardi. Antifer tog'a Zambuko va Souklar garchi bir og'iz so'ziga ham tushunmayotgan bo'lsalar-da, ehtirosli va'zxonga ko'zlari bilan teshib yuborgudek tikilib utirishardi. Jyuel esa uni tinglarkan, o'z quloqlariga ishongusi kelmasdi.

Va'z esa hamon bir mavzu ustida borar, va'zxon jazavaga tushib, chiroyli va dabdabali

so'zlar bilan pand nasihatini davom etdirardi. U qirollarni davlat hisobidan shaxsiy hamda saroy ehtiyojlari uchun ajratiladigan maxsus pulni dengizga tashlab yuborishga, qirolchalarni barcha duru javohir taqinchoqlarini uloqtirib yuborishga, boylarni o'z boyliklarini yo'q qilib tashlashga da'vat etardi! Mazhabdosh yangi muridlarni o'zingizga rom etishni astoydil istar ekansiz, bunday bemani gaplar bilan biror ish chiqarib bo'lmaydi, ha-ha, bunga ishonavering!

Hayratda qolgan Jyuel o'zicha xayol qilardi: «Ahvol chinakamiga mushkullashib ketadigan bo'ldi-ku! Amakimni omadi yurishmadi yurishmadi-da, sira!.. Bizni mutaassibning huzuriga yo'llash jin urgur poshsho nimaga zarur bo'lib qolgan ekan-a!.. Shunaqangi tel banamo ruhoniydan madad istash uchunmi? Boylik qo'liga tushdi deguncha, sira ikkilanib o'tirmay, uni shartta yo'q qilib yuboradigan odamdan madad kutib bo'lmikanmi-ya!.. Ha, bunaqangi g'ovni, mutlaqo o'tib bo'lmaydigan bu galgidaqa to'siqni aslo kutmagandik! Hamma safaru sarguzashtlarimni xuddi shu yerda tugaydigan bo'ldi. Shu narsa ayonki, biz qat'iy, uzil-kesil rad javobini olamiz, bundan esa Tirkomel hazratlarining ovozasi olamni tutib ketadi. Bu odam kimni xarob qiladi, u bunday zarbaga dosh berolmaydi albatta! Zambuko bilan amakim, balki anavi Nozim ham Tirkomeldan sirni bilib olish yo'lida hech narsadan toymaydilar... Ular ruhoniya azob berish, qiynashdan ham qaytmaydilar... ehtimol hatto Yo'q, yo'q, bu yerdan tezroq jo'nab qolish kerak!.. Mayli hazratlari sirni o'z qalbida saqlab qolaversin!

Barcha baxtsizliklarni u aytgandek millionlar keltirib chiqaradimi, yo'qmi, buni bilmadim-u, lekin menga shunisi ayon: amakim bilan birga misrlikning boyligi ortdan quvib yurarkanman, tobora o'z baxtimdan uzoqlanib boryapman... Tirkomel qo'lidagi kenglikni bildiruvchi raqamlarni shuncha sarson-sargardonliklardan keyin qulga kiritganimiz uzunlikni ko'rsatuvchi raqamlar bilan qo'yishga hech qachon rozi bo'lmaydi, shunday ekan, tinchgina Fransiyaga qaytishdan boshqa ilojimiz qolmaydi...»

– Tangrining irodasiga itoat etmoq lozim! – deyayotgan edi voiz shu topda.

«Men ham shunday deb o'ylayman, -o'yladi Jyuel, – amakim taqdirga tan berishi kerak».

Ammo va'zxonlikning nihoyasi ko'rinmas, ruhoniyni so'-zamollik xazinasini bitmas-tuganmasga o'xshardi. Antifer tog'a bilan bankchining toqatlari-toq bulayotgani oshkora ko'rinib turardi. Souk mo'ylovini qimtiy boshladi. Notarius esa kema palubasidan tushganidan beri o'zini g'oyatda xotirjam sezardi. Jildas Tregomen boshini bir tomonga qiyshaytirgancha og'zini ochib, quloqlarini ding qilib aqalli bir necha tanish iborani ilib olishga tirishardi. Hammalari:

«Bu la'nati ruhoniyni jonini jabborga berib, shuncha mahalgacha nimalar deb valaqlayapti o'zi?» – degan manoda yosh kapitanga savolomuz tikilishardi.

Ular o'zlariga va'z mana hozir tugaydi deb turgan paytlarida hammasi yana boshqatdan boshlanib ketardi.

Antifer tog'a xit bo'lib:

– Sira aqlga sig‘maydi-ku bu! Nimalar haqida gapiryapti u, Jyuel, – degandi, atrofdagi tinglovchilar baravariga «jim jimlab» qolishdi.

– Keyin gapirib beraman, amaki.

– Agar bu og‘zi tinmaydigan vaysaqi qanday yangi xabar olib kelganimni xiyol sezganida, o‘sha zahotiyoq minbar yonidan otilib tushib, oldimizga yugurib kelardi-ya!

– Hm!.. Hm!.. – dedi Jyuel shunday bir g‘alati oqangda, Antifer tog‘aning qoshlari chimirilib ketdi.

Olamdagi har bir narsaning, hatto «Erkin shotland cherkovi» ruhoniysi va’zxonligining ham nihoyasi bo‘ladi baribir. Mana, Tirkomel hazratlarining ilhombaxsh nutqining nihoyasiga yetib qolgani sezilib turardi. U entikib-entikib nafas olarkan, tobora betartib imo-ishoralar qila boshladi, istioralari borgan sayin keskin, ogohlantirishlari vahimali tus ola boshladi. Va nihoyag, jirkanch ma‘dan egalariga qarshi so‘nggi qaqshatqich zarba beruvchi da‘vati yangradi – u dunyoda do‘zax o‘tida quymaslik uchun, bu foniylar dunyoda qo‘llaridagi oltinlarni lag‘cha cho‘g‘ bo‘lib turgan o‘choqqa tashlashlarini qat‘iyan talab qildi. Shundan keyin jazavaga tushib, gumbazlari ostida so‘zlari momoguldirakday yangrayotgan ibodatxonaga shama qilib, bunday deya xitob qildi:

– Xuddi bir vaqtlar shu yerdagi sudda ay-
yor notariuslar hamda bo‘lak nopok bandalar-
ning quloqlarini mix bilan teshganridek, tongla
mahshargohda sizni bemuruvvat sud kutadi, ana
o‘shanda qo‘lingizdagi oltinlaringiz yelkangizdan

tegirmon toshiday bosib sizni o'zi bilan birga do'zax o'tida abadiy qovrilish uchun jahannam qa'riga tortib ketajak!..

O'z va'zini ana shunday dahshatli so'zlar bilan tugatarkan, Tirkomel hazratlari xayrlashayotgandek va ayni paytda atrofdagilarni duo qilayotgandek ishora qildi-yu, o'sha zahotiyoq g'oyib bo'ldi.

Antifer tog'a, Zambuko va Souklar uni ibodatxona kiraverishida kutishga, yo'ldayoq uchrashib, o'sha yerdayoq undan kerakli ma'lumotlarni olishga ahd qilishdi. Ertalabgacha chidashga, yana yetti yoki sakkiz soat kutishga ularning sabrlari chidar-midi, axir?..Tun bo'yi kutib, tonggacha ich-etla-rini yeb chiqishdek azobga toqat qila olarmidilar? Yo'q, ular xudojo'ylarni turtiblar ularning bunday muqaddas joyga sira yarashib tushmaydigan qo'ppoliklaridan g'azablanardilar.

Jildas Tregomen, Jyuel va notarius ularning orqasidan xotirjamgina, sipolik bilan ergashib yurishardi. Biroq barcha urinishlari behuda ketdi. Turgan gapki, bu foniylar dunyodagi barcha boyliklardan voz kechish haqidagi o'z va'zining birdan-bir natijasi bo'llari muqarrar olqishlardan qochib, Tirkomel hazratlari Arshi A'lo ibodatxonasining yon tomondagi eshigidan jo'nab qolgan edi.

Per-Servan-Malo va uning hamrohlari Tirko-melni markazni eshik oldida behuda kutishar, o'tib ketayotganlar orasidan uni bekor izlashar va ruhoniyni dam u, dam bu xudojo'ydan bekor-ga so'rab – surishtirishardi...Baliq suvda, qush havoda qanday iz qoldirsa, va'zxon ham olomon orasida xuddi o'shanday iz qoldirgan edi.

Hammalari bir yerda jam bo'lishdi, go'yo biron iblis tusatdan qo'llaridagi o'ljani tortib olib ko'ygandek, hammalari darg'azab va ranjigan qiyofada edilar.

– Xo'p, juda soz! Nors-Bridj-strit, o'n yettinchi uyga junadik! – deb qichqirdi Antifer tog'a.

– Lekin, amaki...

– O'ringa qirmasidan bilib olamiz undan... – qo'shib qo'ydi bankchi.

– Lekin, janob Zambuko...

– Hech qanaqa lekin-pekini ketmaydi, Jyuel!

– Yaxshi. Lekin bitta gapim bor, amaki.

– Nima, mendan kulyapsanmi, Jyuel?

– Men uchun deysanmi?

– Ha... Mana, quloq soling!

– Ha... Mana, quloq soling!

Shundai keyin Jyuel Tirkomel hazratlarining ahvoli ruhiyasini bir necha og'iz so'z bilan ta'riflab berdi, uning uzundan-uzoq va'zxonligining asosida faqat birgina fikr yotganini tushuntirdi va nihoyag, bordi-yu bu narsa Tirkomelning ixtiyorida bo'lsa dunyodagi milliard-milliard boyliklarning hammasi allaqachanoq okean tubidan joy olgan bo'lishi turgan gapligiga imoni komil ekanini aytdi.

Bankchi adoyi tamom bo'ldi, garchi o'zini hech nimani tushunmayotgan qilib ko'rsatishga majbur bo'lsa-da, Souk ham tong qolgandi. Hatto Jildas Tregomenntng ham turqi o'zgarib, afti bujmayib ketdi. Ha, tan olmoq kerak, ahvollari tang bo'lib qolgandi.

Biroq, Antifer tog'a pinagini ham buzmagandi, uning qiyofasida hech qanday dovdirash alomati ko'rinmadi ham. U Jyuelga ayyorona ohangda javob berdi:

– Ahmoq... ahmoh... ahmoqsan!.. Bunaqa pand-nasihat qiladiganlarning hamyonida sariq chaqasi ham yo‘q mulla quruq bo‘ladi!.. Unaqalarga o‘ttiz millionning qorasini ko‘rsatib kur-chi, uni suvga tashlab yuboradimi, yo‘qmi, ana o‘shanda bilasan!

Shubhasizki, bu javob uning ipson qalbini g‘oyatda yaxshi bilishidan dalolat edi!..

Biroq, har qalay, Tirkomel hazratlarining Nors-Bridj-stritdagi uyiga shu kuni kechqurunoq tashrif buyurish niyatidan qaytishdi.

Oltovlari ham odatdagidek tartibda, «Qirol mehmonxonasi» tomon yo‘l olishdi.

O‘N IKKINCHI BOB

*Sukut saqlamoqcha ahd qilgan ruhoniyni
majburan tilga kiritmoqchining
oson ish emasligi*

Tirkomel hazratlarining uyi eski shaharning Kenonget dahasidagi eng mashhur, qadimiy qo‘lyozmalarda «Qo‘hna qora chirog‘» deb atalgan ko‘chada joylashgan edi. Bu bino Jon Noksning³⁸ uyiga borib taqalardi, XVI asrning o‘rtalarida Noksning bu uyining derazalari tez-tez ochilib, mashhur shotland reformatori olomonga qarata va‘z aytib turardi. Bu qo‘shnichilik Tirkomel hazratlariga yoqardi, u ham o‘z reformasini hayotga tatbiq etish harakatida edi. To‘g‘ri, u derazadan turib pand-nasihat qilmasdi, zero ki buning alohida sababi bor edi.

³⁸ Jon Noks (1505–1572) – shotland reformatori, presviterian cherkovining asoschisi.

Gap shundakni, u istihomat qnladigan xonaning derazalari ko'chaga emas, balkin hozirgi kunda temir izlar bilan tilimlab tashlangan va jamoatchilik dam oladigan boqqa aylantirilgan jarlik tomonga qaragan edi. Old tomondan mo'ljallab qaraganda bu deraza uchinchin qavat balandligiga to'g'ri kelsa, jarlik tomondan sakkizinchi qavatga baravar kelardi. Ana shunday balandlikdan turib pand nasihat qilib, va'z aytib bo'larmidi?

Umuman bu juda ko'rimsiz va befayz uyning chor atrofi iflos tor ko'cha hamda jin ko'chalar bilan qurshalgan bo'lib, bu yerning havosi qo'lansa, sassiq edi. Shaharning bu qismi qadimdan «Tuzoq» deb atlardi. Shunga o'xshagan kvartallar tarixiy Kenonget ko'chasiga kelib tutashardi. Bu ko'chaning turli qismi turli nomlar bilan atalib, Xolirud qal'asidan to Edinburg qal'asigacha cho'zilib borardi. Bu qal'a esa Shotlandiyaning ittifoq shartnomasiga ko'ra hamma vaht mudofaaga o'tishga shay turishga majbur bo'lgan to'rt qal'asidan biri edi.

Shunday qilib, ertasiga ertalab, ya'ni 26-iyun kuni, xuddi qo'shni ibodatxona qo'ng'irog'ining oxirgi, sakkizinchi bongi yangragan paytda Antifer tog'a, bankchi Zambuko va Jyuellar yuqorida zikr etilgan unning eshigi oldiga kelib to'xtashdi. Bu dastlabki uchrashuv paytida hozir bo'lishi shart hisoblanmagani sababli Binni Umarni taklif etishmagandi, binobarin Souk ham, unga qanchalik alam qilmasin, ziyoratchilar safiga qo'shila olmagandi. Basharti ruhoniy kenglikni bildiruvchi raqamlarni aytadigan bo'lsa, unda Souk hech

narsani bila olmaydi va uchinchi orolni maluindan oldinroq izlashga tusholmaydi.

Tregomen ham mehmonxonada qoldi. U o'z hamrohlarini kutarkan. Shahzoda ko'chasidagi ajoyibotlarni hamda Valter Skottning³⁹ hashamdor haykalini tomosha qilib yurdi.

Jyuel, amakisi bilan birgalashib borishdan bosh tortolmasdi, albatga, u amakisiga tarjimon sifatida kerak edi. Bundan tashqari, yangi orolcha qayerdaykin, bu safar Komulk poshshoning xom xayoli Yangi Dunyo dengizlarida sayohat qilishga majbur etmasmikin, u sabri chidamay, ana shularni bilishga oshiqardi.

Souk esa Tirkomel huzuriga tashrif buyurishdan chetlatilganini tushunib, juda darg'azab bo'ldi va, odatdagidek, alamini Binni Umardan olib, u bechoraga butun zahrini socha boshladi. Merosxo'rlar chiqib ketishgach, bechora notari-usni boloxonador qilib so'kib, dag'dag'ali do'q-po'pisalarga ko'mib tashladi.

– Ha, hammasiga sen aybdorsan! – deb baqirdi u stullarni har tomonga uloqtirarkan, – Bu ahmoqchiliging uchun kallangga tayoq yog'dirib, abjag'ingni chiqargim kelib, qo'lim qichib turibdi-da...

– Janobi oliylari, qo'limdan kelgan hamma ishni qildim-ku, axir...

– Yo'q, hamma ishni qilmading! Matrosga aytishing kerak edi. u yerda bo'lishing zarur, shart ekanint o'qtirishing keragidi... ana unda aqalli seni o'zlar bilan olib ketishlari mumkin

³⁹ Valter Skott (1771–1832) – ulug' shotland adibi, talaygina mashhur tarixiy romanlarning muallif

edi, sen uchinchi orolning qaysi kenglikda ekanini bilib olib, keyin menga aytarding... Ana o'shanda u yerga balki... boshqalardan oldinroq yetib olarmidim!.. Eh. Muhammad alayhussalomning qahriga uchragur! Birinchi gal rejalarim Maskatda, ikkinchi safar Mayumbada chippakka chiqdi, uchinchi gal ham barbod bo'lay deb turibdi, bu qanaqa ko'rgilig-a! Buning hammasiga sen aybdorsan, chunki boqqa qo'yilgan qo'riqchiday joyingdan jilolmay, qanqayib o'tiribsan...

– O'tinaman, janobi oliylari...

– Ont ichib aytamanki, mabodo omadim yurishmay, muvaffaqiyatsizlikka uchraydigan bo'lsam, bunga boshing bilan javob berasan, xuddi joningni sugg'urib olaman!

Bu majaro oxiri shunday dahshatli tus oldiki, shovqin-suronni eshitgan Tregomen ular turgan xona eshigi oldiga keldi, baxtiga Souk g'azabini o'z tilida to'kib-solayotgan edi. Agar u Binni Umarni fransuzchalab haqorat qilganida Tregomen uning mash'um rejalarini, soxta Nozim ismi bilan yurgan bu shaxsning aslida kim ekanini bilib olgan va shaxs o'z qilmishlariga yarasha jazosini tortgan bo'lardi.

Har qalay, garchi Tregomen gapning asli mohiyatini tushunmagan bo'lsa-da, gumashtaning Binni O'marga bunday qo'pol muomila qilayotgani uni hayratda qoldirdi. Yosh kapitanning gumon-shubhalari tamoman tasdiqlandi.

Antifer tog'a, Zambuko va Jyuellar ruhoni uyining ostonasidan o'tishlari bilanoq devorga tortilgan, kirlab yog'i chiqib ketgan arqonni ushlaganlaricha taxta pillapoyadan yuqoriga ko'tarila

boshlashdi. Tregomen bu vaqt ichida juda ozib qolganiga qaramay bunaqangi kambar va qop-qorong'i aylanma pillapoyadan hech qachon yuqoriga chiqa olmagan bo'lardi.

Tashrif buyuruvchilar binoning shu tomonidagi so'nggi uchinchi qavat yo'lagigacha chiqishdi, yo'lakning ichkarirog'ida mo'jazgina eshik bo'lib, unga qoqilgan lavhaga Tirkomel hayratlarining ismi-shariflari yozib qo'yilgan edi.

Antifer tog'a «uf!» deya chuqur tin oldi. Keyin u eshikni tiqillatdi. Hech qanday javob bo'lmadi. Nahotki, ruhoniy uyda bo'lmasa? Nima haqqi bor bunga, qani ayting-chi! Bir odamga millionlab boylik olib kelinsa-yu, u...

Antifer tog'a yana, sal qattiqroq taqillatdi.

Bu gal ichkaridan ohistagina shovqin eshitildi. To'g'ri, eshik qulflog'icha turaverdi-yu, biroq Tirkomel hazratlarining ismi-shariflari yozilgan taxtachada ostidagi tuynukcha ochildi.

Tuynukchada ruhoniyni ularga tanish boshi paydo bo'ldi.

– Xizmat? – dedi Tirkomel, bezovta qilganlari yoqmaydigan odamdek bir ohangda.

– Siz bilan suhbatlashmoqchi edik.. bir ikki og'izgina, – javob berdi Jyuel inglizchalab.

– Nima haqda?

– G'oyatda muhim bir ish haqida.

– Na muhim, na nomuhim ishim yo'q mening.

– Eshigini ochadimi yo'qmi o'zi bu hazrat? – deb o'dag'ayladi Antifer tog'a toqati toq bo'lib.

Buni eshitib, ruhoniy sof fransuz tilida:

– Fransuzlarmisiz? – deb so'radi. U fransuz tilini mukammal bilar ekan.

– Ha fransuzlarmiz, – javob berdi Jyuel. Bu hol Tirkomelning ko'nglini yumshatishga yordam beradi deb o'ylab, qo'shib qo'ydi: – Kecha Arshi A'lo ibodatxonasida sizning pand-nasihatlaringizni tinglagan fransuzlarmiz...

– ...va mening ta'limotimni qabul etish ishtiyoqidagi kimsalarmisiz? – deb so'radi ruhoniylar shosha-pisha.

– Balkim, hazrat.

– Bizlarnikini qabul qilar jon-jon deb, – tung'illadi Antifer tog'a, bordi-yu, o'z ulushini bizga ehson etishni ma'zur ko'rsa, bemalol...

Eshik ochildi va soxta muridlar Tirkomel hazratlarining uyiga kirishdi.

Xonaga shimol tomondagi jarlikka qaragan yakka-yu yagona derazadan yorug'lik tushib turardi. Xonaning bir burchagida poxol to'shak va adyol tashlangan temir karavot, ikkinchisida pardozi anjomlari quyilgan stol turardi. Stol yonida bitta kursi. Mebel o'rnida bittagina shkaf, aftidan unda kiyim-bosh saqlansa kerak. Jovonda bir necha kitob, ular orasida albatta odatdagidek burchaklari titilib ketgan zabur qog'ozlar, patqalamlar, siyohdon turardi. Xonada hech qanday parda-yu darpardadan nom-nishon ko'rinmasdi. Yalalang'och devorlari ohak bilan oqlangan. Mo'jazgina stolda qalpoqchasi pastga qaratilgan lampa turibdi. Bu yer ruhoniylarning ham yotog'i, ham ish xonasi edi; aftidan uning turmush uchun eng zarur bo'lgan narsalar bilangina qanoatlangani yaqqol ko'zga tashlanib turardi. U qo'shni qovoqxonada ovqatlanardi bu dabdabali restoranlardan emasdi, albatta.

Boshdan oyoq qora libosga burkangan, ustidagi uzun ridosi yoqasi ostidan ingichka oppoq galstuk kurinib turgan Tirkomel hazratlari muhojirlar xonaga kirishi bilanoq boshidan silindrini oldi. Zotan u mehmonlarni o'tirishga taklif etmagan ekan buning sababi uyda yuqorida aytib o'tganimizdek birgina kursi borligida edi, xolos.

Haqiga ko'chilganda, bor bud-shudini yig'ishtirib sotganda o'ttiz shillingga ham bormaydigan shu zohidona hujradan bo'lak millionlarga tashnaroq biron bir xonadon bo'lmasa kerak...

Antifer tog'a bilan bankchi Zambuko bir-birlari bilan ko'z urishtirib olishdi. O't ochishning fursati yetgandi. Rostki vorisdoshlari fransuz tilini bilar ekan, ularning Jyuelning vositachiligiga ehtiyojlari qolmagandi, shu sababli yosh kapitan oddiy bir tomoshabinday bo'lib qolgan edi. Ishning bunday tus olishidan u tamoman mamnun edi, shuning uchun bu mojaroni qiziqish bilan tomosha qilishga tayyorlanib turdi. Kim g'olib chiqarkin? Birov shu borada bahslashmoqchi bo'lsa, shu topda amakisining tomonida turib garov o'ynashi amri mahol edi...

Dastavval Antifer tog'a iymenib turdi, shunday ahvolga tushishiga o'zi ham hech qachon ishonmagan bo'lurdi. Bu murosasiz va'zgo'yning yerdagi farog'at va farovonlikka nisbatan bo'lgan qarashlaridan xabardor bo'lgach, u ayyorona va ehtiyotkorlik bilan ish olib borish hamda hazratlarini Komulk poshshoning, shubhasizki yangi, eng so'nggi kenglikni bildiruvchi raqamlar yozilgan maktubini beixtiyor ko'rsatishga zimdan tayyorlab borishga ahd qilgandi.

Zambuko ham xuddi shunday fikrda bo'lib, bo'lajak kuyoviga qanday ish tutish kerakligini qulog'iga quyishdan aslo zerikmagandi. Biroq bu jazavaga tushgan maluin g'azabini bosib tura olarmikin, chunki uning asab torlari hamisha tarang tortilib tursa, birinchi e'tirozga ro'baro' kelishi bilan g'azabi junbushga kelib, oynalarni chilparchin qilib sindirib tashlamasmikin?

Har qalay birinchi bo'lib u so'z boshlagani yo'q. Uchala mehmon og'irligini dam u, dam bu oyog'iga solib turisharkan, ular ro'parasida turgan Tirkomel hazratlari pand-nasihatlarini boshlashga hozirlangan va'zxon qiyofasini olgandi. Bu odamlarning uning ta'limotiga ergashish ishtiyoqida kelganiga imoni komil edi ruhoniyning, shuning uchun ham u bularga o'z nuqtai nazarini qanday qilib chiroyliroq bayon etishnigina o'ylardi, xolos.

– Birodarlarim, – dedi u, minnatdorlik bilan qo'llarini ko'ksiga qo'yib, – tangriga ming qatla shukurkim, u menga bandalarni so'zlarimga ishontira olish quvvatini bergan, sizdek inilarimning qalbida boylikka nisbatan nafrat qo'zg'ata olishim hamda bu foniylar dunyoning huzur-halovatidan voz kechish tuyg'usini uyg'ota olishimga imkon bergani uchun qodir egam sha'niga hamdu sanolar o'qiyman...

Qani endi, bu so'zlardan keyin u ikkala merosxo'rning betiga bir qiyo boqib qo'ysa.

– Inilarim, – davom etdi va'zxon, – ixtiyorlaringizdagi boyliklarni yo'q qilish bilan...

«Hali ixtiyorimizda bo'lmagan!» – deb qichqirib yuboray dedi Antifer tog'a.

– ...hayratda qolarli o'rnak ko'rsatasizlar, bu foniylar dunyo farog'atidan oxiratinini afzal

ko'rishga qobil bo'lgan barcha bandalar sizlarga ergashajaklar...

Antifer tog'a keskin bir harakat bilan trubkasini og'zining bir burchidan ikkinchisiga o'tkazdi, shu payt Zambuko uning qulog'iga bunday deb shivirladi:

– Kelishdan maqsadimizni bu vaysaqiga tushuntirib qo'ymaysizmi?

Maluin ma'qul degandek bosh irg'arkan, o'zicha o'yladi:

«Yo'q, yo'q, bu pand-nasihatlari bilan kechagidaqa xit qilib yuborishga yo'l qo'ymayman!..»

Tirkomel hazratlari bu tavba qilgan gunohkori azimlarni go'yo og'ushiga olmoqchi bo'lgandek quchog'ini ocharkan, mehribonona ovoz bilan dedi:

– Ismi-shariflaringiz, inilarim, toki...

– Bizning ismi-shariflarimiz, janob Tirkomel, – deya uning gapini bo'ldi Antifer tog'a, – mana bizning ismi-shariflarimiz va unvonimiz mana bunday: kaminalari Antifer Per-Servan-Malo bo'laman, sohil bo'ylab suzuvchi kemanding iste'fodagi kapitaniman. Bu kishi Jyuel Antifer, mening jiyanim, olisga suzuvchi kema kapitani, bu kishi esa janob Zambuko, tunislik bankchi bo'ladilar...

Tirkomel bu ismlarni yozib olish niyatida stol yoniga bordi.

– Binobarin, shubhasizki, – dedi u, – bu foniylar dunyo huzur-halovatidan voz kechish bilan bir paytda inson uchun og'u bo'lmish boyliklaringizni olib kelgansizlar... balki keltirgan boyliklaringiz millionlabdir.

– Juda to‘g‘ri, janob Tirkomel, gap millionlar haqida boryapti, o‘z ulushingizni olganingizdan keyin, ularni yo‘q qilib yuborasizmi, o‘tga tashlaysizmi, ixtiyoringiz bu... Illo, bizga kelganda, uni nima qilishimiz kerakligini o‘zimiz o‘ylashib ko‘ramiz...

Antifer tog‘a shoshma-shosharlik qilib qo‘ygan edi. Jyuel bilan Zambuko buni Tirkomelning qiyofasi o‘zgarishidan o‘sha zahotiyoh payqab qolishgandi. Uning peshonasi tirishib, ko‘zlari qisilib ketdi, og‘ushiga olish uchun yozilgan qo‘llari po‘lat sandiqning qopqog‘i taraqlab yopilgandek ko‘ksida chalishdi.

– Gap nimada o‘zi, janoblar? – deb so‘radi u bir odim tisarilarkan.

– Gap nimada? – takrorladi Antifer tog‘a. – Jyuel, baraka topgur, hammasini bir boshdan o‘zing gapirib ber, chunki men og‘zinga kuchim yetmay, aljib yuboraman!

Shundan keyin Jyuel bor gapni inidan-ignasigacha oqizmay-tomizmay gapirib berdi. U Qomulk poshsho haqida bilgan-eshitganlarining hammasini, Tomas Antifer bilan bankchi Zambukolarning unga ko‘rsatgan yordamlari haqida, poshshoning vasiysi iskandariyalik notarius Binni Umarning Sen-Maloga kelgani, birinchi orolni izlab Ummon ko‘rfaziga qilgan safarlari, ikkinchi orol joylashgan Mayumba qo‘ltig‘iga borganlari hamda u yerdan topilgan hujjatga binoan ikkala merosxo‘rning uchinchi merosxo‘r – edinburglik eskvayr Tirkomel hazratlarining huzuriga kelganlari haqidagi sarguzashtlarni so‘zlab berdi.

Jyuel hikoya qilar ekan, va'zgo'y hatto qilt etib qimirlab ham qo'ymadi; na ko'zlarida yilt etgan uchqun ko'rindi, na yuzidagi biron mo'shak «lip» etdi. Marmar yohud bronzadan yasalgan haykal ham uning oldida hech gap bo'lmay qoldi. Yosh kapitan hikoyasini tugatib, Tirkomeldan biron vaht Komulk poshshoga biron vajdan yordam bergan-bermaganini so'raganda. u:

– Yo'q, – deb janob berdi.

– Otangiz-chi?

– Ehtimol.

– Ehtimol javob bo'lolmaydi, – dedi Jyuel, xuddi qoraqurt chaqib olgandek bir joyda girdikapalak bo'lib aylanayotgan amakisini tinchlantirish niyatida.

– Men borishim mumkin bo'lgan birdan bir javob shu, – deya quruqqina e'tiroz bildirdi Tirkomel.

– Bo'sh kelmang, janob Jyuel, bo'shashmang... – deb shivirladi bankchi.

– Qo'limdan kelganicha urinib ko'raman, janob Zambuko, – deb javob berdi Jyuel.

Jyuel yana butun vajohatidan so'ysang qam miq etmayman degan ma'no anglashilib turgan Tirkomelga murojaat etdi:

– Bittagina savol berishga ijozat etasizmi?

– Mayli, zotan men bunga javob bermasligim ham mumkin.

– Bilasizmi, otangiz Misrda bo'lganmi?

– Yo'q.

– Mayli, basharti Misrda bo'lmasa, aqalli Suriyada, aniqrog'i Aleppoda bo'lganmi?

– Mayli, basharti Misrda bo'lmasa, aqalli Suriyada, aniqrog'i Aleppoda bo'lganmi?

Komulk poshshoning Qohiraga qaytishdan avval bu shaharda bir necha yil istiqomat qilganini unutmazlik kerak.

Biroz ikkilanib turgach, Tirkomel hazratlari otasining chindan ham Aleppoda turganini hamda Komulk poshsho bilan aloqasi bor ekanligini tan oldi. Demak, Komulk poshshoning Tomas Antifer va bankchi Zambuko kabi Tirkomelning otasi oldida ham burchli ekaniga hech qanday shubha qolmadi.

– Unday bo'lsa, yaka bir narsani so'rashga izn bersangiz, – davom etdi Jyuel, – otangiz Komulk poshshodan xat olib turarmidi?

– Xazinasi ko'milgan orolning qayerda joylashgani haqida yozilgan xatni ham olganmidi?

– Ha.

– O'sha xatda boylik ko'milgan orolning qaysi kenglikka joylashganini bildiruvchi raqamlar ko'rsatilganmidi?

– Ha.

– O'sha xatda yana kunlardan bir kun shu masala bo'yicha otangizning huzuriga Antifer hamda Zambuko ismli kimsalarning tashrif buyurajaklari ham yozilganmidi?

– Ha.

Tirkomelning «ha» deb javob berishi xuddi bolg'a zarbasiday tobora keskinroq yangrardi.

– Xo'sh, gap shunday ekan, – dedi Jyuel, – kapitan Antifer bilan bankchi Zambuko mana qarshingizda turishibdi, mabodo poshshoning o'sha xatini ko'rsatishni lozim ko'rsangiz, ular vasiyat qiluvchining irodasini bajarish uchun shu ondayoq yo'lga to'shadilar, bu vasiyatnomaga binoan uchovlaringiz uning merosxo'rlari bulasizlar.

Jyuel uni savolga tutarkan. Antifer tog'a dam lolaqizg'aldoqdek qizarib, dam bo'zdek bo'zarib, o'zini arang bosib turardi.

Tirkomel bir nafas jim turdi-da, keyin lablarini qimtib dedi:

– Xazina ko'milgan yerga yetib olganlaringdan keyin nima qilmoqchisizlar?..

– Uni albatta kovlab olamiz! – dedi Antifer tog'a qichqirib.

– Kovlab olganlaringdan keyin-chi?

– Uch qismga bo'lamiz!

– O'z ulushlaringizni nima qilmoqchisizlar?

– Ko'nglimiz tusaganini qilamiz, hazratim!

Maluin yana bir qo'pol xatoga yo'l qo'ydikim, buning oqibatida Tirkomel to'nini teskari kiyib, otiga qamchi bosdi.

– Shunaqa deng. Juda soz, janoblar!-deya xitob qilarkan, ko'zlari chaqnab ketdi. – Sizlar bu boylikdan o'z hirsingizni, o'z ishtahangizni qondirmoq niyatidasizlar, boshqacha aytganda, bu foniyl olamdagi adolatsizlik urug'ini yanada ko'paytirmoqchisizlar...

– Ijzat etsalar... – deb uning gapini bo'ldi Zambuko.

– Yo'q, ijzat etmayman! Men sizlardan quyidagi savolga javob berishlaringizni talab qilaman: bordi-yu, bu boyliklar qo'llaringizga kirgudek bo'lsa, uni yo'q qilib tashlashga so'z berasizlarmi?

– Har kimning ixtiyori o'zida, merosdan tekkan o'z ulushini nima qilsa qilaveradi, – deb mujmal javob berdi bankchi.

Per-Servan-Malo tutaqib ketdi.

– Gap bunda emas! – deb qichqirib yubordi u. – Bu xazinaning qiymati qanchaligini tasavvur qilyapsizmi o‘zi, hazratim?

– Baribir emasmi bu axir?

– Yuz million frank-a!.. Yuz million!.. Uchdan biri o‘ttiz uch millioni – sizning ulushingiz...

Tirkomel yelkalarini qisib qo‘ydi.

– Hazratim, – so‘zida davom etdi Antifer tog‘a, – vasiyatnoma qo‘lingizdagi axborotni bizga yetkazishni taqozo etadi, shu narsadan xabaringiz bormi?

– Nahotki?

– Siz bu yuz millionning bekor yotishiga qanchalik haqqingiz bo‘lmasa, ayni vaqtda uni tamoman o‘zingizniki qilib olishga shunchalik haqqingiz yo‘q, ana shundan xabaringiz bormi?

– Men bu fikrga qo‘shilolmayman.

– Yana shu narsani bilasizmi, basharti siz oyoq tirab turib olsangiz, biz qarab turmaymiz, adolat sudiga murojaat etishdan... sizga qarshi ish qo‘zg‘ashdan... sizni jinoyatchi deb e‘lon qilishdan toymaymiz!.. – deb baqirdi sabr kosasi to‘lib-toshgan Antifer tog‘a g‘azabini bosolmay.

– Jinoyatchi deysizmi!. – deb takrorladi Tirkomel g‘azab bilan, ammo o‘zini tutib, – Darhaqiqat, janoblar, jur‘atlaringizga muvofiq darajada ahmoq ekansizlar! Nahotki meni bu yuz millionni yer yuziga sochib, insonlarning foniy dunyodagi gunohi yuz million karra ortishiga rozi bo‘ladi deb o‘ylaysizlar? Sizlarchi men o‘z ta‘limotim va e‘tiqodimga xilof ish tutib, erkin shotland cherkovi xudojo‘ylari, o‘z e‘tiqodiga sodiq, qalbi pok odamlarning bu yuz millionni deb betimga tufurishlariga qo‘yib qo‘yarmidim?

Shuni tan olish kerakki, hazrat bunday dabdaba bilan oqilona, chiroyli so'zlarkan, qiyofasi viqorli va ulug'vor tus olgandi. Jyuel bu shiddatkor mutassibning o'zini tutishiga qoyil qolgan bo'lsa. Antifer tog'a g'azabdan joni halqumiga kelib, uni g'ippa bo'g'ib tashlashga ham tayyor edi.

– Hami yo yo'qmi? – deb o'dag'ayladi u mushtlarini tutib. – Hami yo yo'qmi? Bizga poshshoning xatini ko'rsatasizmi o'zi?

– Yo'q!

Antifer tog'a g'azabdan o'zini yo'qotib qo'ydi.

– Yo'q? – deya takrorladi og'zidan tupuklari sachrab.

– Yo'q!

– Ha a! Shunaqami hali!.. Ha fribgar!.. Bu xatni zo'rlik bilan tortib olaman!

Jyuel amakisining og'zaki so'zdan amaliy ishga o'tishiga yo'l qo'ymaslik uchun oralariga turib olgandi, amakisi uni siltab itarib yubordi. Antifer tog'a qarshisida ilgarigidek sovuqqina va beparvo boqib turgan ruhoniyni tomog'idan g'ippa olmoqchi edi. Uning butun vujudini xonani, shkafni ostin-ustin qilib tintish, qog'ozlarni titish istagi qamrab olgan edi (shuni ham aytib qo'yaylikki, bu titkilash ko'pga cho'zilmasdi). Biroq Tirkomel hazratlarining jo'ngina, ammo e'tirozga o'rin qoldirmaydigan bir ohangda aytgan quyidagi so'zlari uni bu ishga kirishishdan qaytarib qoldi:

– U xatni izlashning foydasi yo'q...

– Sabab? – so'radi bankchi Zambuko.

– Chunki u yo'q endi.

– Nima qilgansiz uni axir?

– Yoqib yuborganman.

– O'tga tashlagan... U xatni o'tga tashlagan!
– o'kirib yubordi Antifer tog'a. – Ablah!.. Yuz millionni qanday topishning sir-asrori yozilgan xatni-ya... endi bu sirni hech qachon bilib bo'lmaydi!..

Chindan ham bu haq gap edi. Yana boylik vas-vasasiga berilmaslik va har qanday shiroitda ham bu boylikdan foydalanib o'z maslak-e'tiqodiga zid bo'lib to'shadigan ish qilib qo'ymaslik maqsadida Tirkomel hazratlari o'sha xatni bundan bir necha yil muqaddam yoqib yuborgan edi.

– Ana endi boringlar, – dedi u mehmonlarga eshikni ko'rsatib.

Tog'a adoyi tamom bo'lgandi. Hujjat yoqib yuborilgan... Endilikda orolning qayerga joylashganini hech qachon, ha-ha, hech qachon aniqlab bo'lmaydi!.. Bankchi Zambukoning ham yurak bag'ri ezilib tamom bo'lgan edi. U xuddi birov o'yinchog'ini qo'lidan tortib olib qo'ygan yosh go'dakdek «ho'ng-ho'ng» yig'lardi.

Jyuel har ikkala merosxo'rni avval pillapoyaga, keyin esa ko'chaga itarib-surib chiqdi-da, uchovlari «Qirol mehmonxonasi» tomon jo'nashdi.

Ular ketgach Tirkomel hazratlari qo'llarini ko'kka cho'zib, bu yuz million olib kelishi mumkin bo'lgan behisob gunohlarning oldini olishda o'ziga madadkor bo'lgan tangri haqiga shukronalar o'qidi.

O'N UCHINCHI BOB

*Bu fojiaviy-komedik qissadagi ikkinchi
darajada shaxs, bo'lakcha aytganda
«yosuman»ning g'oyib bo'lib qolishi*

Antifer tog'a bu tashvishlar, sarson-sargar-donlik, iztirob-hayajon, uzluksiz almashinib turgan umid va tushkunliklarga bardosh bera olmadi. Ha, hatto kabotaj kema kapitanining ham jismoniy hamda ma'naviy quvvatining chegarasi bor, ana shu chegarani bosib o'tib bo'lmaydi. Shuning uchun ham Antifer mehmonxonaga yetib kelgani hamonoq yog'ib qoldi. Asablari qaqshab, a'zoyi badani alangai otash bo'lib yonar, alaxsirardi. Bu hol xunuk oqibatlarga olib borishi mumkin edi. Uning junbushga kelgan miyasini vasvasa zaharlab qo'ygandi. Maqsadga yetay deganda uzilib qolgan muvaffaqiyatsiz o'tgan sayohatning ayrim manzaralari, noma'lum yerga ko'milgan bitmas-tuganmas boylik – duru javohirlar, allaqaysi noma'lum suvlarda qolib ketgan uchinchi orolcha, anavi dahshatli ruhoniy o'tga uloqtirgan maktub, hatto qiynoqqa solganlarida ham ruhoniy aytib bermaydigan muqaddas raqamlar uning xayol ko'zgusidan tasbeh donalariday tizilishib o'tardi. Maluinning shundoq ham aqldan ozay deb turgan miyasi bu so'nggi zarbaga dosh berolmaydi deb xavotirlanish uchun yetarlicha asos bor edi. Oshig'ich sur'atda chaqirtirilgan vrach bemorning aqldan ozishiga oz qolganini ta'kidladi.

Turgan gapki, tog'aga juda katta g'amxo'rlik ko'rsatildi. Jildas Tregomen bilan Jyuel uni biron

daqiqa ham yolg'iz qoldirishmadi, boshida parvona bo'lishdi, basharti u sog'ayib ketgan ekan, faqat shularning g'amxo'rliги va parvarishi sabab bo'ldi.

Mehmonxonaga qaytgach, Jyuel Binni Umarni bor gapdan xabardor etdi, u esa o'z navbatida Tirkomel hazratlarining uchinchi orol joylashgan kenglikni bildiruvchi raqamlarni aytishdan qatiyan bosh tortganini Soukka yetkazdi. Soxta Nozimning buni eshitib qanchalar darg'azab bo'lganini asti qo'yaverasiz. Biroq, u bu gal baxti qaro notariusga zahrini to'kib-solmadi, darg'azab bo'lganini sezdirmadi ham. U miq etmay turarkan, aftidan Antifer tog'aning qo'lidan chiqib ketgan baxt qushini qanday qilib o'z boshiga qo'ndirish va qanday qilib bu sirni bilib olish, hamda undan yolg'iz o'zi foydalanish rejasini tuzardi. Aftidan, u o'zining butun kuch-quvvatini shu maqsadni amalga oshirishga bag'ishlagan bo'lsa kerak. Har qalay, o'sha kuni, ertasiga ham mehmonxonada uning qorasi ko'rinmadi.

Ruhoniyning o'zini qanday tutganini Jyueldan bilib olgan Tregomen bunday dedi:

– Menimcha, bu ishni bas qilib, hammasidan voz kechib qo'ya qolish kerak. Sen nima deysan, bo'tam?

– Menimcha ham shunday, janob Tregomen. Lekin bunaqangi qaysar odamlarni o'z fikridan qaytarish amri mahol...

– Har qalay, juda ahmoq ekan-a, bu ruhoniy! Unga bir necha millionni qo'shqo'llab ko'tarib kelsalar-u, u bo'lsa undan yuz o'tirib o'tirsa-ya!

– Bir necha millionni qo'shqo'llab ko'tarib kelsalarmish-a! – dedi yosh kapitan shubhalangandek ohangda.

– Sen uning mavjudligiga ishonmaysanmi, Jyuel?.. Sen yanglishmayotganmikansan?..

– Qanday o‘zgarib ketibsiz-a, janob Tregomen!

– Bo‘lmasam-chi! Anavi olmoslar topilganidan keyin o‘zgarmay bo‘lar ekanmi-ya!.. Turgan gapki, millionlar albatta uchinchi orolda deb ishontirmoqchi emasman, lekin, boylik o‘sha yerda bo‘lishi ham mumkin-ku, axir... Afsuski, anavi ruhoniylar hech nimani eshitishni ham istamayotgan ekan, uchinchi orolning qayerda ekanini hech qachon bilolmaymiz.

– Har qalay, janob Tregomen, hatto Mayumbadan topilgan o‘sha ikki dona olmos ham meni, poshsho bizni laqillatmoqchi bo‘lib, ahmoqona hazil qilgan degan fikrimdan qaytara olgani yo‘q...

– Qanday bo‘lmasin, bechora amakingga bu narsa juda qimmatga tushishi mumkin, Jyuel. Hozir eng muhimi – uni tezroq oyoqqa bostirish. Ishqilib, miyasi bu zarbaga dosh bersa bas! Uni xuddi shafqatli hamshiralarday parvarish qilamiz, o‘rindan tursa poyezdga o‘ltirishga quvvati yetadi, Fransiyaga tezroq qaytishni o‘zi ham istab qoladi... Yana hech narsa ko‘rmaganday xotirjamgina yashayveradi...

– Eh, janob Tregomen, qani endi u hozir Ot-Sall ko‘chasida bo‘lib qolsa-ya!

– Sen-chi, sen jajji Enogatning yonida bo‘lib qolsang-a, bo‘talog‘im!.. Aytganday, unga xat-pat yozmoqchimisan?..

– Shu bugunoq unga xat yozaman, o‘ylaymanki, bu safar qaytsak kerak, unga xuddi shunday deb yozib yuboraman.

Oradan bir necha kun o'tdi. Bemorning ahvoli og'irlashgani yo'q. Balki dastlab juda ko'tarilib ketgan isitma asta pasaya bordi. Biroq doktor hamon bechora tog'a aqldan ozib qolmasa, degan xavotirda edi. Tamoman aqli-hushi joyida emasdi uning, lekin, rost, u do'sti Tregomenni, jiyani Jyuelni, bo'lajak qaynag'asini taniyotgandi... To'xtang, qaynatasini deysizmi?.. Gap oramizda qolsin-u, ajoyib jins vakili bo'lmish va va'da qilingan kuyovni o'zining Maltadagi xonadonida sabrsizlik bilan kutib yotgan ellik yashar mademuazel Talisma Zambukoning umrbod qizligicha qolib ketish xavfi tug'ilgandi. Ming bora afsuski, boyliklar qo'lga kirmagan ekan, er ham qo'ldan ketadigan bo'ldi, zeroki bu ikki narsa bir-birovini to'ldirishni, umr qurishlari uchun vosita bo'lishi lozim edi-da.

Bir nafasga bo'lsa-da na Tregomen, na Jyuel mehmonxonani tark etishdi. Bemor doim ularni chaqirar, cheki-chegarasi ko'rinmaydigan nolish-shikoyatlarini, manfur ruhoniy sha'niga yog'diradigan aybnomasi-yu dag'dag'alarini eshitib, kechasi-yu kunduzi uning xonasidan jilmay o'tirishlarini talab qilardi. Tog'a Tirkomelni sudga bermoqchi bo'lardi, uning ustidan mayda dunyoviy ishlar sudyasiga yoki oliy sud mansabdoriga shikoyat qilmoqchi, keyin ishni oliy jinoiy ishlar sudiga, hatto adliya ministrligi ixtiyoriga oshirmoqchi bo'lardi. Sudyalar uni tezgina tilga kiritishadi... Yuz million frank boylik muomalaga kiritiladi degan bir og'iz iboraning o'zi tilga kiritishlariga majbur etadi... Axir, bu tariqa jinoyatga qarshi biroz jazo mavjud bo'lishi kerak-ku, bunaqalarga hatto eng dahshatli va eng qattiq jazo berilishi

kerak, dorga xuddi mana shunaqangi jinoyatchi tortilmasa, kim tortiladi unda?! Va hokazolar.

Antifer tog'aning ertadan-kechgacha chakagi tinmasdi. Jildas Tregomen bilan Jyuel navbatma-navbat tog'aning to'shagi yonida o'tirishardi, bordi-yu tog'a o'zini yo'qotib qo'yadigan bo'lsa, ikkovlari ham uning tepasida bo'lishardi. Bunday paytlarda bemor o'rindan turib ketmoqchi, xonadan otilib chiqib, Tirkomel hazratlarining huzuriga yugurib bormoqchi, uni qoq miyasidan otib tashlamoqchi bo'lar, ana shunday onlarda Tregomenning zabardast qo'llari uni o'ringa parchilab, mahkam bosib turardi.

Ana shuning uchun ham Tregomen tosh va marmardan bunyod etilgan ajoyib Edinburg shahrini tomosha qilishni qanchalar istamasin, bu istagidan voz kechishga majbur edi. Keyinroq, do'sti sog'aya boshlab, sal o'zini o'nqlab olgach, buning hissasini chiqarib oladi. Dastavval u Shotlandiya hukmdorlarining qadimiy qarorgohi Xolirud qasrini tomosha qiladi, qirollarning hashamdor saroylarini, Mariya Styuartning⁴⁰, baxtsiz qirolicha hayotligida qanday bo'lsa, o'shandayligicha saqlanib qolgan oromgohini borib ko'radi... U Kenonget bo'ylab borib bazalt jinsli qoya cho'qqisida viqor bilan qad ko'tarib turgan Kestlgacha ko'tariladi: u yerda bo'lajak shotlandiyalik Iakov VI hamda angliyalik Iakov⁴¹ olamga kelgan mo'jazzgina xona

⁴⁰ Mariya Styuart (1542–1587) – shotland qirolichasi; ingliz baronlarining reaksion katolik partiyasini quvvatlagan, ingliz qirolichasi yelizavetaning farmoni bilan qatl qilingan.

⁴¹ Iakov I, shuningdek shotlandiyalik Iakov VI ham deb atalgan (1566–1625) – Angliya qiroli; uning mutlaq hukmdorlikka uchrab, oppozitsiyani vujudga keltirgan.

hamon saqlanib qolgan. Tregomen g'arb tomondan qaralsa uxlab yotgan arslonga o'xshab ketadigan «Artur taxti»gacha ko'tariladi; u yerdan, dengiz yuzasidan ikki yuz qirq yetti metr balandlikdan qaralsa, butun shaharning, qadimiy Rim shahriga o'xshagan tepaliklarga joylashgan qismi. Edinburgning fyortof-fort qo'ltig'idagi chinakam porti bo'lgan Litgacha⁴² Fayf grafligi sohillarigacha, Ben-Lomond, Ben-Ledi, Lammermur-Xils va bepoyon dengiz yalangliklarigacha ko'z o'ngingizda namoyon bo'ladi...

Ona tabiat qanchalar so'lim manzaralarni, inson qo'li esa qanchalar mo'jizalarni yaratgan-a! Tregomen hamon ruhoniyni sarkashligi tufayli boy berilgan xazina haqida qayg'urarkan, bu ajoyib manzarani tomosha qilish ishtiyoqida qanchalik yonmasin, biroq burch hissi uni o'zining zolim do'sti to'shagi yonida o'ltirishga majbur etardi.

Shu boisdan bu oq ko'ngil, sahiy odamning lang ochiq turgan mehmonxona derazasidan Valter Skottning mashhur haykalini, gotik uslubida qurilgan tokchalari go'yo buyuk shotland romanavisining tasavvuri yaratgan ellik olti pahlavonni kutib turgan, deyarli ikki yuz fut balandlikka bo'y cho'zgan pilyastirlarni tomosha qilishdan o'zga iloji qolmagan edi.

Keyin Jildas Tregomen nigohini Kolton-Xill tomon cho'zilib ketgan Shahzoda ko'chasiga burardi, choshgohga bir necha daqiqa qolganda esa observatoriyaning minorasidagi oltin sharni kuzata boshlardi, bu shar quyosh xuddi poytaxt

⁴² Lit Edinburgga juda yaqin yerda joylashgan, Fyort-of-fort qo'ltig'i sohilidagi port shahar.

meridianidan o'tayotgan damda pastga to'sha boshlardi.

Bu orada Kenonget dahasiga, so'ngra esa butun shaharga shundoq ham mashhur bo'lgan Tirkomelning shuhratini oshiradigan mish-mishlar taraldi. Ma'lum va mashhur va'zlari, so'zi bilan ishi bir odamga xos ish tutib, juda katta, aql bovar qilmaydigan boylikdan voz kechgani og'izdan-og'izga o'tardi. Odamlar uning bir necha million, hatto bir necha yuz million boylikni inson harisligidan yashirmoq niyatida ekani haqida gapirishardi. Ehtimol, o'z obro'sini oshishiga xizmat qiladigan bu mish-mishlarning yoyilishiga ruhoniyning o'zi yordam qilgandir, chunki buni sir saqlashdan uning uchun hech foyda yo'q edi. Gazetalar ham bu mish-mishlarni yoritib, Komulk poshshoning allaqaysi noma'lum oroldagi qoyalar ostida ko'milgan boyligi haqidagi xabarlarni bosib chiqara boshladi. Orolning qayerda joylashganiga kelsak, zotan gazetalarga ishonilsa – ruhoniy esa bunga raddiya berishni xayoliga ham keltirmadi – bu Tirkomel hazratlariga ma'lum emish, faqat ugina bu savolga aniq javob berishga qodir emish. Aslida esa qolgan ikki merosxo'rsiz hech ish chiqarib bo'lmasdi. Har qalay, bu ishning aniq-tiniq tafsilotlarini hech zog' bilmas, Antiferning nomi esa biron marta tilga olinmagandi. O'z-o'zidan ayonki, bir xil gazetalar erkin shotland cherkovi ruhoniylari eng ajoyib namoyandasining bu jasurona xatti-harakatini ma'qullasa, boshqalari bu millionlar allaqanday chuqurda behuda yotgandan ko'ra Edinburgdagi g'aribu g'urabolarga bo'lashib berilsa, qancha-qancha bechora qashshoqlarning

yarasiga malham bo'lardi, deb uni qoralardi. Biroq Tirkomel hazratlari qoralashlarga ham, maqtovlarga ham qatracha e'tibor bermasdi – chunki uning uchun har ikkalasi ham baribir edi.

Bu tong qoldirarli voqea sodir bo'lgan kunning ertasiga Arshi A'lo ibodatxonasidagi va'zxonlikning qanchalar muvaffaqiyatli o'tganini ko'z oldiga keltirish mushkul emasdi. 30-iyun kuni kechqurun xudojo'ylar ibodatxonani qamal qilib olgandi desak lof bo'lmas. Ibodatxona ichkarisiga sig'magan odamlar olomoni tevarak atrofdagi ko'cha va chorxalalarda tirband bo'lib turib qolgandi. Minbar yoniga chiqib kelgan voizni gulduros olqishlar bilan kutib olishdi. Shu topda teatrdagi o'tiribmanu, tomoshabinlar hayajonlanib «ura» sadolari ostida o'z sevikli aktyorini sahnaga da'vat etib, uni olqishlar bilan kutib olyapti, deb o'ylash mumkin edi. Bu dunyoviy farog'atni inkor etuvchi Tirkomelga yuz million, ikki yuz million. Yo'q-yo'q, bir milliard taklif etishibdi-yu, ammo u bu boyliklarni pisand qilmabdi-ya! U o'zining odatdagi va'zini hammani larzaga keltiruvchi qo'yidagi iboralar bilan boshladi:

– Olamda shunday bir inson borki, u bir kalima so'zi bilan yer ostida ko'milib yotgan yuzlab millionlarni yuzaga chiqarish qo'lidan keladi, illo u ana shu kalimani hech qachon aytmaydi.

Xudojo'ylar orasida Antifer tog'a va uning hamrohlari yo'q edi, albatta. Biroq ibodatxona ustunlaridan birining orqasida hech kim tanimaydigan, o'ttiz-o'ttiz besh yoshlar chamasidagi qorachadan kelgan, qorasoqol, dag'al chehrali, turqi sovuq, g'alati qiyofali bir muhojir pusibgina turardi.

Tirkomel so'zlayotgan tilni bilarmidi u? Bu bizga qorong'i. Har qalay nim qorong'ilikda voizdan chaqnayotgan ko'zlarini uzmay tikilib turardi.

Bu notanish odam va'zxonlik nihoyasiga yetgunicha shu kuyi kutib turdi, voizning so'nggi so'zlaridan gulduros olqishlar ko'tarilganida esa odamlar olomonini yorib voizga yaqinlasha boshladi. Ehtimol, u ruhoniyning orqasidan Kenonget ko'chasiga ergashib bormoqchidir? Aftidan, shunday qilmoqchi edi, chunki u ibodatxona eshigi oldidagi zinadan olomonni zo'r berib tirsaklari bilan itarib-surib ilgarilab borardi.

O'sha oqshom Tirkomel hazratlari uyga yolg'iz qaytmidi. Minglab odamlar uni tantana bilan kuzatib borardi. Boyagi g'alati muhojir xayajonga to'lgan olomonning hayqiriqlariga qo'shilmay, orqaroqda borardi.

Ma'lum va mashhur notiq uyiga yetgach, kivraverishdagi zinaning yuqori poyasiga ko'tarildi-da, o'z muridlariga bir necha og'iz so'z bilan murojaat etdi, yana qudratli «ura» va «gip», «gip» sado-lari yangradi. Keyin u qorong'i yo'lakka o'tarkan, orqasidan bir begona kimsa ergashib kirganini payqamadi.

Olomon ko'chalarni shovqin suronga to'latib, asta-sekin tarqala boshladi.

Tirkomel hazratlari uchinchi qavatga olib chiqadigan ensizgina pillapoyadan yuqoriga ko'tarildi. Notanish odam sharpa chiqarmay xuddi o'g'ri mushukdek orqasidan chiqib boraverdi.

Ruhoniy o'z xonasiga kirdi-yu, eshikni qulfladi.

Notanish odam pillapoya yuqorisidagi maydonchada to'xtab, qorong'i burchakka yashirib, kuta boshladi...

Keyin nima bo'ldiykin?..

Ertasiga qo'shnilar har kuni ertalab bir vaqtda uyidan chiqadigan ruhoniyni bu odatini tark etganini ko'rib hayratda qoldilar. U kunduzi ham ko'rinmadi. Uni ziyorat qilgani kelgan bir necha kishi eshigini qancha taqillatmasin, bari urinishlari behuda ketdi.

Ruhoniyni g'oyib bo'lib qolgani qo'shnilarni shubhaga solib qo'ydi, choshgohdan keyin ulardan biri bu haqda politsiya idorasiga xabar berdi. Konstabl va uning yordamchilari ruhoniyni uyiga kelib, pillapoyadan yuqoriga ko'tarilishdi-da, eshikni taqillatishdi. Ichkaridan javob bo'lmagach, politsiyachilargagina ma'lum bo'lgan usulda yelkalari bilan eshikni ko'chirib xonaga kirishdi.

Yo tangrim, qanday manzara! Ko'rinib turibdi, kimdir qulfni sindiribdi... ichkariga kirib hamma yoqni ostin-ustin qilib tashlabdi... Shkaf lang ochiq... polda kiyim-boshlar sochilib yotibdi... Hamma yoqqa kitob va qog'ozlar sochilgan... Sinib, ag'dar-to'ntar bo'lib ketgan karavot yonida oyoq-qo'li chandib bog'langan, og'ziga latta tiqilgan Tirkomel hazratlari cho'zilib yotibdi...

Xonaga kirishlari bilanoq unga dastlabki yordam berishga shoshildilar. Ruhoniy hushsiz, sezilar-sezilmas nafas olardi... Unga qachon hamla qilinganiykin?.. Qay vaqtdan beri shu ahvolda yotganikin?.. Agar hushiga keltirib bo'lsa, bu savollarga yolg'iz uning o'zigina javob bera olishi mumkin edi...

Ruhoniyni yechinirib o'tirmay, o'sha zahotiy oq hushiga keltirishga kirishishdi, chunki shundoq ham u yarim yalang'och edi; egnidagi ko'ylagi

tilka-pora qilib yirtib tashlangan, yelkalari va ko'kragi ochilib yotardi.

Politsiyachilardan birov ham hamma qoidalarni o'rniga qo'yib ruhoniyni ishqalarkan, konstabl hayratdan qichqirib yubordi. Tirkomel hazratlarining chap yelkasidagi harf va raqamlarni ko'rib qolgan edi u.

Darhaqiqat, va'zxonning oppoq terisidagi allaqanday jigar rang yozuv yaqqol ko'zga tashlanib turardi... U yerda quyidagilar yozilgandi:

77°19' N

Buning o'sha noma'lum kenglik ekanligini anglash qiyin emasdi. Turgan gapki, bu mo'tabar xabarni ehtiyotlik bilan saqlash maqsadida ruhoniyni otasi o'zining murg'ak o'g'lining yelkasiga (xuddi xotira daftariga bitib qo'ygandek) qizdirilgan temir bilan yozib qo'ygan. Yon daftarcha yo'qolib qolishi mumkin, ammo yelka hech qachon yo'qolmaydi-da, axir! Shu sababli Tirkomel, garchi otasi nomiga yozilgan Komulk poshshoning maktubini chindan ham yoqib yuborgan bo'lsa-da, baribir bu g'aroyib yozuvni saqlab qolgandi, darvoqe u bu yozuvni ko'zguga solib o'qib ko'rishga hatgo qiziqmagan ham edi.

Ruhoniy uxlab yotganda xonaga bostirib kirgan jinoyatkor bu yozuvni albatta o'qigan!.. U bechora ruhoniyni g'aflatda qoldirgan, shkafni ostin-ustin qilgan, qog'ozlarni titgan... Tirkomel behuda qarshilik ko'rsatgan... U muttaham uning qo'l-oyog'ini chirmab, og'ziga latta tiqib, g'oyib bo'lgan...

Oshig'ich chaqirtirilgan vrach hushiga keltirgandan so'ng Tirkomel o'z og'zi bilan ana shular-

ni aytib berdi. Ruhoniyning fikricha, bu bosqinchilikdan yakka-yu yagona maqsad – u aytishdan bosh tortgan, millionlar ko‘milgan orolning sirini bilib olish edi.

Jinoyatchini juda yaxshi ko‘rib olgan, chunki u bilan olishishga majbur bo‘lgandi. U hatto jinoyatchining barcha belgilarini aniq-tiniq aytib berdi. Bundan tashqari, Komulk poshsho vasiyatnomasi xususida so‘rab-surishtirgani Edinburgga kelgan va shu maqsadda uning huzuriga tashrif buyurgan ikki fransuz hamda bir maltalik shaxs haqida gapirib berishni ham unutmadi.

Bu konstabl uchun bir ko‘rsatma bo‘ldi, u o‘sha zahotiyoyq tergov ishlarini boshlab yubordi: ikki soat o‘tmayoq politsiya yuqorida aytib o‘tilgan muhojirlarning bir necha kun muqaddam «Qirol mehmonxonasi»ga kelib tushganlaridan xabardor bo‘ldi.

Rostini aytganda, Antifer tog‘a, bankchi Zambuko, Jildas Tregomen, Jyuel va Binni Umarlar baxtlari chopib, o‘zlarining bu jinoiy ishga mutlaqo dahllari yo‘q ekanligini isbot etdilar. Zeroki, bemor maluin bu orada hali oyoqqa bosib, o‘rnidan turmagan, yosh kapitan bilan Tregomen uning xonasidan bir qadam ham siljishmagan, bankchi Zambuko bilan notarius esa mehmonxonani biron daqiqaga bo‘lsa-da, tark etishmagan edi. Buning ustiga ulardan birortasi va‘zxon tasvirlab bergan kimsaga sira o‘xshamasdi.

Shunday qilib, bizning xazina izlovchilarimiz qamoqqa olinmadilar. Birlashgan qirollik turmalari esa o‘z panohiga olgan mehmonlarini noxushlik bilan xalos etishini hamma biladi.

Lekin ulardan tashqari Souk ham bor edi-ku...

Ha, bu jinoyatni Soukdan bo'lak hech kim qilmagan edi... Tirkomel hazratlarining xonasiga bostirib kirib, sirni bilib olish fikri xuddi shu Soukning xayoliga kelgandi... Va'zxonning yelkasidagi yozuvni o'qib, o'sha raqamlarni bilib olgach, hamma ish endi uning qo'lida edi. Axir Mayumba qo'ltig'idagi orolchadan topilgan hujjatda ko'rsatilgan uzunlik ma'lum edi-da unga. Shunday ekan endilikda uchinchi orolchanning qayerda joylashganini aniqlash uchun atlasga qarashdan bo'lak ish qolmagandi.

Bechora Antifer! Senga ana shu so'nggi zarba kamlik qilib turgan edi-da, o'ziam!

Darhaqiqat, gazetalarda tasvirlangan jinoyatchining tashqi qiyofasi va belgilaridan Antifer tog'a, Zambuko, Jildas Tregomen va Jyuellar Tirkomel hazratlari Binni Umarning gumashtasi Nozimning qo'liga tushganini darrov aniqlashdi. Nozimning mehmonxonadan g'oyib bo'lganidan xabardor bo'lishlari bilanoq, ular, birinchidan, gumashta Tirkomelning yelkasidagi raqamlarni o'qigan, ikkinchidan, bitmas-tuganmas boylikni qo'lga kiritgani yangi orolga jo'nagan, degan xulosaga kelishga majbur bo'lishdi.

Bu holdan hammalariga qaraganda Jyuel kamroq taajjublandi, chunki u Nozimdan ko'pdan beri shubhalanib yurardi. Shuningdek, yosh kapitan bu shubha-gumonlarini o'rtoqlashgan Jildas Tregomen ham unchalik ajablanmadi. Tasvirlashga til lol qoladigan darajada g'azablangan Antifer tog'a bilan Zambukoga kelganda, yaxshiyamki ikkovlarining baxtiga Binni Umar bor ekan, ular butun qahr-

g'azablarini sho'rlik notariusga sochib, alamdand chiqishdi.

O'z-o'zidan ayonkim, bu jinoyatni Souk qilganiga hammalariga qaraganda Binni Umarning imoni komil edi. Zeroki notarius bu odamning qora niyatlaridan habardor bo'la turib, uning hech narsadan, hatto jinoyat qilishdan ham toymasligini bila turib, shubhalanishi mumkinmidi, axir?

Notariusning qanchalar malomatu dashnomlarga bardosh berishga majbur bo'lganini asti qoyaverasiz! Bechoraning qismatiga busiz ham ozmuncha ko'ngilsiz majorolar tushganmidi deng... Antifer tog'aning buyrug'i bilan Jyuel Binni Umarni bemorning xonasiga boshlab keldi. Bemor deysizmi? Nahotki shunday paytda og'rib yotsa? Ish shunday chaparasidan ketgan bir paytda kasal bo'lib bo'ladimi axir? Buning ustiga, Antifer tog'a chakka zarb dardiga chalinib, safrosi o'ynab ketgan (vrachning diagnozi shunday edi) bo'lib, endilikda ana o'sha to'planib qolgan zahrini to'kib solib kasaldan musaffo bo'lishi uchun qulay fursat kelgandi.

Kitobxon ko'z oldida jonlantirish uchun sho'rlik Binni Umarni qanday qarshi olganlarini tasvirlashdan ojizmiz. Avvalo notariusga, va'zxonning joniga qasd qilib, talash maqsadida, uning xonasiga bostirib kirgan – ha, ha, talash maqsadi-da ey, manfur Umar! – aynan Nozim ekanini aytishdi... o'z mahkamangda ishlatgani shunaqa gumashtalarni tanlarkansan-da! Boyliklarni qonuniy merosxo'rlarga topshirish paytida hozir bo'lish uchun shunaqa yaramas, muttaham, firibgar, dog'uli odamni menga va hamrohlarimga ro'para qilishga

jur'at etdingmi!.. Mana endi bu jirkanch bosqinchi... ham, ha, bosqinchi... juftakni rostlab qolibdi... Uchinchi orolchanning qasrda joylashganini bilib olibdi, Komulk poshshoning millionlarini egallab oladigan bo'ldi endi... Qani endi uni ushlab ko'ring-chi, dumini tutqizmas... Bu misrlik qarog'chini quvib yetib ko'ring-chi, o'zining xavotirsizligi, jazodan qutulishi uchun olam-jahon pulni sovurishdan ham qaytmaydi u!..

– Eh, Souk...Souk!.. – degan so'z og'zidan chiqib ketdi esankirab qolgan notariusning.

Jyuelning gumoni to'g'ri chiqdi.... Nozim chindan ham Nozim emasdi... Komulk poshsho merosxo'rlarining foydasiga merosdan mahrum etgan Murodning o'g'li Souk ekan...

– Nima, Soukmidi u?.. – deb qichqirib yubordi Jyuel.

Notarius, yo'q, bunday emas, bu nom og'zimdan tasodifan chiqib ketdi deb ishontirmoqchi bo'ldi... Biroq uning shikasta qiyofasi va ko'zlarida zuhr etgan dahshat Jyuelning yanglishmaganini isbotlardi.

– Souk! – deb takrorlarkan Antifer tog'a sapchib karavotdan turib ketdi.

U bu ismni shunday g'azab bilan o'shqirib aytdikim, tishlab turgan trubkasi og'zidan otilib chiqib, notariusning ko'kragiga tegdi.

Garchi ko'kragiga borib tekkan bu snaryad Binni Umarni qulatmagan esada, belidan pastrog'iga tushgan dahshatli tepkidan yer tishlab qoldi, bunaqangi tepkini na Misrdagi, na biron boshqa mamlakatlardagi bironta notarius hech qachon yemagan bo'lsa kerak! Binni Umar boshini

ko'tarishga yuragi dov bermay, uzala tushganicha yuz tuban cho'zilib yotardi.

Shunday qilib, bu odam Nozim emas, balki Souk, ya'ni qanday bo'lmasin boyliklarni qo'lga kiritish uchun qasamyod etgan va uning bu ishga jinoyatkorona ravishda aralashishidan Antifer tog'a cho'chishi zarur bo'lgan o'sha Souk edi...

Katta kabotaj kemasi kapitani bisotida bor dengizcha haqoratli so'zlarni ishlatib bo'ralab so'kib bo'lgach, Antifer tog'aning yuragi bo'shab, chindan ham yengil tortib qolgandi. Binni Umar qornini changallaganicha ikki bukchayib, o'z xonasiga tomon surgalib borarkan, Antifer tog'a o'zini juda yaxshi his eta boshladi. Yana shu narsani ilgaritdan aytib qo'yaylikki, oradan bir necha kun o'tgach, Edinburg gazetalaridan birida bosilgan yangilik uni tamoman oyoqqa bosishiga sabab bo'ldi.

Muxbir hamda gazeta xodimlarining nimalarga qodir ekanliklari hammaga ayon. To'ppa-to'g'risini aytganda, ular hamma narsaga qodirlar! O'sha davrga kelib ular jamoatchilik va shaxsiy ishlarga shunchalik shijoat, shunchalar sezgirlik, shunchalar surbetlik bilan aralasha boshlagan edilarkim, ularni yangi hokimiyatning ijroiya agentlari desa ham bo'lardi.

Ana shunday muxbirlardan biri o'ta epchillik ko'rsatib, bulajak va'zxonning chap yelkasiga otasi yozgan yozuv haqida axborot olibgina qolmay, balki uning aniq suratini olib, mahalliy kundalik varaqada bostirib chiqarishga muvaffaq bo'lgandi. Darvoqe, bu varaqa o'sha kuni o'n ming o'rniga yuz ming nusxa bosildi.

Shunday qilib, butun Shotlandiya, keyin butun Buyuk Britaniya, undan keyin Birlashgan qirollik, hamda yevropa, nihoyat butun dunyo uchinchi orol joylashgan mashhur kenglikdan xabardor bo'ldi, bu ekvatoridan shimoldagi yetmish yetti daraja-yu o'n to'qqizinchi daqiqa edi.

Aslini olganda, bu raqamlarning o'zi qanoatlanurli emasdi, chunki, «boyliklar masalasini» (bu iborani ishlatish shu kunlarda taomilga kirib qolgan edi) hal etish uchun yetarli emasdi. Bu masalani yechish uchun ikki zaruriy elementdan biri... Faqat bittasi – uzunlikni bildiruvchi raqamlar yetishmasdi...

Biroq, bu uzunlik Antifer tog'aga ayon edi-ku, axir! (Darvoqe, bu raqamlar Soukka ham ma'lum edi-ku). Jyuel o'sha gazetani amakisiga olib kelib berdi, u gazetada bosilgan raqamlar suratiga kuzi tushishi bilanoq adyolni uloqtirib yuborib, o'rnidan dast turib ketdi-yu... sog'aydi qoldi... Edinburg universiteti tibbiyotchilari davolagan birorta ham bemor shu choqqacha bunday davo topa olmagandi.

Bankchi Zambuko, Jildas Tregomen va yosh kapitan Antifer tog'ani ushlab qolish uchun behuda urindilar. Dinga e'tiqod, ruhiy ishonch kishi dardiga davo bo'ladi deyдилar... Shunday ekan, nega endi oltinga bo'lgan e'tiqod bunday mo'jiza ko'rsata olmas ekan?..

– Jyuel! Atlas sotib olganmisan?

– Ha, amaki.

– Agar yanglishmasam, oxirgi hujjatda aytilishicha, uchinchi orol sharqiy uzunlikning o'n besh daraja-yu o'n birinchi daqiqasida joylashgan-a?

– Shunday, amaki.

– Va'zxonning yelkasidagi yozuvda – shimolni kenglikning yetmish yetti daraja-yu o'n tuqqizinchi daqiqai ko'rsatilganmi?

– Shunday, amaki.

– Xo'sh, shunday ekan... qani, uchinchi orolchani qidirishni boshla!

Jyuel atlasni olib, shimoliy dengizlar xaritasini ochdi va pargar bilan har ikkala koordinat kesishgan nuqtani aniqladi-da:

– Shpitsbergen, bu katta orolning janubiy chegarasida ekan, – dedi.

Shpitsbergen deydimi?.. Demak, Komulk poshsho o'zining olmos, oltin hamda duru javohirlarini shimol suvlaridagi orolchaga ko'mgan ekan-da! Biroq, bu oxirgi orolchamikin o'zi?..

– Qani, yo'lga! – deb qichqirdi Antifer tog'a, – Agar suzishga tayyor turgan kemani topa olsak, shu bugunoq yo'lga to'shamiz!

– Amaki! – xitob qildi Jyuel.

– Anavi yaramas Soukning fursatdan yutishiga yo'l qo'yish mumkin emas!

– Sen haqsan, qariya, – dedi Tregomen.

– Qani, yo'lga! – deya amirona takrorladi Per-Servan-Malo. Keyin yana qo'shib qo'ydi: – Rostki Komulk poshsho boylikni kovlab olayotganda tepasida hozir bo'lishini talab qilgan ekan, anavi kallavaram notariusni ham ogohlantirib qo'yish darkor.

Antifer tog'aning sarkash irodasiga bo'ysinishdan o'zga chora qolmagandi, buning ustiga bankchi Zambuko ham uning gapini quvvatlab turardi.

– Tag'inam omadimiz bor ekan, – dedi yosh kapitan, – yaxshiyamki bu hazilkash poshsho bezin ikki qarama-qarshi qutbga jo'natmagani-ya!

O'N TO'RTINCHI BOB

*Antifer tog'aning Komulk poshsho imzo
chekkan yana bir hujjatni topgani*

Antifer tog'a va, Binni Umarni ham qo'shib hisoblaginda, to'rttala hamrohining g'arbiy Norvegiyaning asosiy portlaridan biri bo'lgan Bergenga yo'l olishdan bo'lak iloji qolmagan edi.

O'sha ondayoq shunday qarorga kelingan va bu qaror shu lahzadayoq amalga oshirila boshlangan edi. Zero ki Nozim, ya'ni Souk, to'rt yoki besh kun ulardan ilgariroq otini qamchilab qolgan ekan, endi biron soatni ham boy bermaslik zarur edi. Edinburg rasadxonasidagi choshgohda pastga tushguvchi shar hali quyiga tushib ulgurmasidan tramvay⁴³ besh nafar sayohatchini Litga eltib qo'ygandi, bu yerdan ular Shpitsbergengacha bo'lgan yo'lning birinchi bosqichi – Bergenga jo'naydigan bironta kemani topish niyatida edilar.

Edinburg bilan Norvegiyaning bu porti oralig'idagi masofa to'rt yuz milyadan oshmasdi. U yerdan Norvegiyaning eng shimolidagi port – Gammerfestga tez va osongina yetib olinadi.

Shu yo'lda qatnaydigan kema yilning iliq fasllarida turistlarni to Nordkap⁴⁴ burunigacha eltadi.

⁴³ To elektr toki bilan yuradigan tramvay paydo bo'lgunicha ham Angliyadagi vagonlarni temir izdan otlar tortib yurgan u yerda uni ham taramvay deb atalgan.

⁴⁴ Nordkap – Yevropaning eng shimoliy chekkasida joylashgan Norvegiyadagi burun. Bu qoyaning balandligi uch yuz metrcha keladi. Tarjima qilib aytilgandagi ma'nosi – shimoliy burun.

Bergen bilan Gammerfestning oralig'i sakkiz yuz milyadan oshmaydi. Gammerfestdan Tirkomel hazratlarining yelkasidagi yozuv tufayli aniqlangan Shpitsbergenning janubiy nuqtasigacha esa olti yuz milya atrofdagi masofani bosib o'tiladi. Yo'lning ana shu so'nggi bosqichida har qanday ob-havoga ham dosh bera oladigan mustahkam kemani yollashga to'g'ri keladi. To'g'ri, hozircha yoz, yoz paytida esa Shimoliy Muz okeani uzra kuchli bo'ronlar esmaydi.

Lekin pul haqida ham o'ylash lozim edi. Bu uchinchi sayohat juda qimmatga to'shadi, albatta, chunki yo'lning so'nggi – Gammerfestdan Shpitsbergengacha bo'lgan qismini faqat maxsus yollangan kemadagina bosib o'tish mumkin. Jildas Tregomenning hamyoni esa Sen-Malodan chiqqanlaridan beri xiyla bo'shab qolgan edi. Baxtlariga, bankchi Zambukoning imzosi oltinga o'tardi. Taqdiri azalning shunday erkatoylari ham borki, yevropada ularning qo'li yetmaydigan bironta kassa yo'q! Zambuko aea shundaylar jumlasidan edi. U o'z hamyonini vorisdoshi qo'liga tutqazdi. Bu qaynag'a-kuyovlar keyinroq, o'z xazinalarini topishgach hisoblashadigan bo'lishdi. Hozirchalik esa Antifer tog'aning olmosi aqalli qarzini to'lash uchun yetarlicha kafolot o'rniga o'ta olmaydimi, axir?

Shu boisdan bankchi Edinburgni tark etishdan avval Shotlandiya bankiga bir necha daqiqagagina kirib chiqdi, u yerda uni juda, yaxshi kutib olishdi. Qo'shimcha mablag' bilan bellarini baquvvat qilib olgan sayohachilarimiz endilikda dunyoning narigi chekkasiga bo'lsa ham borishga qodir edilar.

Kim biladi deysiz, ishlar qay tarafga yuz tutib, taqdir ularni yana qay tomonlarga uloqtiradi!

Fyort of-fort qo'ltig'ining sohiliga joylashgan Lit portida doim talaygina kemalar langar tashlab turadi. Ana shular orasida, Norvegiya sohillari tomon yo'lga chiqay deb turgan birorta kema topilmasmikin?

Bunday kema topildi. Bu gal, aftidan, taqdir Per-Servan-Maloga kulib boqayotganday edi.

Rost, yuqorida zikr etilgan kema o'sha kuni emas, ertasiga yo'lga chiqar ekan. Bu «Viken» deb ataladigan oddiy savdo kemasi edi. Tuzukkina haq evaziga kema kapitani yo'lovchilarni Bergenga eltib qo'yishga rozi bo'ldi. Yo'lga chiqilgunicha o'ttiz olti soat kutishlari kerak edi. Bu fursat mobaynida Antifer tog'a o'z «so'lig'ini» shunday chaynadiki, u oxiri mayda-mayda bo'lib ketdi. U hatto Jildas Tregomen bilan Jyuelning Edinburgni aylanib chiqishiga ham izn bermadi. Bu hol Tregomenni, garchi poshshoning millionlari uni ham rom etgan bo'lsa-da, qattiq ranjitdi.

Nihoyat. Antifer tog'a na uning hamrohlarini o'z og'ushiga olgan «Viken» 7-iyul kuni ertalab yo'lga tushdi. Tog'aning hamrohlaridan birov kema ruli birinchi burulgandayoq madori qurib, guppa quladi, uning kimligini fahmlab olgandirsizlar...

Ikki kunlik osoyishta safardan keyin ufqda Norvegiyaning tik sohillari namoyon bo'ldi, peshin payti, soat uchlarda kema Bergen portida langar tashladi.

O'z-o'zidan ayonki, Mayumba qo'ltig'nda «Portalegri» kemasi halokatga uchragan paytda yo'qotilgan kitob va asboblarni o'rniga Jyuel Edin-

burgdan sekstant, xronometr va «Vaqtini hisoblash jadvalini sotib olgan edi.

Basharti Litda to'ppa-to'g'ri Shpitsbergenga boradigan kema yollay olganlarida vaqtdan ancha yutgan bo'lardilar, albatta, lekin bunga muvaffaq bo'lolmadilar.

Har qalay, Soukning sharpasi ko'z oldidan sira nari ketmayotgan Antifer tog'a aytarli uzoq kutib qolmadi. Nordkapga qatnaydigan aloqa kemasi bir kundan keyin yo'lga chiqishi kerak edi. Yana o'ttiz olti soat kutishga to'g'ri keldi, bu muddat Antifer tog'a va xuddi shuningdek bankchi Zambuko uchun haddan ziyod bo'lib tuyulganini asti qo'yaverasiz! Na unisi, na bunisi «Skandinaviya» mehmonxonasidagi o'z xonasidan tashqari chiqishni istadi. Buning ustiga yomg'ir yog'ardi, yomg'ir esa bu yerda har kuni yog'sa kerak. Bergen tevarak-atrofi tog'lar bilan qurshalgan keng-gina vohada joylashgan bo'lib, uning osmonida hamma vaqt bulut suzib yursa ajab emas.

Biroq yomg'ir Tregomen bilan Jyuelning bo'sh vaqtlarida shaharni tamosha qilishlariga xalal berolmadi. Isitma-alahlash dardidan batamom xalos bo'lgani tufayli Antifer tog'a ularni yonida ushlab qolmadi. Bunday qilishning nima keragi boriydi? Merosxo'rlarni dog'da qoldirib, ilgariroq otini qamchilab qolgan muttaham Soukka ikkovlari ularsiz ham bemalol toqi la'nat yog'diraveradilar-ku.

Basharti siz hashamdor va go'zal Edinburgni tomosha qila olmagan bo'lsangiz, Bergenning ko'chalarini sayr etib (garchi u Ganzey ittifoqining⁴⁵

⁴⁵ Ganzey ittifoqi – savdo-sotiq bilan shug'ullanuvchi burjuaziya manfaatlarini himoya qilish uchun, shimoliy

asosiy shaharlaridan biri bo'lsa-da) buning hissasini chiqarolmaysiz, ha-ha, ishonavering so'zimga. Bu shahar kattakon baliq bozoriga o'xshaydi, uning kishini jalb etadigan hech qanday qiziqarli tomoni yo'q. To'g'ri, Jildas Tregomen seld balig'i solingan bunaqangi son-sanoqsiz bochkalarni, Lofoten orollari yaqinida ovlangan olamjahon treskalarni, Norvegiyada ko'plab iste'mol qilinadigan tog'-tog' bo'lib uyulib yotgan sulaymonbaliqlarni umrida ko'rmagan edi.

Shu sababli, yuzlab baliqchilar qayiqlari tizilishni turgan sohil bo'yi yaqinidan, oppoq chodirlar ostida ichak-chavog'ini ag'darib, baliq tozalanadigan joylar yaqinidan o'tgan baland-baland imoratli ko'chalarda, balki qadimiy gilamlar, ayiqlarning oq va qora terilari kabi noyob buyumlar bilan savdo qiladigan do'konlarda, hatto muzeylarda, hatto bejirim-bejirim qishloq uylari qad ko'targan chuchuk suvli katgakon ko'ldan kambargina til ajratib turgan torgina qo'ltiqning ikki kirg'og'iga sochilgan bog'-rog'lardan ham dimoqni yorg'udek o'ziga xos bir qo'lansa hid anqib turardi.

Xullasi kalom, Jildas Tregomen bilan Jyuel shaharni va uning atroflarini ko'ngillari tusagani-cha tomosha qilishga ulgurdilar. Nihoyat «Viken» Nordkap ufqida yarim tunda ham quyoshning jamol ko'rsatib turishini tomosha qilishni istagan sayohatchilarni olib, 11-iyul kuni yo'lga tushdi.

german shaharlari savdogarlarining XIII–XVII asrlardagi birlashmasi. Ganzey ittifoqi faqat Germaniyadagina emas, balki garbiy yevropadagi boshqa mamlakatlardagi savdo-sotiq muomalalarini nazorat qilgan. Norvegiyada ham, xususan Bergenda ana shu Ganzey ittifoqining bo'limlari mavjud edi.

Tabiatning ana shunday ajoyib-g'aroyib hodisasiga Antifer tog'a bilan bankchi Zambuko mutlaqo beparvolik bilan qaradilar, Binni Umarni-yu gapirib o'tirmasak ham bo'ladi. Bechora notarius ichak-chavog'i ag'darilib tashlangan treskaday o'z karavotida uzala tushib yotardi.

Arraning tishi kabi ichkariga yorib kirgan qo'ltiq va qo'ltiqchalarga boy Norvegiya sohili bo'ylab qilayotgan sayohatlari g'oyatda ajoyib edi. Dengizga yorib kirgan qoyalardagi muzlar oftobda yarqirab ko'zning nurini olardi, bu muzlar ba'zi yerlarda suv betidan bo'sa olgudek juda pastgacha tushib kelgandi. Sayohatchilar cho'qilari shimol tumanlari siynasiga botib ko'zdan yo'qolgan serviqor tog' tizmalari yonidan suzib borishardi.

Kemaning tez-tez to'xtashi, hammasidan ham Antifer tog'aning g'azabini qo'zg'atardi. Aloqa kemasi sayohatchilar qiziqsinishini qondirish uchun sayohatnomalarda va tavsiya etilgan yerlarda to'xtab o'tardi. Soukning bir necha kun ilgariroq otini qamchilab qolganini o'ylarkan, Antifer tog'aning shunday fig'oni falakka chiqardiki, bunga atrof-dagilarning dosh berishi amri mahol edi. U Jildas Tregomen bilan Jyuelning tanbehlariga aslo parno xam qilmasdi; tog'ani faqat kapitanning, agar har to'xtalganda bunaqangi to'ng'illashini qo'ymasa va sayohatchilarning oromini buzadigan bo'lsa, dastlabki portda kemadan tushirib yuboraman, degan po'pisasigina sal tinchitib qo'ydi.

Shu boisdan u Tornxeymda, Bergendan kura kichikroq, ammo undan ko'ra chiroyliroq qadimiy

Avliyo Olafda⁴⁶ to'xtalganida churq etmaslikka majbur bo'ldi.

Ikkala merosxo'rning ham sohilga tushishdan bosh tortganlari hech kimni ajablantirmadi. Biroq Jildas Tregomen va Jyuel yangi shaharni ko'rish imkoniyatidan foydalanib qoldilar.

Agar, umuman, Tornxeymni tomosha qilishdan sayohatchilarning ko'zlari rohat qilgan bo'lsa, shahar ko'chalariga yotqizilgan xuddi shishadgi o'tkir qirrali toshlardan oyoqlarining abjag'i chiqayozdi.

– Bu mamlakatda etikdo'zlar tez boyib ketsa kerak, – deb qo'ydi Tregomen, oyoq kiyimi tag-charmini avaylashga behuda urinarkan.

Ikkala do'st ham shved qiroli Stokgolmda taxtga o'tirgandan keyin Norvegiya tojini kiyadigan⁴⁷ ibodatxona gumbazlari ostiga kirganlaridagina o'zlarini tekis yerda turgandek his etdilar. Jyuel, garchi bu bino romano-gotik me'morchiligining bir yodgorligi bo'lib, jildni tuzatishlarga muhtoj bo'lsa-da, biroq bu nuqson uning tarixni qimmatiga putur yetkaza olmasligini fahmladi.

Tregomen bilan Jyuel ibodatxonani va uning atrofini o'rab turgan qabristonni bir boshdan, shoshilmay tomosha qilishgach, suv ko'tarilishi va qaytishiga qarab goh to'lib, goh past tushib, butun shaharni suv bilan ta'min etuvchi kengbar Nid qirg'oqlarida sayi etishdi. Baliqfurushlik bozoridagi o'tkir tuz bo'yidan to'yib-to'yib nafas olishdi, darvoqe bu yerning havosi Bergennikidan

⁴⁶ Avliyo Olaf, hayotligida Baqaloq laqabini olgan (XI asr) Norvegiya qiroli ma'jusiylarni ta'qibostiga olib, nasroniy dinini majburan qabul qildirgan. Vafotidan keyin avliyo deb atala boshlagan.

⁴⁷ Norvegiya 1905-yilgacha Shvetsiyaga qaram bo'lgan.

qolishmasdi, ko'k rastasini aylanib chiqishdi (bu yerga sabzavot asosan Angliyadan keltiriladi), nihoyat, Nidning narigi qirg'og'idagi qadimiy qal'a qad ko'targan shahar chekkasiga yetib borishdida, kemaga batamom holdan tolib qaytishdi. O'sha kuni kechqurunoq, Sen-Maloga, Enogatning nomiga yozilgan xat aloqa bo'limiga topshirildi. Bu maktub yoniga Tregomenning bahaybat qo'llari bilan bitilgan katta-katta harfli ikki enlikkina xat ham qo'shib jo'natilgan edi.

Ertasiga tongotar paytida, bir necha yangi sayohatchilarni olivolgan «Viken» langar ko'tarib, shimoliy kengliklar tomon yo'lga tushdi. Hadeb yo'ldagi portlarga kirish hamda son-sanoqsiz to'xtab o'tishlar Antifer tog'aning asabini butunlay ishdan chiqarib qo'ydi. Qutb doirasini bosib o'tishda, dengizchilar udumiga xilof ish tutib, palubada tarang tortilgan arqondan sakrashni rad etdi (Qutb doirasining ramziy timsoli edi bu), Jildas Tregomen esa an'anaviy udumni bajonidil bajardi. Kema shimol tomon ilgarilab borarkan, bahaybat girdobda shovqin solib hayqirib, qaynabko'pirayotgan mashhur Malstrimdan⁴⁸ chetlab o'tdi. Nihoyat g'arb tomonda Lofoten orollari – norvej baliqchilari tez-tez borib turadigan arxnpelagi ko'zga tashlandi va «Viken» 17-iyul kuni Tromsyo portida langar tashladi.

Safar davomida bir kecha-kunduz yigirma to'rt soat bo'lsa, shundai o'n olti soat yomg'ir yog'ib turdi, desak son jihatidan to'g'ri bo'lib chiqadi.

⁴⁸ Malstrim – Lofoten orollari rayyonidagi kema qatnovi uchun g'oyatda xavotirli girdob. Asli tarjimasida: «Telba oqim» demakdir.

Surunkasiga sharros quyib turgan yomg'irni tasavvur etish uchun «yog'di» degan ibora bu manzarani to'la ifodalay olmaydi. Shunga qaramay, bu yog'ingarchilik yo'lovchilarimizga yoqardi. Axir bu haroratning aytarli darajada yuqori ekanidan dalolat berib turardi-da. Yetmish yettinchi parallel tomon ilgarilab borayotgan odamlar hammadan ko'ra ko'proq, arktika sovug'idan qo'rqishi kerak, zero ki bu sovuq safarlarini bag'oyat mushkullashtirib va hatto Shpitsbergenga yaqinlashishlariga yo'l bermasligi mumkin. Yilning shu pallasida, ya'ni iyul oylarida shimol kengliklariga suzishning vaqti o'tib qolgan bo'ladi. Shamolning o'z yo'lini qo'qqisidan o'zgartirishi oqibatida dengiz osti tezda muz qatlami bilan qoplanib qolishi mumkin. Basharti, Antifer tog'a Gammerfestda dastlabki muz tog'lari janubga tomon suza boshlaydigan pallagacha tutilib qolsa, baliqchilar kemasida bu muz tog'lariga qarama-qarshi suzish aqlga to'g'ri kelmasdi.

Bu hol yosh kapitanni tashvishga solib qo'ygandi.

– Bordi-yu dengiz birdan muzlab qolsa nima bo'ladi? – deb so'radi bir kuni Jildas Tregomen undan.

– Agar dengiz muzlab qolsa, Antifer amakim bahorni kutib Nordkapda ishlab qoladi.

– Lekin, chirog'im, millionlarni tashlab ketib bo'lmaydi-da, axir! – deb e'tiroz bildirdi Tregomen.

Ha, Rans bo'ylab suzgan bu sobiq qayiqchi ham boylik qarshisida dosh berolmagandi. Nima ham qilaolardik! Mayumba qo'ltig'idan topilgan olmoslar xayolidan sira nari ketmasdi uning.

Biroq, har qalay, qarshilaridagi istiqbol aytarli darajada ko'ngilli emasdi – Loangoning jazirama issig'ida kabob bo'lib qaytgandan keyin shimoliy Norvegiya muzliklarida sovuqdan muzlab qolishni kim istaydi? Padariga ming la'nat o'sha battol poshshoning!.. O'z xazinasini shunaqangi borib bo'lmas joylarga yashirish fikri xayoliga qayoqdan kelib qoldiykin-a?

«Viken» Tromsyoda bir necha soatgagina to'xtadi: bu yerda yo'lovchilar umrlarida birinchi marta laplandlarni⁴⁹ ko'rdilar. 21-iyul ertalab kema torgina Gammerfest fiordiga kirib keldi.

Yo'lovchilarimiz – Antifer tog'a va bankchi Zambuko, Jildas Tregomen va Jyuel, shuningdek qoqlangan baliqqa o'xshab qolgan Binni Umarlar, nihoyat ana shu yerda kemadan tushishdi. «Viken» ertasiga sayohatchilarni shimoliy Norvegiyaning eng chekka buruni bo'lgan Nordkapga eltishi kerak edi. Biroq Per-Servan-Maloni Nordkap zarracha qiziqtirmasdi. Nahotki o'sha oddiy bir uyum tosh, uni qanchalar mashhur hisoblamasirlar, Shpitsbergen suvlarida yastanib yotgan uchinchi orol bilan bellasha olsa.

Gammerfestda «Nord-Polen-Otel» mehmonxonasi bor ekan, maluin barcha «arkoni davlati» bilan shu yerga tushdi.

Mana, ular odamzot yashaydigan mamlakat chegarasidagi shahardalar. Ikki ming kishidan iborat aholi atrofdagi yog'och uylarda yashaydi: o'ttiz chog'li katolik, qolganlari esa protestantlar. Norvegiyaliklar – go'zal, xushbichim xalq, ayniqsa depgizchilar bilan baliqchilar xushqad bo'lishadi,

⁴⁹ Bu yerda saamlar (loparlar) kuzda tutilgan.

biroq, baxtga qarshi ular kayf-safoga moyilroq. Bu yerlarning tub xalqi bo'lmish laplandlarga kel-sak, ularning bo'ylari past, nihoyatda zaxmatkash va epchil odamlar.

Mehmonxonaga o'rnashgach, biron soatni ham bekor ketkazmaslikka ahd qilgan Antifer tog'a va uning hamrohlari Shpitsbergengacha eltib qo'yadigan birorta kemani izlash uchun portga junashdi.

Zilol suvli daryo kelib quyiladigan, ustida uy hamda magazinlar qad ko'targan estakadalar bilan to'silgan gavanning hamma yeridan atrofladi baliq quritiladigan sushilkalarning qo'lansa isi anqib turardi.

Gammerfest – asosan baliqchilik va baliqchilik mahsulotlarini yetkazib beradigan shahardir. Bu yerning itlari ham, qora moli ham, qo'y hamda echki-uloqlari ham baliq yeydi va bu ajoyib o'lkada baliq ovlovchi yuzlab kemalar haqiqatda iste'mol qilinadiganidan bir necha bor ortiqroq yukni tashmalab ketadilar.

Umuman olganda, doim yomg'ir yog'ib turadigan, yozda kunlari charog'on, uzun, qishda tunlari uzoq va zimiston bo'ladigan Gammerfest o'ziga xos bir shahar edi, bu shaharda ajoyib shimol yog'dusini huzurlanib tomosha qilish mumkin edi.

Antifer tog'a va uning hamrohlari gavanga kiraverishdagi peshtoqi bronza bilan qoplanib, Norvegiya gerbi va globus tasviri chekilgan granit ustunlar yonida to'xtashdi. Bu ustunlar Dunay havzasi va Gammerfest orasidagi meridian yoyni aniqlash bo'yicha qilingan ishlarga yodgorlik sifatida Oskar I⁵⁰ hukmronligi davrida barpo etilgan. Sayohatchilarimiz bu yerdan hutb dengizlarnda

⁵⁰ Oskar I (179-1859) – Shvetsiya hamda Norvegiya qiroli.

baliq ovlovchi turli xil, hamda turli hajmdagi kemalar kelib to'xtaydigan estakadalar tomon yo'l olishdi.

Biroq, kitobxon, fransuzlarimiz qaysi tilda gaplashmoqchi edilar, deb so'rashi mumkin. Ulardan birortasi norveg tilini bilarmidi o'zi? Yo'q, lekin Jyuel ingliz tilini biladi-ku, bu tilni esa barcha dengizchilar bilishadi, shunday ekan, Skandinaviya mamlakatlarida ham undan foydalanish niyatida edilar.

Darhaqiqat, kech kirib ulgurmasdanoq ular (katta pul evaziga, albatta, lekin bunday paytda kim ham pulning yuziga borib o'tiradi) kapitan Olaf boshchiligidagi hajmi yuz tonnalik, «Kroon» deb ataluvchi baliqchilar kemasini yollashga muvaffaq bo'ldilar. Bu kemanding ekipaji o'n bir kishidan iborat edi. Kema sayohatchilarimizni Shpitsbergenga eltib qo'yishi, ular to qidiruv ishlarini bitirgunlaricha o'sha yerda kutib turishi, keyin esa yuklari bilan birga yana Gammerfestga olib qaytishi kerak edi.

Antifer tog'a ishning bunday rivojidan g'oyatda xursand edi. Nazarida omadi yurishib ketgandek edi. Bu orada Jyuel odamlardan, keyingi kunlarda Gammerfestda biror muhojirni uchratmadinglarmi, biror kimsa yaqin orada Shpitsbergenga jo'namadimi, deb so'rab surishtirdi. Ikkala savolga ham, yo'q, degan javob oldi. Shunday qilib, Soukning Komulk poshsho merosxo'rlaridan ilgariroq yo'lga tushgani ehtimoldan yiroq bo'lib chiqdi, basharti u Shpitsbergenga boshqa yo'ldan jo'nmagan bo'lsa, albatta... Lekin bunday bo'lishi dargumon – Antifer tog'a bekorga eng to'g'ri va eng qisqa yo'lni tanlamagan edi, axir!

Kunning qolgan qismini sayr qilib o'tkazdilar. Antifer tog'a va bankchi Zambukoning bu gal albatta maqsadlariga yetajaklariga imonlari komil edi.

Soat o'n birlarga yaqin o'ringa kirganlarida hali kuppa- kunduzgidek yorug' edi; sal-pal qosh qoraydi-yu yana tong yog'dusi bilan almashishdi.

«Kroon» ertalab soat sakkizda janubi-sharqdan esayotgan yengilgina shamolda yelkanlarini yoyib gavandan chiqdi-da, shimol tomonga qarab suza ketdi.

Havo shunday yaxshi bo'lib tursa bu olti yuz milya masofani bosib o'tish uchun besh kun yetardi. Janubga tomon shitob bilan suzib keluvchi muz tog'lariga to'qnashib ketishdan, Shpitsbergen atrofini muz dalalari qoplab olishidan xavotirlanish uchun hech qanaqangi asos yo'q edi. Harorat o'rtacha, mo'tadil bo'lib, hozirgidek shamol esib turgan bir paytda dengizning qo'qqisidan muzlab qolishi aqlga to'g'ri kelmasdi. Qopli bulutlar emas, yomg'ir bulutlari bilan qoplangan kuk gumbazi ham hech qanday xatardan darak bermasdi. Goho-goho bulutlar orasidan Quyosh mo'ralab qo'yardi, buni ko'rgan Jyuel zarur bo'lgan daqiqada nurafshon gardishning jamol ko'rsatajagiga va shunda sekstant bilan quyoshning balandligini o'lchab olib, keyin uchinchi orolning qayerda joylashganini aniqlab olishiga bemalol ishonaverishi mumkip edi.

Omadlari yurishgandan-yurishaverdi, shuning uchun ham Komulk poshsho o'z msrosxo'rlarini yevropaning eng chekka nuqtasiga olib kelib, ularni yana to'rtinchi marta, Shpitsbergendan bir necha ming milya olisga jo'natadi, degan fikr shu topda hech kimning xayoliga ham kelmasdi.

«Kroon» yelkanlarini qappaytirganicha shitob bilan ilgarilab borardi; kapitan Olafning aytishicha, hech qachon safari bunday yengil o'tmagan ekan. Mana, nihoyat 20-iyul kuni tonggi soat to'rtlarda shimol ufqida allaqanday tepaliklar namoyon bo'ldi, ularda muzdan asar ham ko'rinmasdi.

Bu shu atrofdagi suvlarda tez-tez baliq ovlab turadigan Olafga yaxshi ma'lum bo'lgan Shpitsbergen bo'sag'asi edi.

Yigirma yilcha muqaddam bu yerlarga sayohatchilar deyarli qadam bosishmasdi, endilikda esa yer sharining bu burchagi asta-sekin sayohatchilar e'tiborini torta boshlagandi. Hozirgi kunda Nordkappa qandayin bilet sotilsa, Norvegiya hukmronligining bu qismini ziyorat qilishni istagan sayyohlarga bir yo'la borish va qaytish uchun bilet sotiladigan kunlar olisda emas, shubhasiz. Keyinroq esa Shimoliy qutbga ham xuddi ana shunday tarzda sayohat qilish mumkin bo'lib qoladi.

Shu narsa ayonkim, Shpitsbergen saksoninchi parallelgacha cho'zilib boradigan arxipelagdir. U uch oroldan iborat: G'arbiy Shpitsbergen, Ej oroli va Shimoli-Sharqiy yer. Bu arxipelag yer kurrasining qaysi qismiga qarashli – yevropagami yoki Amerikagami? Bu savol sof ilmiy xarakterga egadir va biz bunga javob berishni o'z zimmamizga ololmaymiz. Shu narsani qat'iy ishonch bilan aytishimiz mumkinki, bu yerlarda inglizlar, datlar va ruslar kit hamda kurak oyoqlilarni ovlaydilar. Aytgandek, Komulk poshsho merosxo'rlari uchun bu arxipelagga qaysi millatning da'vogarlik qilishi baribir edi; ular uchun eng muhimi, millionlarni topib olish edi, zeroki vorisdoshlar o'zlarining

jasorat hamda shijoatlari bilan bu mukofotga loyiq zahmat chekkan edilar.

Shpitsbergenning asli ma'nosi «o'tkir cho'qqili tog'lar» demakdir. Nomining o'zi bu tog'larning tik va chiqib bo'lmasligidan dalolat berib turardi. Garchi bu arxipelag 1553-yili ingliz Uilloubi⁵¹ tomonidan kashf etilgan bo'lsa-da, undan keyin kelgan gollandiyalik Barens va Korneliszonlar⁵² shunday nom berishgan bu yerga. Uchala asosiy oroldan tashqari, bu arxipelagga atrofni qurshab olgan ko'plab mayda-chuyda orolchalar ham kirardi.

Xaritadan sharqiy uzunlikning 15° 11' bilan shimoliy kenglikning 77° 19' kesishgan nuqtasini topgach, Jyuel kapitan Olafga G'arbiy Shpitsbergenning janubiy chekkasi tomon suzishni buyurdi.

«Kroon» shitob bilan olg'a suzardi. Muvofiq shamol kemanding eng yuqori tezlikda suzishiga qo'l kelgandi. «Kroon» yer bilan oraliqdagi to'rt yoki besh milya masofani bir soatga bormay bosib o'tib, G'arbiy Shpitsbergenga borib taqalgan mo'jazzgina orolchanning janubiy chekkasidagi burundan uch yuz ellik-to'rt yuz metrcha berida langar tashladi.

⁵¹ Uilloubi Xyu – ingliz sayyohi; Shimoli-Sharqiy dengiz yo'lini izlash uchun 1553-yili safarga chiqqan uch kemadan iborat ekspeditsiyaga boshchilik qilgan; muz ko'chkilari orasida qisilib qolib kema ekipaji bilan birga halok bo'lgan. Uilloubining safdoshi kapitan Chensler Arxangelskkacha yetib borib, Ivan Grozniy bilan savdo bitimi tuzgan.

⁵² Barens Villem (1550–1597) – gollandiyalik dengiz sayyohi. Shimoli-Sharqiy dengiz yo'lini izlab borib. Yangi yergacha borib qoladi va ekipaji bilan birgalikda o'sha yerda qishlaydi; orqaga qaytayotganida halok bo'ladi. Barensning safdoshi Korneliszon Reyp (u boshqa kemaga boshchilik qilgan edi) Shpitsbergen atrofidan orqaga qaytgan.

Soat o'n ikkidan chorak o'tgandi. Antifer tog'a, Zambuko, Binni Umar, Jildas Tregomen va Jyuellar «Kroon»dan tushirilgan qayiqqa o'tirib, burunga qarab suzib ketishdi.

Ularni ko'riboq, chorloq, kayra va boshqa qushlar galalari quloqni qomatga keltirgudek chag'illashib gur-gur ko'tarildi.

Kelgindilarga joy bo'shatishga oshiqqandek, tyulen podalari tiraqaylab nari qochdi, ular qochib borayotib norozilik bildirgandek chaqaloqlarga o'xshab chinqirishardi.

Zambaraklar va bayrog'i bo'lmagani tufayli Antifer tog'a Komulk poshsho tanlagan, bag'rida millionlab boyliklarni saqlayotgan orolchaga o'z mulkiga qadam qo'yayotganini gursillatib odim tashlash bilan e'lon qilgandek bo'ldi.

Shuncha ko'ngilsizliklardan keyin omadi yurishib ketganini qarang-a! Hatto bu qoyalardan iborat son-sanoqsiz orolchalar orasida adashib-uloqib, sarson bo'lib yurishga ham to'g'ri kelmadi.

Xazina izlovchilar to'ppa-to'g'ri yer sharining badavlat misrlik o'z boyliklarini ko'mgan nuqtasida qayiqdan tushishgan edi.

O'z-o'zidan ayonki, orolchada odam yashamadi. Inson bolasi zotidan nom-nishon ham yo'q... Na bunaqangi qutb o'lkalarida yashashga moslashib ketgan biron eskimos ko'rinadi...na ko'z ilg'agan atrof-tevarakda biron-bir kema qorasi ko'zga tashlanadi... Bepoyon Arktika dengizi yalangliklaridan o'zga hech narsa yo'q atrofda.

Antifer tog'a va bankchi Zambuko vujudlarini qamrab olgan hanjonni bosolmay goldilar. Hatto Binni Umarning qaynatilgan sudakning ko'zidek

xira, nursiz ko'zlarida uchqun yiltillab ketdi. Hatto Jildas Tregomenning basharasi ham o'zgarib, sabrsizlik alomatlari namoyon bo'ldi. Xo'sh, nega endi u o'z do'stining baxti chopganidan quvonmasligi kerak?..

Orolida inson zoti bo'lganidan biron nishona yo'qligi merosxo'rlarning quvonchi ustiga quvonch bo'lib tushdi. Mabodo bu yerga yaqin orada biror kimsa kelgan bo'lsa, yomg'irdan yumshab yotgan yerda uning, izi yaxshi saqlanib qolgan bo'lardi. Shunday qilib, bir narsadan, Soukning qonuniy merosxo'rlardan oldinroq yetib kelolmaganiga aslo shubhalanmasa ham bo'lardi. U yo yo'lda qo'lga olingan, yo biron sabab bilan ushlanib qolgan. Har qalay, bordi-yu, u bu yerga Antifer tog'adan keyin yetib kelganida ham ikki qo'lini burniga tiqib qolaveradi.

Ikkinchi hujjatda xazinani orolning janubiy chekkasidan izlash ko'rsatilgan edi. Shuning uchun ham sayohatchilarimiz boshqalariga qaraganda dengizga ko'proq kirib borgan bir to'da qoyalar tomon yurishdi. Bu yaqqol ajralib turgan qoyalar na mox, na qor bilan qoplangan bo'lib, ish ancha yengil ko'chdi.

Basharti omadingiz chopib, baxt qushi qo'lingizdan tutgan ekan, sira ikkilanmay, itoat bilan u yetaklagan tomonga boraverish kerak, xolos... Bu narsa shundan ham ko'rinib turardiki, Per-Servan-Malo to'ppa-to'g'ri arktika dengizlarida suzuvchilar o'zlaridan yodgorlik sifatida qoldirib ketadigan tosh ustunga o'xshagan adl qoya oldiga borib qoldi.

– Shu yerda! Mana shu yerda! – deb qichqirardi tog'a hayajondan nafasi bo'g'ziga tiqilib.

Hammalari yugurib kelib, qoyaga tikila boshlashdi.

Tik qoyaning sirt tomonida Komulk poshshoning ostma-ust qilib qo'yilgan «K» harfidan iborat belgisi ko'rinib turardi. Belgi qoyani shunchalik o'yib yozilgan ediki, hatto keskin shimol iqlimi ham bu harflarni tekislab yuborolmagandi.

Hammalari lol bo'lib qotib qolgandilar. Tan olish kerakki, beshovlari ham – xuddi qahramonning qabri ustida turgandek bosh kiyimlarini qo'llariga olivolgan edilar.

Ha, xuddi shunday, chindan ham, garchi oddiy bir o'ra bo'lsa-da, unga yuz million ko'milgandida, axir. Darvoqe, keling, insoniyatning shonsharafi uchun xuddi shunday edi, deb turib olmay qo'yaqolaylik!

Ishlar yurishib ketdi. Cho'kich va belkuraklar zarb bilan urilgani sari atrofga tosh parchalari uchardi. Har zarba tushganida cho'kich yoki belkurak temir chambarakka borib tegadiganga yoxud bochkachalarning tubini sindirib yuboradiganga o'xshardi...

Haqiqatan ham, Antifer tog'a ishlayotgan cho'kichning uchi ko'p o'tmay allanimaga borib cekkanday bo'ldi.

– Nihoyat-e! – deb qichqirib yubordi u, xazinani berkitib turgan so'nggi toshni o'radan olib tashlayotib.

Biroq, quvonchli xitobdan keyin bir chaqirim naridan eshitilgudek dahshatli o'kirik yangradi.

O'rada xuddi Komulk poshshoning imzosi chekilgan Ummon ko'rfazi va Mayumba qo'ltig'idan topilgan ikkala temir qutichaga o'xshagan qutichadan bo'lak hech nima yo'q edi.

– Yana-ya! – deb qichqirib yubordi Tregomen, qo‘llarini ko‘kka cho‘zib.

Hozirgi vaziyatni bu so‘zdan ortiqroq ifodalab beradigan ibora bo‘lmasa kerak. Ha, ha! Yana! Ular yana safarga... bu gal to‘rtinchi orolni izlagani safarga chiqadigan bo‘ldilar...

G‘azabi qaynab ketgan Antifer tog‘a qo‘lidagi metin bilan qutichani shunday tushirdiki, u paqqa ikkiga ajrab ketdi...

Ichidan sarg‘ayib ketgan, dog‘-dug‘ xat tushdi, aftidan quticha ichiga yomg‘ir va erigan qor silqib o‘tgan ko‘rinadi.

Qutichadan bu gal Tirkomel hazratlariga atalgan olmos chiqmadi, darvoqe u vorisdoshlari singari chiqim qilmagan edi-da! Lekin shunisi ma‘qul: o‘sha mutaassib odamga olmos xayf! Baribir u olmosni nobud qiladi.

Biroq bu gaplarni bir yoqqa qo‘yib, xat xususiga qaytaylik. Oralarida esankiramay o‘zini saqlab qolgan birdan-bir odam – Jyuel uni yerdan oldi-da, ilvirab turgan qog‘oz yana titilib-yirtilib ketmasin deb avaylabgina ochdi.

Antifer tog‘a ko‘kka qarab musht do‘laygancha, Zambuko boshini xam qilgancha, Binni Umar g‘am-alam yelkasidan tegirmon toshiday bosib, ikki bukilganicha, Jildas Tregomen esa butun a‘zoyi badani ko‘z va quloqqa anlangancha turisharkan, og‘izlaridan churq etgan sado chiqmasdi.

Xat bir varaq qog‘ozga yozilgan bo‘lib, uning yuqori qismiga suv ta‘sir etmagandi. Ilgarigi hujjatlardagidek fransuz tilida yozilgan bir necha satr tuzukkina saqlanib qolgandi.

Jyuel uni deyarli tutilmay o‘qiy boshladi:

– «Uch kishi menga katta xizmat ko'rsatishdi, men ularga o'z minnatdorchiligimni izhor etishni istayman. Basharti uchta hujjatni uchta turli orolga ko'mgan ekanman, bundan murodim, shu uch kishining hamkorlikda qilgan safar va sayohatlari mobaynida bir-birlari bilan yaqindan tanishib olishlari hamda ayrilmas do'st bo'lib qolishlaridir...»

(Ha, ha, u, batamom maqsadiga yetdi-da... juda ajoyib odam ekan bu poshsho!)

– «Basharti ularning bu boyliklarni qo'lga kiritgunga qadar bazi muhtojlik hamda mushkulotlarni boshdan kechirishlariga to'g'ri kelgan ekan, har qalay, boyliklarni ular uchun saqlab qolish borasida men boshdan kechirgan qiyinchiliklar qarshisida hech gap emasdir.

Bu uch kimsa: fransuz Antifer, maltalik Zambuko, shotland Tirkomellardir. Ular qazo qilgan taqdirda esa vorislari xuddi ulardek mening boyligimga ega bo'lish huquqiga egadirlar. Shunday qilib, bu qutichani ochib va men vasiy etib tayinlagan Binni Umar hozirligida bu eng so'nggi hujjatning mazmuni bilan tanishib chiqqach, merosxo'rlarni olgin, olmos hamda duru javohirlar solingan uchala bochkachani o'z qo'lim bilan ko'mgan to'rtinchi orolga jo'nayverishlari mumkin».

Antifer tog'a va uning hamrohlari yangidan safarga chiqishlarini eshitib, xafa bo'lib ketgan bo'lsalarda, buni eshitib yengil tin olishdi. Axir bu to'rtinchi orolcha eng so'nggisi edi-da! Endilikda uning qayerda joylashganini bilish qolgandi, xolos.

– «Bu orolchani topish uchun, – o'qishda davom etdi Jyuel, – faqat bir... tortilsa bas...»

Baxtga qarshi, xatning bu quyi qismi mutlaqo ishdan chiqib qolgan, jumla, so'zlarni o'qib bo'lmasdi... ko'plab so'zlar o'chib ketgandi...

Yosh kapitan ularni o'qishga behuda urinardi:

– «Orolcha... geometrik... qonun... joylashgan...»

– Xo'sh, o'qisang-chi axir! – qichqirib yubordi Antifer tog'a tutoqib.

Biroq Jyuel davomini o'qiy olmadi. Xatning quyi qismida faqat ayrim so'zlarigina saqlanib qolgandi. Jyuel ularni bir-biriga ulab, zo'r berib, biron ma'no chiqarishga urinardi. Kenglik va uzunlikni bildiruvchi raqamlardan esa nom-nishon qolmagandi...

Shunda Jyuel jumlanı yana boshdan takror o'qishga tutundi:

– Geometrik... qonun... joylashgan...

Nihoyat u oxirgi «qutb» so'zini bir amallab o'qidi...

– Qutb?.. – xitob qildi u. – Qanaqasi bo'ldi!.. Nima, u bizni Shimoliy qutbga jo'natmoqchimi?..

– Janubiy kutbta jo'natmayotganiga shukur-e! – deb to'ng'illab qo'ydi dovdirab qolgan Tregomen.

Turgan gapki, bu bir afsona edi! Hamma ishning oqibati xuddi shunday tugashini oldindan bilib yurgan edilar-a! Qutbmish-a! Uziyam faqat qutb yetmay turgan edi-da! Shu choqqacha qutbga inson qadami yetmagan-ku, axir!

Antifer tog'a bir sakrashda jiyanining oldiga bordi-yu, qo'lidan hujjatni yulqib oldi-da, o'z navbatida o'qib ko'rishga urinib ko'rdi, biroq qiynala-qiynala yarim o'chib ketgan yana bir necha so'zni o'qishga muvaffaq bo'ldi.

To'rtinchi orolchani qayerda jonlashganini bilib olishning hech qanday.. hech qanaqangi chorasi

qolmagandi... Uni qachon bo'lmasin topishga hech qanday umid qolmadi!

Antifer tog'a bu ishini tamoman boy berganiga qanoat hosil qilgach, xuddi yashin tekkanday turgan yerida guppa quladi.

O'N BESHINCHI BOB

*Enogatning barmoqchasi bilan globusda
doira chizgani va bu beozor o'yinning qanday
oqibatlarga olib borgani*

12-avgust Sen-Maloda, Ot-Sall ko'chasidagi bir xonadonda tantana hukm surardi. Ertalabki o'nlar atrofida uydan talaygina do'stlari va tanish-bilishlar qurshovida nikoh libosidagi kuyov-kelin chiqib kelishdi.

Dastavval ular meriyaga yo'l olishdi, meriyada esa ularni quchoq ochib kutib olishdi, so'ngra cherkovga jo'nashdi. Meriyada kelin-kuyovlarni merining yordamchisi ajoyib so'zlar bilan qutladi, cherkovda esa Tirkomel hazratlari tilga olishni ma'qul ko'radigan mavzulardan biri yuzasidan bag'oyat nazokatli va'zni tinglashdi. Keyin hammalari ikki marosim – grajdanlik hamda cherkov nikohidan o'tgan kelin va kuyovni uyiga kuzatib qo'yishdi.

Kitobxonni shubhaga solib qo'ymaslik uchun to'ppa-to'g'ri aytib qo'yaqolaylik, bu kelin-kuyovlar Enogat bilan Jyuel edi. To to'y bo'lguniga qadar aqlga to'g'ri kedmaydigan qancha qiynchiliklarni boshdan kechirganlari yodingizda bo'lsa kerak, albatta!

Shunday qilib, Jyuel na malikaga, na gersoginyaga, na baronessaga uylandi! Enogat esa

na shahzodaga, na gersogga, na baronga tegdi! Millionlarni qo'lga kiritolmagani sababli Antifer tog'aning orzu-umidlari puchga chiqdi. Biroq, yoshlar bundan o'zlarini kamroq baxtiyor sezmayotirlar, desak yanglishmagan bo'lamiz.

To'ydan manfaatdor bu ikkala shaxsning qanchalik baxtiyor ekanini gapirib o'tirishning hojati ham bo'lmasa kerak. Ulardan tashqari ko'zlarida quvonch uchqunlari porlab turgan yana ikki kimsa bor edi: ulardan biri qizini baxtiyor qila olgan Nanon, ikkinchisi Jildas Tregomen bo'lib, egniga kiyib olgan ajoyib syurtugi, bejirim shimi, boshidagi ipak silindri va qo'lidagi oppoq qo'lqopidan uning kuyov jo'ra ekani ko'rinib turardi.

Juda soz!.. Xo'sh, Per-Servan-Malo Antiferchi? Nega uni tilga olmayotibmiz?

Tog'a haqida va tutqich bsrxtas xazinani izlash mobaynida holdan toylirgan, snra ishlari o'ngidan kelmagan sayohag qatnashchnlarnning hammasi haqida suhbatlashamne, albatga.

Uchinchi oroldan hammaning hafsalasini pir qilib, ko'nglini vayron etgan hujjat topilganidan bir soat o'tgach, sayohatchilar «Kroon»ga qaytishdi. Ataylab orolchaga chaqirilgan matroslar Antifer tog'ani kemaga qo'llarida ko'tarib olib ketishdi.

Antifer tog'aning miyasi bu so'nggi halokatli zarbaga dosh bera olmagandir deb taxmin etish tabiiy emasmikin? Bundan boshqacha o'ylash ham mushkul edi. Garchi Antifer tog'a uchun bu kunidan ko'ra umri tugab qo'ya qolgani ma'qul bo'lsa-da, har qalay, bunday baxti qarolik tog'ani chetlab o'tgandi. Lekin u g'oyatda ezilib ketgan, shunday tushkunlikka tushgandiki, na Jyuel, na Tregomen uni bir og'iz gapirtira olishdi.

Orqaga dengiz hamda quruqlik bo'ylab imkoni boricha zudlik bilan qaytdilar. «Kroon» o'z yo'lovchilarini Gammerfestga, keyin Nordkapdan qaytayotgan aloqa kemasi ularni Bergenga eltib qo'ydi. U paytlarda hali Tronxeym bilan Nasroniya⁵³ oralig'ida temir yo'l yo'q edi, shuning uchun ham Norvegiyaning poytaxtigacha faytonda borishlariga to'g'ri keldi. So'ngra Kopengagengacha kemada va nihoyat Daniya, Germaniya, Gollandiya, Belgiya hamda Fransiya temir yo'llari orqali qaytishdi. Ular avval Parijga, u yerdan esa Sen-Maloga yetib olishdi.

Antifer tog'a bilan bankchi Zambuko bir-birovlaridan nihoyatda norozi bo'lib, Parijda xayr ma'zur qilishdi. Mademuazel Talisma Zambuko, aftidan, bir umrga qari qiz bo'lib qoladigan ko'rinadi endilikda. Yo'q, uni shuncha yillar mobaynida kurashib kelgani bu mushkul ahvoldan xalos etish Per-Servan-Maloga nasib qilmagan ekan. Shubhasiz, Antifer tog'a bankchi Zambuko bilan hisob-kitob qildi, so'nggi safarlaridagi xarajatlarga Zambuko mablag' bergandi, tog'a ana shu xarajatdan o'z hissasiga to'shadiganini batamom to'ladi, bu anchagina pul bo'ldi, albatta! Antifer tog'a olmosini sotdi, uning puli sobiq vorisdoshi bilan hisob-kitob qilishga yetibgina qolmay, balki tog'aning cho'ntagiga ham mo'maygina tushdi. Shunday qilib, bu borada uning hech qanday zorlanadigan joyi ham yo'q edi.

Binni Umarga kelsak, u faqat birgina narsa – tezroq yurtiga jo'nash umidida edi.

– Ana endi qorangiz o'chsin! – dedi Antifer tog'a u bilan xayrlasharkan.

⁵³ Nasroniya – Norvegiyaning poytaxti Osloning ilgarigi nomi.

– Tinch, xotirjamgina yashayversinlar endi!
– deb qo‘shib qo‘ydi Jildas Tregomen tasalli bergandek bir ohangda.

Shundan keyin Binni Umar eng qisqa yo‘l bilan Iskandariya tomon jadallab borarkan, bundan buyon hech kim, hech qachon xazina ortidan quvishga ko‘ndira olmaydi meni, deb tangri taollo haqiga qasamyod etdi.

Ertasi kuniyoq Antifer tog‘a, Jildas Tregomen va Jyuellar Sen-Maloga yetib kelishdi. Yurtdoshlari qanday kutib olishdi ularni? Garchi ba‘zi tili achchiq masxarabozlar bu ishlari o‘ngmagan xazina izlovchilar xuddi telba Jan⁵⁴ga o‘xshab qanday ketgan bo‘lsa, shundayicha ikki qo‘lini burniga tiqib qaytdi, deb mayna qilgan bo‘lsalar-da, ko‘pchilik izzat-ikrom bilan kutib olishdi.

Nanon bilan Enogat o‘z yaqinlariga iloji boricha tasalli berishardi. Ularni mehribonlik bilan kutib olishdi, quchoqlashib ko‘rishishdi... Shunday qilib, Ot-Sall ko‘chasidagi uydagilar yana odatdagidek kun kechira boshladilar.

Antifer tog‘a jiyanlarining hech qaysisiga millionlab sep bera olmagan ekan, ularning nikoh o‘qitishlariga rozilik berishdan o‘zga iloji qolmagandi. U o‘z roziligini quyidagicha izhor etdi:

– Xudo haqqi, bilganlaringizni qilinglar, faqat meni tinch qo‘ysalaring bas!

Shu so‘zlar bilan qanoatlanib qo‘ya qolishga to‘g‘ri keldi. Uydagilar to‘y tadorikini ko‘ra boshladilar. Antifer tog‘a bu ishlarga aslo aralashmadi. Butun vujudini g‘amgin o‘y va istagan paytda sirtga otilib chiqishi mumkin bo‘lgan ichki bir

⁵⁴ Jan – fransuz xalq ertaklaridagi omadsiz, qosh qo‘yaman deb ko‘z chiqaradigan personaj.

g'azab hissi qamrab olgan tog'a, og'zidan trubkasini qo'ymas, deyarli xonasidan tashqari chiqmasdi.

Uni to'y marosimida qatnashishga ko'ndirishning iloji yo'q edi. Unga Jildas Tregomenning iltimoslari ham ta'sir etmadi. Tregomen unga hatto:

– Sen nohaqsan, qariya! – deyishga ham jurat etgandi.

– Qo'yaver, ishing bo'lmasin!

– Bolalarni azobga qo'yding... Iltimos qilaman sendan...

– Utinaman, meni tinch qo'y, qayiqchi!

Nihoyat Enogat bilan Jyuel turmush qurishdi va Ot-Sall ko'chasidagi uyning bir xonasida yashay boshlashdi. Ular ozgina vaqtlarini Nanon bilan birgalikda odamlarning poshshoxoni, umumiy do'stlari Tregomennikida xushvaqtlik bilan o'tkazish uchungina o'z xonalarini tark etdilar.

U yerda ko'proq umidsizlikka tushib qolgani va serzardaligi bilan o'zlarini ranjitayotgan Antifer tog'a haqida gaplashishdi, albatta. U uydan chiqmay, hech kim bilan uchrashmay, hamda hech zog' bilan gaplashmay qo'ydi. Trubkasini og'zidan qo'ymay, har kungi qala devori yoki sohil bo'yini yoqalab sayr qilish odatini ham tark etdi, hammaning og'zida, bunday mag'lubiyatdan keyin odamlarning ko'ziga ko'rinishdan uyalyapti, degan gaplar yurardi, darhaqiqat, aslida ham xuddi shunday edi.

Sog'lig'ing mazasi qochyapti deb qo'rqaman, – derdi Enogat, tog'asi haqida gapirarkan, go'zal nigohi g'amginlik kasb etardi.

– Men ham shunday cho'chiyapman, qizalog'im, – deb javob berardi Nanon, – har kuni xudoga iltijo qilib, Parning ko'ngliga xotirjamlik ato etishini so'rayapman.

Padariga la'nat o'sha poshshoning! – xitob qildi Jyuel. – O'sha millionlari bilan bizning hayotimizga suqulishining nima keragi borakan-a!..

– Buning ustiga bu millionlarni topolmasag-a! – javob berdi Jildas Tregomen. – Har holda... eng oxirgi hujjatni oxirigacha o'qishning iloji bo'lsa edi-ya!..

Bir kuni u Jyuelga shunday dedi:

– Bilasanmi, bo'tam, men nimalar haqida o'ylayapman?

– Nimalar haqida, janob Tregomen?

– Ehtimol, amaking boyliklarning qayerga ko'milganini bilganida, garchi uni hech qachon qo'lga kirita olmaganida ham, bunchalik avzoyi buzilib yurmasmidi.

– Ehtimol, siz haqdirsiz, janob Tregomen, To'rtinchi orolning koordinatlari ko'rsatilgan hujjat qo'lida bo'lsa-yu, uni oxirigacha o'qiyolmasa! Amakimning qonini qaynatayotgan narsa ana shu.

– To'g'ri, bu gal hamma ish bitgan bo'lardi-ya! – javob berdi Tregomen. – Hujjatda bu gap ochiq-oydin aytilgan...

– Amakim uni sira qo'lidan qo'ymaydi, qayta-qayta o'qigani-o'qigan...

– Vaqtni bekor o'tkazishdan boshqa gap emas bu, bo'tam, baxtga qarshi, buning bizga ham kasri uryapti. Komulk poshshoning boyliklari hech qachon topilmaydi ha-ha, hech qachon!

Aftidan, Tregomen haq edi.

Aytganday, to'y o'tgandan bir necha kun keyin anavi muttaham Soukning boshiga qanday ko'rgilik tushgani ayon bo'ldi... Bu yaramasning Shpitsbergenga Antifer tog'a va uning hamrohlaridan ilgariroq yetib borolmaganining sababi, arktika

suvlariga tomon yo'lga chiqay deb turgan kemaga o'tirayotganida Glazgoda qo'lga olinibdi. Tirkomel hazratlariga qilingan, sal bo'lmasa u jonidan judo bo'layozgan jinoyatkorona hamla qanchalik shovshuvga sabab bo'lgani, va'zxonning yelkasidagi mashhur kenglikni bildiruvchi raqamlarning kanday vaziyatda ayon bo'lgani kitobxonning yodidadir. Turgan gapki, Tirkomel hazratlari belgilarini aniq aytib bergach bosqinchini qo'lga tushirish uchun butun Edinburg politsiyasi oyoqqa turg'azilgan va qo'llaridan kelgan hamma choralar ishga solingandi.

Suiqasddan keyin Souk, hatto «Qirol mehmonxonasi»ga kirmay, to'ppa-to'g'ri Glazgoga boradigan kemani topish niyatida edi. Antifer tog'aga o'xshab Shotlandiyaning sharqiy sohilidan yo'lga chiqish o'rniga u, aksincha, g'arb tomondan bormoqchi bo'ldi. Bu ikkala yo'lning olisligi deyarli baravar edi, shuning uchun ham u ko'zlagan manzilga Komulk poshshoning qonuniy merosxo'rlaridan oldinroq yetib olish umidida edi.

Biroq, omadi yurishmay, Glazgoda zarur kemani bir hafta kutib qoldi, shunday qilib, insoniyat odil sudi baxtiga, kemaga chiqayotgan paytida uni tanib qolishdi. O'sha zahotiyoq qo'lga olinib, bir necha yil qamoqqa hukm etildi. Shunday qilib, u hatto sayohatga chiqib, chiqimdor ham bo'lmadi. Darvoqe, Shpitsbergenga yetib borganida ham uning uchun buning hech qanday nafi yo'q edi.

Ummon ko'rfazidagi dastlabki tekshiruv ishidan to Shimoliy-Muz okeanidagi so'nggi izlash ishlarigacha bo'lgan voqea-hodisalar zanjiridan oddiy bir xulosa kelib chiqardi: Boyliklar Komulk poshsho shoshqaloqlik qilib ishonib topshirgan noma'lum orolda asrning oxirigacha ko'milganicha

yetaveradigan bo'ldi. Rost, voqealarning xuddi ana shunday tugashidan quvongan, hatto tangriga hamdu sano o'qiydigan odam ham boriydi. Biz Tirkomel hazratlari haqida gapiryapmiz. Bordi-yu, Komulk poshshoning boyliklari irodasiz insoniyat mulkiga aylanib qolsa, bu foniyl dunyodagi gunohlar ustiga, har bir gunohni bir frankdan hisoblansa, million-millionlab gunohlar qo'shilgan bo'lardi-da!

Kunlar ketidan kunlar o'taverdi. Tog'aning ayanchli ahvoli tashvishga solmaganida, Enogat bilan Jyuel baxtiyor hayot nashidasini surgan, undan to'liq bahramand bo'lgan bo'larmidilar. Bundan tashqari, yosh kapitan sevimli xotini, oilasi va do'stlaridan judolashadigan soatlar yaqinlashib kelayotganini o'ylarkan, qalbini g'ussa qamrab olardi. «Beyif va K°» savdo xonadoni uchun uch machtali kema qurish ishi jadallik bilan borardi, bu kemanding kapitan yordamchisi lavozimi Jyuelga atalganini kitobxon yaxshi biladi. Uning yoshidagi yigit uchun ajoyib martaba edi bu! Atigi olti oydan keyin u Hindistonga jo'naydi.

Jyuel bu haqda Enogat bilan tez-tez suhbatlashib turardi. Yaqin kunlarda hijron damlari boshlanajagini o'ylarkan, yosh kelinchak o'zini baxtsiz his etardi. Biroq, dengizchi xotining qismati shunaqa, dengizchilar oilasida boshqacha bo'lishi mumkin ham emas-da axir! Enogat nega qayg'urayotganining asli sababini bildirmaslikni istar va Antifer tog'ani o'ylab, iztirob chekyapman, deb ishontirmoqchi bo'lardi... Jyuel uchun esa amakisini shunday ahvolda tashlab ketish og'ir edi... Kim biladi deysiz, uni yana hayot ko'radimi, yo'qmi?

Shu kunlarda Jyuelning xayoli hamisha oxirigacha o'qishning iloji bo'lmagan hujjat, uning

mujmal satrlari bilan band edi. Ha, xuddi shunday! Bu satrlar shubhasiz, qandaydir bir jumlaning boshlanishi edi, aynan shu narsa unga tinchlik bermasdi...

Bu jumla shunday boshlanardi: «Faqat... o'tkazilsa bas... O'tkazilsa... Nima o'tkazilsa?

Keyin quyidagi so'zlar yozilgandi: «orolcha... geometrik... qonun... joylashgan... qutb...»

Gap qanaqangi geometrik qonun haqida boryapti o'zi?.. Bu orolchalar o'rtasida biron muayyan aloqa yo'qmikin? Nahotki poshsho bu orollarni tasodifan emas, balki maxsus bir niyat bilan tanlagan bo'lsa? Nahotki, uni bir xayol avval Ummon ko'rfaziga, keyin Mayumba qo'ltig'iga hamda Shpitsbergenga eltmagan bo'lsa? Matematik iste'dodga ega bo'lgan (bu ayon edi hammalariga) badavlat misrlik ularning oldilariga biron masalani yechishni qo'ymaganmikin?

Balki, u «qutb» deganda yerning geografik qutbini ko'zda tutgandir, deb taxmin qilish mumkindir? Yo'q, yo'q, yuz karra yo'q!.. Yo'qsa u nima demoqchi bo'lgan bu bilan?

Jyuel bu jumboqni yechish uchun qanchalik bosh qotirmasin, bari urinishlari zoe ketardi.

«Qutb... qutb... hamma sir shunda...», – deb takrorlardi u ichida.

U Tregomen bilan shu haqda tez-tez suhbatlashardi. Tregomen uning bu jumboqni yechishga bo'lgan urinishlarini astoyidil ma'qullardi, chunki endilikda millionlarning chindan ham mavjud ekaniga aslo shubha qilmasdi.

– Ammo-lekin, bo'tam – derdi u shunday paytlarda, – yechaman deb sog'liqni yo'qotganingga arzimaydi bu jubmoq...

– Eh, janob Tregomen, axir men o‘zim uchun tirishayotganim yo‘q-ku. Bu boylikka nisbatan qanday munosabatda ekanimni o‘zingiz yaxshi bilasiz-ku, axir! Amakimni deb shunday qilyapman...

– Ha, amakingni deb, Jyuel! Unga qanchalik og‘ir ekanini tushunaman... o‘sha hujjat qo‘lida bo‘lsa... uni o‘z ko‘zlari bilan ko‘rib tursa-yu... qo‘lidan hech nima kelmasa-ya. Xo‘sh, qalay, hali izini topganingcha yo‘qmi?

– Yo‘q, janob Tregomen, Pekin unda «geometrik» degan so‘z bor, hujjatda allaqanday geometrik aloqaning borligi bekordan-bekorga aytnilmagan... keyin... «o‘tkazilsa bas...» deyilgan. Xo‘sh, nimani o‘tkaziladi?

– Ha, xuddi shunday... nimani... – deb takrorladi Tregomen ham.

– Ayniqsa «qutb» iborasini aytmaysizmi? Uning, qaysi ma’noda ishlatilganiga sira aqlim yetmayapti.

– Afsus, ming bora afsuskim, bo‘tam, bu borada hech narsani tushunmayman-da!... Bo‘lmasa seni to‘ppa-to‘g‘ri yo‘lga solib yuborgan bo‘lardim-da!

Oradan ikki oy o‘tdi. Antifer tog‘aning ruhiy ezilishida o‘zgarish bo‘lmadi, jumboqni yechish ishi ham bir qadam bo‘lsa-da olg‘a siljigani yo‘q.

Kunlardan birida, 15-oktabrda Enogat bilan Jyuel nonushtani kutib o‘z xonalarida o‘tirishgan edi. Ancha sovuq tushib qolgan, kaminda gurillab o‘t yonardi.

Ular qo‘l ushlashgancha, indamay bir-birlariga tikilib o‘tirishardi.

Jyuelning nimadandir tashvishlanayotgani sezgan yosh kelinchak erining parishonligini tarqatishga ahd qildi.

– Jyuel, – dedi u, – men sendan tez-tez xat olib turardim va qayta-qayta o'qiyverardim... Bu yashshamagur sayohat qancha-qancha azob-uqubatlarga solmadi bizni!.. Sening hamma xatlaringni ehtiyotlab saqlab qo'yibman.

– Bu xatlar eng qayg'uli kunlarimizni yodga soladi, jonginam.

– Ha... Shunday bo'lsa ham ularni asrab qo'yaman!.. Lekin xatlaringda sayohatlaring batafsil yozilmagan, men esa hamma – hammasini bilgim keladi! Jyuel, baraka top, shu bugunoq hammasini, nimalarni boshdan kechirganinglarni gapirib ber.

– Nima keragi bor?

– Bundan men huzur qilaman. Nazarimda sen bilan birga kemada, poyezdda, karvonda sayohat qilayotgandek bo'laman!..

– Jonginam, buning uchun xarita bo'lishi kerak. Ana unda yurgan yo'llarimizni qadam-baqadam ko'rsatib beraman.

– Shoshma! Mana globus. Shuning o'zi yetmaydimi?..

– Juda yetadi-da.

Enogat Jyuelning stolidagi metall oyoqli globusni olib. kamin yonidagi stolga qo'ydi.

Jyuel buning Enogatga qanchalik huzur baxsh etajagini ko'rib, xotining yoniga kelib o'tirdi-da, globusdan Sen-Maloni topib:

– Shundan qilib, yo'lga tushdik bo'lmasa! – dedi.

Ularning globusga engashgan boshlari bir-biriga tegib turardi, sayohatchilarimiz bosib o'tgan yo'ldan borayotib yosh kelin-kuyovlar ba'zida bo'sa olisharkan, buning hech qanday taajjublanadigan joyi yo'q edi.

Jyuel bir sakrashda Fransiyadan Misrga o'tib, Antifer tog'a o'z hamrohlari bilan to'xtagan Suenda bir nafas ushlanib qoldi. Keyin u barmog'i bilan Qizil dengiz, Arabiston dengizi bo'ylab borib, Ummon ko'rfaziga kirdi-da. Maskatda to'xtadi.

– Shunday qilib, shu yer Maskat ekan-da, – dedi Enogat, – birinchi orolcha qayerdadir, yaqin atrofda bo'lsa kerag-a?

– Ha, Sohildan sal narida, ko'rfazda.

Keyin, globusni aylantirgancha. Jyuel Antifer tog'a bankchi Zambuko bilan uchrashgan Tunisgacha keldida. O'rtayer dengizi bo'ylab borib, Dakarda to'xtadi, so'ngra ekvatorni kesib o'tdi-da. Afrika sohillarini yoqalab borib, Mayumba qo'ltig'iga yetdi.

– Ikkinchi orolcha shu yerdami? – deb so'radi Enogat.

– Xuddi shundoq, jonginam.

Bu yerdan Afrikani yoqalab borib, yevropani bosib o'tib, Tirkomel hazratlari bilan kelishilgan Edinburgga borishdi. So'ngra yosh kelin-kuyovlar shimol sari yo'l olishdi va nihoyat barmoqlari giyoh unmas Shpitsbergen qoyalariga borib to'xtadi.

– Uchinchi orolchani ham topdikmi? – deb so'radi Enogat.

– Ha, jonginam, bizni eng katta baxtsizlik kutib turgan uchinchi orolcha, umuman olganda, bularning bari ahmoqona bir qaltis ish bo'lib chiqdi.

Enogag jimgina globusga tikilib qoldi...

– Komulk poshsho birin-ketin... aynan shu uchta orolchani nega tanladiykin? – deb so'radi u.

– Ana shunisini bilmayapmiz-da, hech qachon bilolmaymiz ham, albatta!

– Hech qachon-a?

– Shunday bo‘lsa-da, bu uchala orolcha o‘zaro qandaydir geometrik nisbat bilan bog‘lanishi kerak. Bu eng keyingi hujjatdan ma‘lum. Bundan tashqari, unda «qutb» degan so‘z ham bor, ana shu so‘z menga sira tinchlik bermayapti...

Jyuel miyasidan sira nari ketmayotgan savollarga javob berayotgandek, yana o‘yga toldi... Shu topda u bor aqlini jamlab, bu g‘oyatda qiyin masalani yechmoqqa ahd qilgandek ko‘rinardi.

Bu orada Enogat globusni oldiga yaqinroq surib, barmog‘ini Jyuel ko‘rsatib bergan chiziqdan yurgiza boshladi. Avval uning ko‘rsatgich barmog‘i Maskatda, keyin yoy sifatida aylanib borib Mayumba qo‘ltig‘ida to‘xtab, turdi-da, so‘ngra yana bir karra qiyshiq yo‘l chiqib, Shpitsbergen tomon yuqoriga ko‘tarilib bordi, nihoyat to‘liq aylana hosil qilib, safarga chiqilgan nuqtaga qaytdi.

– Menga qara, – dedi Enogat kulib, – aylana hosil bo‘lyapti... Sizlar aylana bo‘ylab sayohat qilibsizlar.

– Aylana bo‘ylab?

– Ha, jonginam, aylana bo‘ylab.

– Aylana bo‘ylab degin-a! – deb xitob qildi Jyuel.

U o‘rnidan turib, xonada bir necha qadam yurdi.

– Aylana... aylana!.. – deb takrorlardi u nuqul.

Keyin u stol tomon o‘girilib, globusni oldida, o‘z navbatida barmog‘i bilan bosib o‘tilgan yo‘l bo‘ylab yurgazib chiqdi va birdan telbalardek qichqirib yubordi.

Enogat unga dahshat bilan tikilib qoldi. U aqldan ozibdi!.. U ham... tog‘amga o‘xshab a!.. Enogat shak-shaq qaltirar, ko‘zlarida yosh miltirardi.

Jyuel yana qichqira boshladi;

– Topdim... topdim!..

– Nimani?

– To'rtinchi orolchani!

Ha, yosh kapitan chindan ham aqldan ozganga o'xshaydi... To'rtinchi orolchani topdim deydimi?.. Bunday bo'lishi mumkin emas-ku!

– Janob Tregomen... janob Tregomen! – deb qo'shnisini chaqirdi Jyuel derazani ochib...

Keyin xuddi qandaydir savol berayotgandek globus tomonga yuzlandi. Shu topda uni shu karton shar bilan gaplashyapti deb o'ylash mumkin edi.

Oradan biron daqiqa o'tmayoq xonaga Jildas Tregomen kirib keldi, yosh kapitan uning bo'yniga osilib:

– Topdim! – dedi.

Nimani topding, bo'tam?

– Men geometrnk nisbatni topdim, bu uchala orolchanning o'zaro qanday bog'langanini tushundim, shunday qilib, to'rtinchi orolchanning qayerdaligini ham bilaman!

– Nimalar deyapsan o'zi?! – xitob qildi Jildas Tregomen.

Jyuel, shu topda o'zini yo'qotib qo'ygan, ko'zlari alang-jalang boqardiki, Jildas Tregomen, xuddi Enogatga o'xshab, yosh kapitan aqldan ozib qolgan bo'lmasin tag'in, deb o'yladi.

– Yo'q, yo'q, – dedi Jyuel Tregomenning xijolat, chekayotganini payqab, – yo'q, aqlim joyida! Quloq soling!..

– Qulog'im senda!

– Uchala orolchamiz bir aylana chiziq bo'ylab joylashgan. Shunday ekan, ular bir tekislik yuzasida yog'ibdi deylik: har ikki oroli tutashtiradigan ikkita

to'g'ri chiziq o'tkazaylik – hujjatda aytilgandek to'g'ri chiziq «o'tkazilsa bas» – keyin har ikkala to'g'ri chiziqdan markazga tomon perpendikulyar o'tkazamiz... Bu ikkala perpendikulyar doiraning markazida kesishadi, turtinchi orolcha albatta ana shu markaziy nuqtada, ya'ni gap sharining qabariq bir parchasi haqida borayotgani sababli «qutb»da joylashgan bo'lishi kerak!

Komulk poshshoning Zo bilan kelishib bu oddiy geometrik masalani amalda qo'llaganini kitobxon tushunib turibdi... Bunday xulosa Jyuelning xayoliga ilgariroq kelmaganining sababining uchala orolchaning bir aylananing uch nuqtasida turganiga e'tibor bermagani edi.

Bu jo'ngina masalani yechishda Enogatning tasodifan globusda doira bo'ylab harakat qilgan jajji barmog'i ish bergandi...

– Bunday bo'lishi mumkin emas! – deya takrorladi Jildas Tregomen.

– Yo'q xuddi shunday, janob Tregomen! Mana, bir ko'ring-a, o'zingiz ham qanoat hosil qilasiz bunga.

Shunday deb Jyuel globusni Tregomenning oldiga qo'ydi-da, uchala orol joylashgan yer bo'ylab barmog'i bilan doira chizdi. Bu aylana Komulk poshshoning tanlab olishi uchun katta imkoniyatlar beradigan qunidagi nuqtalardan o'tardi: Maskat, Bobul-mandib bo'g'ozi, Ekvator, Mayumba, Yashil burun orollari, Raka tropikasi, Grenlandiyadagi Farvel buruni, G'arbiy Shpitsbergan oroli, Admiralteys orollari, Karsk dengizi, Sibirdagi Tobolsk, erondagi Hirot. Shunday qilib, basharti Jyuel haq bo'lsa, unda to'rtinchi orolcha ana shu doiraning qoq markazida bo'lishi kerak, chunki

planga olingan doira uchun nimaiki to'g'ri bo'lsa, markazi qutbsimon qabariq shar bo'lagi uchun ham mos keladi.

Jildas Tregomen hayratdan lol qolgandi. O'zini tamoman yo'qotib qo'ygan yosh kapitan xonada u yoqdan-bu yoqqa yurar, goh globusni bag'riga bosar, goh Enogatning bu turli ranglar bilan chaplangan yumaloq kartondan ming bor afzalroq, olmaday tarang yonoqlaridan o'par va shunday deb takrorlardi.

– Buni Enogat topdi, janob Tregomen... U bo'lmaganida bunaqangi fikr miyamga ikki dunyoda kelmasdi!..

Jyuelning bunchalar quvonchga to'lganini ko'rgan Tregomenning zavqi jo'shib, sevinchi ichiga sig'may ketdi. U avval bir, keyin ikkinchi marotaba irg'ishlab qo'ydi... Keyin viqor bilan qo'llarini chalishtirib, u yonboshidan-bu yonboshiga tobora qattiqroq chayqalib irg'ishlay boshladi. Ransda suzib yurgan damlarida «Go'zal Ameliya» va hatgo sho'x fillarni ortib olgan «Portalegri» ham bunchalik chayqalmagandi. Nihoyat momaqaldiroq ovozi bilan Per-Servan-Maloning qo'shig'ini boshlab yubordi:

Ko'zimdadir uz, uz, uz,

Qo'limdadir un, un, un.

Ko'limdadir lik, lik, lik.

Uzunlik!

Uzunlik!

Uzunlik!

Nihoyat do'stlar tinchlanishdi.

– Tog'amga ham aytish kerak, – dedi Enogat.

– Tog'amga aytish kerak deysanmi? – qaytarib so'radi Tregomen, bu taklifdan sal xijolat bo'lib.

– Avval o‘ylab ko‘rish kerak, – javob berdi Jyuel.

Nanonni chaqirib, hamma gapni unga ikki og‘iz so‘z bilan tushuntirishdi. Jyuelning, buni ukangizta aytsakmikin, yo‘qmikin, degan savoliga keksa bretonka mana bunday javob berdi:

– Undan hech nimani yashirmasligimiz kerak.

– Yana umidi puchga chiqadigan bo‘lsa-chi, – deb quydi Enogat, – bunga bardosh bera olarmikan sho‘rlik tog‘am?

– Umidi puchga chiqsa! – xitob qildi Tregomen.

– Yo‘q, yo‘q, bu gal unday bo‘lmaydi!..

– Eng so‘nggi hujjatda boyliklarning xuddi ana shu to‘rtinchi orolchaga ko‘milgani ochiq-oydin aytilgan, – qo‘shib qo‘ydi Jyuel, – to‘rtinchi orolcha esa biz chizgan aylananing markazida joylashgan, bu gal shundayligiga qattiq ishonaman...

– Bo‘lmasa ukamni hoziroq chaqiraman, – dedi Nanon.

Bir daqiqadan so‘ng Antifer tog‘a Jyuelning xonasiga kirib keldi, u qatracha o‘zgarmagan, boyagi-boyagidek kayg‘uga botgan, qarashlari alang-jalang, chehrasi g‘amnok, tund edi.

– Nima gap?

Uning dag‘dag‘ali so‘z ohangida esankirash alomatlari aks etib, jo‘shib kelayotgan g‘azabini arang bosib turganini payqash qiyin emasdi.

Jyuel nima gap bo‘lganini, uchala orolcha orasidagi geometrik bog‘lanishni qanday topganlarini va to‘rtinchi orolchanning nima sababdan aynan shu doiraning markazida bo‘lishi kerakligini so‘zlab berdi.

Xonadagilarni hayratda qoldirib, Antifer tog‘a bu axborotni xotirjamgina tingladi. Hatto qoshlari ham chimirilmadi. Bu yangilikni tog‘a oldindan kutayotgan ekan, shuning uchun ham bu hol unga

tasodif emas, balki negadir mutlaqo tabiiy bir narsadek bo'lib tuyuldi, deb o'ylash muchkin edi. U faqat Jyueladan:

– O'sha markaziy nuqta qayerdaykin? – deb so'radi... xolos.

Darhahiqat, bag'oyat o'rinli savol edi bu.

Jyuel globusni stolning o'rtasiga qo'ydi. Xuddi tekis sathda ish olib bormoqchiday, qo'liga pargar hamda egiluvchan chizg'ichni olib, Maskat bilan Mayumbani bir chiziq bilan tutashtirdi, keyin Mayumba bilan Shpitsbergenni birlashtiradigan ikkinchi chiziqni o'tkazdi. Bu har ikkala chiziqning qoq o'rtasidan ikkita perpendikulyar o'tkazgan edi, ular doiraning markazida kesishli.

Doiraning markazi O'rtayer dengizida, Pantelleriya oroli yaqinidagi Sitsiliya bilan Bon buruni oralig'iga to'g'ri keldi.

– Mana shu yerda, amaki... shu yerda! – dedi Jyuel.

U meridian bilan parallelni aniq o'lchab, ishonch bilan bunday dedi:

– Shimoliy kenglikning o'ttiz yetti daraja-yu yigirma olti daqiqasi va Parij meridianidan sharq tomondan uzunlikning o'n daraja-yu o'ttiz uch daqiqasi.

– Lekin u yerda biror orolcha bormikan? – deb so'radi Jildas Tregomen.

– Bo'lishi kerak! – javob berdi Jyuel.

– U yerda biror orolcha bormikin deysanmi?.. Sira shubhalanmaslik kerak, qayiqchi, – dedi Antifer tog'a, – ha, ha, shubhalanishning hojati yo'q, u bor!.. Eh! Ming million, milliard, boringki, son-sanoqsiz falokatlar ustiga xuddi shunisi yetmay turuvdi-da o'ziyam!

Bu toki la'natni u shunday dahshatli ovoz bilan bukirib aytdiki, deraza oynalari zirillab ketdi, keyin Enogatning xonasidan otilib chiqib, o'z xonasiga kirib eshikni qulflab oldi. Shu kuni uni boshqa ko'rishmadi.

O'N OLTINCHI BOB

*Bizdan keyin bir necha asrlar o'tgach
yashayajak evara-chevaralarimizga murojaat*

Modomiki sobiq sohil yoqalab qatnovchi kema kapitani tamoman aqldan ozmagan ekan, unda bag'rida Komulk poshshoning boyligini saqlab turgan to'rtinchi orolchaning haqiqiy joylashgan yeri aniqlangan bir daqiqada o'zini bunday g'alati tutganini qanday tushunsa bo'ladi?

Keyingi kunlarda allaqanday tushunib bo'lmas o'zgarish yuz berdi: Per-Ssrvan-Malo eski odatlariga qaytdi, yana trubkasini og'zidan qo'ymay qala devori hamda sohil buyini yoqalab sayr qiladigan bo'ldi. Biroq bu endilikda avvalgi Antifer emasdi, lablaridan istehzoli kulgu arimasdi. U Komulk poshshoning xazinasini xayoliga ham keltirishga izn bermasdi, hatto qilgan sayohatlarini esga ham olmas, hamda ko'pdan kutilgan millionlar qo'lga kiritilishi mumkin bo'lgan yangi ekspeditsiya haqida og'iz ham ochmasdi.

Jildas Tregomen, Nanon, Enogat va Jyuellar nima qilishni bilishmasdi. Daqiqa sayin Antifer tog'aning «Qani ketdik!» – degan xitobini kutishardi hammalari, biroq uning yangi safarga chiqishni xayoliga ham keltirmayotgani o'z-o'zidan ko'rinib turardi.

– Unga nima bo‘ldiykin? – deb so‘radi Nanon.
– Xuddi uni almashtirib qo‘yganga o‘xshaydi-ya! – dedi Jyuel.

– Ehtimol uni madmuazel Talisma Zambukoga o‘ylanish haqidagi fikr cho‘chitayotgandir? – deb qo‘ydi Tregomen. – Eh, baribir emasmi unga!.. Millionlab boylikning bekordan-bekor nobud bo‘lishiga yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi-ku, axir!

Ikkala oshnaning qarashlari qanchalik o‘zgarib ketganini qarang-a! Antifer tog‘a bilan Jildas Tregomen almashtirib qo‘yilganmi, deb o‘ylaysan kishi. Endilikda oltin xirsi, Antifer tog‘ani emas, balki Tregomenning vujudini qamrab olgan edi. Darvoqe, so‘nggisi to‘la mantiqan mulohaza yuritardi. Bu qanaqasi bo‘ldi, orolchani topishga hech qanday ishonch bo‘lmagan bir paytda, uni izlagani oshiqilsa-yu, endilikda uning qayerda joylashgani aniq-taniq aniqlanganda yo‘lga tushish haqida biron og‘iz ham gap bo‘lmasa-ya!..

Tregomen Jyuelga doim shu haqda gapirardi.

– Bizga nima keragi bor buning? – deb javob berardi yosh kapitan.

Shunda Tregomen Nanonga murojaat qilardi.

– Qurib ketsin o‘sha boylik!.. Menga desa bir umr qolib ketmaydimi o‘sha yerda!

Keyin u Enogatga gapirardi:

– Menga qara, qizaloq, sening cho‘ntagingda o‘ttiz uch million jaranglab turardi-ya!..

– Bundan ko‘ra o‘ttiz uch bo‘sani istamaydilar, janob Tregomen?..

Nihoyat o‘sha mashhur manzara sodir bo‘lgandan keyin o‘n besh kun o‘tgach bu haqda Antifer tog‘a bilan gaplashishga qaror berdi.

– Anavi... haligi.. orolcha nima bo‘ldi?..

– Qaysi orolcha, qayiqchi?

– O'rtayer dengizidagi orolchani aytayapman!..
Axir, u haqiqatan ham mavjo'd emasmi?

– Mavjud emasmikin, deysanmi, qayiqchi?
Uning mavjudligiga sening yoki o'zimning mavjudligimizdan ko'ra qo'proq ishonaman!

– Nega bo'lmasa o'sha yoqqa jo'namayapmiz?

– O'sha yoqqa jo'namayapmiz, deysanmi, chuchuk suvda so'zadigan dengizchi?.. To qo'ltig'imizdan suzgich o'sib chiqquncha kutib tura turamiz!

Bu bilan nima demoqchi bo'ldi u? Jildas Tregomen bu borada har qancha bosh qotirmasin, hech nimaga tushunolmadi. Shunda ham tinchlanmadi u. Axir bu o'ttiz uch million unga emas, yoshlarga zarur-da... Basharti sevishganlar o'zlarining kelajaklari haqida o'ylamas ekanlar, yoshlar gohida u g'amxo'rlik qilmasa, kim qiladi axir!

Xullasi kalom, hammalariga tinchlik bermagach bir kuni Antifer tog'a unga shunday dedi:

– Demak, yo'lga chiqishni endi sen talab qilipsanmi?

– Ha, xuddi shunday, qariya.

– Seningcha, borishimiz kerakmi u yoqqa?

– Borishimiz kerak... qanchalik tez bo'lsa, shunchalik yaxshi!

– Juda soz. Borganimiz bo'lsin!

Biroq uning bu oxirgi ikki so'zini qanday ohangda aytganini asti qo'yaverasiz!

Safarga chiqishdan avval bankchi Zambuko bilan notarius Binni Umar xususida bir qarorga kelinishi lozim edi. Vorisdosh hamda vasiy sifatida birinchidan ularni to'rtinchi orolchanning qayerdaligini aniqlanganidan ogohlantirish, ikkin-

chidan, birini merosdan o'z ulushini, ikkinchisining esa boylikning yuzdan bir foyizini olish uchun ma'lum kuni ma'lum orolga yetib kelishlarini xabar qilish kerak edi.

Antifer tog'a vasiyatnoma shartlariga to'liq amal qilish kerak deb turib oldi, bu borada hatto Tregomen ham ip esholmay qoldi... Tunis pa Iskandariyaga, har ikkala manfaatdor shaxs nomiga telegramma yuborildi. Unda 23-oktabr kuni Sitsiliyaning Agrijento shahrida uchrashishlari va o'sha yerdan boyliklarni olib kelgani to'rtinchi orolchaga jo'nashlari xabar qilingan edi.

Tirkomel hazratlari xususiga kelganda, uning ulushi o'z vaqtida jo'natiladi, basharti boylik qo'lini kuydirgudek bo'lsa, istagan paytida o'z millionlarini bemalol Fert-of-Fort ko'rfaziga tashlab yuborishi mumkin!

Souk haqida-yu gap ham bo'lishi mumkin emasdi, albatta. Unga hech vaqo tegmaydi. Bundan tashqart, qilmishiga yarasha Edinburg turmasining bir kishilik xonasida bir necha yil qamalib yotishga hukm etilgandi.

Jildas Tregomenning bu sayohatda albatta qatnashishni istayotgani hech kimni taajjublantirmadi. Aksincha, basharti Jyuel Enogatni o'zi bilan birga olib ketmaganida ajablanarli hol bo'lardi. To'ylariga ikki oy o'tar-o'tmas xotinini tashlab ketishi mahol edi, buning ustiga Enogat ham uyda qolishni istamasdi...

Bu yangi sayohat qancha vaqt davoim etarkin? Turgan gapki, ko'pga cho'zilmaydi. Ko'zlangan manzilga borishadi-yu, yana uyga qaytishadi. Nega deganingizda, beshinchi hujjatni qidirishmaydida, axir. Komulk poshsho shundan ham uzayib

ketgan orollar zanjiriga yana bitta yangi halqani qo'shmaydi, bunga hech qanday shubha yo'q. Eng so'ngi xatda boylikning to'rtinchi orolchadagi qoyalardan birining etagiga ko'milgani ochiq-oydin aytilgan, orolchaning Sitsiliya bilan Pantelleriya oroli oralig'ida joylashgani esa matematik aniqlik bilan hisoblab chiqilgan edi.

– Aftidan, bu g'oyatda mo'jazzina orolcha bo'lsa kerak, negaki, u xaritada ko'rsatilmagan, – dedi Jyuel.

– Ehtimol, – javob berdi Antifer tog'a miyng'ida jilmayib.

Uning nimaga istehzo bilan jilmayib qo'yganini anglash qiyin edi, albatta...

Avval eng tez yo'l bosadigan vositadan, boshqacha aytganda temir yo'ldan foydalanishga ahd qilishdi. Sen-Malodan boshlangan temir yo'l butun Fransiya va Italiya bo'ylab o'tib, Neapolgacha yetib borardi. Gap o'ttiz millionni qo'lga kiritish ustida borarkan, yo'l xarajatlari haqida xasislik qilib o'tirish o'rinsiz edi.

Nanon dastlab yo'lga chiqadigan poyezdga bilet olgan sayohatchilarni 16-oktabr kuni erta-lab kuzatib qoldi. Sayohatchilarimiz hatto Parijda ham hech tutilmay, Parij-Lion ekspressidan joy olishdi, keyin Fransiya – Italiya chegarasini kesib o'tishdi, ular na Milanda, na Florensiya va na Rimda to'xtamay, 20-oktabr kechqurun Neapolga yetib borishdi. Bu yangi sayohatning muvaffaqiyat bilan tugashiga Jildas Tregomen qanchalik ishonsa, yuz soat mobaynida muttasil yo'l bosgan vagonning bir maromda silkinishidan shunchalik iztirob chekkan edi.

O ertasi kuni «Viktoriya» mehmonxonasini tark etgan Antifer tog'a, Jildas Tregomen, Jyuel va Enogatlar Palermoga yo'l olgan kemaga o'tirishdi. Bir kunlik ajoyib safardan keyin Sitsiliyaning markaziga yetib borishdi. Lekin, ular Palermo mo'jizalarini tomosha qilishmoqchi ekan, deb xayolingizga keltira ko'rmang aslo! Bu so'nggi sayohat paytidagi go'zal manzaralardan yengilyelpi bo'lsa-da, xotirotlar olib kelish niyati hatto Jildas Tregomenda ham yo'q edi. U tarifini eshitgan Sitsiliyaning mashhur oqshomgi ibodatini⁵⁵ tinglashga hatto intilmadi ham. Shu topda Palermo uning ko'zlariga vaqti-vaqti bilan normanlar, fransuzlar, ispanlar, inglizlar qo'liga o'tib turgan dong'i ketgan shahar bo'lib ko'rinmasdi... Uning nazdida bu shahar hozir haftasiga ikki marta aloqa karetalari hamda dilijonlar jo'naydigan oddiy bekatdan bir gap edi. Dilijon bu yerdan ertalab soat to'qqizda jo'nardi, soat o'n ikkida esa u Korleondan Agrijentoga tomon yo'l olardi.

Agrijento sayohatchilarimizni hammadan ko'ra ko'proq qiziqtirardi, chunki Sitsiliyaning janubida joylashgan bu kadimiy shaharda bankchi Zambuko va notarius Binni Umar bilan uchrashishlari kerak edi.

Ehtimol, bunday yo'l bosish usuli ko'ngilsiz hodisa hamda xunuk tasodiflar bilan bog'liqdir? Aloqa yo'llari hamma yerda, hamma vaqt osoyishta bo'lavermaydiku, axir. Buning ustiga Sitsiliyada qaroqchilar bor, ular hamisha bo'ladilar. Ular bu yerda zaytun daraxti yoki aloe kabi chuqur ildiz otib ketgan.

⁵⁵ Sitsiliya oqshomgi ibodati – 1282-yili Palermoda oqshomgi ibodatlardan qarshi ko'tarilgan quzg'olon. Ana shu voqea xotirasiga Palermoda oqshomgi ibodatni Sitsiliya oqshomgi ibodati deb yuritishadi.

Qanday bo'lmasin, dilijon ertasiga yo'lga tushdi va safar bexatar o'tdi. 20-oktabr kuni kechqurun Agrijentoga kirib kelishdi. Garchi sayohatchilar ko'zlangan manzilga yetib borishmagan bo'lsa-da, har qalay unga yaqinlashib qolishgan edi...

Bankchi va notarius, biri – Iskandariyadan, ikkinchisi – Tunisdan, belgilangan uchrashuvga kechikmay yetib kelingandi. Oltinga bo'lgan ochko'zlik odamlarni nimalarga undamaydi deysiz!

Ikkala merosxo'r uchrasharkanlar, quyidagi so'zlar bilan kifoyalanib qo'ya qolishdi:

– Bu safar orolni topishga imoningiz komilmi?

– Imonim komil.

Biroq Antifer tog'a bu so'zlarni qanday zaharxandalik bilan aytganini va bankchiga istehzo bilan qandayin nigoh tashlab qo'rganini bir ko'rsangiz edi!

Agrijentoga boradigan birorga yelkanli kemani topishdan oson ish yo'q edi. Bu yerda baliqchilar kemalari, aloqa, yuk tashuvchi-xullas O'rtayer dengizi flotining turli xillari tirband bo'ladi hamisha.

Darvoqe, hozir gap kichikkina sayohat – sohildan g'arb tomonga qirq milya suziladigan dengiz sayohati haqida borardi. Kechki muvofiq shamolda yo'lga chiqilsa, ertasiga peshingacha ko'zlangan yerga bimalol yetib olsa bo'lardi.

Kema yollashdi ham. Uning nomi «Providensa» edi.

Bu yarim asr shu suvlarda suzgan, keksa, ustasi farang dengizchi boshqaruvidagi hajmi taxminan o'ttiz tonna keladigan kema edi. Bu kapitan kemani Sitsiliyadan Maltagacha, Maltadan Tunis sohillarigacha ko'zini yumib ham boshqara olardi.

– Uni qiladigan ishimnz bilan tanishtirib o'tirishning hech qanday hojatn yo'q.

– Jyuel Tregomenning bu oqilona maslahatiga qo'ndi.

Kema egasining ismi-sharifi Jakopo Grappa bo'lib, shu kunlarda omad Komulk poshshoning merosxo'rlariga kulib boqqani shundan ham ko'rinib turardiki, Kakopo Grappa garchand buzib bo'lsa-da, har qalay fransuzchalab odam tushunadigan darajada gaplasha olarkan.

Bundan tashqari, yana bir yutuqlari, ha, ha, omadlari chopganidan, dalolat beruvchi yana bir ajoyib yutuqlari bor edi. Shu kunlarda oktabr oyi yetib kelgan, ya'ni ob-havo har damda aynab turadigan, dengiz quturib ko'k betini bulutlar qoplab oladigan palla edi. Biroq hozir dengiz osoyishta, ob-havo ham g'oyat-a soz edi. Rost, sovuq kishi badanini chimdiy boshlgandi, lekin havo quruq bo'lib, quruqlikdan mayin shamol esib turardi. «Provedensa» bepoyon dengiz bag'riga suzib chiqqan ana shunday tulin oy Sitsiliyaning osmono'par tog'larini sutdek oydin bilan chulg'agandi.

Japoko Grappning ixtiyorida kema ishlariga nihoyatda moslashgan besh nafargina matros bor edi, xolos. Bu yengilgina kema tep-tekis suv yalangligi uzra shitob bilan suzib borardi. Dengiz shu topda shunday osoyishta ediki, hatto Binni Umardek odam ham dengiz kasalidan zarracha asorat sezmadi. Taqdir hech qachon dengizda unga bunchalik kulib boqmagan edi.

Tun osoyishta o'tdi, tonggi shafaq ajoyib kundan darak berardi.

Bu Per-Servan-Malo juda ajoyib odam-da o'ziyam! Og'zida trubka, ikki qo'lini cho'ntaklariga solganicha, mutlaqo beparvo bir qiyofada, paluba bo'ylab xotirjamgina sayr qilib yurardi. Butun vujudini hayajon qoplab olgan Jildas Tregomen esa unga tikilib turib, ko'zlariga ishonmasdi. U kema tumshug'iga joylashib olgandi. Yonida bir-biridan aslo ajralmas Enogat bilan Jyuel o'tirardi. Yosh kelinchak bu maftunkor safar nashidasini surardi. Eh, qani endi u qismat tasodifan qayerlarga uloqtirmasin, hamma yerda eri bilan birga bo'lsa!

Vaqtı-vaqtı bilan Jyuel kema yo'lini tekshirib ko'rgani, ya'ni «Provedensa» g'arbg'a tomon suzayotganiga yana bir karra ishonch hosil qilmoq uchun dorg'a yoniga borardi. U tezlikni hisoblab ko'rarkan, kema soat o'n birlarda ko'pdan kutilgan orol yoniga yetib borsa kerak, degan umidda edi. Keyin u Enogatning oldiga qaytarkan, har gal Jildas Tregomenning quyidagi nasihatini tinglardi:

– Hadeb xotining bilan o'ralashverma, Jyuel, mundoq ishimizni ham o'ylagin-da!

Tregomen endilikda «bizning ishimiz» deydigan bo'lib qolgandi. O, bu oq ko'ngil, olijanob odamning qanchalar o'zgarib qolganini qarang-a! Axir Tregomen ular, bolalar haqida o'ylayapti-da!

Soat o'n bo'ldi, hech qanday yerning qorasi ko'rinmaydi. Darhaqiqat, O'rtayer dengizining bu qismi, ya'ni Sitsiliya bilan Bon buruni oralig'ida bittagina katta orol – Pantelleriya bor, xolos. Darvoqe, sayohatchilarimiz katta orolni emas, balki bir parchagina orolchani izlashayotgandi; biroq chor atrofda bunday kichkinagina orolchadan esa nom-nishon ko'rinmasdi...

Bankchi bilan notarius Antifer tog'aga savolomuz tikilisharkan, bulutdan quyuq, ko'm-ko'k tamaki tutuni orasidan uning chaqnab turgan ko'zlari va istehzo-la iljayayotganini arang ilg'ay olishardi.

Jakopo Grappa kemandi nima sababdan albatta shu tarafga borishi zarur ekaniga sira tushunolmasdi. Nahotki uning yo'lovchilari Tunis sohillariga borishmoqchi bo'lsa? Umuman olganda bu bilan uning nima ishi bor. G'arb tomonga olib borayotgani uchun unga haq to'lashadi, yana tuzukkina, shunday ekan, to yo'lni o'zgartirishni buyurmaganlaricha o'sha yoqqa qarab ketaveradi.

– Demak, – dedi u Jyuelga, – hamma vaqt yo'l g'arbgaga ketaveradimi?

– Ha.

– Va vene!⁵⁶

– Bene⁵⁷ suza boshladi.

Soat o'ndan o'n besh daqiqa o'tganda Jyuel sekstantni qo'lga olib, dastlabki kuzatishni bajardi. Shu topda kema shimoliy kenglikning 37°30' hamda sharqiy uzunlikning 10°33' da suzib borayotgan ekan.

Jyuel bu ishni bajarayotganida Antifer tog'a unga ko'z qirini tashlab, ko'zini qisib qo'yardi.

– Xo'sh, qalay, Jyuel?..

– Amaki, xuddi o'zimizga kerak uzunlikda turibmiz, endi janub tomonga qarab bir necha mil suzsak bas!

– Suzaver, jiyancha, suzaver. Menimcha, suzishimizning chegarasi ko'rinmaydi!..

⁵⁶ Hammasi joyida (*ital.*).

⁵⁷ Yaxshi (*ital.*).

Olamdan o'tgan, hozir yashab turgan va kelajakda yashaydigan – xullasi barcha maluinlar ichida eng g'aroyibi bo'lgan bu odamning yuqorida aytganlaridan aqalli biror so'zini tushunib ko'ring-chi!

Kema Pantelleriyaga yaqinlashish maqsadida chap tomonga burildi.

Keksa xo'jayin ko'zlarini qisib, lablarini qimtiganiha hech nimaga tushunolmay hayron bo'lib turardi. Jildas Tregomen yonida turgani sababli italyan undan ohistagina bu yerdan nimani izlayotganini so'radi.

– Shu yerda yo'qotgan dastro'molimizni! – deb javob berdi Tregomen.

Tabiatan qancha olijanob bo'lmasin, g'azabi qo'ziy boshlagan odam ana shunday javob beradi odatda.

– Va vene sinor!

Soat chorakam o'n ikki. Hamon biror quruqlik parchasidan nom-nishon ko'rinmaydi. Bu orada esa «Providensa» allaqachon to'rtinchi orolcha bo'lishi kerak bo'lgan joyga yetib kelgandi...

Biroq ko'z o'nglarida bepoyon dengizdan bo'lak hech vaqo yo'q edi...

Jyuel o'ng biqindagi qanotdan machtaning eng tepasiga chiqdi. Bu yerdan o'n ikki-o'n besh milya atrofdagi ufq ko'zga tashlanib turardi...

Boyagi-boyagidek hech narsadan darak yo'q...

U palubaga tushganda Zambuko notarius bilan uning yoniga kelib, tashvishli ohangda so'radi:

– To'rtinchi orolcha ko'rinadimi?..

– Yo'q, ko'rinmadi!

– Hisob kitobning to'g'riligiga ishonasanmi o'zi? – deb qo'ydi Antifer tog'a istehzoli ohangda.

– Ishonish ham gapmi, amaki!

Antifer tog'a o'ra ustiga engashdi, boshi ko'rinmay qoldi, uning qo'llari zo'r berib o'ra tagini timirskilardi...

Keyin u boshini ko'tardi, ko'zlariga qon quyilib ketgandi...

Qo'lida hajmi bir kub detsimetr keladigan temir quti.

Hammalari bu topildiqqa hafsalalari pir bo'lib tikilib qolishdi. Shunda Jildas Tregomen shubhasiz, hammaning fikrini bayon etuvchi so'zni aytib yubordi:

– Agar shuning ichida yuz million bo'lsa jin ursin!

– Ovozingni o'chir! – deb o'shqirdi Antifer tog'a.

U oxirgi tosh parchalarini uloqtirib, yana o'rani timirskilay boshladi.

Ortiqcha urinish befoyda edi... U yerda misrlik ustiga ostma-ust qilib ikki «K» harfini o'ydirib belgi qo'ygan temir qutida bir bo'lak hech vaqo yo'q edi.

Nahotki Antifer tog'a va uning hamrohlari behudadan-behudaga shuncha azob-uqubatlarni tortgan bo'lsalar! Nahotki bir qallobning hazili tufayli shuncha olis yo'lni bosib o'tgan bo'lsalar?

Rostini aytganda, Jyuel amakisining ayanchli chehrasini ko'rib turmaganida jilmaymoqchi edi. Amakisining ko'zlari telbalarnikiday bema'no javdirar, og'zi ochilib qolgan, tomog'idan allaqanday tushunib bo'lmaydigan tovushlar chiqardi...

Jildas Tregomen keyinchalik, hammadan ham o'sha onda do'stim turgan yerida til tortmay o'lib qoladimi deb qo'rqqandim, deb gapirib yurdi.

Biroq Antifer tog'a birdan o'rnidan turib, metinini qo'liga oldi-da, jon-jahdi bilan urib qutini ikki bo'lib yubordi... Qutidagi allaqanday qog'oz yerga tushdi.

Bu vaqt o'tishi bilan sarg'ayib ketgan xat bo'lib, undagi fransuz tilida yozilgan bir necha satr yozuvni o'qish mushkul emasdi.

Antifer tog'a bu qog'ozni jon holatda changallab oldi. Binni Umar bilan Soukning eshitib turganini, hamda balki o'z foydasi uchun sir saqlashi lozim bo'lgan narsani fosh etib qo'yishini ham unutib, xatning birinchi satrini ovozi titrab o'qiy boshladi:

– «Ushbu hujjatda Tomas Antifer yoxud u vafot etgan taqdirda uning bevosita merosxo'ri bankchi Zambukoga yetkazishi lozim bo'lgan ikkinchi orol joylashgan uzunlik ko'rsatilgan. Bu bankchi...»

Antifer tog'a shartta o'qishdan to'xtab, o'zining ehtiyotsiz, vaysaqi og'zini mushti bilan berkitdi.

Souk biron nojo'ya harakat bilan noroziligini fosh qilib qo'yishdan o'zini tiyib qola oldi. Yana bir nechagina so'zni o'qiganida – hammasini bilib olardi: o'sha ikkinchi orol joylashgan uzunlikni ham, bankchi Zambukoning qaysi mamlakatda yashashini ham. Bu ikkinchi orolning qaysi kenglikda joylashganini ko'rsatuvchi raqamlar xatda nomi aytilgan o'sha bankchida bo'lsa kerak.

Soukka o'xshab butun umid-orzulari puchga chiqqan notarius og'zi ochilgancha angrayib turarkan, shu topda oldidagi suv solingan tovoq olib qo'yilgan va chanqoqlikdan jon berayotgan itdek uning tili osilib qolgandi.

Antifer tog'a mushti bilan og'zini berkitib, xatni o'qishni bas qilgach esa, Komulk poshshoning niyatini bilishga haddi bo'lgan Binni Umar harqalay qaddini rostlab, so'radi:

– Xo'sh, haligi... O'sha Zambuko degan bankchi... qayerda turarkan o'zi?

– O'z uyida! – deb javob berdi Antifer tog'a.

Shunday deb u qog'ozni buklab, cho'ntagiga tiqdi. Binni Umar esa qo'lini iltijo bilan nochor ko'kka cho'zgancha qolaverdi.

Shunday qilib, xazina Ummon ko'rfazidagi bu orolda emas ekan. Bu sayohatning oqibati Antifer tog'aning yangi bir kimsa – bankchi Zambuko bilan munosabat o'rnatishi lozim ekanligi haqidagi taklif bilan tugadi.

Ehtimol, u bir vaqtlar ko'rsatgan xizmatlari uchun Komulk poshsho taqdirlamoqchi bo'lgan ikkinchi merosxo'rdir?.. Ehtimol, maluin faqat bir o'zimga vasiyat qilingan deb o'ylab yurgan xazinani u bilan bo'lashishi lozimdir? Shunday bo'lishi ehtimoldan xoli emas. Bundan quyidagi mantiqiy xulosa chiqardi: endi Antifer tog'aning hamyoniga yuz million emas, balki, ellik million tushadi.

Jyuel bu boylik ham sevimli Enogatga uylanishiga amakisining rozilik berishi uchun ko'plik qilishini o'ylarkan, g'amga tolib, boshini quyi soldi...

Jildas Tregomen esa go'yo: «Agar qo'lingizga kirsas, ellik million ham katta mukofot», demoqchi bo'layotganday iljayib turardi.

Shuni ham aytib o'tish lozimki, Jyuel Antifer tog'aning miyasidan qanday fikrlar kechayotganini,

vaziyatni chamalab ko'rib, quyidagi qarorga kelganini aniq payqab turardi:

«Xo'sh, nima qipti... farqi shuki, Enogat endi shahzodaga tegmasa, gersogga tega qolar, Jyuel esa malikaga bo'lmasa, gersoginyaga uylana qolar, shunga ham ota go'ri qozixonami!..»

MUNDARIJA

BIRINCHI QISM

Birinchi bob.....	3
Ikkinchi bob.....	17
Uchinchi bob.....	31
To'rtinchi bob.....	43
Beshinchi bob.....	58
Oltinchi bob.....	76
Yettinchi bob.....	92
Sakkizinchi bob.....	108
To'qqizinchi bob.....	126
O'ninchi bob.....	146
O'n birinchi bob.....	164
O'n ikkinchi bob.....	181
O'n uchinchi bob.....	199
O'n to'rtinchi bob.....	216
O'n beshinchi bob.....	231
O'n oltinchi bob.....	247

Adabiy-badiiy nashr

JYUL VERN

**ANTIFER TOG'ANING
AJOYIB VA G'AROYIB
SARGUZASHTLARI**

Roman

Birinchi kitob

Muharrir

S. BADALBOYEVA

Badiiy muharrir

S. MUSAMEDOV

Sahifalovchi

N. MAMADALIYEV

Tex. muharrir

A. G'ULOMOV

Litsenziya raqami: AI № 182. 08.12.2010 da berilgan.

Bichimi 84x108 1 32.

Bosma tobog'i 8,25. Shartli bosma tobog'i 13,86.

Garnitura «PeterburgUz». Ofset qog'ozi.

Adadi 5 000 nusxa. Buyurtma №08.

Bahosi kelishilgan narxda.

«Yoshlar nigohi» xususiy korxonasida tayyorlandi.

Nashriyot manzili:

Toshkent, O'qchi ko'chasi, 109-uy.

«ADAD PLYUS» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: 100097, Toshkent, Bunyodkor ko'chasi, 28-uy.

«АДАБИЁТ УЧҚУНЛАРИ»
НАШРИЁТИ ТОМОНИДАН ҚУЙИДАГИ
КИТОБЛАР ЧОП ЭТИЛДИ



DAHSHAT

Abdulla Qahhor



BEMOR

Abdulla Qahhor



ANOR

Abdulla Qahhor



MATLUBA

Odil Yoqubov

The background of the cover is a dark, atmospheric illustration. On the left, a man with a beard, wearing a dark jacket over a light shirt and dark trousers, stands on a rocky outcrop. He holds a long, thin staff or cane. To his right, a bright crescent moon hangs in the dark sky, with two white birds flying nearby. The sky is filled with swirling clouds and a bright, glowing light source, possibly the sun or moon, creating a dramatic silhouette effect. The overall color palette is dominated by dark blues, purples, and blacks, with highlights from the light source and the white birds and moon.

**ANTIFER TOG'ANING
AJOYIB VA G'AROYIB
SARGUZASHTLARI**

Jyul Vern

ISBN 978-9943-987-19-7



9 789943 987197